

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

S. H. NOSIRXO'JAYEV, M. F. LAFASOV,
S. A'ZAMXO'JAYEVA

MA'NAVIYAT ASOSLARI

*Akademik litsey va kasb-hunar
kollejlari uchun darslik*

*To'ldirilgan va qayta ishlangan
beshinchi nashr*

TOSHKENT
«TURON-IQBOL»
2016

UO‘K: 94(4/9)
KBK 71.04
N 80

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi markazi Ilmiy-metodik kengashi
tomonidan kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar uchun
darslik sifatida tavsiya etilgan.

Guruh rahbari: O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, tarix fanlari
doktori, professor
S. H. Nosirxo‘jayev.

Mas‘ul muharrir: falsafa fanlari doktori, professor
Q. Xonazarov.

Taqrizchilar: filologiya fanlari doktori, professor **N. Komilov**;
pedagogika fanlari doktori **M. Quronov**;
Toshkent arxitektura-qurilish instituti qoshidagi aka-
demik litsey o‘qituvchisi, tarix fanlari nomzodi, dotsent
A. Tojiboyev.

Prezident Islom Karimovning «Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch»
kitobi asosida qayta ishlangan va to‘ldirilgan ushbu darslikda «Ma‘naviyat
asoslari» fanining maqsad va vazifalari, yosh avlodni milliy va umum-
bashariy qadriyatlar ruhida zamonaviy tafakkur hamda dunyoqarash egalari
etib tarbiyalashdagi ahamiyati, ma‘naviyatning inson hayotidagi beqiyos
o‘rni va ta‘siri, ma‘naviy meros va qadriyatlar, din va ma‘naviyat, islom dini
ta‘limotida barkamol inson masalasi; jamiyatning siyosiy hayoti, ma‘-
naviyat, mafkura va ma‘rifat — shaxs ma‘naviyatining asosiy mezonlari
ekanligi; oila ma‘naviyati, mahalla, shaxs ma‘naviyatining nafosat bilan
munosabati, marosimlarning ma‘naviy tarbiyadagi ahamiyati va Marka-
ziy Osiyo xalqlari ma‘naviyati yoritilgan.

Darslik akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun
mo‘ljallangan. Unda ma‘naviyat sohasiga qiziquvchi ilmiy xodimlar va
boshqa mutaxassislar ham foydalanishlari mumkin.

KIRISH

Mustaqil respublikamizning bugungi ma'rifiy va ma'naviy hayotida asrlarga teng sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Milliy an'analarimiz va asriy qadriyatlarimiz tiklanmoqda, ularning hayotimizdagi o'rni yanada mustahkamlanmoqda. Jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirish rivojlanishning o'ziga xos yo'lidan borayotgan mamlakatimiz taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligini bugun yaqqol ko'rib turibmiz. Zero, fuqarolarni milliy istiqloq g'oyasi va mafkurasi ruhida tarbiyalashda ma'naviyatning roli beqiyos ekanligi hammaga ma'lum.

Kuchli, qudratli davlat kuchli ma'naviyat zamirida vujudga keladi. Mustaqillik qo'lga kiritilgan dastlabki kunlardanoq, ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosimiz, milliy qadriyatlarimizni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Natijada, xalqimiz o'z taqdirining chinakam egasi, o'z tarixining ijodkori, o'ziga xos milliy qadriyatlarning, madaniyatning sohibi sifatida tan olindi. Qisqa vaqt ichida jamiyatimizning barcha sohalarida, shu jumladan, ma'naviy-madaniy sohada ham ko'zga ko'rinarli o'zgarishlar amalga oshirildi. Eng quvonarlisi shundaki, tarixiy, milliy va axloqiy qadriyatlar hamda an'analarning, muqaddas dinimizning jamiyatni ma'naviy yuksaltirishdagi o'rni va ahamiyati qayta tiklandi.

Mamlakatimizda xalqimiz ma'naviyatini tiklashda Prezidentimiz Islom Karimovning roli katta. Yurtboshimizning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari», «Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori», «Jamiyatimiz mafkurasi xalqni — xalq,

millatni — millat qilishga xizmat etsin», «Milliy istiqloq mafkurasi — xalq eʼtiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir», «Maʼnaviy yuksalish yoʻlida» «Oʻzbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari», «Oʻzbekiston XXI asrga intilmoqda», «Maktab — taraqqiyot, madaniyat va saodat kaliti», «Tinchlik va xavfsizligimiz oʻz kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qatʼiy irodamizga bogʻliq», «Inson, uning huquq va erkinliklari — oliy qadriyat», «Inson xotirasi — muqaddas, inson qadri — ulugʻ» va boshqa asarlarida zamonaviy milliy maʼnaviyatimiz asoslari ishlab chiqilgan. Ayni paytda Prezidentimizning «Yuksak maʼnaviyat — yengilmas kuch» asarining chop etilishi hayotimizda katta voqea boʻldi. Bu asarlarda milliy maʼnaviy tiklanish va maʼnaviyatni rivojlantirish gʻoyalari asoslangan, maʼnaviyat tushunchasiga taʼrif berilgan.

Xalqimiz tobora oʻzligini anglab, mustaqillik poydevorini mustahkamlamoqda. Maʼnaviy yuksalish borasida qoʻlga kiritilgan yutuqlar bilan bir qatorda oʻz yechimini kutib turgan muammolar ham bor. Har bir davlatning istiqboli, xalqning farovon, osoyishta hayoti, uning ertangi kuni, kelajagi boʻlmish yosh avlod, umidli oʻgʻil-qizlari bilan bevosita bogʻliqdir. Shuning uchun ham «Oʻzbekiston — kelajagi buyuk davlat» degan ibora zamirida, avvalambor, eʼtiborni yoshlarga qaratish va ularga barcha imkoniyatlarni yaratib berishdek masʼuliyat yotadi. «Yuksak maʼnaviyat — yengilmas kuch» asarida aytilganidek, «Ota-onalar, ustoz-murabbiylar, bu masalada hushyorlikni yoʻqotmasligimiz, yoshlar tarbiyasida aslo beparvo boʻlmasligimiz zarur». Albatta bu borada yangicha yoʻnalishdagi darsliklarning ahamiyati juda kattadir.

Mustaqil mamlakatimizning oliy va oʻrta maxsus oʻquv yurtlarida «Maʼnaviyat asoslari» fanini oʻqitish yoʻlga qoʻyilganiga ancha vaqt boʻldi. 1997-yilda bu fan «Maʼnaviyat va maʼrifat asoslari» nomi bilan kiritilgan edi. Oʻtgan davrda mazkur fanning maqsadi va vazifalari xususida muayyan tasavvur hosil boʻldi, uning samaradorligini oshirish yuzasidan uslubiy pedagogik qarashlar tizimi shakllandi. Oʻzbekiston Respublikasining «Taʼlim toʻgʻrisida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ga muvofiq, bu yoʻnalishdagi saʼy-harakatlarni yanada faollashtirish talab etiladi. Chunki xalqaro andozalardagi bu hujjatlar taʼlim tizimi zimmasiga dunyo ilm-fani yutuqlaridan yaxshi xabardor,

xalqimiz nomidan jahon miqyosida baralla soʻz ayta oluvchi, Oʻzbekiston shaʼnini ulugʻlashga qodir farzandlarni kamol top-tirishdek gʻoyat masʼuliyatli vazifa yuklamoqda.

«Maʼnaviyat asoslari» fanidan akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun 1999-yilda tayyorlangan oʻquv dasturi sinovdan oʻtkazildi. Ushbu dastur asosida dolzarb vazifani amalga oshirish yoʻlida 2002-yilda ilk bor «Maʼnaviyat asoslari» oʻquv qoʻllanmasi tayyorlandi. Oʻquv dasturi 2003-yilda uzviylashtirilgan holda takomillashtirildi. Joylardan tushgan takliflar inobatga olinib, oʻquv qoʻllanma darslikka aylantirildi. Darslik Sharq, xususan, Markaziy Osiyo ilm-fani rivojlanishi tarixiga oid manbalar, Prezident Islom Karimovning asarlari, maʼruzalari, nutqlari hamda ushbu mavzu boʻyicha bildirgan fikrlari asosida tayyorlandi va ular atroflicha tahlil qilindi.

Mustaqillik yillari fuqarolar hayotida va dunyoqarashida tub burilishlar davri boʻldi. Jamiyatimiz butunlay yangi qiyofa, yangicha mazmun kasb etmoqda. Odamlarning, ayniqsa, yoshlarimizning turmush tarzi oʻzgarmoqda. Endi hamma gap shu qisqa davr ichida qoʻlga kiritilgan yutuqlarni asrab-avaylashda. Hozirgi kunda erkin fuqaro maʼnaviyatini, milliy gʻoyaga sodiq, ozod shaxsni shakllantirish, Prezidentimiz «Oʻzbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida taʼkidlaganidek, oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir. «Biz oʻz haq-huquqlarini taniydigan, oʻz kuchi, imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir boʻlayotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlarini bilan uygʻun holda koʻradigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak»,— deb taʼkidlaganliklari oʻrinlidir.

Mamlakatimizning akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tayyorlanayotgan mutaxassislarni faqat kasb-kor nuqtayi nazaridan emas, balki ularning dunyoqarashi, maʼnaviyati, tafakkuri, mafkuraviy-siyosiy yetukligi, axloqiy barkamolligi va ijtimoiy faoliyati jihatlarini ham hisobga olgan holda shakllantirish gʻoyat muhim vazifadir. Bu borada masʼuliyat oʻqituvchilar zimmasiga tushadi.

Oʻquv dasturi oʻtgan yillar tajribasi asosida bir guruh mutaxassislar tomonidan 2010-yilga kelib optimallashtirildi.

Ilgʻor fikrlar, zamonaviy muammolar darslikda hisobga olinib, maqsad va vazifalar belgilandi.

«Ma'naviyat asoslari» fanining maqsadi – o'quvchilarni yuksak ma'naviyatli shaxslar qilib yetishtirish, ularning qalbi va ongiga milliy istiqlol g'oyalarini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini singdirish, ularni ma'naviy merosiga va Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashdan iborat.

«Ma'naviyat asoslari» fanining asosiy vazifalari:

– fanning predmeti, ta'rifi va tarkibiy qismlari haqida bilim berish;

– I.A. Karimovning ma'naviyat haqidagi g'oyalarini singdirish;

– ma'naviy meros, qadriyatlar, diniy axloqdan tarbiyada foydalanish;

– jamiyatning iqtisodiy, siyosiy hayoti ma'naviyat bilan bog'liq ekanligini tushuntirish;

– ekologik ahvol, bilim olish va kasb-hunar egallash, oila, mahalla, marosimlar haqida bilim berish va ulardan tarbiyada foydalanish;

– Globalizm sharoitida ma'naviy tahdidlarga qarshi kurash yo'llarini o'rgatish.

Darslikda kamchiliklar, ba'zi xatolarga yo'l qo'yilgan bo'lishi tabiiy. Darslik haqidagi o'z tanqidiy fikr va mulohazalarini yo'l-lagan kishilarga mualliflar oldindan o'z minnatdorchiliklarini bildiradilar va ulardan darslikning navbatdagi nashrida foydalanadilar. Fikr va mulohazalar quyidagi manzilga yuborilishi mumkin:

*100100, Toshkent shahri, Chimboy-2 ko'chasi, 96-uy.
O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi.*

***I bob.* MA'NAVIYATNING RIVOJLANISHI VA UNING JAMIYAT IQTISODIY, SIYOSIY HAYOTIDAGI O'RNI**

1-§. «MA'NAVIYAT ASOSLARI» FANINING PREDMETI, TA'RIFI HAMDA TARKIBIY QISMLARI

**«Ma'naviyat
asoslari» fanining
predmeti**

O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi davrida ma'naviyat va ma'rifat, milliy istiqlol g'oyasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Prezidenti

Islom Karimov qator asarlari va ma'ruzalarida ma'naviyat masalasiga keng to'xtalib, uning mohiyatini ochib bergan. 1994-yilda Yurtboshimiz asarlaridan olingan iqtiboslar asosida «Istiqlol va ma'naviyat», 1998-yilda «Ma'naviy yuksalish yo'lida» to'plamlari chop etildi. Yurtboshimizning birgina: «Ma'naviyat insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir, u yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi»,— degan so'zlari tom-tom kitoblarning ma'nosini beradi. Prezidentimiz asarlarida hozirgi eng muhim, eng dolzarb vazifalardan biri jamiyatimiz a'zolarini, avvalambor, yosh avlodni kamol toptirish, uning qalbida milliy g'oya, milliy mafkura, o'z vataniga mehr-sadoqat tuyg'usini uyg'otish, o'zligini anglash, uni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iborat ekanligi ta'kidlanadi. O'zbekistonda bu masalaga nima uchun katta ahamiyat berilayotgani shu so'zlardan ko'rinib turibdi. Prezidentimizning 2001-yil 18-yanvardagi «Milliy istiqlol g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani bo'yicha ta'lim dasturlarini yaratish va respublika ta'lim tizimiga joriy etish to'g'risida»gi Farmonidan hamda 2006-yil 25-avgustdagi «Milliy g'oya targ'iboti, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida»gi Qaroridan keyin ma'naviyat masalasi yangi bosqichga ko'tarildi va qator vazifalar belgilandi.

Bu vazifalarni amalga oshirishda milliy ma'naviyat va ma'rifat asoslariga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega-dir. U quyidagilarni qamrab oladi: 1. Ma'naviyat tushunchasi: uni o'qitishdagi maqsad va vazifalar, ma'naviyat ta'rifi hamda metodologik bazasi. 2. Ma'naviyatning tarkibiy asoslari: axloqiy, badiiy, diniy va milliy qadriyatlar. 3. O'zbek xalqining milliy ma'naviyati jahon ma'naviy madaniyatining ajralmas qismi ekanligi.

Keyingi yillarda ma'naviyat muammosi yuzasidan qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Zero, ma'naviyat ko'p qirrali tushuncha bo'lib, inson faoliyatining barcha jabhalariga daxldordir. Demak, **ushbu fanning predmeti, «jamiyat taraqqiyoti va inson ongining rivojlanishida ma'naviyatning rolini, uning shakllanishi, takomillashuvi, fuqarolarni ma'naviy jihatdan tarbiyalash omillarini» o'rganishdan iboratdir.**

Xo'sh, «Ma'naviyat asoslari» fanini o'rganish, umuman, ma'naviyat nima uchun zarur? Ushbu savolga javob har bir insonning qalbida mavjud. Chunki ma'naviyatsiz insonning hayvondan farqi yo'q. Unday odamning na jamiyatga, na tabiatga foydasi tegadi. U Chingiz Aytmatovning manqurtiga o'xshaydi. U fikrlamaydi, kelib chiqishini, kimligini bilmaydi, o'ylamaydi, faqat buyruqni bajaradi. Fuqarosi bunday bo'lgan jamiyat tanazzulga mahkumdur. Shu sababli har bir jamiyat yuksak ma'naviyatli kishilarga muhtoj, ularni tarbiyalash uchun bor imkoniyatini ishga soladi. Jumladan, O'zbekistonda mohiyatan butkul yangi jamiyat qurish jarayonida ma'naviyat iqtisodiyot bilan birga ustuvor yo'nalishlardan hisoblanmoqda. Islom Karimov «Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir», deya bejiz ta'kidlamagan edilar.

Istiqloq tufayli ma'naviy hayotimizda tub o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Istiqloqning dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizda bu sohaga alohida va uzluksiz e'tibor berib kelinmoqda. Xalqimizning milliy ongi, milliy g'ururi o'sib, jamiyatning ma'naviy asosini yanada mustahkamlashga poydevor yaratilmoqda.

Esda tuting:

Yuksak ma'naviyat — jamiyat taraqqiyotining asosi.

Islom Karimov

Ma'naviyat tushunchasiga berilgan ta'riflar

«Ma'naviyat» tushunchasi mazmunan juda keng qamrovli. Chunki bu tushuncha azal-azaldan rivojlanib kelgan. Uning atama sifatida shakllanishiga islom falsafasi, ilohiyot fani, keyinchalik, ayniqsa, tasavvuf ta'limoti kuchli ta'sir ko'rsatgan. XX asrda «Ma'naviyat» tushunchasining mazmuni yanada kengaydi va dunyoviylik kasb etdi.

Inson hayotida moddiy ehtiyojlar qanchalik muhim ahamiyat kasb etsa, ma'naviy ehtiyojlarga talab undan ham kuchliroq ekanligini ta'kidlamog zarur. Mustaqillikka erishilgandan keyin bizning yurtimizda ham ma'naviyat masalasiga bag'ishlangan qator kitoblar nashr etildi, maqolalar e'lon qilindi. «Vatan tuyg'usi» kitobi mualliflari ma'naviyatni «jamiyatning, millatning va yoki ayrim kishilarning ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha» sifatida ta'riflaydilar. «Mening nazarimda, — deb yozadi Prezident Islom Karimov, — «ma'naviyat» tushunchasi jamiyat hayotidagi g'oyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o'zida to'la mujassam etadi. Shuning uchun ham bu mavzuda fikr yuritganda, mazkur qarashlarning barchasini umumlashtirib, keng ma'nodagi «ma'naviyat» tushunchasi orqali ifoda etish mumkin».

«Ma'naviyat» (arabcha «ma'nolar majmuyi»). U ruh, aql, ong, idrok, ruhiy holat, ichki kayfiyat, dadillik, jasorat, xususiy mohiyat, g'amxo'rlik, qayg'urish, did kabi bir necha ma'nolarni ham anglatadi.

Demak, ma'naviyat kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmuyi. I.A.Karimov o'zining 2008-yilda nashrdan chiqqan «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» nomli yangi asarida:

«Ma'naviyat — insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir», — deb yozadi. Ma'lumki, Yevropa falsafasi «axloq», «ruh», «iroda», «go'zallik» kabi tushunchalarni tadqiq etishda beqiyos natijalarga erishgan, teran tadqiqotlarni amalga oshirgan bo'lsa-da, ma'naviy hayotni yaxlit holda emas, bo'lib o'rganish an'anasiga sodiq qolgan. Chunonchi, Germaniya olimlari fikricha, Gegel ta'limotida «ruh», Shopengauyer ta'limotida «iroda» borliqning o'zagi sifatida ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, hindcha (forscha) «ma'nas» so'zini ham shunga qiyoslaydilar. Ma'naviyat tushunchasining mohiyatiga ko'ra ham unga bir qator ta'riflar beriladi: ilohiy deb bilish; mafkuraga yondosh deb bilish; ma'naviy madaniyatning sinonimi deb bilish; ma'naviy qadriyatlarning yig'indisi deb bilish. Mazkur ta'riflarning bir-biriga o'xshash tomonlari ko'p. Lekin bir-biridan farqli jihatlari ham mavjuddir.

Ma'naviyat — odamning ruhiy va aqliy olami yig'indisi. Ma'naviyat inson va jamiyat madaniyatining negizi, inson va jamiyat hayoti ma'lum yo'nalishining bosh omili. U muayyan iqtisodiy-ijtimoiy hayot tizimining shakllanishi, o'zgarishi yoki inqirozga yuz tutishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviyat boyib borsa, jamiyat ravnaq topib boradi va aksincha, ma'naviyatning qashshoqlashuvi jamiyat tanazzulga yuz tutishiga olib keladi. Boy ma'naviyatsiz buyuk davlat qurib bo'lmaydi. Ma'naviyat jamiyat va millat ravnaqining bosh omili va poydevoridir.

Ma'naviyat insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli botiniy kuch. Moddiy narsalar odamga jismoniy oziq va quvvat bersa, ma'naviyat unga ruhiy oziq va qudrat bag'ishlaydi. Faqat moddiy jihatdan ta'minlanish bilan kifoyalanish — ongsiz va ruhsiz maxluqlarga xosdir. Ma'naviyatga intilish esa ruh va ong egasi bo'lmish odamga xos fazilatdir.

Ma'naviyat — jamiyatning, millatning yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlantiruvchi tushuncha. Hozirgi kunda ma'naviyat masalalariga munosabat tubdan o'zgarib, uning boyib borishiga kuchli e'tibor berilayotganining boisi ana shunda.

Esda tuting: Ma'naviyat insonning qon-qoni, suyak-suyagiga yillar davomida ona suti, oila tarbiyasi, ajdodlar o'giti, Vatan tuyg'usi, bu hayotning ba'zida achchiq, ba'zida quvonchli saboqlari bilan qatra-qatra bo'lib singib boradi.

Islom Karimov

Alisher Navoiy «ma'no ahli» deganda haqiqat yo'liga kirgan komil insonni nazarda tutgan. Ma'rifat ilm, irfon va maorif demakdir. Shunday ekan, ma'naviyat insonning ruhiy olami bilan chambarchas bog'liq tushunchadir. Ma'naviyat insoniyatning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-quvvati ekan, binobarin, jamiyatning, insonlarning ma'naviy madaniyati qancha yuksak bo'lsa, mamlakat shuncha tez ravnaq topadi, boshqa ijtimoiy muammolarni hal qilish osonlashadi.

Jahon tajribasidan ma'lumki, Germaniya, Yaponiya kabi mamlakatlar qazilma boyliklari, yer-suvi bilan gullab-yashnayotgani yo'q, ular xalqining ma'rifati, aql-idroki bilan XX asrda o'ziga xos o'rin tutdi. Ma'naviyati qashshoq xalq hech qachon boy bo'lmaydi. O'z huquqini bilmagan, o'z qonunlari kuchini anglab yetmagan va tushunishni istamagan, mamlakatda ma'naviyat va ma'rifat tizimini yaxshi yo'lga qo'ymagan xalqning shon-shavkati oyoqosti bo'ladi, jahon hamjamiyatidagi o'rni yo'qoladi.

«Ma'rifat» Ma'naviyat tushunchasi ma'rifat tushunchasini ham o'z ichiga olishini ta'kid-lamoq lozim. «Ma'rifat» (ko'pligi «maorif») so'zi ham arabcha bo'lib, «arafa» so'zidan olingan. U bilish, bilim, ma'lumot, tanish, tanishish ma'nolarini bildiradi.

Ma'rifatli degani bilimli, muayyan sohada ma'lumotli, degani bo'lib, u insonparvarlik, ma'naviyat zaminidagina o'z mohiyatiga ega bo'ladi. Kishilarning bilimi va madaniyatini oshirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiyaga ham ma'rifat deb qaraladi. Ma'rifatni hayotga singdirish bilim va madaniyatning qo'shma mazmuni bo'lib, maorif esa ana shu mazmunni yoyish quroli, vositasidir.

Ma'naviyat va ma'rifat tushunchalariga bog'liq atamalardan bo'lgan «madaniyat» so'zi arabcha madina (shahar, kent) so'zidan kelib chiqqan. Arablar kishilar hayot tarzini ikki turga bo'lib, birini badaviy yoki sahroyi turmush, ikkinchisini madaniy turmush deb ataganlar. Badaviylik ko'chmanchi holda dasht-u sahrolarda yashovchi xalqlarga, madaniylik esa shaharda o'troq yashab, shaharga xos turmush tarzini kechiruvchi xalqlarga nisbatan ishlatilgan. Madaniyat tushunchasi insoniyat butun tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklar yig'indisini aks ettiradi. Tor ma'noda esa jamiyat ma'naviy hayotini ko'rsatish uchun qo'llaniladi.

Madaniyat atamasi ilm-fanda jamiyat qo'lga kiritgan ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy yutuqlar majmuyini, biror ijtimoiy guruh yoki xalq ma'lum davrda erishgan shunday yutuqlar darajasini, o'qimishlilik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, ziyolilik va ma'rifatlilik hamda turmushning ma'rifatli kishi ehtiyojlariga mos keladigan sharoitlari majmuyini bildiradi.

Shu sababli, har qaysi millat nafaqat yer osti va yer usti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki, birinchi navbatda, o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir. Shu bois mamlakatimizning istiqlol yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zamini ni mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga ko'tarish masalasiga katta ahamiyat berib kelinmoqda.

Kursni o‘rganish metodlari

Kursini o‘rganishda milliy va ma’naviy merosimiz, mustaqil O‘zbekistonning demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik

jamiyati qurish yo‘lida ma’naviyat sohasida qabul qilgan qonunlari, Prezident farmonlari, ma’naviyatning hamma faoliyat jabhalari: ilm, fan va amaliyot sohalari umumiy metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

«Ma’naviyat asoslari» kursini o‘rganishda quyidagi metodlar asosida ish ko‘rishiga e‘tibor qaratiladi: dialektik metod, qiyoslash va taqqoslash (kuzatish, tarixiy yondashish, mantiq) metodlari, empirik-sotsiologik metod, umummantiqiy metod (sintez, abstraktlash, umumiylik), nazariy metod (abstraktlikdan konkretlikka), axloqiy metod (ayrim guruh yoki shaxs xulqini kuzatish), izohlash metodi, diagnostika metodi, axborotlash metodi (fan yutuqlaridan foydalanish).

Jamiyat, xalq (millat) ma’naviyati

Jamiyat ma’naviyati shaxslar ma’naviyatidan tashkil topadi. Shaxs ma’naviyati esa ruh va aql bilan bog‘liqdir. Bu jihatdan qaraganda, jahon falsafasining tarkibiy qismi bo‘lgan Sharq falsafasida inson vujudida ikki qarama-qarshi asos — modda va ruh dialektik bog‘liqlikda ekanligi va ular inson mohiyatini belgilashda bosh ahamiyat kasb etishi aytiladi. Inson o‘z aql-zakovati bilan shu ikki asosni boshqarib, nazorat qilib turadi.

Birinchi asos — inson tanasi, jismining ehtiyojidir. Tana moddiy bo‘lganligi tufayli uning ehtiyojlari ham moddiydir. Ular o‘z qoniqishlarini tabiiy harakatlanuvchi predmetlar yordamida hal qiladilar. Ikkinchi asos — insonning ma’naviyat mohiyati. Inson moddiy dunyoda yashar ekan, tabiatning boshqa jonli mavjudotlaridan mehnat qilish jaryonida o‘z aql-idroki, maqsadini amalga oshirishi bilan farqlanadi. Yaqin yillargacha moddiylik falsafasi aql-zakovatimizni, iste’dodimizni, salohiyatimizni tanimiz ehtiyojlari, nafsimiz yo‘liga xizmat qildirganligi sir emas. Inson shu bugunga qadar yaratgan jami moddiy va ma’naviy boyliklarning negizi aynan shu ikki asosga — modda va ruhga tayangan ehtiyojlardir.

Inson vujudidagi bu asoslar tarbiya va parvarishga muhtoj. Ularning inson vujudidagi muvozanati tarbiya va parvarish orqali saqlanadi, mutanosibligi ta'minlanadi. Iymonning yetilishi insonning ma'naviy-ruhiy yuksalishi, o'zligini anglab yetishi, komil shaxs darajasiga ko'tarilishiga sabab bo'ladi.

Mustaqillik tufayli erishilgan eng katta va eng muhim yutuqlarimizdan biri fan bilan dinni, ilmiy dunyoqarash bilan diniy dunyoqarashni bir-biriga qarama-qarshi tushunchalar sifatida baholashdan xalos bo'lganligimizdir. Bunda umumjahon, jumladan, Sharq falsafasining tub mohiyati ilmfan erishgan yutuqlar bilan diniy tushunchalarni uyg'unlashtirish, ularning bog'liqligini ochib berishga qaratiladi. Islom falsafasida insonga jismoniy va ruhiy borliq deb qaralib, uning o'tkinchi va mangu hayoti mavjudligi ta'kidlanadi. Insonning inson sifatida mavjudligini ta'minlovchi uning tanasi emas, balki ruhidir. O'lim tanani yashashdan to'xtatadi, uni jasadga aylantiradi, shaxsiyatidan ajratadi. Inson tanasi foniy, o'tkinchi, o'zgaruvchi, ruh esa boqiy, o'zgarmasdir.

Ma'naviyati qashshoq bo'lgan odamdan biror narsa kutish aslo mumkin emas. Chunki u yaxshilik va ezgulik haqida umuman o'ylamaydi. Atrofiga va hatto ota-onasi, qarindosh-urug'lari taqdiriga ham befarq, loqayd munosabatda bo'ladi. Bunga juda ko'plab misol keltirish mumkin. Yuksak ma'naviyatli xalq, inson bugungi kun va kelajak haqida fikr yuritadi, qayg'uradi. Zotan, mustaqil yosh mamlakati-ning kelajagi uchun ma'naviyati yuksak, barkamol insonlar zarur.

Ruhning poklanishi qurilayotgan huquqiy demokratik davlatimizning ajralmas ma'naviy-axloqiy tamoyili hisoblanadi. Xuddi shu g'oya islom dini va tasavvuf ilmida ham ilgari surilgan.

Ma'naviyat milliy xususiyatga ega ekanini hech qachon unutmaslik kerak. U milliy urf-odatlar, tarbiya an'analari, axloq-odob normalari, qadriyatlar, din, e'tiqod, madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy, didaktik, falsafiy-pedagogik qarashlar, ruhiy-psixologik jarayonlar va shu kabilar majmuasidan iboratdir.

Ma'naviyatning tarkibiy qismlari

Axloq, ma'naviy meros hamda qadriyatlar ma'naviyatning tarkibiy qismlari hisoblanadi. Axloqiy bilimlar, malaka va

ko'nikmalar, axloq qoidalari yordamida o'quvchining xulq-atvori, xatti-harakatlari, umuman axloqi boshqariladi. Axloqiy madaniyat o'quvchining ko'p qirrali faoliyati davomida shakllanib va takomillashib boradi. Axloqiy madaniyat ko'rinishlari, qirralari, shakllari xilma-xil. Ular insonparvarlik, halollik, tashabbuskorlik; erksevarlik, faollik, ijodkorlik, haqiqatgo'ylik, mas'uliyatlilik; saxiylik, kamtarlik, poklik va shu kabilar. Axloqiy ong axloqiy madaniyatning negizini tashkil etadi. Axloqiy ong o'quvchi ijodiy faoliyatida o'z ifodasini topadi. Uning mezoni bilim va axloq me'yorlari, axloqiy tafakkur hisoblanadi. Axloq — ma'naviyat o'zagi. Inson axloqi shunchaki, salom-alik, xushmuomalalikdangina iborat emas, balki u, avvalo, insof va adolat tuyg'usi, iymon, halollik deganidir.

Axloqiy ongni o'stirish axloqiy madaniyatni takomillash-tirishning birlamchi vazifalaridandir. Axloqiy ongning yetukligi uzoq davom etadigan va murakkab jarayon bo'lib, u insoniyat qo'lga kiritgan barcha axloqiy-ma'naviy yutuqlarni o'zlashtirish, shu bilan birga, muayyan sharoit taqozo etadigan muammolarni bartaraf etish jarayonida amalga oshadi. Axloqiy ong vijdon, burch, mas'uliyat, hayo, g'urur kabi insonning ichki — ruhiy hissiyotiga asoslanadi. Axloqiy madaniyatning mag'zini tashkil etuvchi insonparvarlik, halol mehnat, o'zaro yordam, do'stlik, hamkorlik, o'zaro hurmat, baynalmilallik, saxovat, vatanparvarlik, burch, kamtarinlik kabi yuksak insoniy qadriyatlar axloqiy odat asosida o'quvchi ongi va faoliyatida tarkib topadi.

Axloqiy qadriyatlarni o'rganishda axloqiy odat, axloqiy bilim, axloqiy ishonch muhim o'rin tutadi. Demak:

— axloqiy ong, axloqiy sifat, axloqiy odat, axloqiy faoliyat o'quvchi ma'naviy madaniyatini shakllantirishning muhim belgilarini tashkil etadi;

— axloqiy madaniyat o'quvchining butun hayoti va faoliyati jarayonida rivojlanadi hamda mazmunan boyib, shakllanib boradi;

— axloqiy madaniyat ma'naviy madaniyatning boshqa tarkibiy qismlari bilan o'zaro aloqada va hamkorlikda o'quvchi faoliyatiga doimiy, izchil, sekin-asta singdirib borilgandagina ijobiy natija beradi.

Ajdodlardan avlodlarga ma'naviyat sohasida o'tayotgan barcha narsalar ma'naviy merosni tashkil etadi. **Ma'naviy merosni** o'rganishda quyidagilar muhim o'rin tutadi:

— xalq og'zaki ijodi (asotir, afsona, rivoyat, ertak, doston, naql, maqol, matal, qo'shiq, latifa, lof, xalq dramasi, askiya);

— xalq tasviriy va amaliy san'ati (xalq yaratgan badiiy-estetik san'at namunalari, xalq teatri, xalq musiqa san'ati);

— ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida paydo bo'lgan, rivojlangan qadriyat darajasiga ko'tarilgan an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, amaliy faoliyatdagi ilg'or tajribalar yig'indisi.

Mavzuni o'rganishda xalq og'zaki ijodining ma'naviy qadriyatlarni targ'ib etishdagi ta'sir kuchi, unda xalqning orzu-umidlari, dunyoqarashi va xarakter xususiyatlari ochib beriladi. Ularda xalqning g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, badiiy-estetik, ekologik, iqtisodiy, diniy, aqliy, jismoniy madaniyati mazmuni, ma'naviy talab va ehtiyojlari, orzu-umidlari, ta'lim-tarbiya shakllari, usul va vositalari o'z ifodasini topadi.

Xalq og'zaki ijodi namunalarida ma'naviy qadriyatlarning ikkala guruhiga mansub barcha qadriyatlarning poydevori (insonparvarlik, bilimdonlik, mehnatsevarlik, adolatparvarlik, kattalarga hurmat, rostgo'ylik, mehmondo'stlik va boshq.) o'z aksini topgan.

Doston xalq ma'naviy qadriyatlarini qorishiq holda mujassamlashtiruvchi xalq og'zaki ijodi janrlaridan biri bo'lib, unda musiqa, teatr, she'riyat kabi badiiy-estetik qadriyatlar birlashtirilgan. Dostonlarda yuksak insoniy fazilatlar baxshilar tomonidan badihago'ylik yo'li bilan tinglovchilarga yetkaziladi. Uning hissiy ta'sir kuchi orqali sharq xalqlarining chatishib ketgan falsafiy, diniy, axloqiy qarashlari, urf-odatlari, turmushi badiiy gavdalantiriladi. Shuning uchun ham dostonlarning tarbiyaviy va ma'rifiy ahamiyati yuksak go'zallikka, baxt-saodatga erishishning birdan-bir yo'li maqsad

sari qat'iy intilishda, matonat, mardlik, qahramonlik ko'rsatishda ekanligini namoyish etishdan iborat. 1998-yil 13-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan «Alpomish» dostoni yaratilganligining 1000 yilligini nishonlash to'g'risida» Qaror qabul qilindi. «Alpomish» dostoni ajdodlarimiz ijodiy dahosining bebaho badiiy yodgorligi sifatida jahon xalqlari liro-epik ijodi namunalari orasida alohida o'rin tutadi. Mustaqil rivojlanish davrida millat birligi va ma'naviy uyg'onish, g'urur va o'zligini anglash ramziga aylangan ushbu doston yaratilganligining 1000 yilligi UNESKOning 1999-yildagi tadbirlari rejasiga kiritilganligi folklor merosini avaylab-asrash va avlodlarimizga to'la yetkazish maqsadida amalga oshirilgan g'oyatda muhim tadbir bo'ldi. Surxondaryo viloyati va Toshkent shahar hokimliklari birgalikda 1999-yilning oktabr oyida Toshkent shahrida «Alpomish» dostoni va jahon xalqlari epik ijodiyoti» mavzuyida xalqaro konferensiya va Surxondaryo viloyatida tantanali bayram tadbirlarini o'tkazganligi bejiz emas.

Qadriyatlar muhim masalalardan biri bo'lib, ma'naviy hayotning tarkibiy qismidir. Mustaqillikning ma'naviy zaminini qaror toptirishda diniy qadriyatlar ham ma'lum ahamiyat kasb etadi. Diniy qadriyatlar ko'plab millatlar, elatlar, xalqlarga taalluqli bo'lgan, ularni g'oyaviy jihatdan birleshtiruvchi turli diniy talablar, g'oyalar, rivoyatlar, amaliy marosimlar, bayramlar majmuasidan iboratdir. Islom dini yer yuzidagi 120 ga yaqin davlatda tarqalgan.

Diniy madaniyat zamirida Sharq xalqlari kalomi, ya'ni e'tiqod ilmi va Qur'oni karim, hadisi sharif, fiqh, ya'ni ibodat, huquq, axloq, tarix, dunyoviy bilimlar turadi. Demak, diniy qadriyatlar, imon, e'tiqod kabi qoidalar ma'naviy madaniyatning muhim tarkibiy elementidir. Diniy axloq me'yorlari negizida milliy va umuminsoniy axloq qoidalari mujassam bo'lib, ma'lum tarixiy davrda shu davr talabi asosida sayqallanib boradi. Shunday ekan, imon, e'tiqod birovga yaxshilik qilish, bilim olish, halollik, insoniylik kabi qadriyatlar asosida tashkil topadi.

Milliy qadriyatlar alohida olingan xalq, millat va elatlarning o'z tarixiy taraqqiyoti davomida yaratgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklari, urf-odatlarini, marosimlari, bayramlari va millatning o'zligini belgilaydigan boshqa o'ziga xos tomonlari yig'indisidan iboratdir. Bu o'ziga xoslik moddiy, ma'naviy, ijtimoiy hayot, oila turmush tarzida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, xalq amaliy san'ati, xalq o'yinlari, rasm-rusumlari, urf-odatlarini, marosimlari ham milliy qadriyatlar doirasiga kiradi.

Bulardan boshqa yana quyidagi qadriyatlarni milliy qadriyatlar sifatida belgilash mumkin: tabiiy qadriyatlar (yersuv, havo, yer usti va osti boyliklari); ijtimoiy qadriyatlar (oilalar, millatlar, sinflar va h.k.); moddiy qadriyatlar; ma'naviy qadriyatlar; umuminsoniy qadriyatlar; oilaviy qadriyatlar; shaxsiy qadriyatlar.

**«Ma'naviyat
asoslari» va
boshqa fanlar**

«Ma'naviyat asoslari» fani boshqa **ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan** chambarchas bog'liq bo'lib, ularga suyanadi, ulardan oziq oladi. Jumladan, tarix, adabiyot, inson falsafasi, milliy istiqlol g'oyasi, O'zbekiston Konstitutsiyasi va boshqalar ma'naviyat asoslari fanining nazariy manbalari hisoblanadi. Ular bir-birini to'ldiradi, boyitadi.

Yurtboshimiz Islom Karimov ma'naviyat masalasiga doimo jiddiy e'tibor berib kelgan. 1994-yil 23-aprelda Prezident tomonidan «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazini tashkil etish to'g'risida»gi Farmon e'lon qilindi. Ikki yil o'tgach esa, 1996-yil 9-sentabrda, Prezident Islom Karimovning «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida»gi Farmoni chiqdi. 1997-yil 29-avgustda birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 9-sessiyasida qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da, shuningdek, 1999-yil 3-sentabrda «Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi Prezident Farmonida ma'naviyat masalasiga, ma'naviy qadriyatlarga yanada katta e'tibor berildi.

Xalqimizning milliy ma'naviyati azaldan jahon xalqlari madaniyati tarixida o'ziga xos mustahkam o'rin egallab keladi. U jahon madaniyatining tarkibiy qismi sifatida o'ziga xos xususiyatlari bilan kishini o'ziga tortadi.

Ma'lumki, umuminsoniy qadriyatlar butun insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va madaniy, ilmiy, falsafiy, axloqiy, estetik, huquqiy, siyosiy, badiiy, ekologik qarashlar, butun insoniyatning mulki bo'lgan boshqa qadriyatlar yig'indisidan iboratdir. Haqiqatan, madaniyat, ma'naviyat umuminsoniy hodisa hisoblanadi.

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyoti bevosita uning ma'naviy-axloqiy negizlarining rivojlanishi bilan bog'liqdir. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» asarida qayd qilganidek, bu negizlar:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlikdan iboratdir.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da «ma'naviy-axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlar»ga alohida o'rin berilgandir. Unda aytilishicha, «yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy-tarixiy an'alariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi».

Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib, ma'naviyatga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

Ma'naviyat – jamiyat millat, kishilarning ichki dunyosini aks ettiruvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmuyi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, I. Karimovning: «Ma'naviyat haqida gap ketar ekan, men, avvalo, insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli botiniy

kuchni tasavvur qilaman»,— degan fikrlari diqqatga sazovordir.

Islom Karimov asarlaridagi muhim fikrlar ma'naviyatni yaxlit tizim shaklida tasavvur etishda katta ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir.

Demak, «Ma'naviyat asoslari» fani insonning ruhiyatini, o'zligini anglashi, didi, farosati, adolat bilan razillikni, ezgulik bilan yomonlikni, go'zallik bilan xunuklikni, vazminlik bilan johillikni ajrata bilish qobiliyati, aql-zakovati, yuksak maqsad va g'oyalarni qo'ya bilish, ularni amalga oshirish uchun harakat qilish va intilish salohiyatini shakllantiradi.

**Ma'naviy-axloqiy
sohalaridagi
vazifalar**

Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ish-larni amalga oshirishda, milliy ma'naviyat va uning asosiy mohiyatini yoshlar ongiga singdirishda quyidagi vazifalarni bajarish maqsadga muvofiq bo'ladi:

— islohotlarning ikkinchi bosqichida ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk insonlar tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish;

— xalq xo'jaligining barcha sohalarida ma'naviy poklikka to'la erishish;

— milliy qadriyatlarni to'la tiklash, shu asosda milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirish;

— O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini mustahkamlash va takomillashtirish ishlarida faol qatnashish, bu yo'lda fidoyilik namunalarni ko'rsatish;

— mustaqillik, mamlakat va uning taraqqiyoti uchun halol xizmat qilish, O'zbekiston kelajagi buyuk davlat ekaniga ishonch tuyg'ularini tarbiyalash;

— Prezident farmonlariga, qonunlar va hukumat qarorlariga sodiq bo'lish, qadrlash hamda ularni ijro etish.

Zotan Yurtboshimizning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida aytilganidek: «O'tgan davr mobaynida eski tuzumdan og'ir meros bo'lib qolgan ... illatlarga, el-yurtimizga nisbatan kamsitish va milliy manfaatlarimizni mensimaslik holatlariga barham berish, ko'hna qadriyatlarimiz, din-u diyonatimizni tiklash, hayotimizda tarixiy adolatni qaror toptirish, yangi jamiyat qurish yo'lida xalqimizning ma'naviy

yuksalishini o‘z oldimizga qo‘ygan olijanob maqsadlarga yetishda hal qiluvchi mezon deb qarash va shu asosda ish olib borish biz uchun doimo ustuvor vazifa bo‘lib kelganini va bugun ham e‘tiborimiz markazida turganini ta’kidlashimiz lozim».

Demak, ma’naviyat — nur, ma’naviyatli shaxs dilida haqiqat nuri aks etgan, o‘zligini anglagan, o‘zining borliqdagi o‘rni va vazifasini tushunib yetgan, haqiqat oldidagi o‘z maqomiga loyiq bo‘lish va burchini ijro etish mas’uliyatini o‘z zimmasiga ola biladigan insondir. Millat ma’naviyati o‘z tarixiy shakllangan qiyofasiga ega, shu bilan birga, mohiyatan umumbashariy qadriyatlarga aslo zid emas, balki muvofiqdir. Jamiyat ma’naviyatini yanada yuksaltirish islohotlarni amalga oshirishda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishini tashkil etadi.

Esda tuting:

«Ma’naviyat sohasidagi eng asosiy vazifamiz — milliy qadriyatlarimizni tiklash, o‘zligimizni anglash, milliy g‘oya va mafkurani shakllantirish, muqaddas dinimizning ma’naviy hayotimizdagi o‘rni va hurmatini tiklash»

Islom Karimov

TAYANCH SO‘Z VA IBORALAR

Ma’naviyat, ruh, ma’rifat, madaniyat, metod, sintez, abstraktlash, empirik, imyon, jamiyat, shaxs, axloq, qadriyat, o‘zlikni anglash, mafkura.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. «Ma’naviyat asoslari» fanining predmeti nima?
2. «Ma’naviyat» tushunchasi mazmuni va ta’rifi?
3. Madaniyat nima?
4. Ma’rifat nima?
5. Ma’naviyatning asosiy tarkibiy qismlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
6. Islom Karimovning «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li» asarida aytib o‘tgan mamlakatimizni yangilash va rivojlantirishning o‘z yo‘li to‘rtta asosiy negizga asoslanishi haqidagi fikrlarini izohlang.
7. O‘zbek xalqining boy madaniy va ma’naviy merosiga nimalar kiradi?
8. Islom Karimovning «Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch» asarida ma’naviyatga berilgan ta’rifni izohlang.

ERKIN FIKR YURITING

Ma'naviyati yuksak inson deb kimni aytsa bo'ladi? Aksincha-chi?

TOPSHIRIQ

Shaxs ma'naviy kamolotidagi quyidagi fazilatlarga izoh bering.

T/r	Fazilatlar	Izoh
1.	Fidoyilik	
2.	Daxldorlik	
3.	Hamjihatlik	
4.	Tinchliksevarlik	
5.	Mardlik	
6.	Vatanni sevish	
7.	Odoblilik	
8.	Olijanoblik	
9.	Halollik	
10.	Vijdon uyg'oqligi	

2-§. MA'NAVIY MEROS, QADRIYATLAR, ULARNING SHAKLLARI VA O'ZARO MUNOSABATI

Ma'naviyat taraqqiyoti bosqichlari

Inson yaralibdiki, u yoki bu darajada ma'naviy qiyofaga ega bo'lgan. Yovvoyilik davrida ham ba'zi insonlar insofli, o'ljani boshqalar bilan baham ko'radigan, ba'zilar esa faqat o'zini o'ylaydigan, xudbin ekanligini kinofilmlarda ham ko'ramiz.

Demak, ma'naviyat tarixan konkret (aniq) xususiyatlarga ega ekan. U qadim zamonlardan to hozirgi kungacha dunyoning barcha xalqlari tomonidan yaratilgandir. Shu sababli har bir xalq va millatning o'ziga yarasha, o'ziga mos, o'ziga xos bo'lgan ma'naviyati bor. Ma'naviyat har bir xalqning ijtimoiy muhitiga bog'liq. Millatlarni yoki xalqlarni ma'naviyati yuksak yoki tuban deb baholash shovinizm va irqchilikning kelib chiqishiga zamin yaratadi.

Bashariyat ma'naviyati taraqqiyoti bosqichlarini quyidagicha bo'lish mumkin: qadimgi davr ma'naviyati (bizda islomgacha milliy ma'naviyat taraqqiyoti); o'rta asrlar ma'

naviyati (bizda islom mintaqasi va Temuriylar davri ma'naviyati); yangi davr ma'naviyati (bizda milliy ma'naviyat takomili). Qadimgi madaniyat va ma'naviyat o'choqlari Qadimgi Sharqda, Misr, O'rta Osiyo va Mesopotamiyada miloddan avvalgi IV—III ming yilliklarda), Hindistonda miloddan avvalgi III ming yillikda, Xitoy va Amazonka sohil-larida miloddan avvalgi II ming yillikda sodir bo'lgan yuksalish izlari arxeologlarimiz tomonidan aniqlangan. O'rta asrlarda Buyuk ipak yo'li Uyg'onish davri madaniyati va ma'naviyatining yangi bosqichga ko'tarilishida katta rol o'ynagan.

Ma'naviy meros

Ushbu masalani chuqurroq o'rganish uchun biroz aniqlik kiritish lozim. Bular: ma'naviy meros tushunchasi va uning davomiyligi, xususiyatlari hamda uni o'zlashtirish shakllari; ma'naviyat va madaniyatning qadimiyligi, o'zaro munosabati hamda inson hayoti, shaxs xulq-atvorining ma'naviy qaror topish bosqichlari; milliy mustaqillik sharoitida madaniy meros va qadriyat-larni targ'ib qilishda ijtimoiy-madaniy muassasalarning o'rni.

Birinchi masala ma'naviy va madaniy meros tushunchalari bilan bog'liq. Ma'naviyat — kishilarning egallagan bilimlari, qadriyatlari, madaniyati, olgan bilimlarini hayotda qo'llay bilish kabi holatlar bilan belgilansa, ma'naviy va madaniy meros «tarixiy boylik singari» ajdodlar tomonidan avlodlarga qoldirilgan ma'naviy meros ichidan millatning shu kundagi hayotiga asqotib turgan qismidir. Ota-bobolarimizning boy ma'naviy va madaniy xazinasidan bizga faqat bir qismigina yetib kelgan. Ular ma'naviy yoki madaniy yodgorlik sifatida qadrlanadi.

Ma'naviy meros — bashariyat rivojlanishining uzoq davrlar mobaynida tarkib topgan, inson aql-zakovatining ifodasidir. O'tmish davrlardan insoniyatga qolgan moddiy va ma'naviy madaniyat boyliklari majmuyiga **madaniy meros** deyiladi. Jamiyat o'zgarishi bilan uning madaniyati ham o'zgarib boradi, lekin madaniy taraqqiyot uzilib qolmaydi. Ilgarigi madaniyat yo'q bo'lib ketmaydi, madaniy meros va an'analar saqlanadi. Har bir yangi avlod moddiy va ma'naviy madaniyat negizini har gal yangidan yaratmaydi, balki

ajdodlar tomonidan yaratilgan madaniy boyliklarni qabul qilib oladi va davom ettiradi.

Moddiy va ma'naviy madaniyatlar bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Ularning har ikkalasi ham madaniyat ekanligini unutmash kerak. Negaki inson faoliyatining mahsuli bo'lgan ko'pgina narsalar ham aqliy, ham ma'naviy, ham jismoniy mehnatning natijasi sifatida paydo bo'ladi. Shunday ekan, madaniyat taraqqiyoti o'zidan oldingi avlodlar yaratgan qadriyatlarni o'zlashtirishdan boshlanadi. U yangi qadriyatlarni yaratish yo'lida tayanch vazifani o'taydi.

Tarixiy vorislik Ikki jarayon — eskilik bilan yangilik o'rtasidagi obyektiv zaruriy bog'lanish vorislik deb ataladi. Lekin buni izohlashda taraqqiyotga xizmat qiladigan ilg'or vorislikni unga to'siq bo'ladigan reaksiyon vorislikdan farqlash lozim. Madaniyatdagi ijobiy (pozitiv) va salbiy (negativ) vorislik ham mavjudligini aytib o'tish kerak.

Demak, tarixiy vorislik — jamiyat va uning madaniyati ravnaqining sharti. Chunki tarixiy davomiylik ma'naviyat rivojlanishining qonuniyati hisoblanadi. Afsuski, yurtimizda totalitar tuzum davrida madaniy merosga nisbatan noto'g'ri munosabatda bo'lib kelindi. «Boy zamindorlarga, hokim sinf tabaqalariga xizmat qilgan o'tmish madaniyatining bizga keragi yo'q, yangi — proletar (yo'qsil) madaniyatini yaratamiz»,— degan shior ostida sobiq Sovet Ittifoqi xalqlarining, jumladan, o'zbek xalqining moddiy va ma'naviy madaniyatiga qiron keltirdi, saroylar, masjid va madrasalar buzib tashlandi, nodir asarlar yoqildi. Siyosatning eng zararli tomoni shunda bo'ldiki, madaniy merosga past nazar bilan qaraldi, osori atiqalar qarovsiz qoldi. Vorislik ko'p o'lchovli falsafiy mezon bo'lib, jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlarning uzluksizligini, turli davlatlar aloqasini, moddiy va ma'naviy boyliklarning bir avloddan ikkinchisiga o'tishini ifodalaydi. Ayni paytda keyingi avlodga shu merosdan qaysi biri o'tadi-yu, o'tmishda qaysi biri qolishi borasida murakkab tanlov jarayoni yuzaga keladi.

Shu bilan birga, har bir jamiyat o'tmish madaniy merosini qanday bo'lsa, shundayligicha, ko'r-ko'rona qabul qilib olmaydi. Har bir jamiyat madaniy merosining o'z dunyoqarashi, tuzumi, manfaatlariga mos keladigan, bugun va kelajak uchun xizmat qiladigan qisminigina qabul qiladi. Biz yuqorida qadriyatlar masalasiga biroz to'xtalgan edik. O'tmishdan qolgan barcha narsalarni bir xil qadriyat tushunchasi doirasiga kiritib bo'lmaydi. Masalan, sho'rolar zamonida yaratilib, uning siyosatini targ'ib etgan, kommunistik mafkura nuqtayi nazaridan yozilgan, endilikda o'z umrini yashab bo'lgan qancha-qancha asarlarni bugungi kun uchun ham, kelajak uchun ham qadriyat sifatida qarab bo'lmaydi. To'g'ri, ular meros, lekin madaniy meros emas, ularni tarixiy fakt sifatida saqlab qolish mumkin, xolos. Demak, madaniy merosning qadri abadul-abad tushmaydigan qismiga *milliy qadriyatlar* deyiladi.

O'zbekistonda istiqlol sharofati bilan milliy qadriyatlar qayta tiklanmoqda. Milliy qadriyatlarimiz istiqlol madaniyatini yaratishimizda negiz bo'lib xizmat qilmoqda. Bu hol milliy mafkuramizda ham o'z ifodasini topib, jamiyatimiz taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Qaysi mamlakatda bo'lmasin, jamiyatdagi yangilanish doimo madaniy merosning uyg'onishiga olib keladi. Bu esa ommaning birlashuvida, milliy o'zlikni anglashning shakllanishi va rivojlanishida muhim g'oyaviy vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, eski mafkuradan voz kechilgan va yetarli darajada ishlangan yangi mafkura hali yaratilmagan paytda yuzaga kelgan bo'shliqni to'ldiradi. MDH mamlakatlarida yuzaga kelgan hozirgi ahvol fikrimiz dalilidir. Ularning har biri milliy uyg'onish omili sifatida o'tmish madaniy merosini zo'r berib tiklamoqda.

Respublikamizda «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi qoshida 1996-yil yanvar oyida «Oltin meros» xalqaro jamg'armasining tashkil etilishi mustaqillik sharoitida o'tmish madaniy merosini o'rganish va o'zlashtirishning yorqin dalilidir. «Oltin meros» xalqaro xayriya jamg'armasiga O'zbekiston ijodkorlari, ijodkor yoshlarining «Iste'dod» xayriya, milliy va ijtimoiy barqarorlik hamda madaniyat jamg'armalari

ham qo‘shildi. Yangi xayriya jamg‘armasi faoliyati xalqimiz merosining nodir namunalarini to‘plash va asrab-avaylashga, uni nafaqat respublikamizda, balki turli mamlakatlarda targ‘ib qilishga qaratilgan. Ushbu jamg‘arma fuqarolarda, ayniqsa, yoshlarda vatanparvarlik, mustaqillik tuyg‘ularini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Moddiy va ma‘naviy madaniyatimiz shu qadar ulkanki, merosimiz nafaqat o‘z xalqimiz, balki Yevropa, Osiyo, Arab mamlakatlarini ham o‘ziga jalb qilib, qiziqish uyg‘otmoqda va bu umuminsoniy qadriyatlarga qo‘shilgan salmoqli hissadir. X—XI asrlarda — Yevropa madaniyati hali uyg‘onish pallasiga kirmagan paytdayoq bizning Sharq madaniyatimiz barcha jabhalarda yuqori cho‘qqilarni zabt etdi. Yaqin vaqtgacha barcha fanlar poydevori yunonlar tomonidan yaratilgan, degan qarash mavjud edi. Aslida ular yaratgan ilm-fan, falsafaning poydevoriga bir necha asr oldin «Avesto»da asos solingan. Makedoniyalik Aleksandr (Iskandar Zulqarnayn) O‘rta Osiyoga bostirib kelganida, avvalo, zardushtiylar ibodatxonalarini vayron etib, kohinlarni yo‘q qildi. Chunki kohinlar bosqinchilarga qarshi vatanparvarlik kurashini uyushtirgandi. Aleksandr «Avesto»ning 12 ming qoramol terisiga oltin suvi bilan ko‘chirilgan nusxasini olib ketib, ilm-fanga, astronomiyaga, tabobatga, jug‘rofiyaga oid qismlarini tarjima qildirib, qolganini kuydirib tashlagan. Qadimgi yunonlarning o‘zlari Platon va Aristotel ta‘limoti, umuman, yunon falsafasi zardushtiylik ta‘siri ostida shakllandi, deb tan olganlar.

Ibn Sino, Al-Farobiy, Farg‘oniy kabi ko‘plab olimlarimizning asarlari lotin, qadimiy fransuz, italyan, ispan tillariga tarjima qilinib, tarjimalar XII—XIII asrlar, asosan, XIV asrdan boshlab Yevropa ilm-fani, falsafasiga chuqur ta‘sir ko‘rsatdi. Bu asarlarning ko‘pchiligi Parij Milliy kutubxonasida hozirgacha saqlanadi.

Ma‘naviy meros manbalari Ma‘naviy merosimizning tub manbalari quyidagilardan iborat: qadimgi tarixiy yodgorliklar; arxeologik topilmalar; etnografik manbalar; toponimik manbalar; yozma manbalar; oilaviy tarixiy manbalar.

Xalq ma'naviyati, an'analari, urf-odatlari milliy negizdan hosil bo'ladi va tarixiy ahamiyatiga ko'ra xos va nodir sanaladi. Ayni paytda har bir xalqning o'ziga xos madaniyati asrlar davomida boshqa xalqlarning madaniy yutuqlaridan ajralmagan holda yuzaga keladi, rivojlanadi. Har bir avlod madaniy boylikni yangidan yaratmaydi, balki sivilizatsiya davomida shakllangan moddiy va ma'naviy boyliklarni qabul qiladi hamda boyitadi.

Mamlakatimiz Prezidenti 1998-yil 26-iyulda tarixchi olimlar va jurnalistlar bilan suhbatdagi «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» nomli nutqida: «Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi toshyozuvlar, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo'lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilikka oid o'n minglab asarlar bizning beqiyos ma'naviy boyligimiz, iftixorimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kam topiladi. Shuning uchun ham bu borada jahonning sanoqli mamlakatlarigina biz bilan bellasha olishi mumkin...» — degan edi.

Ma'naviyat va madaniyat

Mazkur muammoning ikkinchisi ma'naviyat va madaniyatning qadimiyligi, o'zaro munosabati hamda inson hayoti, shaxs xulq-atvorining ma'naviy qaror topish bosqichlari hisoblanadi. Uni o'rganishda, avvalo, madaniyat eng umumiy tarzda inson va jamiyatning o'zgaruvchanlik faoliyatining barcha turlari hamda faoliyat natijalarining majmuyi ekanligini unutmashlik lozim. Madaniyat jamiyat va inson taraqqiyotining muayyan bir darajasi, kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi. Madaniyat tushunchasi muayyan tarixiy davrlar, ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlar, muayyan jamiyatlar, elat va millatlar taraqqiyoti, moddiy va ma'naviy hayot darajasini, inson faoliyati yoki turmushini ifodalovchi tushunchadir.

Muayyan madaniyatning qamrovi behad keng bo‘lib, u insonlar tomonidan yaratilgan ma’naviy boyliklarni, ijtimoiy ongning ilmiy, badiiy, huquqiy, diniy, axloqiy, falsafiy va boshqa shakllarini, dunyoqarash va tafakkurning barcha shakl va tomonlarini, jamiyatdagi g‘oyalar va ta’limotlarni, badiiy asarlar, estetik qarashlarni ham qamrab oladi. Bundan tashqari, ma’lumot berish, ta’lim-tarbiya, falsafa, din, huquq, etika, estetika, san’at va adabiyot singarilar ham ma’naviy madaniyatga kiradi. Ma’naviy boyliklar siyosiy va huquqiy mafkura, falsafa, axloq, san’at ahli, musavvirlar, bastakorlar, shoir va yozuvchilar, nazariyotchilar, xullas, xalq ommasi tomonidan yaratiladi va ommalashadi. Ma’naviy boyliklar avloddan-avlodga, bir tuzumdan ikkinchi tuzumga meros sifatida o‘tadi va jamiyat taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Madaniyatning paydo bo‘lishi va rivojlanishi kishilik jamiyati taraqqiyotining eng qadimiy bosqichlariga borib taqaladi. Madaniyat insonning kelib chiqishi bilan uzviy bog‘liqdir. Madaniyat tarixi jamiyat tarixining ajralmas qismidir. Shuning uchun ham uning vujudga kelishi va rivojlanishi masalasini jamiyat tarixidan, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlaridan, boyliklar va ishlab chiqarish usulidan ajratib ko‘rish mumkin emas. Madaniy taraqqiyotning umumiy qonuniyatlaridan biri uning to‘xtovsiz ravishda boyib borishi va rivojlanishi bilan belgilanadi. Madaniyat taraqqiyotida moddiy ishlab chiqarishning rivoji asos bo‘ladi. Ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalarning, ishlab chiqarish usullarining almashinuviga qarab madaniyat ham sifat jihatdan o‘zgarib boradi. Jamiyatning taraqqiy etishi madaniyatning o‘zgarishini talab qiladi, madaniyatning yangilanishi esa, o‘z navbatida, jamiyatning taraqqiy qilishiga sabab bo‘ladi. Boshqacha aytganda, moddiy va ma’naviy madaniyat durdonalari inson aql-idroki, iste’dodi va mehnati mahsulidan iboratdir. Xalq ommasi madaniyat ijodkorigina emas, balki uni to‘xtovsiz ravishda boyituvchi, rivojlantiruvchi, avloddan-avlodga yetkazib turilishini ta’minlovchi hamdir.

Shu boisdan ham har bir ijtimoiy tuzum taraqqiyotida madaniyat o‘ziga xos belgi va xususiyatlarga ega bo‘ladi.

Kishilik jamiyatining har bir tarixiy bosqichi o‘z madaniy boyliklarini yaratadi va shu tariqa boshqasidan farqlanib turadi. Har bir xalq madaniyati o‘z mamlakati doirasidagina, tor milliy biqlikda emas, balki boshqa xalqlar madaniyati bilan o‘zaro aloqada rivojlanadi. Shu jumladan, o‘zbek xalqi madaniyati ham faqat milliy asosda emas, balki umuminsoniy madaniyatlar ta‘sirida ham rivojlanib boradi. Yangi demokratik ta‘lim tizimida: o‘quvchi shaxsining ma‘naviy madaniyati hozirgi insoniyat erishgan yutuqlarga asoslanib qurilmog‘i; ma‘naviy madaniyatni shakllantirishda milliylkdan yiroq va unga zid unsurlardan voz kechmoq zarurdir.

Madaniyat shaxs kamolotiga moddiy (texnika, ishlab chiqarish tajribasi, moddiy boyliklar) va ma‘naviy (fan, adabiyot, san‘at, maorif, din, umuminsoniy va milliy ma‘naviy qadriyatlar) jihatdan ta‘sir ko‘rsatadi. Moddiy va ma‘naviy madaniyatning o‘zaro aloqasi hamda ta‘siri natijasida aqlan yetuk, axloqan barkamol, jismonan sog‘lom, dunyoqarashi keng, yaxlit shakllangan shaxs tarkib topadi. Jamiyatning moddiy madaniyati uning ma‘naviy ta‘sirisiz, inson ongi va faoliyatidan tashqarida yaratilmaydi. Inson biror moddiy boylik yaratar ekan, avvalo, uning qurilishi, ishlab chiqarish jarayoni va ta‘lim-tarbiyaviy natijasini o‘z ongida tasavvur etadi, amaliy ahamiyatini oldindan ko‘ra biladi. Ayni shu jarayon ma‘naviy manbalarni yaratishga ham tegishli.

Shuni ham unutmash kerakki, moddiy hayot bilan ma‘naviy hayot dialektik ravishda bog‘langan. Moddiy hayot birlamchi, chunki inson ma‘naviy muammolar bilan shug‘ullanishdan oldin moddiy ehtiyojlarini qondirgan bo‘lishi zarur. Binobarin, ma‘naviy hayot ikkilamchi, chunki u moddiy hayotning kishilar ongidagi in‘ikosini aks ettiradi. Shaxs, jamiyat hayoti va rivojlanishi moddiy ishlab chiqarishga qay darajada bog‘liq bo‘lsa, u ma‘naviy madaniyatning boy va sermazmun bo‘lishiga shu darajada ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Aksincha, ma‘naviy hayot va boyliklar qanchalik yuksak taraqqiy etgan bo‘lsa, jamiyatning moddiy taraqqiyoti uchun shunchalik keng imkoniyatlar ochiladi.

Aslida shaxs tashqi olam, voqea va hodisalarni aql, idrok, ruhiy holat, ichki kayfiyatlar orqali qabul qilib olishi jarayonida ma'naviy madaniyatli insonda vatanga muhabbat, samimiy do'stlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, mustahkam e'tiqod, iymon, nafosat, axloqiy madaniyat singari fazilatlar shakllanib boradi. Uning sifat darajasi kishilarning umuminsoniy va milliy qadriyatlarga, xalqning ma'naviy merosiga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladi. Ma'naviyat negizi hisoblangan umuminsoniy va milliy qadriyatlar shaxsning ijtimoiy tuzum ustqurmalariga munosabati, turli ma'rifiy-madaniy g'oyalar, tushunchalar, qarashlar, tasavvurlar tizimining mahsulidir. Ma'naviy madaniyatning mohiyatini namoyon etuvchi obyekt shaxs hisoblanadi.

Ma'naviy madaniyatning asosiy belgilari insonning ichki va tashqi dunyosida namoyon bo'ladi. Shaxsning ichki ma'naviy dunyosi ma'naviy ehtiyoj, ma'naviy qiziqish, ma'naviy faoliyat va ma'naviy qadriyat kabi asosiy belgilar tizimidan iborat bo'lib, ular o'zaro bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Shaxsning ma'naviy ehtiyoji ma'naviy qiziqishni vujudga keltiradi, u shaxs faoliyati jarayonida namoyon bo'ladi va natijada, ma'naviy qadriyat yuzaga keladi. Ma'naviy qadriyat, o'z navbatida, yuqori ma'naviy ehtiyojning paydo bo'lishiga asos bo'ladi. Ma'naviy rivojlanishning bu aylanish davri uzluksiz davom etadi.

Shaxsning ma'naviy ehtiyoji ko'p jihatdan jamiyatning ma'naviy, moddiy taraqqiyoti darajasiga bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Bu ehtiyoj adabiyot va san'atga, ta'lim va tarbiyaga nisbatan qiziqishni yanada oshiradi. Jamiyatning madaniy hayoti xalqning ma'naviy talabi va qiziqishlarini qondira olmasa, bu narsa jamiyat a'zolarining moddiy va ma'naviy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan shaxs ma'naviy madaniyati uning keng tarmoqli manbalari vositasida shakllanadi, degan xulosa kelib chiqadi.

Faylasuf olimlarning fikrlariga asoslanib, shaxs ma'naviy madaniyati shakllanishiga ta'sir etuvchi quyidagi manbalarni: din, fan, adabiyot, san'at va maorifni ko'rsatish mumkin. Ular o'zaro aloqadorlikda inson ongi va faoliyatiga ta'sir

etadi. Demak, ma'naviy madaniyatni shakllantirish manbalari: 1) fan; 2) adabiyot; 3) san'at; 4) din; 5) ma'rifat; 6) ijodkorlik; 7) ma'naviy-ruhiy qadriyatlaridir.

Ma'naviy manbalarni o'rganish jarayonida shaxsning yangi-yangi ma'naviy ehtiyojlari paydo bo'ladi. Shu ehtiyojlarni qondirishga harakat qilish esa shaxsda o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga intilishni, izlanishni yuzaga keltiradi.

Ma'naviy manbalar ma'naviy madaniyat manbalarining tarixiyligi, izchilligi va uzviyligi; ma'naviy madaniyat manbalarining xalqchilligi, insonparvarligi; moddiy va ma'naviy boylklarning o'zaro aloqadorligi va ta'siri; manbalarning hayot bilan, turmush bilan bog'liqligi; umuminsoniy milliy qadriyatlarning insonparvarlik, vatanparvarlik va milliy xarakteri masalalari bilan uzviy bog'liqdir.

Tarixiy davomiylik Milliy mustaqillik sharoitida madaniy meros masalasi muhimdir. Demak, madaniy meros — bizning moddiy va ma'naviy boyligimiz. Bu jahon ganjiga qo'shilgan bebaho xazinani ajdodlarimiz bizga meros qoldirgan. Bizning tarix oldidagi vazifamiz shu ulkan merosni asrab-avaylab, kelajak avlodlarga yetkazishdir.

Madaniy merosni baholashda, umuman, madaniy siyosatning konseptual asoslarini yaratishda insonparvarlik, taraqqiyparvarlik mezonlariga tayanish kerak. Har bir xalq o'z madaniy merosini to'liq o'rganishi lozim. Madaniy merosni o'rganishdan maqsad o'tmishga sig'inish emas, balki o'tmishga suyanib, undan foydalanib, olg'a siljish, rivojlantirishning yangi bosqichiga chiqishdir.

Madaniy meros va qadriyatlarni targ'ib qilishda xalq ta'limi tizimi, ommaviy axborot vositalari tizimi, doimiy va ko'chma madaniy-ma'rifiy muassasalarning o'rni beqiyosdir. Hali totalitarizm davrida buyuk qadriyatimiz bo'lgan tilimizni saqlab qolish va uning jamiyatimizdagi o'rnini yanada mustahkamlash uchun mamlakat rahbari Islom Karimov tashabbusi bilan 1989-yil 21-oktabrda «Davlat tili haqida» Qonun qabul qilindi. Qonunda O'zbekistonning davlat tili o'zbek tilidir, o'zbek tili respublikaning siyosiy-

ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotining barcha sohalarida to'liq amal qiladi, deb belgilab qo'yildi.

Mustaqillik yillarida Prezidentimiz tomonidan madaniy meros va qadriyatlarni targ'ib qilish samaradorligini yanada oshirish maqsadida, yuqorida eslatilgan farmonlardan tashqari, yana bir qator qaror va farmonlar qabul qilinganligini ta'kidlamoq zarur.

Bular, jumladan, quyidagilardir:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 27-sentabrdagi «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi qoshidagi, «Oltin meros xalqaro xayriya jamg'armasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 31-dekabdagi «Respublikada musiqiy ta'limni, madaniyat va san'at o'quv yurtlari faoliyatini yaxshilash to'g'risida»gi Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 7-maydagi «O'zbekiston ijtimoiy taraqqiyotida televideniya va radioning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 8-yanvardagi «O'zbekistonda milliy raqs va xoreografiya san'atini rivojlantirish to'g'risida»gi Farmoni.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 23-yanvardagi «O'zbekistonning badiiy akademiyasini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 12-yanvardagi «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni.

7. Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13-yanvardagi «Alpomish» dostoni yaratilganligining 1000 yilligini nishonlash to'g'risida»gi Qarori.

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 24-iyuldagi «Ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.

9. 1999-yil 15-apreldagi «Arxivlar to'g'risida»gi Qonun.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 3-sentabrdagi «Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida» Farmoni.

11. Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 29-martdagi «Avesto» yaratilganligining 2700 yilligini nishonlash to‘g‘risidagi Qarori.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 21-martdagi «2004—2009-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi to‘g‘risida»gi Farmoni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 25-avgustdagi «Milliy g‘oya targ‘iboti, ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida»gi Qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-fevraldagi «Yoshlar yili» Davlat dasturi to‘g‘risida»gi Qarori.

Umuman, Prezident Islom Karimov ilgari surgan fikr va g‘oyalardan ma’naviyatning quyidagi tarkibiy qismlarini aniqlab olish mumkin:

- madaniy-ma’rifiy yuksalish;
- ijtimoiy-didaktik taraqqiyot;
- falsafiy-pedagogik o‘sinh;
- iymon-e’tiqodning butunligi;
- milliy axloq-odob me’yorlariga to‘la rioya qilish;
- ilm-ma’rifatli bo‘lish;
- insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, adolat-parvarlik;
- milliy qadriyatlarga muhabbat;
- fidoyilik, mardlik, jasurlik, tashabbuskorlik;
- poklanish;
- islom diniga e’tiqodlilik;
- Vatan va xalq mustaqilligini doimiy ravishda himoya qilish va unga xizmat qilish, ajdodlarga, ularning merosiga chuqur hurmat va shu kabilar.

Ma’naviy merosning bir qismi muzeylarda saqlanadi. Shu sababli muzeylar yoshlar tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi. Prezidentning «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risida»gi Farmonidan ko‘zlangan maqsad muzeylarni yagona bir oilaga birlashtirish, ya’ni ular faoliyatini boshqaruvchi markaziy rahbar organ yaratishdan

iboratdir. Aslida muzey — madaniyat ko‘zgusi, tarixiy, moddiy va ma’naviy yodgorliklarni to‘plash, saqlash, o‘rganish va tashviq qilish kabi ishlarni amalga oshiruvchi ilmiy, ma’rifiy-ma’naviy maskandir. U ekspozitsiya va ko‘rgazmalar vositasida ilmiy tashviqot va ma’naviy tarbiya vazifasini bajaradi. Yurtimizda zamonaviy tushunchadagi muzeylarning 122 yillik tarixi bor. 1876-yilda Toshkentda turli kolleksionerlar qo‘lida to‘plangan turli ashyolar to‘plami asosida o‘l-kashunoslik muzeyi (hozirgi O‘zbekiston tarixi muzeyi), 1918-yilda O‘zbekiston davlat san’at muzeyi, 1937-yilda Toshkentdagi Amaliy san’at muzeyi, 1941-yilda Alisher Navoiy nomidagi muzey, mustaqillik yillarida — 1996-yilda Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Olimpiya shon-shuhrati muzeyi kabi bir qator sohalarni yorituvchi muzeylar tashkil topdi.

Buyuk davlatlarning bugungi kuni hamda istiqbolini madaniyat va ma’naviyat haqida guvohlik beruvchi muzeylarsiz tasavvur etish qiyin. Prezidentimiz Islom Karimov «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida ta’kidlaganidek, biron-bir jamiyat ma’naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay o‘z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

1. «Ma’naviyat va ma’rifat» jamoatchilik markazining (1999-yildan «Ma’naviyat va ma’rifat» kengashi) tuzilishi va unga yuklangan vazifalar mamlakatimiz ma’naviy hayotini tubdan jonlantirib yubordi.

2. Ma’naviyatga davlat siyosatining bosh vazifasi deb qarash bu sohaning taraqqiy topishiga zamin bo‘ldi. Ma’naviy-ma’rifiy islohotlar davlat siyosatining asosiy, ustuvor yo‘nalishi deb belgilandi.

3. Barcha jabhadagi rahbarlarning ma’naviyat bilan bevosita shug‘ullana boshlashi ma’naviyatni jonlantirishga imkon yaratdi. Sho‘rolar davrida ma’naviyat va ma’rifat masalalari bilan tashkilot rahbarining uchinchi o‘rinbosari shug‘ullanar edi, xolos. Ko‘pgina MDH davlatlarida hozir ham

shunday. Bizda esa ma'naviyat masalasi bilan Bosh vazirning o'rinbosari va shaxsan hokimlar shug'ullanadi. Prezidentimiz esa barcha rahbarlarga namuna sifatida «ma'naviyatning bosh homiysi va himoyachisi» deb e'lon qilindi.

4. Barcha sohalarida ma'naviyat va ma'rifat masalalari bo'yicha rahbarlarning maxsus birinchi o'rinbosarlari lavozimi joriy qilinishi boshqaruv tizimida katta voqea bo'ldi.

5. Respublikamizda amaliy qadriyatlarni tiklash bo'yicha jiddiy tadbirlarning amalga oshirilishi xalqimiz hayotidagi eng muhim voqealardan biridir.

O'zbekiston mustaqil respublika sifatida tan olingandan keyin amalga oshirilgan eng buyuk ishlar sirasiga ma'naviy merosimiz va qadriyatlarimizga munosabat tubdan o'zgarганиni ham kiritish lozim. Bu borada Prezident tashabbusi va rahnamoligida ko'plab ishlarning amalga oshirilishi ma'naviyat jabhasida qator ijobiy samaralar berdi. Xususan, shu sa'y-harakatlar natijasida Navro'z, Hayit bayramlari tiklandi; Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk shaxslarning tarixdagi o'rni haqqoniy bahosini topmoqda.

Demak, ma'naviyatga bashariyat taraqqiyotining mahsuli sifatida qaralmog'i lozim. Bu esa milliy ma'naviy qadriyatlarga hurmat va millat o'zligini anglab yetishini talab qiladi.

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR

Islom mintaqasi, Amazonka, Mesopotamiya, ma'naviy meros, madaniy meros, tarixiy vorislik, milliy qadriyat, dialektika, tarixiy davomiylik.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Mustamlaka yillari va ma'naviyat masalasida o'z fikringizni bayon qiling.

2. Mustaqillikning milliy ma'naviy tiklanishga ta'siri qanday?

3. Milliy ma'naviy tiklanish nima?

4. Nima uchun Islom Karimov ma'naviyatni rivojlantirishga ustuvor vazifa sifatida qaramoqda?

5. Mustaqillik yillarida ma'naviy merosimiz rahnamolari nomlarining tiklanishi.

6. Unutilgan va taqiqlangan milliy qadriyatlarimizning tiklanishi.
7. O‘z yeri, o‘z tili va o‘z diniga ega bo‘lish nima?
8. O‘zbek milliy qadriyatlari:
«Farzand kutib»,
«Yigitlik sha’ni, qizlik iffati»,
«Kelin-kuyov axloqi»,
«Ota-ona qadri» haqida gapiring.

Mulohaza uchun mavzu:

XIX asrdagi Farg‘ona general gubernatori M. D. Skobelevning: «Millatni yo‘q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyati, san‘ati, tilini yo‘q qilsang bas, tez orada o‘zi adoyi tamom bo‘ladi...» — degan so‘zlari haqida bahs yuring.

TOPSHIRIQ

Shaxs ma’naviy kamolotidagi quyidagi fazilatlarga izoh bering.

T/r	Fazilatlar	Izoh
1.	Ezgulik	
2.	Andishalilik	
3.	O‘z-o‘zini anglash	
4.	Tashabbuskorlik	
5.	Intizomlilik	
6.	Tirishqoqlik	
7.	Ijtimoiy faollik	
8.	Kamtarlik	
9.	Saxovatlilik	
10.	Rahmdillik	

3-§. AMALIY MASHG‘ULOT

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar va ularning o‘zaro munosabati

Darsning maqsadi: o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyat hamda ularning o‘zaro munosabati to‘g‘risida mustaqil fikrlashga va o‘z mulohazalarini erkin ifodalashga, shu orqali milliy va umuminsoniy ma’naviyatning mohiyatini to‘g‘ri anglashga o‘rgatish.

Darsning shakli: guruhlar taqdimoti (prezentatsiyasi).

Darsga oid jihozlar: markerlar, flamaster, plakatlar va kerakli adabiyotlar, shu bilan birgalikda sinf taxtasi va boʻrdan unumli foydalanish mumkin. Kodoskop va multimedia materiallarini tayyorlab foydalanilsa yanada yaxshi.

Darsning tuzilishi:

Tashkiliy daqiqa.

Yangi mavzu boʻyicha guruhda ishlash.

Guruhlar ishining yakuni.

Darsga yakun yasash va uy ishi.

Oʻqituvchi:

– noanʼanaviy amaliy mashgʻulot boʻlganligi uchun dars haqida qisqacha maʼlumot beradi;

– oldingi darsda ifodalangan darsning maqsadini, yaʼni oʻquvchilarning ijodiy izlanishi va oʻz mustaqil fikrlarini bildirishi uchun imkoniyat yaratilganini bayon qiladi;

– oʻquvchilarning bilimlari va qobiliyatlarini hisobga olib sinfni 5-6 kishidan qilib guruhlariga boʻladi;

– har bir guruh qaysi mavzuni keng yoritib berishi va taqdim etishi (prezentatsiya) nega kerakligini tushuntiradi;

– zarur boʻlganda oʻtgan darslardagi mavzulardan muhim joylarini eslatadi;

– dars oxirida uni xulosalaydi va uyga vazifa beradi.

Oʻquvchilar:

– berilgan mavzu boʻyicha javoblar tayyorlashda ijodiy yondashadi;

– mavzu boʻyicha oʻz fikrini ilgari suradi va asoslab beradi;

– dars mavzusi muhokamasida faol ishtirok etadi;

– javob berishga tayyorgarlik davrida koʻrgazmali qurollar yoki chizmalarni mustaqil tayyorlaydi;

– munozara davrida savollar beradi.

Mashgʻulotni oʻtishda quyidagilarga alohida eʼtibor qaratish kerak:

– mavzu taqdimotida asosiy gʻoyalar plakatga chizilishi yoki sinf taxtasiga yozilishi kerak;

- ushbu maqsad uchun kodoskop, multimedia va kompyuterdan foydalanish zarur;
- har bir guruh o‘z mavzusini ko‘rgazmali asoslab taqdimot qiladi;
- guruhdagi har bir o‘quvchi o‘z fikrini albatta bildirishi zarur.

Taqdimot uchun mavzular:

1-guruh. Islomgacha bo‘lgan milliy ma’naviyatimiz taraqqiyoti. Milliy ong va milliy o‘zlikni anglash masalasi.

2-guruh. Milliy ma’naviyat va qadriyatlar masalasi.

3-guruh. Umuminsoniy qadriyatlar va umuminsoniy munosabatlar.

4-guruh. Xalqimizning an’analariga hurmat, «millatchilik», Sharq va G‘arb ruhi masalasi.

*Sinf taxtasiga quyidagi yozuv
osib qo‘yiladi yoki ekranga*

Ma’naviyat — davlat asosi, davlat esa ma’naviyat suyanchig‘i

O‘qituvchining kirish so‘zi:

Bugungi mashg‘ulot ma’naviyatning asosiy ajralmas qismlaridan bo‘lgan milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bag‘ishlangan. Siz bilasizki ma’naviyat milliy va umum-bashariy xususiyatlarga ega.

milliy ma’naviyat, avvalo tarixiy hodisadir. U qisqa davrda shakllanmaydi. U millatning ibtidosi bilan bog‘liq. Milliy ma’naviyat tarixi millatning ma’naviy rivojida namoyon bo‘ladi. Milliy ma’naviy kamolot zamonda, ya’ni millatning butun tarixi davomida yuz beradi, ammo u ba’zan shiddat bilan yuksalsa, ba’zan tanazzulga yuz tutishi mumkin. Shuning uchun milliy ma’naviyatni juda avaylash va rivojlantirish zarur.

Umuminsoniy qadriyat insoniyat ijtimoiy manfaati, ehtiyoji uchun xizmat qiladigan, ularni ezgulikka yo‘llaydigan ma’naviy boylikdir.

1-guruh taqdimoti (sinf taxtasiga chizma ilinadi)

1-o‘quvchi: Islomgacha bo‘lgan milliy ma’naviyatimiz tarixi bir necha ming yilni qamrab oladi. Ma’naviyatimiz to‘g‘risidagi ma’lumotlarning bir qismi hatto milliy hududlarimizdan tashqarida ham topilgan bo‘lib, «Avesto» kitobi va turkiy toshbitiklarda uchraydi. Ikkinchi qismi qadimgi Shumer, Babil va Assur, Misr va Yunon, Hind va Xitoy manbalarida, Eron shohanshohlaridan qolgan toshbitiklarda aks etgan. Uchinchi guruh manbalar arxeologik yodgorliklar bo‘lib, ular bevosita yurtimiz hududidagi moddiy ashyolar va inshootlar bilan bog‘liq. To‘rtinchi guruh manbalar so‘nggi davrlargacha og‘zaki an‘ana holida yetib kelgan xalq adabiyoti, urf-odat va marosimlar, o‘yinlar, bayramlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

2-o‘quvchi: Milliy ong milliy madaniyatning tarkibiy qismi bo‘lib, uni milliy madaniyatning cho‘qqisiga qiyos qilish mumkin. Milliy ong milliy madaniyatning millat manfaati, millat istiqboli, taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarining inson ongidagi ifodasidir. Shuni ham unutmaslik lozimki, u milliy madaniyat zaminida shakllanishi, rivojlanishi mumkin. Milliy madaniyati rivojlanmagan, milliy birlamlik va hamkorlik tuyg‘ulari zaif bo‘lgan xalqlarda yuksak milliy ong bo‘lishi amri maholdir.

Milliy madaniyatning birlik va hamkorlikka, millat tarixini xolisona anglashga, milliy til va madaniyatni qadrlashga, milliy axloq-odob va boshqa ma’naviy xislatlarni saqlashga xizmat qiluvchi tomonlari milliy ongning negizini tashkil etadi. Bundan tashqari, agar milliy ongimiz to‘xtovsiz yuksala bormasa, mustaqilligimizning ma’naviy zamini mustahkam bo‘lmaydi. Chunki milliy ong mustaqillilikka yo‘nalish beradi, xalqni yakdil qiladi.

Milliy ong muayyan millat va xalqning ijtimoiy birligi, ijtimoiy shart-sharoitlari, urf-odatlari, anʼanalari, turmush tarzi asosida vujudga kelgan kishilarning (millat yoki xalqning) hissiyotlari, kechinmalari, tushunchalari, qarashlari, gʻoya va nazariyalari majmuyini ham anglatadi. Taʼlim-tarbiyaning milliy ongning shakllanishi hamda taraqqiy etishidagi oʻrni va ahamiyati nihoyatda ulkandir. Maktab yoshlarga fan asoslaridan bilim beribgina qolmay, balki ularni tarbiyalaydi, ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga koʻmaklashadi, komil inson degan oliy maqsad sari yetaklaydi.

3-oʻquvchi: Avvalo, muayyan jamiyatdagi har bir millatning ongi, maʼnaviy qiyofasi oʻsha tabiiy, ijtimoiy, tarixiy sharoitlarga qarab oʻzgarib borishi tabiiydir. Zero, millatning ruhiy, maʼnaviy qiyofasi mavjud ijtimoiy ong shakllarida oʻz ifodasini topadi.

Milliy ong ijtimoiy ong shakllari singari maʼlum davrlarda oʻzining nisbiy mustaqilliligi tufayli jamiyat asosini tashkil etuvchi bazis va ustqurmaning mohiyatini tubdan oʻzgartirib borishga faol taʼsir koʻrsatishi mumkin. Bunga misol tariqasida sobiq Ittifoqdagi respublikalar hududida roʻy berayotgan keskin oʻzgarishlar jarayonini koʻrsatib oʻtish mumkin. Ularning hayotida shiddat bilan roʻy berayotgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va huquqiy oʻzgarishlar qanchalik keskin tus olmasin, xalq ommasi ongining yangicha shakllanishi anchagina ijobiy tus olyapti.

Milliy ong va uning shakllanishi, eng avvalo, milliy uygʻonish zaminida boshlanadi. Milliylikni tan olish — millatga mansub kishilarning ijtimoiy-etnik barqarorligini tan olish demakdir. Milliy oʻzlikni anglash ilmiy-siyosiy tus olsa va ijtimoiy harakat uchun qoʻllanma darajasiga koʻtarilsa, milliy mafkura deb ataladi. Bu sohadagi asosiy qoidalar Islom Karimov asarlarida taʼkidlangan boʻlib, bugungi kunimizga xos yorqin xususiyatlardan biri millatning oʻzligini anglashidir.

4-oʻquvchi: Demak, millatning oʻzligini anglashi tushunchalarining tarkibiy qismlari, avvalo, quyidagilardan iborat:

1. Millat (etnos)ga mansubligini anglash. Milliy birlikni va boshqa etnoslarning mavjudligini tushunib yetish.

2. Millatning insoniyat taraqqiyotidagi tarixiy o‘rnini bilish.

3. Milliy qadriyatlar: til, tug‘ilib o‘sgan joy, madaniyatga (keng ma’noda) sodiqlik.

4. Milliy manfaatlarni tushunib yetish.

5. Milliy mustaqillik va milliy taraqqiyotga intilish va unga vijdonan xizmat qilish.

6. Vatanparvarlik.

Basharti, mustaqil davlatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi bo‘lgan xalqda yetuk milliy ong bo‘lmasa, ozodlik, erkinlik haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas. Agar xalqning milliy ongi to‘xtovsiz o‘sib bormasa, mustaqillikning ma’naviy zamini mustahkamlanmaydi.

5-o‘quvchi: Siyosiy madaniyati o‘sgan, milliy o‘zligini anglagan xalq va millatning hayoti mazmunan boyiydi, go‘zallasha boradi.

Avvalo, o‘zligini anglash — bu xalqning o‘tmish tarixiy taraqqiyot yo‘lini, ota-bobolarining, nasl-nasabining, avlod-ajdodlarining kim bo‘lganligi va ularning jahon ilm-fani, madaniyati taraqqiyotiga qo‘shgan buyuk hissalarini bilib olishdir. Milliy o‘zlikni anglash kishi jamiyat va Vatanning porloq istiqbolini ta’minlash uchun qanday imkoniyatlarga ega ekanligini chuqur anglab yetishi va mavjud imkoniyatlarni yuzaga chiqarish uchun o‘zini safarbar etishi, demakdir.

O‘zini chuqur anglab yetgan, ko‘zi ochilgan, aqli yetilgan, g‘oyaviy-siyosiy jihatdan uyg‘ongan, jipslashgan xalq va millatni mustamlakachilik usulida ushlab turish, tili, madaniyati, qadriyatlarini oyoqosti qilish, boyliklarini talon-taroj qilish, huquqini poymol etish, davlat mustaqilligidan judo qilish mumkin emas.

2-guruh taqdimoti (taxtaga plakat osiladi)

1-o‘quvchi: Dunyodagi har bir millat, katta-kichikligidan qat’i nazar, o‘z taraqqiyoti jarayonida ma’naviyatga ehtiyoj

sezadi. Bu tarixiy zaruratdir. Ma'naviyatning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati tarixning burilish davrlarida, ayniqsa, beqiyos bo'ladi.

Milliy ma'naviyat — muayyan elat, millat, uning ajdodlariga xos bo'lgan behad qimmatli ma'naviy boylikdir.

Milliy ma'naviyat, avvalo, tarixiy hodisa ekanligi bilan ajralib turadi. U bir kun yo bir yilda shakllanmasdan, balki insoniyatning milliy-ma'naviy tarixi, millatning ma'naviy kamol topish jarayoni bilan bog'lanib ketadi. Milliy ma'naviyatning asosiy belgisi va o'zagi milliy axloq, milliy his-tuyg'u, milliy ruhiyat kabi masalalar bilan bog'liq, shu bilan birga, milliy ma'naviyatda milliy manfaat masalalarini ham o'rganib chiqish maqsadga muvofiqdir.

2-o'quvchi: Ma'naviyat majmuyi ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllanadi. Milliy axloq ma'naviyatning markazida turadi. Uning belgilari rostlik, adolat, do'stlik, insonparvarlik, bir-biriga hurmat, hamjihatlik, bilimlilik, mehnatsevarlik, ona tili va Vatanga muhabbat, saxovat, mas'ullik, halollik singari fazilatlardir.

Qadriyat so'zining ma'nosini o'zbek tilidagi qadr so'zi ma'nosidan bilib olish mumkin. Qadr tushunchasi serqirra ma'no va mazmunga ega bo'lib, qadriyat sifatida qaralayotgan obyekt, narsa, voqea, hodisa yoki biror idealning subyekt uchun ijtimoiy ahamiyatini anglatadi. Qadriyatlar mohiyati jihatidan moddiy va ma'naviy qadriyatlarga bo'linadi va ular quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

1. Inson yashab turgan moddiy muhit bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar.

2. An'analar, urf-odatlar va marosimlarda aks etadigan axloqiy qadriyatlar.

3. Insoniyat aql-idroki va amaliy faoliyati zaminida shakllangan mehnat malakalari va ko'nikmalari, bilim va tajribalari, qobiliyat va iste'dodlarida namoyon bo'ladigan qadriyatlar.

4. Odamlar o'rtasidagi jamoatchilik, hamkorlik, xayrixohlik, hamjihatlikka asoslangan munosabatlarda ko'rinadigan qadriyatlar.

5. Kishilar yoshi, kasbi, jinsi va irqiy xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlar.

Bayon etilgan qadriyatlar, o‘z navbatida: umuminsoniy, mintaqaviy, milliy, diniy qadriyatlarga bo‘linadi.

3-o‘quvchi: Milliy qadriyatlar ayrim xalq, millatlar va elatlarning tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratilgan barcha moddiy va ma‘naviy boyliklarning yig‘indisidan iborat. Milliy qadriyatlar umuminsoniy va mintaqaviy qadriyatlar bilan birgalikda mavjud bo‘ladi.

Milliy qadriyatlar masalasiga mustaqillikkacha yetarlicha e‘tibor berilmay kelindi. Endilikda mustaqillik va demokratiya jarayoni milliy qadriyatlarni qayta idrok etish va anglashni talab etadi. Bu sohada yig‘ilib qolgan muammolarni yangicha tafakkur asosida chuqur nazariy mushohada etish hayot taqozosidir.

Milliy qadriyatlar tor ma‘noda muayyan bir millatning, elatning qiziqishlari va manfaatlarini ifodalovchi munosabatlar mazmunini tashkil etsa, keng ma‘noda muayyan bir davlatda yashovchi barcha millatlar va elatlarning manfaatlari hamda qiziqishlarini ifodalovchi munosabatlar yig‘indisini aks ettiradi.

4-o‘quvchi: Milliy qadriyatlarning shakllanishi va rivojlanishi muayyan bir millatning hayoti, turmush tarzi, tarixi, madaniyati, urf-odatlarini, tili, o‘tmishi, kelajagi bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi.

Milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy-tarixiy hodisa bo‘lib, millatning tili, madaniyati, tarixi, udumlari, jamiki moddiy va ma‘naviy boyliklari, iqtisodiy, siyosiy va ma‘naviy hayotini har tomonlama qamrab oladi. Insonda milliy ong va g‘urur bo‘lmasa, u o‘zining qaysi millatga mansubligini his etmasa, uning o‘z milliy manfaat va qadriyatlarini qanday qilib anglashini tasavvur qilish qiyin. Toki millatlar, milliy manfaatlar mavjud ekan, milliy munosabatlar ham, milliy tuyg‘ular ham, milliy qadriyatlar ham saqlanib qolaveradi. Millatni milliy qadriyatlardan mahrum qilishga urinish tarix va insoniyat uchun eng katta jinoyat ekanligini bugun tushunib yetayapmiz.

Milliy qadriyatlarning kuchayib borishi mahdudlikka, milliy xudbinlikka, o'z millati manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yish, boshqa millatlar va xalqlar manfaatlarini hisobga olmaslikka olib kelmasligi kerak.

5-o'quvchi: Qadriyatlar qanchalik bir-biriga yaqinlashib, ta'sir ko'rsatmasin, har bir millat uchun ma'naviy kamolotning asosiy yo'li va mezoni milliy qadriyatlar bo'lib qolaveradi. Biron millatning yaxshi urf-odatlarini, marosimlarini boshqa millat ruhi, milliy ma'naviy ehtiyoji va talablariga mos kelgandagina shu millat hayotida chuqur tomir otish imkoniga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, har bir xalq qadrlagan narsa yoki hodisa, birinchi navbatda, uning milliy ma'naviyati bilan bog'liq bo'ladi. Milliy qadriyatlarni qandaydir o'zgarimas hodisa deb qaramaslik kerak. Milliy taraqqiyot bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotning takomillashib borishi, yashash va mehnat qilish sharoitlari o'zgarishi bilan milliy qadriyatlar ham rivojlanib boradi.

3-guruh taqdimoti (taxtaga plakat osiladi)

1-o'quvchi: *Umuminsoniy qadriyatlar* insonlarda axloq va madaniyatning ustunligini e'tirof etishda, ularni turli ijtimoiy-iqtisodiy tuzumli mamlakatlar hamkorligining umumiy yo'nalishini hosil qilish va dunyoda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy ishlarni tushunishda, mamlakatlar va xalqlar o'rtasida madaniy-ma'naviy, ilmiy-texnikaviy, harbiy sohani, aloqani rivojlantirishda ko'rinadi.

Umuminsoniy qadriyatlar jahon sivilizatsiyasining yaxlitligi, uning barcha bosqichlari bir-biri bilan uzviy bog'langanligining ifodasidir. Bu jihatdan qaraganda, umuminsoniy va milliy qadriyatlar bir-biri bilan bevosita bog'liqdir.

Umuminsoniy qadriyatlar milliy qadriyatlardan mazmun jihatdan chuqur va keng bo'lib, uni o'z ichiga oladi. Demak, umuminsoniy qadriyatlar barcha millatlar, elatlar va xalqlarning maqsad va intilishlarining yaxlitligi hamda umumiyligini

ifodalaydi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, dunyodagi bi-rorta xalq va millat o'zidan boshqa xalq va millatdan, umumiy jahon sivilizatsiyasidan alohida tarixga ega emas. Millatlar boshqa xalqlarning yutuqlaridan foydalanmay turib rivojlana olmaydi. Barcha xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy rivojlanish tarixi bir-biri bilan uzviy bog'lanib, taraqqiy etib kelgan. Zotan, hamma vaqt butun jahon iqtisodiy va ma'naviy rivojlanishi xalqlar, millatlar, elatlar, urug'lar va qabilalar tarixi, taqdirlarining o'zaro bog'lanishi, bir-birini boyitishi asosida amalga oshib kelgan.

2-o'quvchi: Umuminsoniy qadriyatlar o'zining mazmuni, mohiyati, keng miqyosda amal qilishi, dunyodagi ko'plab xalqlar, millatlarning o'tmishdagi, hozirgi davrdagi va istiqboldagi taraqqiyoti bilan uzviy aloqadorlikda ekanligi bilan mintaqaviy va milliy qadriyatlardan tubdan farq qiladi.

Tabiatni muhofaza qilish, ekologik tarbiya va madaniyatni rivojlantirish, insoniyatning sihat-salomatligini ta'minlash, oziq-ovqat, energiya va yoqilg'i tanqisligini tugatish, madaniy boyliklarni, sivilizatsiyani eson-omon saqlab qolish, urushlarning boshlanishiga yo'l qo'ymaslik, tinchlikni saqlab qolish—bularning hammasi umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlardir. Umuminsoniy qadriyatlar alohida xalqlar va millatlargagina mansub bo'lmay, bashariyatning mulkidir.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar bir-biri bilan bevosita bog'liqdir. Ularning har ikkalasi bir-biriga ta'sir etadi, biri ikkinchisini to'ldiradi, mazmunan boyitadi.

3-o'quvchi: Umuminsoniy qadriyatlar kishilarning talab va ehtiyojlari asosida aql-zakovat bilan yaratilgan, ularning tasavvurlari, tafakkurlari, kelajak orzu-istaklari, e'tiqodlari, axloq qoidalarini o'zida mujassam etgan, hayotda sayqal topgan ma'naviy boylik bo'lib, tarbiyaning tayanch vositalaridan hisoblanadi.

Umuminsoniy qadriyatlar hayot uchun qimmatli, inson qalbida o'chmas iz qoldiradigan, insoniyat ijtimoiy manfaati, ehtiyoji uchun xizmat qiladigan, ularni ezgulikka yo'laydigan ma'naviy boylikdir. Umuminsoniy ma'naviy boyliklarga ilm-

fan, falsafiy tafakkur yutuqlari, adabiyot, me'morchilik, san'at asarlari, kashfiyot, ixtirolar, ma'naviy madaniyat durdonalari, hurfikrlilik, umuminsoniy axloqiy me'yorlar kiradi.

4-o'quvchi: Umuminsoniy qadriyatlar o'z ijobiy ahamiyatini yo'qotmaydi. Inson ozodligi, Vatan, inson salomatligi, intellektual va aqliy mulklar, vaqt, har bir shaxsning yashash, bilim olish, keksayganda ijtimoiy himoyadan bahramand bo'lish imkoniyatlari, adolat, mehnatsevarlik, ezgulik, yaxshilik, tinch-totuvlik, do'stlik, halollik, vatanparvarlik, ota-onani hurmat qilish, farzandlar haqida g'amxo'rlik, vijdon, burch, baynalmilallik kabi qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlar sirasiga kiradi.

Xalqlarning ulug'vorligi milliy mahdudlikda emas, balki umuminsoniy xususiyatlarga ega ekanligida, jahon sivilizatsiyasiga qo'shadigan hissasidadir. Ayni chog'da boshqa bir narsani ham e'tibordan qochirmaslik kerak. Gap shundaki, milliy manfaatlarni, milliy qadriyatlarni umuminsoniy manfaatlar va qadriyatlarga qarama-qarshi qo'yish, muayyan ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa muammolarni qaysidir millat va elatning manfaatlariga xilof ravishda hal etishga intilish, milliy manfaat bahonasida milliy xudbinlikni, tekinxo'rlikni olqishlash millatlararo munosabatlar taraqqiyotiga salbiy ta'sir o'tkazadi.

5-o'quvchi: Demak, umuminsoniy qadriyatlarni mohiyati va mazmuniga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Inson va insoniyat — eng oliy qadriyatlardir.
2. Insoniyatning mavjud bo'lishi uchun zarur bo'lgan tabiiy imkoniyatlar, mehnat, mehnat qurollari va mehnat mahsulotlarining birligi — moddiy hayot qadriyatlari.
3. Jamiyat hayotiy faoliyati uchun zarur bo'lgan va insoniyat taraqqiyoti jarayonida yuzaga kelgan ijtimoiy soha va tuzilmalar (oila, millat, sinf, davlat) majburiy ijtimoiy hayot qadriyatlari tushunchasida ifodalanadi.
4. Kishilarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan ilmiy bilimlar, falsafiy, axloqiy, estetik g'oya va ideallar yig'indisi.

4-guruh taqdimoti (taxtaga plakat osiladi)

1-o'quvchi: Xalqimizning yaxshi an'ana, udumlari, mehnatsevarlik, halollik, mehmondo'stlik, yaxshi qo'ni-qo'shnichilik, katta va kichiklar, farzandlar va ota-ona o'rtasidagi hurmat-izzat singari ajoyib insoniy xislatlar qayta tiklanmoqda. Ming yillar mobaynida shakllangan ma'naviy va milliy qadriyatlar hozirgi davrda yaratilgan ma'naviy boyliklar bilan qo'shilib, taraqqiyotimizni tezlatadi, g'oyaviy va ma'naviy poklanishni ta'minlashga ko'maklashadi.

Shunga ko'ra xalqimizning buyuk farzandlari xotirasini abadiylashtirish, ularning qadr-qimmatini tiklash, tavalludlarini tantanali ravishda o'tkazishda respublikamizda keyingi vaqtlarda ko'p xayrli ishlar qilinayotganligini e'tirof etmoq lozim.

Mamlakatimizda insonni e'zozlash, uning obro'-e'tiborini tiklashda yurtimizdagi shaharlar, tumanlar, xo'jaliklar, maktablar, ko'chalarga xalqimizning ulug' farzandlari nomlarining berilishi tarbiyaviy ahamiyat kasb etayotganligini ham unutmazlik zarur. Lekin bunday ishlar shoshma-shosharlik bilan emas, balki oqilona hal qilinishi lozim. Bizningcha, Al-Xorazmiy, Amir Temur, Navoiy, Bobur kabi buyuk insonlarning muborak nomlarini yirik ilmiy markazlar, mashhur universitetlar, harbiy bilimgozlarga berilsa, tarixiy haqiqatga mos tushgan bo'lardi.

2-o'quvchi: Millat endigina oyoqqa turayotgan va milliy davlatchilik qaror topayotgan bosqichda millatni birlashtirish, uyushtirish vazifasi turadi. Millatchilik davlat va millat xavfsizligiga, mintaqaviy va keng ko'lamdagi xavfsizlikka, kuchli tahdidga aylanib ketishi ham mumkin. Millatchilik O'zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasida millatlararo munosabatlarga xavf solishi ehtimoldan xoli emas. U Markaziy Osiyodagi respublikalarning hududiy-ma'muriy chegaralarini vujudga keltirish sohasida Rossiya imperiyasi olib borgan va Sovet hokimiyati davom ettirgan siyosat oqibatlariga borib taqalishini unutmazlik lozim. Aniq maqsadga qaratilgan migratsiya siyosati Markaziy Osiyo mintaqasi

aholisining polietnik tarkibi yanada xilma-xil bo'lishiga olib keldi. O'zbekistonda yashayotgan boshqa millatlarning vakillari orasida ham etnik-madaniy asoslarda jipslashish jarayonlari faol yuz bermoqda. Hozirgi kunda anchagina o'zbeklar O'zbekistondan tashqarida yashamoqda. Masalan, Tojikistonda jami aholining 24,4 foizini, Qirg'izistonda — 13,8 foizini, Turkmanistonda — 9,0 foizini, Qozog'istonda — 2,5 foizini o'zbeklar tashkil qiladi. Shuning uchun ham Markaziy Osiyoning suveren davlatlari o'rtasida chuqur va har tomonlama aloqalar o'rnatish zarur. Agar milliy masala to'g'ri hal qilinmasa, jamiyat 2 tomonlama zarar ko'radi:

1) mamlakat ichida millatlar o'rtasida kelishmovchilik, nizolar chiqib turadi, bu esa iqtisodiy rivojlanishga ham, ma'naviy yuksalishga ham salbiy ta'sir qiladi;

2) davlatning chet davlatlar bilan bo'ladigan munosabatlari raxna tushadi.

3-o'quvchi: Madaniy-ma'rifiy sohada G'arb va Sharqning o'ziga xos qiyofalari borligini ko'p mutafakkirlar e'tirof etgan. Xususan, Ibn Sino o'zining «Sharq falsafasi» asarida olimlarni «g'arbhilar» va «sharqchilar»ga ajratar ekan, ba'zi kishilarning falsafiy yo'nalishda yunon falsafasiga yopishib olish holatlarini ko'rsatib o'gan. Ulug' hind mutafakkiri Sevami Vivekanada: «Yevropa ovozi — siyosat ovozidir va bu borada uning ustoz qadimgi Yunonistondir» — deydi. Sharq ovozi — ruhiyat va ma'naviyat ovozidir — barcha payg'ambarlarning butun hayot faoliyatlari Ruhni targ'ib qilishga qaratilgan.

Kommunistik mafkura qurboni bo'lgan rus sharqshunos va ruhiyatshunos olimasi E.P. Blavatskaya shunday degan: «Sharq tarbiyasi an'anasining asosida birdamlik va uyg'unlik falsafasi yotadi. Sharqda ustoz o'z shogirdlariga «bir qo'lning barmoqlari singari» birdam va uyg'un bo'lish ruhini singdiradi». Qadimgi Sharq deganda Yevropa ko'proq muloqotda bo'lgan Misr, Ossuriya, Bobil va G'arbiy Osiyo tushunilar va faqat ularning tarixi bilan cheklanilar edi. Insoniyatning haqiqiy umumbashariy madaniyati G'arb sivilizatsiyasi va Sharq ma'naviyatining qo'shilishi asosida yaratilgandir.

Demak, yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, G‘arb va Sharqning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘li, an‘analari, hayot tarzi bor. Hozirgi davrda bu ikki olamni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish emas, balki bir-birining ijobiy tomonlaridan o‘zaro foydalanishni zamon taqozo qilmoqda. Zero, Prezident Islom Karimov ta’kidlaganidek, «G‘arb olamida esa odamlarning hayot tarzida jamoaviylikdan ko‘ra individualizm, shaxsiy manfaat tamoyillari ustunlik qilishini kuzatish mumkin. bu ham muayyan, obyektiv ijtimoiy-tarixiy omillar tufayli shakllangan voqelik bo‘lib, uni ham inkor etib bo‘lmaydi».

4-o‘quvchi: Umuminsoniy qadriyatlar negizida 2 ta konsepsiya yotadi. Bular — Yevropamarkazchilik konsepsiyasi va Osiyomarkazchilik konsepsiyasi oqimlaridir.

Sivilizatsiya va umuman madaniyat rivojlanishidagi murakkab, uzoq va qarama-qarshi kurash shunga olib keldiki, turli irqchilik nazariyalari, mustamlakachilik mafkurasi va siyosati yuzaga kelishi bilan go‘yoki G‘arb ilg‘or, uyg‘un rivojlanuvchi, taraqqiy etuvchi sifatida, Sharq esa sustkash, dangasa, an‘analarga yopishib olgan tarzda qaralib, G‘arb bilan Sharq bir-biriga qarama-qarshi qilib qo‘yilgan edi. Bu narsa, jumladan, fanda ham ko‘zga tashlanadi. Shunday tadqiqotlarning «asosi» sifatida turli sabablarni bichib-to‘qib chiqarishdan ham tap tortilmagan. Chunonchi, G‘arb kishi-sining miyasi va tafakkur tarzi Sharq kishisining miyasi va tafakkur tarzidan mutlaqo boshqacha, ya‘ni ustun ekanligi ta’kidlanadi. Sharqda ham darhol buning aksini isbotlashga kirishib ketildi, ya‘ni sharqliklar o‘z ustunliklarini da’vo qila boshlashdi. Har ikkala markazchilik — sentrizm vakillari, haqiqiy madaniyat sivilizatsiyasini chetda qoldirib, hatto qadimgi faylasuflarning fikrlarini tan olmay qo‘yishdi. Shu o‘rinda loaqal qadimgi yunon faylasufi Geraklit «sog‘lom fikr — hamma uchun umumiy» deganini eslash zarur.

Markazchilik g‘oyasining takrorlanishi hozirgi kunda ham yuz berib turganligini unutmazlik zarur. Bunday harakatlar faylasuflar, madaniyat xodimlari vakillari va umuman jahon xalqlari va mamlakatlari o‘rtasidagi hamkorlikka raxna solishga xizmat qilayotgani ham ma’lum. Binobarin,

zamonaviy fan G‘arb va Sharqni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yishning asossiz ekanligini isbotlovchi rad etib bo‘lmaydigan dalillarga ega.

Shu boisdan ham bugungi kunda asosiy yo‘nalishni umuminsoniy qadriyatlarga qaratish — zamonaviy sivilizatsiya mustahkamlanishning zaruriy sharti va omilidir. Bunday yondashuv Sharq va G‘arbning falsafiy ta‘limotlari, oqim, yo‘nalishlari va umuman ular madaniyatlari o‘rtasida hamkorlik zarurligini ko‘rsatib beradi. Busiz bugungi kunda olamshumul muammolarni yechish mushkul.

5-o‘quvchi: Bu sohada mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov 1995-yil 3-oktabrda Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasining ochilishi marosimida so‘zlagan nutqida: **«Tanlagan o‘z taraqqiyot va islohot yo‘lidan tezkorlik bilan ilgari siljishga kuchli ruhiy quvvat beradigan milliy madaniyatimiz, sharq falsafasining hayotbaxsh va teran buloqlaridan bahramand bo‘lish muhimdir»**, — degan edi.

«Nur — Sharqdan». Bu Rim imperiyasida keng tarqalgan maqol. Yaqin vaqtlargacha Yunon va Rimda ilm-u fanning rivoj topishida Misr, umuman, Yaqin Sharq mamlakatlari asos bo‘lib xizmat qilganligi aytilgan. Haqiqatda esa, miloddan avvalgi Ioniya fani va falsafasi Yaqin Sharq ta‘siri ostida emas, balki zardushtiylik ta‘limoti asosida shakllangan.

Sharq madaniyati, ilm-fani, falsafasi va adabiyotining ta‘siri Janubiy Fransiya, Provans, Shimoliy Fransiya va Italiyada sezilarli darajada kuchli bo‘ldi. Parijda Sharq she‘riyatining ta‘siri ostida Trubadur va Turuverlar lirikasi, Italiyada «yangi yoqimli uslub» shakllandi.

Agar G‘arbiy Yevropa fan va texnika rivojining oliy darajasiga ko‘tarilgan bo‘lsa, Sharq xalqlari inson qalbini, ruhiyatini o‘rganishda yuqori darajaga ko‘tarildilar. Rus adibi S. Sulginskiy: «G‘arb — oqil, Sharq — donishmand, G‘arb — kenglik, Sharq — teranlik, G‘arb — harakat bilan yashagan, Sharq esa orzu-umid bilan, agar G‘arbning atoqli olimlari faol bo‘lsalar, Sharqda ular faylasuflar... G‘arbiga nisbatan bir necha asrlar avval Sharqda ilm-fanning deyarli barcha sohalari uchun asos yaratilgan edi», — deb yozgan.

Esda tutaylik! O'quvchilar takrorlashadi:

1. Demak, umuminsoniy qadriyat, bu — avvalo, bashariyatning mavjud bo'lishi va yashab qolishini ta'minlaydigan tinchlik, umumjahon sivilizatsiyasi va madaniyati kabi tushunchalar bilan bevosita bog'liqdir.

2. Ayniqsa, hozirgi atom asrida insoniyatning eng oliy qadriyati bu tinchlik va osoyishtalikni har qanday yo'l bilan bo'lsa-da, saqlab qolishdan iboratdir. Busiz boshqa har qanday qadriyat haqida gapirish aslo mumkin emas.

3. Faqat inson va insoniy faoliyat tufayligina qadriyat tushunchasining haqiqiy ma'nosini ijtimoiy borliq va ijtimoiy ong sohasiga tatbiqan tushunish mumkin.

4. Umuman olganda, mamlakatimiz Prezidenti I. Karimov ta'kidlaganidek: «Xalqimizning asrlar osha yashab kelgan an'analari, urf-odatlar, tili va ruhi negiziga qurilgan milliy mustaqillik mafkurasi umuminsoniy qadriyatlar bilan mahkam uyg'unlashgan holda kelajakka muhabbat, insonparvarlik ruhida tarbiyalashni, halollikni, mardlik va sabr-bardoshlilikni, adolat tuyg'usini, bilim va ma'rifatga intilishni tarbiyalash yo'lida xizmat qilmog'i lozim».

5. Odamlarning o'zida jamiyatni yangilash va o'zgartirish zarurligiga ishonch tug'dirmasdan va qadriyatlarga munosabatlarini o'zgartirmasdan turib yangi jamiyat barpo etish, tamomila yangi munosabatlarni joriy etish mumkin emas.

O'qituvchi darsni yakunlaydi. Har bir guruh va o'quvchini baholaydi. Maslahatlar va uyga vazifa beradi.

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR

Multimedia, «Avesto», toshbitiklar, milliy ong, milliy madaniyat, ijtimoiy ong, o'zlikni anglash, mintaqaviy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, «Hur sharqdan», Markazchilik g'oyasi.

4-§. DIN VA MA'NAVIYAT. ISLOM DINIDA MA'NAVIY BARKAMOL INSON MASALASI

Din tushunchasi va dunyo dinlari

Insoniyat ma'naviy madaniyati yaxlit bir butunlikdan iborat. Din, falsafa, adabiyot, san'at va h. k. — bularning hammasini shu muazzam daraxtning shoxlariga qiyos qilsa bo'ladi. «Din» ko'p qirrali va murakkab tushunchadir. Din so'zi arabcha bo'lib, ilohiy qudratga ishonch, ishonmoq ma'nosini bildiradi.

Dunyoda dini, e'tiqodi bo'lmagan xalq yo'qdir. Insonlarning ehtiyoji hosilasi sifatida maydonga kelgan dinning jamiyatda falsafiy-nazariy jihatdan bajaradigan vazifasi nihoyatda muhim. U insonlarni yashashdan maqsadi nima ekanligini, qanday yashash lozimligini, inson hayotining mazmuni nima ekanligini, insof, adolatni, tinchlikni, dorulfano masalasida nimalarga itoat qilish lozimligini, dorulbaqoga qanday tayyorgarlik ko'rish kerakligini, eng muhimi, insonlar halol va pok mehnati bilan kun ko'rishi, ilm-ma'rifatga ega, birodar bo'lishi lozimligini targ'ib qiladi.

Prezident Islom Karimov shunday yozadi: “ko'p asrlar mobaynida xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, hayot ma'nosini anglash, milliy madaniyatimiz va turmush tarzimizni, qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimizni bezavol saqlashda muqaddas dinimiz qudratli omil bo'lib kelayotganini alohida ta'kidlash lozim”.

Eng qadimiy va jahon xalqlari orasida yakkaxudolikka asoslangan birinchi kitobiy din zardushtiylik bo'lib, unga ulug' vatandoshimiz, miloddan avvalgi ming yillikning boshlarida yashab o'tgan, hozirgi Markaziy Osiyo hududida faoliyat ko'rsatgan ilohiyotchi, faylasuf, shoir va tabiatshunos bo'lgan Zardusht Spitama asos solgan.

Dunyoda keng tarqalgan dinlar quyidagilardir:

1. **Xristian dini** — (Iisus Xristos — Iso Masih nomidan) — I asrning 2-yarmida Rim imperiyasining sharqiy qismida

yashovchi yahudiylar orasida paydo bo'lgan va dunyoga tarqalgan. Yevropa, Lotin Amerikasi mamlakatlarida, Avstraliyada, Afrika davlatlari, Yaqin Sharq va Uzoq Sharq hududlarida keng yoyilgan. Hozirgi paytda 1 mlrd 500 million kishi bu dinga sig'inadi. Xristianlarning haj qiladigan joyi Quddusi Sharifda. Rivoyatlarda Iso payg'ambar xristianlikni shu joydan tarqatgan deyiladi.

2. **Yahudiylik** (Iudaizm) — asosan, yahudiylar o'rtasida tarqalgan din. Miloddan avvalgi I ming yillik boshlarida Falastin (Quddus)da vujudga kelgan. Arabiston yarim orolida ko'chib yurgan yahudiy qabilalari miloddan avvalgi XIII asrda Falastinni bosib olib, yahudiy davlatini tuzgan. 1948-yilda u yerda Isroil davlati tashkil topdi.

3. **Buddizm** (miloddan avvalgi VI—V asrlarda) Hindistonning shimolida vujudga kelgan. Keyinchalik Janubi-Sharqiy va Markaziy Osiyo hamda Uzoq Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan. Buddha diniga hind, xitoy, koreys, yapon, vetnam, mo'g'ul, buryat, yoqut xalqlari sig'inadilar. Ularning sig'inadigan joyi: Lixasa (Tibetning markazi — Nepalga yaqin). Buddistlar Lixasaga borib «haj» qilib keladilar va u yerda dalay-lama (Tibet va Mo'g'ulistonda budda dini peshvosi) bilan uchrashuv o'tkaziladi.

4. **Islom dini**. Islom — dunyoda keng tarqalgan dinlardan biri bo'lib, 1,3 mlrd ga yaqin musulmonlar unga e'tiqod qilishadi. Osiyo qit'asidagi Arabiston yarim oroli, Iordaniya, Suriya, Iroq, Eron, Turkiya, Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Pokiston; Afrika qit'asidagi Marokash, Jazoir, Tunis, Liviya, Misr Arab Respublikasi, Somali singari mamlakatlar xalqlari, Efiopiya, G'arbiy Sudanda yashovchilarning bir qismi, Malayziya, Indoneziya xalqlari, Livan, Hindiston, Xitoy hamda Filippin aholisining ma'lum bir qismi, Yevropa qit'asidagi Bolqon yarim orolida yashovchi xalqlarning bir bo'lagi islomga e'tiqod qiladi. Musulmonlarning haj qiladigan joyi — Makkada. U yerda islom dinida eng muqaddas hisoblangan Ka'ba — «Allohning uyi» («Baytulloh») deb nom olgan ibodatxona mavjud.

Islomning mohiyati

«Islom» soʻzi arabcha boʻlib, «xudoga oʻzini topshirish», «itoat», «boʻysunish» degan maʼnolarni bildiradi. Shundan bu dinga ishonuvchilar «muslim» deb ataladi. Uning koʻplik shakli «muslimun». Islom dini Arabiston yarim orolida VII asr boshlarida paydo boʻlgan. Paygʻambarimiz Muhammad alayhissalom (570—632) Makkada Quraysh qabilasiga mansub boʻlgan Hoshimiylar xonadonida tugʻilganlar. Ular 609—610-yillarda Makkada yakka xudoga eʼtiqod qilish toʻgʻrisida targʻibot boshlaganlar. Biroq zodagonlarning qarshiligiga uchrab, 622-yilda oʻz tarafdorlari bilan Madina (Yasrib) ga koʻchganlar (hijrat qilganlar). Musulmonlarning hijriy yili hisobi oʻsha yildan boshlanadi. 630-yilga kelib Makka ham musulmonlar qoʻliga oʻtib, u yerda musulmon davlati shakllanadi. Makka birinchi marta Ptolomey asarida (II asr) Makoraba nomi bilan tilga olingan. Islom dinigacha majusiy qabilalarning diniy markazi boʻlgan. Shu oʻrinda Madina haqida qisqacha maʼlumot berib oʻtish joiz. Qadimda uni Yasrib (Yatrib) —savdo-sotiq shahri, deb atashgan. Yuqorida aytilganidek, 622-yili Muhammad alayhissalom Makkadan Madinaga koʻchib oʻtganlar. Ul zotning daxmaslari Madinada boʻlganligi uchun shahar musulmonlarning Makka (Kaʻba) dan keyingi ikkinchi ziyoratgohi hisoblanadi. Madina markazida VII asrda qurilgan katta Jomeʼ masjidi bor.

Muhammad alayhissalom vafotlaridan keyin bu davlatni ularning oʻrinbosarlari, yaʼni noib-xalifalar boshqaradilar. Shu munosabat bilan ham musulmonlar davlati tarixda «Arab xalifaligi» deb nom olgan. Dastlab arab xalifaligi katta hududni egallagan edi. Oʻrta Osiyo yerlari — Movarounnahr VIII asr boshlaridan VIII asr oʻrtalarigacha arablar tomonidan fath etilib, ular bilan birga islom dini kirib keldi. Islom dini Turonga Arab xalifaligining amiri Qutayba ibn Muslim va askarlari tomonidan 705—715-yillarda yoyilgan.

Arab fothlari bosib olingan yerlarda xalqni islom diniga kirita boshladilar. Arablar islom dinini tarqatishda turli usullardan foydalandilar. Jumladan, islom dinini qabul

qilganlar soliqlardan ozod etilgan. Ana shu davrdan boshlab O'рта Osiyo mintaqasida islom madaniyati va ma'rifati o'ziga xos ravishda shakllandi hamda taraqqiyot bosqichini bosib o'tdi. Bugun buni butun dunyo tan olmoqda. 2007-yil mustaqil mamlakatimiz tarixi sahifalarida qutlug' sanalardan biri sifatida qoladi. Islom konferensiyasi qoshidagi ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Xalqaro Islom tashkiloti (AYSESKO) tomonidan respublikamiz poytaxti Toshkentning 2007-yilda Islom madaniyatining poytaxti deb e'lon qilinishi juda muhim voqealardan biridir. Bu — bu yerda amalga oshirilgan ishning e'tirofi.

**«Qur'oni karim» —
ibrat kitobi**

Islom aqidalarining asosiy axloqiy-huquqiy tamoyillari Muqaddas «Qur'on»da o'z ifodasini topgan. «Qur'oni karim», hadisi shariflarda ma'no va mazmun teran, umuminsoniy qadriyatlarni himoya etuvchi va targ'ib qiluvchi falsafiy xulosalar chuqur.

Bu muqaddas kitob Yer yuzi musulmonlarining dasturulamali, diniy ahkomlar manbayidir. Qur'oni karim sahifalarini bir kitobga jamlash xalifa hazrati Abu Bakr davrida boshlanib, xalifa hazrati Usmon davrida yakunlangan va 4 nusxada ko'chirilgan. Ana shu ko'chirilgan dastlabki nusxalardan biri O'zbekiston musulmonlari idorasida saqlanadi. «Qur'on» — dunyo madaniyatining ulkan boyligi, barcha musulmonlarning kitobi bo'lib, arab tilida «qiroat» ma'nosini anglatadi. Islomning shar'iy ma'nosi — Allohning yagonaligiga iymon keltirib, unga bo'ysunish va butun qalb bilan unga ixlos qilmoqlik, Alloh amrini bajarmoqlikdir. Allohga iymon keltirgan va Alloh yuborgan payg'ambarlarga ergashgan kishi musulmon deyiladi.

Qur'oni karimning eng muhim hikmati shuki, unda har bir inson uchun bevosita ahamiyatli bo'lgan so'zlar, yo'l-yo'riqlar, asosiy qoidalar, ta'limotlar aniq ko'rsatilgan. Qur'oni karimdagi ilm haqidagi, madaniyat, ma'naviyat, ma'rifat haqidagi g'oyalar umumbashariyatga tegishlidir. Unda ilm-ma'rifatga inson ma'naviy-axloqiy barkamolligining ustuvor sohalaridan biri sifatida qaralgan. Axloq va odob masalasiga alohida e'tibor berilgan.

«Qur'on» kishilarni tenglikka, birodarlikka, tinch-totuv yashashga, ezgulikka undaydi. Shunga ko'ra, u katta axloqiy qimmatga ega. «Qur'on»da saxovat, mehmonnavozlik, jasorat, sabr va qanoat, qo'li ochiqlik, bag'rikenglik, muruvvatlilik, keng fe'lilik, to'g'rilik, vafodorlik va sodiqlikka katta e'tibor berilgan va yuksak ma'rifat belgisi, deb qaraladi. Unda ehson mazmuni keng qamrovda olinadi. Unga muomala ham, inson amalga oshiradigan barcha yaxshi ishlar ham kiritiladi. Ehson insonning tabiiy vazifasi bo'lishi kerakligi talqin etiladi. Kim birovga ehson qilsa, uning foydasi o'sha kimsaning o'ziga qaytishi, chunki birovga yaxshilik qilgan kishi o'zida ruhiy qanoat his etishi, boshqalar tomonidan hurmat-ehtiromga sazovor bo'lishi ta'kidlanadi.

«Qur'oni karim»da ehsonga loyiq kishilarga birinchi navbatda ota-onalar kiritiladi va ota-ona haqi belgilab beriladi. «Al-Isro» surasining 23—24-oyatlarida ota-onaga yaxshilik Alloh taologa ibodat qilishdan keyin ikkinchi vazifa sifatida ta'kidlanadi. Ota-ona qanday bo'lishidan qat'i nazar, farzand ularga nisbatan hurmat saqlashi, ularning so'zlarini qaytarmasligi, ota-ona bolani dunyoga keltirish bilan birga, farzandga ta'lim-tarbiya ham berganligini unutmay, ularning haqqini ado etishga doimo tayyor turishi lozimligi ta'kidlanadi.

Mazkur oyatlarda eng oliy insoniy muomala qoidalari sifatida quyidagilar belgilangan:

- ota-onaga ehtirom bajo keltirish;
- ota-onaga rahm-shafqat qilish;
- ularning haqiga duo qilish.

«Qur'on»ni o'rganish jarayonida faqat ota-ona emas, oilaning boshqa a'zolariga: qarindoshlar, yetimlar, kambag'allar, qo'ni-qo'shnilarga ham yaxshilik qilish zarurligi haqidagi ma'lumotlarni bilib olish mumkin. Ezgulik qilish, el-yurtga foyda keltirish, yomonlarni yo'ldan qaytarish, to'g'ri yo'lga solish yuksak ma'naviy fazilat sifatida e'zozlanadi. Yurtboshimizning Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuining ochilishiga bag'ishlangan marosimda so'zlagan nutqidagi fikrlari bu masalada katta ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega: «Savob — ulug' insoniy fazilat, yuksak islomiy qadriyatlardan

biridir. Mening komil ishonchim shuki... savobli ishlarni qilgan odamga, uning el-u yurtiga, albatta, Allohning rahmatlari yog‘iladi. Muqaddas Qur‘on oyatida ta‘kidlanganidek, «Yaxshilikning mukofoti faqat yaxshilikdir».

«Qur‘on»da sabr ham ehson bilan bir qatorda sanaladi: «Hud» surasi 115-oyatida: «Ey Muhammad, mashaqqat va ozorlarga sabr qiling! Zotan Alloh chiroyli amal qiluvchilarning ajr mukofotlarini zoye etmas»,— deyiladi. Qur‘onda oliy xislatlardan yana biri sadoqat, deb ta‘lim beriladi. Sadoqat bor joyda ishonch, e‘tiqod mavjud. Sadoqat barcha yaxshiliklarning debochasi sifatida talqin etiladi. Kishilarda bir-biriga ishonch faqat sadoqat orqali paydo bo‘ladi. Qur‘on insonlarni shunga undaydi. Qur‘onda kishilar o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni yaxshilash to‘g‘risida ham gap boradi va bu oliy darajadagi insoniy xislat bo‘lib, pok qalbli kishilargina bunga erisha oladi, deyiladi.

Unda odob-axloq madaniyati, huquqiy munosabatlar va insonni ulug‘lashga oid muhim ko‘rsatmalar mavjud. Jumladan, «Bandalarimizga aytingki, ular eng go‘zal so‘zlardan so‘zlashsinlar», «Biz odam bolalarini mukarram qildik... ularga halol-pok narsalardan rizq-u ro‘z berdik va ularni o‘zimiz yaratgan juda ko‘p jonzotlardan afzal — ustun qilib qo‘ydik», «Yer yuzida kibr-havo bilan yurmagin! Chunki sen hargiz yerni teshib ketolmaysan va bo‘y-i bastda tog‘larga yetolmaysan», — deb ko‘rsatiladi.

Ijtimoiy hayotda bir shaxs yoki jamiyat kishilarining farovon va baxtli hayoti ko‘p jihatdan ularning tinch-totuv yashashiga bog‘liq. «Qur‘on»da yaxshilik tushunchasi ostida rostgo‘ylik, qanoat, saxiylik, shijoat kabi fazilatlar ko‘zda tutiladi. Har bir kishiga zarar yetkazuvchi yomonlik bilan dushmanlik qoralanadi.

«Qur‘on»da shirinsuxanlik, to‘g‘ri so‘z va muomala madaniyatiga rioya qilish qonun-qoidalari keltiriladi. Shirinsuxanlik insonning muomala madaniyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi, obro‘yini orttiradi, hurmatga sazovor qiladi. Qur‘onda insonning ma‘naviy pok bo‘lishi, havoyi nafsdan saqlanish masalalariga ham e‘tibor berilgan.

Insonni axloqiy kamolga yetkazishda zid xususiyatlar: manmanlik, ichkilikbozlik, qimorbozlik, yolgʻonchilik, boshqalarni kamsitish, badgumonlik, ochkoʻzlik kabilar xususida ham ibrat oladigan fikrlar bildirilgan. Manmanlik — oʻz aybini tan olmaslik, takabburlik sanaladi. Manmanlik illati kishilarni sogʻlom fikr yuritishdan, oʻzini takomillashtirib borishdan mahrum etadi.

«Qurʻon»da yolgʻonchilik va uning turlari, zararli oqibatlar haqida ham fikr bildiriladi. Yolgʻonchilikning eng xavflisi xiyonat deyiladi. Chunki xiyonat jamiyat uchun ham, odamlar uchun ham zarar keltirib, uni xarob etadi. Yolgʻonchilikning yana bir turi vaʼdaga vafo qilmaslik, deb koʻrsatiladi. Irodasiz, birovga yaxshilikni ravo koʻrmaydigan, ishonchsiz kishilar vaʼdasiga vafo qilmasligi, omonatga xiyonat qilishi munofiqlik sanaladi.

Prezident Islom Karimov MDH xorijiy muxbirlar xalqaro uyushmasi aʼzolari bilan suhbatida shunday degan edi: «Islom dini mutaassib din emasligiga iymonim komil. «Qurʻon»ni yaxshi bilgan kishi bu ilohiy kitobda insonparvarlik, tinchlik, osoyishtalik va boshqa dinlarga murosa bilan qarash targʻib qilinishini juda yaxshi biladi... islom dini insonni gunohlardan forigʻ qilishiga ishonaman... shu sababli odamlarda dinga eʼtiqod tugʻilishini aslo qoralab boʻlmaydi. Bizda masjidlar tiklanmoqda. «Qurʻon» ilk marta oʻzbek tiliga tarjima qilindi. Bu bizning tariximizda katta voqeadir».

«Qurʻoni karim» oyatlarining har biri obyektiv mavjud boqiy qonuniyatlarga asoslangan. Janobi Rasulullohning aytishlariga qaraganda, u zotga bu oyati karimalar vahiy orqali goh aniq ovoz bilan, u kishigagina eshitiladigan tarzda, goho tushlari orqali maʼlum boʻlgan. Ul zot Paygʻambar boʻlmaslaridan oldin ismlariga «amin», yaʼni «rostgoʻy» qoʻshimchasini olishga muassar boʻlganlar.

Hadislar — xalq mulki Janob Paygʻambarimiz (s.a.v.) hikmatli soʻzlari yigʻindisidan iborat boʻlgan hadislar Muhammad alayhissalomning muloyimligi, bagʻrikengligi, kechirimliligi, sharm-hayoliligi, oʻch olish oʻrniga afv etishga moyilligi, qiynchiliklarni

chidam bilan yengishlari, adolatparvarligi, saxiyliklari va shijoatlari hamda barcha olijanob fazilatlarini chuqur va ixcham ifoda etilgan. Hadislar islomda «Qur'oni karim»dan keyin ikkinchi manba hisoblanadi va xalqning turmush tarzidagi barcha qonun-qoidalarni belgilab beradi.

Hadislarni to'plash, ayniqsa, VIII asrning 2-yarmidan boshlab g'oyatda avj olib, ilm darajasiga yetgan. VIII asrdan XI asr o'rtalarigacha hadis ilmi bilan Sharqning turli tomonlarida mingdan ortiq kishi shug'ullangan. Lekin payg'ambarimiz (s.a.v.) nomlari bilan bog'langan 14 mingga yaqin hadis to'plangan. Shu bois ular qayta-qayta tekshirilib, olimlarning betinim mehnati natijasida, asl holiga keltirilgan. Hadis ilmining rivojida oltin davr hisoblangan hijriy uchinchi (milodiy to'qqizinchi) asr katta bosqich bo'ldi. Butun musulmon olamida eng nufuzli manbalar deb tan olingan 6 ta ishonchli hadislar to'plami (As-Sahih as-sitta) mualliflari Markaziy Osiyo xalqlari vakillari bo'lganlar. Ular:

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, 194 (810)—256 (870).
2. Imom Muslim ibn al-Hajjoj, 206 (819)—261 (874).
3. Imom Iso Muhammad ibn Iso Termiziy, 209 (824)—279 (892).
4. Imom Ahmad an-Naso'iy, 215 (830)—303 (915).
5. Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoniy, 202 (817)—275 (888).
6. Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Mojja, 209 (824)—273 (886).

Ushbu muhaddislarning har biri hadis ilmining rivojiga salmoqli hissa qo'shgan benazir olimlar hisoblanadi. Hadis ilmida «Amir ul-mo'miniyn», «Imom ad-dunya», «Imom al-muhaddisiyn» («Barcha muhaddislarning imomi») degan sharaflil nomlarga sazovor bo'lgan Imom al-Buxoriy hazratlari alohida e'tiborga molik zotdir.

Imom al-Buxoriy (809—870) Buxoroda dunyoga kelgan. Uning otasi Ismoil o'z davrining ilm-ma'rifatli kishilaridan bo'lgan. U o'g'lining tug'ilgan kunini yozib ketgan qog'oz zamondoshlari qo'liga yetgan. Imom al-Buxoriy yoshligida

otasi vafot etib, onasi tarbiyasida o'sgan. Bolaligidan aql-idrokli, o'tkir zehnlil va ma'rifatga havasi kuchli bo'lgan, turli ilm-fanlarni, ayniqsa, Payg'ambarimiz hadislarini alohida mehr va ixlos bilan o'rgangan. Ko'p olimlardan eshitgan hadislarini, to'plamlarni yodlagan, ustozlari Dohiliy bilan qizg'in bahslarda qatnashgan. Bugungi kunda Imom al-Buxoriyning 20 dan ortiq katta va kichik kitoblari orasida «Al-Jome' as-sahih» alohida o'rinda turadi. Bu shoh asarda axloq va odobga xos hadislar maxsus bir bobda mujassamlangan va ahamiyati jihatidan «Qur'oni karim»dan keyingi ikkinchi diniy manba deb e'lon etilgan. «Al-Adab al-mufrad» («Adab durdonalari») kitobida ham axloqiy qadriyatlar o'z ifodasini topgan.

Imom al-Buxoriy hadisga bag'ishlangan asarlarida axloq-odob haqida fikr bayon etar ekan, odamlarni ota-ona hurmatini joyiga qo'yish, ularni e'zozlash, dillariga hech bir ozor bermaslik, farzandlar o'z ota-onalari oldidagi burchlarini mukammal ado etishlari zarurligi, bolalarning solih-qobil bo'lishlari, ta'lim-tarbiyaga, oilaviy muhitning barqarorligi kabi masalalarga alohida e'tibor bergan. 1998- yil 23-oktabrda hadis ilmining sultoni Imom al-Buxoriyning 1225 yilligi keng nishonlandi. «Imom al-Buxoriy va uning dunyo madaniyatida tutgan o'rni» mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o'tkazildi. Samarqandning Chelak tumani Xarsang qishlog'ida maqbara qurildi. Imom Buxoriy kompleksi hozir katta ziyoratgoh joyga aylandi. «Imom al-Buxoriy» xalqaro xayriya jamg'armasi tashkil etildi.

Alloma Imom Iso at-Termiziy (824—892) — Termiz shahrida dunyoga kelgan. Boshqa hadischi olimlar kabi at-Termiziy ham yoshlik chog'idan hadis mutolaasiga kirishib, Imom al-Buxoriyga shogird bo'lgan. Alloma Termiziy asari tarkibiy jihatdan bir qancha boblarga bo'linadi, unda tahorat, salot (namoz), zakot, ro'za, haj, janoza, nikoh, emizish, taloq, savdo-sotiq, rozilik ahkomlari, tovon to'lash, me'yor, sayd, qurbonlik, nazr-niyoz, iymon, siyratlar, jihod, kiyim-kechak (libos), taomlar, ichimliklar (al-ashriba), xayr-ehson va saxovat, tabobat, huruju fitnalar, bashoratlar, shahodat,

jannat sifatlari, jahannam sifatlari, ilm, izn so‘rash va odob masalalari, «Qur‘on» fazilatlarini, qiroat, tafsir, duolar, manoqiblar (fazilatlar), illatlar haqidagi boblar keltiriladi.

Islom axloqi Rasululloh hadislarining yana bir muhim mavzu yo‘nalishi, jismoniy va ma‘naviy intilishdir. Tahorat, g‘usl masalalari tashqi ozodalik talablari bo‘lsa, haromdan, yolg‘on so‘z, g‘iybat, tuhmat, zinokorlik, o‘zgarar haqiga hiyonatga va zulmga yo‘l qo‘ymaslik, ulardan qat‘iy saqlanish ichki ma‘naviy poklikka oid talablardir. Ma‘lumki, hadislarida insonning inson oldidagi mas‘uliyati «savob», «gunoh» tushunchalari orqali boshqarilishi aytiladi. «Savob» mohiyatini ochib beruvchi umuminsoniy qadriyatlarni quyidagicha berishimiz mumkin:

ota-ona, keksalarga

hurmat,

halollik,

ilmli bo‘lish,

ishonch,

hamkorlik,

himmat,

do‘stlik,

bardoshlilik,

insonparvarlik,

xushxulqlilik,

ozodalik,

halimlik,

pokizalik,

tavoze,

bilimdonlik,

hayo, vazminlik,

tejamkorlik,

tadbirkorlik,

sir saqlash,

kamtarlik,

xayr-ehson,

ayollarni e‘zozlash,

qanoat,

saxovat,

muloyimlik,

rostgo‘ylik,

latiflik,

iffat,

to‘g‘rilik,

dinni e‘zozlash,

shukr,

diyosat,

vafo,

oqibatlilik,

qadr,

rahm-shafqat,

saxiylik,

e‘tiqod,

sadoqat,

mehmondo‘stlik,

sabotlilik,

mehr-oqibat va boshqalar.

Aksincha, iymon talablariga zid noaxloqiy xususiyatlar keskin qoralanadi va ular «gunoh» sifatida huquqiy qonunlar bilan qat'iy man etiladi. «Gunoh» ishlarga quyidagilar kiradi:

o'g'rilik,	tamagirlik,
zino,	isrofgarchilik,
hayosizlik,	itoatsizlik,
munofiqlik,	bid'at,
yolg'on so'zlash,	xurofot,
shartida turmaslik,	chaqimchilik,
kek saqlash,	kibr,
nopoklik,	gina-adovat,
riyokorlik,	xiyonat
xusumat,	razillik,
nohaqlik,	baxillik,
hasad,	zulm,
nodonlik,	maqtanchoqlik,
qotillik,	ikki yuzlamachilik,
fitna,	takabburlik,
g'iybat,	manmanlik,
ochko'zlik,	shuhratparastlik
	va boshqalar.

Umuman, islom barcha mo'minlarni to'g'ri yo'lga chorlovchi, insonparvar din ekanligini anglab va bilib olish lozim. Shundagina dindan ma'naviy va ma'rifiy tarbiyada foydalanish zaruratiga to'g'ri yondashiladi.

Vijdon erkinligi

O'zbekiston fuqarolarining vijdon erkinligi qonun bo'yicha kafolatlangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida: «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi»,— deyiladi.

O'zbekistonning mustaqilligi inson va fuqarolarning ham, u yashayotgan jamiyatning ham ma'naviy jihatdan boyib

borishi uchun keng yo‘l ochdi. Davlatimizda vijdon erkinligi masalasi bilan bog‘liq munosabatlar o‘zgardi. Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq diyorimizning barcha fuqarolari haqiqiy e‘tiqod erkinligini his eta boshladilar. Davlat bilan diniy tashkilotlar o‘rtasidagi munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 1-mayda qabul qilingan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi (yangi tahrirdagi) Qonuni bilan tartibga solinadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda turli din vakillari o‘z dinlariga hech qanday to‘siqlarsiz e‘tiqod qilishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Sobiq ittifoq davrida respublikamizda bor-yo‘g‘i 89 ta masjid va ikkita madrasa faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, hozir O‘zbekiston musulmonlari idorasi boshqaruvi ostida Adliya vazirligidan rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan 1700 dan ortiq masjid, 10 ta madrasa faoliyat ko‘rsatib turibdi.

Hadislarda millatlararo mojarolar, qonli to‘qnashuvlar, millat ajratishlar qoralangan. Har xil millat vakillari, garchi dinlari va diniy e‘tiqodlari o‘zaro farq qilsa-da, bir-birlarining tillari, tarixlari, madaniyatlari, milliy urf-odatlari va qadriyatlarini bilish va hurmatlashga, o‘zaro totuv bo‘lib yashashga da‘vat etilgan.

Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan turli millat vakillari ham o‘zlari e‘tiqod qilayotgan dinlarida erkin ibodat qilmoqdalar. Bugun respublikamizda 15 turdagi konfessiyada 170 dan ortiq noislomiy diniy tashkilotlar rasman faoliyat ko‘rsatmoqda. Mamlakatimizda yirik diniy tashkilotlardan O‘zbekiston Musulmonlari idorasi, O‘rta Osiyo Rus pravoslav cherkovi boshqarmasi, O‘rta Osiyo Injil Nasroniylar — Baptistlar, O‘rta Osiyo Yettinchi kun Adventistlar cherkovi va boshqa konfessiyalar yagona huquqiy tizim va maqom asosida ish olib bormoqda.

Mamlakatimizda tashkil topgan bu ibratli va noyob hodisa — turli dinlarga mansub xalqlarning ko‘p millatli davlatda tinch-totuv yashay olish tajribasini jahon miqyosida o‘rganilsa va qo‘llanilsa juda ham foydali bo‘ladi.

Biroq oxirgi paytlarda diniy-ma'naviy qadriyatlar rivojiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatayotgan ayrim jarayonlar ham yuz berdi.

**Ijtimoiy xavfli
mazhablar**

Diniy firqachilik, diniy toifachilik, guruhbozlikning ba'zi bir qarashlari bilan sira chiqishib bo'lmaydi. Musulmon degani bilan, odam musulmon bo'lib qolmaydi. Shariat qoidalarini bilib, unga amal qilmaslik og'ir gunoh.

1990-yillarda mamlakatimiz va qo'shni respublikalarda taraqqiyotimiz, osoyishtaligimizni ko'rolmaydigan «vahhobiylik», «tolibon», «hizbut-tahrir», «akromiyalar» kabi oqimlarning guruh va to'dalari paydo bo'la boshladi. Bunday to'dalar o'zlaricha masjidlarda g'avg'o ko'tarib, o'tish davri qiyinchiliklaridan foydalanib, ayrim yoshlar ongini zaharlashga urindilar. Mustaqillik bergan erkinlikni suiiste'mol qilib, mamlakatni dunyoviy demokratik yo'ldan olib borish emas, balki islomiy davlat qurishni shior qilib chiqdilar. Bu mutaassib dindorlar o'zlarini «vahhobiy» yoki «dinni tozalovchilar», «fundamentalistlar» deb yuritsalarda, aslida islomning o'ziga zarba bermoqdalar. Vahhobiylarning ijtimoiy-tarixiy mohiyati nimalardan iborat?

Vahhobiylik harakati sunniy mazhablarning eng kichigi bo'lib, radikal yo'nalish hisoblangan hanbaliylikdan kelib chiqqan, dunyoviy qadriyatlarga nisbatan o'ta murosasiz diniy-mafkuraviy oqimdir.

Mutaxassislarning fikricha, bu oqimning ayrim ko'rinishlari XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududida ham bo'lgan. 1990-yillarda vahhobiylik oqimiga mansub kishilar O'zbekiston Respublikasida ham borligi ma'lum bo'ldi. 90-yillarning boshida vahhobiylar Namanganda Alisher Navoiy haykalini buzib tashlashgan. 1990-yil dekabrda 5 nafar askarning avtobusda yoqib yuborilishi, milliylik shiori ostida o'zaro nizolarning keltirib chiqarilishi, 1991-yil dekabrda sobiq viloyat partiya qo'mitasi binosini egallab olishga va uni «Islom markazi»ga aylantirishga bo'lgan urinishlar, «Adolat», «Islom lashkarlari» norasmiy

guruh a'zolarini jinoiy javobgarlikdan ozod qilish maqsadida viloyat prokuraturasi binosining o'rab olinishi ular faoliyatining bir qismi, xolos.

«Adolat» va «Islom lashkarlari»ning maqsadlari bitta edi — hokimiyatni zo'rlik bilan qo'lga olib, dastlab Farg'ona vodiysida, keyinchalik butun O'zbekistonda «Islom davlati» tashkil qilishdan iborat edi. Ular ko'plab tashkilot va xo'jaliklarning ma'muriy binolarini zo'rlik bilan egallab olib, «Diniy markaz»ga aylantirishga harakat qildilar.

Aslida bu diniy ekstremistik guruhlar o'z oldiga bir necha yo'nalishda faoliyat olib borishni maqsad qilib qo'ygan edi.

Birinchi yo'nalish: hokimiyatni muhofaza qiluvchi idoralarni kuchsiz qilib ko'rsatib, xalqni qo'rquvga solish maqsadida turli jinoyatlar va terroristik harakatlar sodir etishdan iborat bo'lgan. Buning uchun zamonaviy qurol-aslahalar bilan to'liq ta'minlagan, uyushgan qurolli guruh tashkil qilingan. Bu uyushgan qurolli jinoiy guruh xalq osoyishtaligini buzish, fuqarolar mol-mulkini talon-taroj qilish, aholini o'ldirish bilan shug'ullangan.

Ikkinchi yo'nalish: o'z atrofida imkon qadar ko'proq kuch to'plash maqsadida jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarni qidirib topish, ularni xorijga yuborish, maxsus tayyorgarlikdan o'tib kelishlari va «Jihad» harakatlariga tayyor bo'lib turishlarini ta'minlashdan iborat bo'lgan. Shu maqsadda bir guruh yoshlar xorijiy davlatlarga noqonuniy yo'llar bilan yuborilib, bir necha oylab islomiy jangarilar, qo'poruvchilar tayyorlaydigan maxsus harbiy o'quv markazlarida tayyorgarlikdan o'tishgan.

Uchinchi yo'nalish: shahar va qishloqdagi masjidlar, mahallalar, xonadonlar va turli xil marosimlarda aholini «Islom davlati» qurishda, hayotga shariat qonunlarini tatbiq qilishda ishtirok etishga da'vat qilishdan iborat bo'lgan. «Islom davlati» tuzish kerakligini, bunda ishtirok etish farz ekanligini targ'ib qilishgan. Ana shunga qarshi chiqqan har qanday odamga qarshi, hatto o'z ota-onasi va aka-ukasi bo'lsa ham, «jihad» qilishga fatvo berilgan.

Qurolli guruhlar, jinoiy uyushmani mablag‘ bilan ta‘minlash maqsadida umumiy xazina — «Baytulmol» tashkil qilingan.

Ekstremistik fanatik ruhdagi jinoiy guruh a‘zolarining yovuzliklari tinch, osoyishta hayot kechirayotgan aholi qalbini larzaga soldi. Ro‘y bergan jinoyatlar ildizi chuqur bo‘lib, ular katta, mudhish maqsadni o‘z oldiga qo‘ygan edilar. Ular 1998-yilga kelib biri biridan mudhish 10 ta jinoyat sodir etishgan.

Ayrim xorijiy mamlakatlarda joylashgan tashkilotlar yordamida o‘zbekistonlik, aksari vodiylilik bo‘lgan yoshlar O‘zbekistonda terrorchilik harakatlari uchun o‘qitilgan. Maxsus tayyorgarlikdan o‘tgach, ular Tojikiston va Qirg‘iziston orqali O‘zbekistonga yo‘llangan.

1999-yil 16-fevral kuni Toshkent shahrida odamlar qurbon bo‘lishiga olib kelgan terrorchilik harakati sodir etilgan edi. Natijada, 13 kishi halok bo‘ldi, 128 nafar kishi esa turli darajada tan jarohati oldi, 83 nafari kasalxonada yotib chiqdi. Portlashlar shaharning turli nuqtalarida 6 joyda sodir etilishi mo‘ljallangan bo‘lib, ulardan bittasi detonatsiya oqibatida yuz bermaganligi sababli 5 ta joyda sodir bo‘ldi. Vazirlar Mahkamasi binosiga kirish joyida, ya‘ni Prezident korteji o‘tadigan yo‘lda, «Nodirabegim» kinoteatri, Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, Ichki ishlar vazirligi binolari yonida hamda jinoyatchilar tomonidan ijaraga olingan eski bir hovlida portlash sodir bo‘ldi. Terrorchilik harakatlari portlatgich moddalar bilan to‘ldirilgan turli rusumdagi 5 ta avtomashinani portlatish vositasida amalga oshirilgan.

Asrimizning so‘nggi yillariga kelib, dunyoning goh u, goh bu chetida islom dinini niqob qilib olgan buzg‘unchi oqimlar paydo bo‘lgani ma‘lum. Ular jamiyatda tartibsizlikni avj oldirib, el-yurt tinchligiga raxna solib, Konstitutsion tuzumni ag‘darib tashlab, islom davlatini barpo etishga urinayotirlar. G‘alamislar bu qabih niyatlarini amalga oshirish maqsadida hali ongi shakllanmagan yoshlarning fikrini chalg‘itib, o‘z tomonlariga og‘dirib olishga harakat qilmoqdalar.

Hozirgi kunda g‘ayriqonuniy ravishda faoliyat ko‘rsatayotgan turli oqimlar, diniy ekstremistik tashkilotlar

xususida soʻz yuritar ekanmiz, ularning gʻoyalari nimadan iborat va oʻz oldilariga qanday maqsadni qoʻyishgan, degan haqli savol tugʻilishi tabiiy. Umuman, islomda hizb, yaʼni firqa tuzish shariat qonunlariga zid hisoblanadi.

«Qurʻoni karim»da «...odamlarni aldab fitnaga solish oʻldirishdan yomonroqdir»,... «Alloh zulm qiluvchilarni sevmaydi», deb taʼkidlanadi. Diniy ekstremistlarning harakatlari esa «Qurʻoni karim» oyatlariga mutlaqo ziddir. Chunki ularning asl maqsadi dinni mustahkamlash emas, din niqobi ostida hokimiyatga erishishdir. Hozirgi kunda bu oddiy haqiqatni har bir ongli inson tushunib yetdi va oʻziga xulosa chiqarib oldi.

Yurtboshimiz alohida taʼkidlaganidek: «...ayni zamonda, biz din peshvolariga, oʻzimizga oʻxshagan musulmon birodarlarimizga bir narsani takror va takror uqtirmoqchimiz... diniy partiyalar tuzib, hokimiyat talashib yurishlar xudoga ham yoqmaydi. Hamma ahil, hamma pokiza boʻlib yashasin. Kimning fazilati qancha, kimning gunohi qancha ekanini yaratganning oʻzi ajrim qilib beradi u dunyoda».

1997-yil yuz bergan Namangan voqealari, 1999-yili Toshkentdagi portlashlar, 2000-yil avgust oyida Surxondaryo va Toshkent viloyatida sodir boʻlgan hodisalar, 2004-yil mart oyida Toshkent va Gʻijduvonda, 30-iyulda Toshkentda sodir etilgan jinoiy harakatlarda ishtirok etgan, xalqimizning tinchligini buzishga, oʻz Vatanga xiyonat qilib, aziz tuprogʻimizni oyoq osti qilishga uringan xalqaro terrorchilarning gumash-talari, vatanfurush, xoin, qonxoʻr kallakesarlarga nisbatan huquqni muhofaza qiluvchi idoralar tomonidan jinoyat ishlari qoʻzgʻatilib, oliy jazoga va uzoq muddatli qamoqqa hukm etildi, ularning bir qismiga nisbatan qidiruv eʼlon qilindi.

Xalqimizning asl farzandlari vatanimiz sarhadlariga suqulib kirishga harakat qilgan xalqaro terrorchilarga qarshi ona-Vatan himoyasiga oʻtlanib, ularga qaqshatqich zarba berdilar. Kecha-yu kunduz mardlarcha jasorat koʻrsatib, gʻanimni yer tishlatdilar.

Umuman, bugun — XXI asr boshida ham Oʻzbekiston xavfsizligiga tahdid soladigan bunday kuchlarga qarshi

o‘z bilim va salohiyatimizni yanada oshirishimizni taqozo etiladi.

Yoshlarimiz bugungi kunda terrorizm va diniy ekstremizm ko‘lamining xavfli ravishda kengayishi dunyo hamjamiyatida turli xil tashvishli savollarni keltirib chiqarayotganini anglab yetishlari zarur. Terrorizm dunyo davlatlariga, xalqlariga, xususan, O‘zbekistonga xavfli tahdidir. Prezident Islom Karimov «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» kitobida ta’kidlaganidek: «ma’naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o‘z-o‘zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog‘lom avlod kelajagini ta’minlash yo‘lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin».

Demak, islom fundamentalizmi yuzaga kelishining obyektiv va subyektiv sabablari bor ekan, ularni sinchiklab o‘rganib, chora-tadbirlar ko‘rilsa, bu oqim o‘z zaruriyatini yo‘qotadi.

Prezident Islom Karimovning «O‘zbekiston XXI asr bo‘sa-g‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobini o‘rganar ekanmiz, «Muqaddima»dayoq ogohlik haqidagi fikrlarga duch kelamiz: «Ogoh bo‘ling, odamlar!» degan da’vat hamisha bong urgandek yangrab turishi kerak».

Shunday qilib, diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm ikkalasi ham tahdid — halokatli kuch. Shu sababli Prezidentimiz bu kuchlarning vatani, millati yo‘qligini, ularga qarshi xalqaro jamoatchilik kuchlarini birlashtirish zarurligini bir qancha xalqaro anjumanlarda uqtirib keldi. Buni faqatgina 2001-yil 11-sentabrda AQSHda ro‘y bergan terrorchilik harakatidan keyingina boshqa davlatlar rahbarlari tushunib yetdilar va o‘z kuchlarini yovuz terrorchilarga qarshi birlashtirdilar.

Lekin xalqaro terrorizm hali katta kuchga ega. Buni Ispaniya, Saudiya Arabistoni, Rossiya, Iroq, Falastin va boshqa joylarda bo‘lgan voqealar ko‘rsatib turibdi. Shu sababli, dunyodagi barcha taraqqiyparvar kuchlarni bu ofatga qarshi birlashtirish zarur.

Bu borada Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga (SHHT) a‘zo davlatlar tomonidan amaliy ish qilinmoqda. Tashkilotning 2004-

yil iyun oyida Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishi doirasida SHHT mintaqaviy aksilterror tuzilmasi ijroiya qo‘mitasi rasmiy ochildi. Uning qarorgohi Toshkentda joylashgan. Bu tashkilot xalqaro terrorchilik, ekstremizm, narkotrafik kabi xavf-xatarlarning oldini olishga o‘z hissasini qo‘shadi.

TAYANCH SO‘Z VA IBORALAR

Ayn, dunyo dinlari, diniy e‘tiqod, xristianlik, yahudiylik, buddizm, Islom, Qur‘oni karim, Hadis, muhaddislar, Tasavvuf ta‘limoti, xorijiylik, sunniylik, shialik, so‘fiylik, Naqshbandiya, Vijdon erkinligi, tolibon, vahhobiylik, diniy ekstremizm, fundamentalizm.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Mustaqillik va islom dini haqida o‘z fikringizni bayon qiling?
2. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi nimalarga olib keldi?
3. Diniy ekstremizm haqida fikr yuriting.
4. Islomiy qadriyatlarning tiklanishi haqida nimalarni bilasiz?
5. Diniy olam va dunyoviy ilm o‘rtasidagi bog‘liqlik qanday?
6. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy haqida nimalarni bilasiz?
7. Ilm olishga bag‘ishlangan hadislardan namunalar va sharhini keltiring.
8. Tasavvuf diniy ta‘limoti va uning mohiyati haqida nimalarni bilasiz?
9. Xoja Ahmad Yassaviy va Bahouddin Naqshband ta‘limotlari haqida gapiring.
10. «Diling Allohda, qo‘ling mehnatda bo‘lsin» iborasining mohiyatini izohlang.

TOPSHIRIQ

Diniy bag‘rikenglik (tolerantlik) madaniyatini belgilovchi quyidagi fazilatlarga izoh bering.

T/r	Fazilatlar	Izoh
1.	Vijdon pokligi	
2.	Ruhiy poklik	
3.	Diniy qadriyatlarni hurmat qilish	
4.	Dinlararo bag‘rikenglik	
5.	Insofililik va adolatlilik	
6.	Iymonlilik	
7.	Mustahkam e‘tiqodlilik	
8.	Barcha dinlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish	
9.	Diniy va milliy mojarolarga murosasizlik	
10.	Turli diniy e‘tiqodlarga nisbatan murosasizlik	
11.	Hurfikrlilik	
12.	Amallarning ezguligi	

5-§. TEMURIYLAR DAVRI MA'NAVIYATI

**Davrga ta'sir
etgan omillar**

Temuriylar davri ma'naviyati yurtimiz tarixidagi zarhal harflar bilan bitilgan ulkan xazinadir. Mamlakatimizning dunyoga mashhur bo'lishida, insonlar tarbiyasida bu davr o'z rolini bajarmoqda va mustaqilligimizni mustahkamlashda, xalqimizning milliy g'ururini shakllantirishda xizmat qilmoqda.

Har bir davrning moddiy va ma'naviy taraqqiyotga ta'sir etuvchi o'z omillari bo'ladi. Temuriylar davri ma'naviyatining yuksalishiga ta'sir etgan omillar — IX—XII asrlarda Markaziy Osiyoda ro'y bergan o'zgarishlar, buyuk Uyg'onish davri (Sharq Renessansi) kashfiyotlari, ilm-fan sohasidagi katta o'zgarishlar, buyuk allomalar Ibn Sino, Forobiy, Farg'oniy, Beruniy, Buxoriy, Bahouddin Naqshband va boshqalarning asarlari, keyingi asrlardagi voqealardir.

Mutaxassis olimlarning fikrlariga qaraganda, mashhur shayx Bahouddin Naqshband tariqati Amir Temur davri mafkurasi asosini tashkil etgan va u yuksak e'tibor topganligi tasodifiy emas edi. «Diling Allohda, qo'ling — mehnatda bo'lsin»,— degan buyuk hikmat Amir Temur dunyoqarashiga mos edi.

Uzoq cho'zilgan vayronagarchilik, mislsiz urushlar bu o'lkada yagona va qudratli davlat barpo etilishini hamda mamlakatda tinchlik va osoyishtalik o'rnatilishini tarixiy zaruratga aylantirgan edi.

Avvalo, shuni aytish joizki, Chig'atoy avlodidan bo'lgan Tarmashirinxon (1326—1334) o'ldirilgandan keyin Movarounnahrda beqarorlik kuchaydi.

**Obodonchilik
ishlari — yuksak
ma'naviyat belgisi**

Mo'g'uliston xoni Tug'luq Temurxon (1348—1363) bu parokandalikdan foydalanib, 1360-yil fevralida sanoqsiz lashkar bilan Movarounnahrda bostirib

kirdi. Mo‘g‘ullar 1369-yilgacha Movarounnahrda xo‘jayinlik qilishdi. Urushlar, to‘qnashuvlar hammaning tinkasini quritdi. Vatan ozodligi va mustaqilligi yo‘lida jonini tikkan yolg‘iz Amir Temur (1336—1405) bo‘ldi. U markazlashgan mustaqil davlatga asos soldi.

Amir Temur ko‘p yillar davom etgan feodal tarqoqlik va urushlar oqibatida vayron bo‘lgan xalq xo‘jaligini tiklash, shaharlarni qayta qurish va mamlakatni obod qilishda zo‘r tashabbus va jonbozlik ko‘rsatdi. Masalan, Samarqand va Banokat shaharlari 1218—1219-yillarda mo‘g‘ullar tarafidan tamoman vayron etilgan edi. Buxoro, Nasaf (Qarshi) va boshqa shaharlar ham nochor ahvolga tushib qolgan edi. Shaharlarni tiklamasdan, obod qilmasdan turib mamlakatda hunarmandchilik va savdo-sotiqni rivojlantirib bo‘lmas edi.

Amir Temur hokimiyat tepasiga kelishi bilanoq shaharlarni tiklash va obodonlashtirish ishiga astoydil kirishdi. Masalan, 1371—1372-yillarda poytaxt Samarqandning buzilib ketgan histori (qal‘a) va uzunligi 70 chaqirim atrofida bo‘lgan devorini tiklatdi. O‘shanda Shahrison (tashqi shahar) va uning 6 darvozasi (Shayxzoda, Ohanin, Feruza, So‘zangaron, Korizgoh, Chorsu), 4 qavatli ikki ulkan saroy — Ko‘ksaroy va Bo‘stonsaroy bunyod etildi, shahar ko‘chalari va bozorlari obod qilindi. Shohi Zindada O‘ljoy Turkon og‘o, Tug‘luq Tegin, Qutlug‘ Turkon og‘o, Shirinbeka maqbaralari, xonaqoh va Chortoq qurildi. Temurning rag‘bati bilan Samarqand Chorusida Tim va shaharning u boshidan bu boshigacha kesib o‘tgan shoh ko‘cha, Ruhobod maqbaralari ham qurildi.

Sohibqiron Amir Temur o‘z hayoti davomida ko‘plab shaharlar, masjid-u madrasalar, maqbaralar, xonaqohlar, qal‘a-qasrlar, bog‘-rog‘lar, sug‘orish inshootlari, ravon yo‘llar, ko‘priklar barpo ettirdi. Ularning ba‘zilarini o‘g‘illari, nabiralari, saroy malikalari, islom rahnamolari nomi bilan atashga da‘vat etdi. Biroq harpo etilgan inshootlarning

birontasiga ham Amir Temur nomi berilmadi. Bunga uning o‘zi xohish bildirmadi.

Amir Temur davrida Samarqand yangicha usulda qayta qurildi. Mo‘g‘ullar hukmronligi davrida, ya’ni keyingi 140 yil davomida biron-bir katta bino qurilmagan edi.

Amir Temur dunyo madaniyatiga, ma’naviyatiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk shaxsdir. Amir Temur qurdirgan Bibixonim masjidi (1404), Oqsaroy qasri (1380—1404), Dorus-saodat maqbarasi (1380) oliy imoratlardir.

Amir Temur davrida bog‘ yaratish ishlari beqiyos rivojlandi. Bog‘lar xalqning urf-odatlarini va mavjud sharoitdan kelib chiqib yaratilgan. Tadqiqotchi O‘. Alimov ta’kidlashicha, Sohibqiron Samarqand atrofida 12 ta bog‘-saroy barpo ettirgan. Bular Bog‘i Naqshijahon, Bog‘i Behisht, Bog‘i Shohrux, Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Shamol, Bog‘i Davlatobod, Bog‘i Bo‘ldi, Bog‘i Maydon, Bog‘i Baland, Bog‘i Chinor, Bog‘i Jahonnamo, Bog‘i Nav bog‘laridir. Bulardan tashqari mamlakatning boshqa joylarida ham ko‘plab bog‘lar yaratilgan.

Amir Temur jismonan baquvvatligi va yuksak ma’naviyati bilan odamlardan ajralib turadigan, har qanday odamning ruhiga ta’sir o‘tkazadigan hamda o‘ziga bo‘ysundiradigan buyuk shaxs edi. Angliyalik tadqiqotchi Xilda Xukxemning fikricha, Amir Temur O‘rta Osiyo o‘tmish taraqqiyotida to‘plangan siyosiy, iqtisodiy va madaniy merosni o‘zida mujassamlantirgan va bu madaniy merosning davomchisi bo‘lgan shaxsdir.

Amir Temurning avlodlaridan ko‘pchiligi shunday obodonchilik ishlarini davom ettirdilar. Mirzo Ulug‘bek qurdirgan madrasalar, Husayn Boyqaro davrida Alisher Navoiy boshchiligidagi obodonchilik ishlari, Boburiylar davridagi noyob qurilishlar bunga misol bo‘la oladi.

**Boshqaruv
madaniyati**

Amir Temur o‘z ulkan saltanatini ulus-ulus qilib idora qilgan. Movarounnahrda boshqa barcha o‘lka va mam-

lakatlarni u 4 ulusga bo‘lib, o‘g‘il, nabiralariga taqsimlab bergan. Ulus hokimlari mustaqil hukmdorga o‘xshardi. Ularning o‘z devonlari, xazinasini va qo‘shini bo‘lgan. Lekin ular ulusning muhim ishlarini otasi va markaziy hukumat bilan kengashib qilishardi. Ayni mahalda Amir Temur ularning yonida o‘zining ishonchli odamlarini tutardi.

Ulus hokimlari xirojning bir qismini markaziy davlat xazinasiga jo‘natib turishlari shart edi va zarur bo‘lib qolsa, otasi yoniga qo‘shin bilan borib, xizmat qilishga majbur edi.

Amir Temur markaziy davlat tizimini ixcham va ishchan qilib tuzdi, bunda songa emas, sifatga e‘tibor berdi. Davlat siyosatini belgilashda va uni amalda hayotga tatbiq etishda naqshbandiya tariqati g‘oyalarini ifodalovchi «rosti-rusti» qoidasi asos qilib olindi. Sohibqiron bu g‘oyani takomillashtirib, «Kuch — adolatdadir» degan mashhur hamda shu davrgacha davlatlar tajribasida ommaviy qo‘llanilmagan qoidani kashf etdi. Davlat ishiga iymonli, diyonatli kishilarni o‘tqazdi. Davlatni boshqarishni 4 omilga bog‘liq deb bildi:

1. Saltanat. 2. Xazina. 3. Qo‘shin (sipoh masalasida). 4. Raiyat (qora xalq). Saltanatni yuritishda vazirlar masalasiga e‘tibor qaratildi. Vazir 4 sifatga ega bo‘lishi shart bo‘lgan. Bular: 1) asllik va toza nasllik; 2) aql-u farosatlilik; 3) raiyat va sipoh ahvolidan boxabarlik; 4) sabr-toqatlilik va tinchlik-sevarlik. Amir Temur tuzgan markaziy davlat tizimini boryo‘g‘i 7 vazir boshqargan: 1) mamlakat va raiyat vaziri (vaziri a‘zam — Bosh vazir); 2) sipoh vaziri (sipohning ta‘minoti va uning umumiy ahvoli); 3) moliya ishlari vaziri (egasiz — davlatga qarashli yer-suv va mulk); 4) saltanat ishlarini yurituvchi vazir (kirim-chiqim masalasida); 5) adliya ishlari vaziri bo‘lib qozilar devonga rahbarlik qilgan; 6) devoni mushrifga rahbarlik (voqea-hodisalardan xabardorlik); 7) xorijiy mamlakatlar bilan bo‘ladigan munosabatlarga mutasaddilik. Amir Temur saltanatni boshqarishda kengash, mashvarat va maslahatga alohida e‘tibor bergan. Kengash

— bu yaqin, ishonchli odamlar bilan muhim davlat ishlari yuzasidan qilinadigan maslahat, yig‘ilish. Mashvarat esa mashoyix, ulamo, fuzalo, vuzaro va boshqa arkoni davlatni to‘plab qilinadigan yig‘ilish. «Garchi ishning qanday yakunlanishi taqdir pardasi ortida yashirin bo‘lsa-da, — deydi u, — aqli raso va hushyor kishilardan kengash-u tadbir istab, fikrlarini bilmoq lozim». «Davlat ishlarining 9 ulushini,— deydi u, — kengash, tadbir va mashvarat bilan, qolgan bir ulushini qilich bilan hal qildim».

Amir Temur el-yurtni o‘z tasarrufiga olish va itoatda tutish uchun 12 tuzuk tuzdi:

1. Podshohlar bir so‘zlik bo‘lishi va aytgan so‘ziga amal qilishi, belgilangan har bir ishini bilib qilishi lozim.

2. Har bir ishda adolatpesha bo‘lishi, atrofida ham shunday kishilarni tutishi zarur.

3. Ne ishniki qilar bo‘lsa, o‘zi hukm chiqarsin.

4. Biror ishga azmu qaror qilar ekan, qarorida qattiq tursin.

5. Uning amr-u farmoni hamma uchun vojib bo‘lsin.

6. Podshohlik ishlarini biron boshqa kimsaga ishonib berib qo‘ymasın.

7. Ne ish qilmoqchi bo‘lsa, boshqalar bilan kengashsin, lekin maslahatning foydalisini olsin.

8. Saltanat, raiyat va sipoh ishlarida yaxshi-yomon gaplar eshitsa, haqiqat qilib, shoshmasdan, mulohaza bilan hukm chiqarsin.

9. Sipoh va raiyat oldida o‘zini haybatli va jiddiy tutsinki, hech kim bo‘yin tovlash va gap qaytarishga jur‘at etolmasin.

10. Raiyat, xazina, lashkar va saltanat podshohning hukmi ostidadir, u buni doimo esda tutmog‘i lozim.

11. Saltanatni idora qilishda boshqani o‘ziga sherik qilmaslik kerak.

12. Ahli kengashdan ogoh va hushyor bo‘lmog‘i lozim, chunki ko‘pincha ayb axtaradilar va uni tashqariga tashiydilar.

Amir Temur tuzgan bu davlat barcha ijtimoiy tabaqalarga suyangan va qonun asosida boshqariladigan yangi bir davlat edi. «Saltanatim binosini, — deb yozadi Amir Temur, — dini islom, to‘ra va tuzuk (qonun-qoida) asosida mustahkamladim. Saltanatimni boshqarishda uchragan har qanday ishni tuzukka binoan qildim».

Temurdan keyingi uning izdoshlari ham boshqaruv san‘atiga amal qilib, uni takomillashtirishdi. Ayniqsa, Mirzo Ulug‘bek davrida bu narsa yaqqol ko‘rindi.

Amir Temurning ma‘naviy salohiyati

Amir Temurning ma‘naviy salohiyati davlatni idora qilish, uning ichki va tashqi siyosatini belgilash bilan izohlanadi. Movarounnahrning qadimiy iqtisodiy, madaniy shuhratini tiklash yillarida uning ma‘naviy salohiyati yanada kamol topdi va ijtimoiy hayotda to‘laligicha namoyon bo‘ldi. Shuning uchun ham mamlakat ijtimoiy hayotining barcha tomonlari, davlat idora tizimi, iqtisodiy, moliyaviy, dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo, madaniyat, fan, me‘morchilik, harbiy masalalar, xalqaro aloqalar, islom dini, shariat va boshqa sohalar maqsadga muvofiq rivojlandi. Amir Temur davlatni boshqarishda, uning ichki va tashqi siyosatini belgilashda, xalq ommasi, mansabdor shaxslar, olim-u fuzalolar, islom rahnamolariga munosabatda Allohga, iymonga, tafakkurga, kitobga va eng so‘nggi chora sifatidagina qilichga asoslanib ish yuritdi, hukm chiqardi.

Demak, Amir Temur buyuk davlat arbobi va yuksak ma‘naviyatga ega bo‘lgan dono hukmdor bo‘lib, ham siyosiy, ham ma‘naviy jihatdan juda katta tarixiy ahamiyatga egadir. Zero:

1. Amir Temur XIV asrdayoq mamlakat va mintaqalararo munosabatlarni chuqurlashtirib, yagona iqtisodiy makonga

birlashtirishga harakat qildi. Integratsiyani ishlab chiqib, Buyuk Ipak yo‘li o‘tgan mamlakatlar o‘rtasida madaniyatlar muloqotini boshlab berdi.

2. Amir Temur davlat tizimi va boshqaruvni tashkil etishda o‘ziga xos maktab yaratdi, adolatli jamiyat qaror toptirishda qonun ustuvorligiga rioya qildi.

3. Amir Temur davlatchilik tamoyillarini rivojlantirdi, uni aql-idrok salohiyatiga tayanib, taktik va strategik asosda shakllantirdi.

4. Amir Temur saltanati ma’naviyat va oliy darajadagi madaniyatga yo‘g‘rilgan saltanat edi...

«Temur tuzuklari»da ma’naviyat masalalari «Temur tuzuklari» Amir Temur tomonidan XIV—XV asrlarda yozilgan bo‘lib, dastlab turk tilida chop etilgan. 1783-yilda ingliz tilida nashr qilingan. Birinchi marta o‘zbek tiliga 1967-yilda forschadan tarjima qilingan.

Unda Amir Temur, Movarounnahrning 1342—1405-yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli, qo‘shni mamlakatlar va xalqlar bilan bo‘lgan o‘zaro munosabatlar haqida hikoya qilinadi. Risolada Amir Temurning asosiy doktrinasi — jamiyatga, ijtimoiy-siyosiy hayotga qarashi, birlashgan qudratli feodal davlatning siyosiy va axloqiy tamoyillari ifodalangan.

«Tuzuklar» ikki qismdan iborat. Birinchi qismda jahon tarixida mashhur fotih, sarkarda va iste’dodli davlat arbobi sifatida nom qoldirgan Amir Temurning 7 yoshidan to vafotiga qadar kechgan hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati, aniqrog‘i, uning Movarounnahrda Markaziy hokimiyatni qo‘lga kiritish, feodal tarqoqlikka barham berish va markazlashgan davlat tuzish, qo‘shni yurt va mamlakatlarni, masalan, Eron hamda Afg‘onistonni o‘z tasarrufiga kiritish, Oltin O‘rda hukmdori To‘xtamishxon (1376—1395), butun Yevropaga qo‘rquv va dahshat solgan Turkiya sultoni Boyazid Yildirim (1389—1402) ga qarshi va, nihoyat, buyuk jahon-

girning Ozarboyjon, Gruziya va Hindistonga qilgan harbiy yurishlari ixcham tarzda bayon etilgan.

Ikkinchi qism jahongirning nomidan aytilgan va uning toj-u taxt vorislariga atalgan o'ziga xos vasiyat va pand-nasihatlaridan iborat. Unda davlatni idora qilishda kimlarga tayanish, boshliqlarni saylash, sipohiylarning maoshi, mamlakatlarni boshqarish tartibi, davlat arboblari va boshliqlarning burch va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toj-u taxt oldidagi alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi va boshqalar xususida gap boradi.

«Shaxsan men «Temur tuzuklari»ni har gal o'qir ekanman, xuddiki o'zimga qandaydir ruhiy kuch-quvvat topgandek bo'laman», — deb yozadi Islom Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» asarida.

Qonun ustuvorligi Amir Temur davlatni boshqarishda o'zidan avval o'tgan hukmdorlardan farq qilib, davlat va mamlakatni boshqarishda 1 yoki 2 tabaqaga emas, balki aholining barcha tabaqalariga suyandi. «Temur tuzuklari»da aytilishicha, davlat asosini 12 ijtimoiy toifa tashkil qiladi: 1) sayyidlar (payg'ambar avlodlari), ulamo, mashoyix, fozil kishilar; 2) ishbilarmon, donishmand kishilar; 3) xudojo'y, darvesh, qalandarlar; 4) no'yonlar — amirlar, ya'ni harbiy kishilar, mingboshilar; 5) sipoh va raiyat; 6) maxsus ishonchli kishilar; 7) vazirlar va sarkotiblar; 8) hakimlar va tabiblar, munajjimlar va muhandislar; 9) tafsir va hadis olimlari; 10) ahli hunar va san'atchilar, hunarmand, kosiblar; 11) so'fiylar; 12) tojir (savdogar) va sayyohlar: xorij bilan savdo-sotiq. Uning taqdirini 3 narsa: podshoh, xazina va askar hal qiladi. Qo'shin, asosan, o'n, yuz, ming va tumanga bo'lingan, o'n kishilik harbiy bo'linma tepasida turgan boshliq — o'nboshi, shuningdek... yuzboshi, mingboshi, tuman boshlig'i, no'yon deb atalgan. Asarda ularning haq-huquqlari, oylik maoshi ham aniq ko'rsatilgan.

Masalan, oddiy sipoh mingan otining bahosi baravarida, bahodirlar 2—14 ot baravarida va h.k. maosh olishgan.

«Temur tuzuklari»da qilich chopishda oʻzini koʻrsatgan bahodirlar 1-marta oʻnboshi, 2-marta oʻzini koʻrsatsa — yuzboshi, 3-marta esa mingboshi etib tayinlansinlar, deyilgan. Jang va xizmatda oʻzini koʻrsatgan amirlar ragʻbatlantirilgan. Qaysi bir amir qoʻshin bilan mamlakatni olsa, 3 narsa — imtiyoz bilan siylangan. Unga:

1) tugʻ, nogʻora va bahodirlik martabasi; 2) davlat kengashlariga bemaol kirish huquqi; 3) biron sarhadning noibligi berilgan. Temur tuzgan qoʻshin oʻzining strategik va taktik mahorati bilan oʻsha davrning eng mukammal va kuchli armiyalaridan hisoblangan. «Temur tuzuklari»da oʻsha qoʻshinning tuzilishi, qurollanishi, harbiy sanʼati haqida muhim maʼlumotlar keltirilgan.

Qoʻshinning harbiy tayyorgarlik darajasi Temuriy shahzodalardan Husayn Boyqaro va Bobur davrida yanada takomillashdi. Boburning buyuk yurishlari bobokalonining taktikasini yaxshi oʻzlashtirib, uni davrga moslab rivojlantirganiga yaxshi misoldir.

Amir Temur davlatida asosiy qonun vazifalarini bajargan musulmon huquqi islom taʼlimotiga asoslangan. Imom Buxoriy, Termiziy, Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Burhoniddin Margʻinoniyning asarlarida Qurʼon taʼrifi bilan birga musulmon huquqi sharhi berilgan. Shariat — keng va mukammal ishlangan huquq qomusi, unda turmushning turli-tuman sohalarini: diniy-oilaviy, xalqaro, fuqarolik, jinoiy, axloqiy normalar ifodalangan.

Shariatda huquq ilmi yaxshi ishlangan boʻlib, u asosan: 1) diniy qoidalarni, ilohiyotni oʻrganuvchi va 2) tarkibiy huquq ilmining turli sohalariga tegishli boʻlgan qoidalarni oʻrganuvchi ikki qismdan iborat. Unda davlat va huquqning paydo boʻlishi va mohiyati ilohiy kuchga bogʻlangan holda oʻrganiladi. Davlat va qonunlarni yaratuvchi Alloh boʻlsa,

uning yerdagi vakili davlat boshlig'i — shohdir. Bu qoidaga, asosan, avval ilohiy qonunlarning mavjudligi va undan kelib chiqadigan, inson tomonidan qabul qilingan qonunlar to'g'risidagi g'oyalar o'rganiladi.

Amir Temur o'gitlarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: a) din va shariat; b) davlat va uni idora qilish; d) kengash o'tkazish; e) podshoh va vazirlar.

«Tuzuklar»da axloq va odob haqida quyidagilar belgilanadi: a) adolat va adolatsizlik; b) so'z va ishning birligi; d) do'st va dushmanlik; e) botirlik va qo'rqqoqlik; f) so'z va shirinsuxanlik.

**Pok axloq va ilm
elning ko'rki**

«Temur tuzuklari»da xulq-atvor, axloq va odobga oid o'git-nasihatlar berilgan.

Amir Temur hech kimga g'azab bilan qattiq muomala qilmagan. «Tuzuklar»da g'azab va qattiqqo'llik bilan qilingan muomalani Tangri taoloning g'azabiga duchor bo'lish, o'z holini tang qilishdir, deb yozadi. «Shirin so'z aytib g'animni iymonga kiritgin». Til qilichdan o'tkir, bir kalima shirin so'z qilichni qinga kiritar, — deydi.

Amir Temur tafakkur, qilich, iymon, kitobga e'tiqod qo'ygan. «Millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir...», «Kuch adolatdadir», «Bir kunlik adolat yuz kunlik toat-ibodatdan afzal», «Adlu ehson bilan jahon gulshani obod bo'ladi», «Adovat emas, adolat yengadi» va boshqalar.

Oilada odob-axloq me'yorlari masalasi ham Amir Temur nazdidan chetda qolmagan. Rivoyat qilishlaricha, Sohibqiron harbiy yurishlarning birida Eron tomonga borib, Sultoniya shahri atrofida xonadonlarga lashkarlarini joylashtirib, harbiy mashqlar o'tkazib turardi. U bamdod namozidan so'ng lashkarlaridan xabar olish uchun tashqariga chiqadi. Ko'rdiki, bir ayol ko'chada ot yetaklab ketayotgan ekan. «Nechun mening saltanatimda ayollar o'z yumushlarini qilmasdan, erlar ishini bajarmoqda», jahli chiqibdi. Ayolning

qayerda yashashi, eri bor-yo‘qligini bilgach, erini huzuriga chorlabdi. «Nechun ayolni tahqirlab erkaklar ishini buyurur-sen?»,— debdi. «Oilamda xotinim va ikki nafar bo‘yi yetgan qizim bor. Hozirda 10 chog‘li sizning askarlaringiz ham yashamoqda. Men qizlarim va ayolimni nomahramlar oldida qoldira olmay, majbur bo‘lib otni o‘tlatmoqqa buyurdim»,— debdi. Keyinchalik Amir Temur butun lashkarlarini yig‘ib, shunday amr etibdi: «Mening arkoni davlatimda yoki harbiy yurishlarimda, qayerda bo‘lishimizdan qat‘i nazar, askar va kishilar hech qachon xonadonlarga joylashtirilmasin. Ochiq yerlarda o‘zlariga boshpana va o‘tov tiksinar».

Amir Temur shaharlarda ilm-fan, madaniyatni rivojlantirish uchun ko‘plab ilmiy muassasalar qurishga amr qilgan. Madrasalarda diniy fanlar bilan baravar matematika, me‘morchilik, astronomiya, adabiyot, tarix, musiqa kabi fanlarning o‘qitilishiga alohida e‘tibor berilgan. «Temur tuzuklari»da aytilishicha, musulmonlarga diniy madrasalarda ta‘lim berish, shariat aqidalari va islom dini ilmlari: tafsir, hadis, fiqhdan dars berish uchun sohibqiron tomonidan har bir shaharga olimlar va mudarrislar tayin qilingan. Talabalarga o‘z davrining yirik allomalari dars berganlar. Madrasa mudarrislariga ko‘p maosh to‘langan, ular farovon hayot kechirganlar. «Temur tuzuklari»da «Sayyidlar, ulamoyu mashoyix, oqil-u donolar... tarixchilarni... e‘tiborli kishilar hisoblab, hurmatlarini joyiga qo‘ydim. Ular bilan qimmatli fikrlashdim»,— deb yozadi.

Garchi Turon zaminida olimlar, muhandislar, ustalar yetarli bo‘lsa-da, Amir Temur Hindiston, Iroq va Erondan ham olim-u fuzalolarni Samarqandga olib kelgan. Amir Temur qaysi mamlakatni egallasa, uning noyob o‘ljasi shu o‘lkaning rassomlari, mohir ustalari hisoblangan. U o‘sha yerlik olim-u ulamolarga mehribonlik ko‘rsatgan.

Albatta, bu tadbirlar juda yaxshi natijalarga olib kelgan. Xilda Xukxemning e‘tirof etishicha, «Temur dunyoga kelgan

yurtda falsafa, tibbiyot, matematika, astronomiya, geografiya, tarix, adabiyot sohalarida olamshumul asarlar yaratildi. Bu asarlar keyinchalik Yevropa Uygʻonish davriga turtki boʻldi va Yevropa fanining uzoq asrlar davomidagi taraqqiyotiga asos boʻlib xizmat qildi. Oʻn beshinchi asrni Temuriylar Renessansi davri deb atash mumkin».

Temur davridagi ilm-fanga gʻamxoʻrlik Ulugʻbek davriga kelib oʻz mevasini berdi va Samarqandni dunyoga mashhur qildi. Oʻn yettinchi asrga kelib Angliya qirolligining birinchi astronomi Ulugʻbekning «Ziji jadidi Koʻragoniy» asaridan foydalangan.

Temuriylar davri maʼnaviyatining buyuk namoyandasi, shubhasiz, Alisher Navoiydir. Navoiy maktabi noyob hodisa boʻlib, hozirgacha dunyoni lol qoldirib kelmoqda.

Albatta, buyuk insonlar komillik choʻqqisiga osonlikcha erishganlari yoʻq. Ular turli qiyin bosqichlardan oʻtganlar. Oʻtmishda maʼnaviy kamolotga intilgan shogirdlar (muridlar) oʻzlarini tamomila ustoz (murshid) ixtiyoriga topshirganlar. Shogird faqatgina ixlos va sadoqat ila komil ustoz tarbiyasida yetuklikka erishishi, ilm choʻqqilarini zabt etishi, qabihlik va razolatga yetaklovchi shayton vasvasalaridan saqlanishi mumkinligi haqida «Turkiston mulking shayxul mashoyixi» (Alisher Navoiy) boʻlgan Ahmad Yassaviy quyidagi hikmatni bejiz ijod qilmagan:

*Piri mugʻon xizmatida yugurib yurdim,
Xizmat qilib, koʻzim yummay hozir turdim.
Madad qildi, Azozilni kovlab surdim,
Andin soʻngra qanot qoqib uchdim mano.*

Talabalikning dastlabki davrida ustoz talabada mavjud gʻururni sindirishga harakat qilgan. Shogirdidagi magʻrurlik illatini bartaraf etmoq maqsadida ustoz eng past, kishilar xazar qiladigan ishlarni bajarishni ham shogirdlariga buyur-

gan. Jumladan, ulug‘ mutafakkir Jaloliddin Rumiyo ustozlari ila masjid va madrasa hojatxonalarini poklashgan. Abu Rayhon Beruniy kutubxonadagi kitoblardan foydalanmoq uchun masjid hovlisini har kuni supurib-sidirgan. So‘fi Olloyor tavbasining ijobati uchun kishilarning tahoratiga xizmat qilgan. Bu xil allomalar ustozlar tomonidan buyurilgan ishni bajarmasliklari mumkin emas edi, chunki ustozning amri — haq. Aynan shu xil riyozatlar chekilgani tufayli g‘ururi singan, xudbinlik urug‘i qurigan va oqibatda nafsiy illatlardan forig‘ bo‘lib, komillikka intiluvchi inson qolgan. Yuzaki qaraganda, murshid shogirdiga jabr qilgandek tuyuladi. Lekin bu «jabr» muridni tarbiyalash va chiniqtirish uchun juda zarur ekan. Shu sabab «Ota mehridan — ustoz jabri afzal», degan purma‘no maqol yaratilgan. Bunga monand Amir Temur: «Piri komil shayx Bahouddin Naqshbandiyning: «Kam yegin, kam uxla, kam gapir», degan pandu nasihatlariga amal qildim. Arkoni davlatga, barcha mu-lozimlarga ham aytar so‘zim shu bo‘ldi: «kam yenglar — ocharchilik ko‘rmaysizlar, boy-badavlat yashaysizlar, kam uxlanglar — mukammallikka erishasizlar, kam gapiringlar — dono bo‘lasizlar».

San‘at va hunar rahnamosi XIV—XV asrlarda Samarqandda tasviriy va miniatura san‘ati ham rivoj topdi. Bog‘i Taxtiqoracha, Bog‘i Davlatobod va boshqa chorbog‘lardagi qasrlarning devoriga ishlangan turli mavzulardagi rasmlar yuksak did va zo‘r iste’doddan guvohlik beradi.

Amir Temur davrida Samarqand, Buxoro, Kesh va Movarounnahr hamda Turkistonning boshqa shaharlarida xalq amaliy san‘ati: zargarlik, zardo‘zlik, sangtaroshlik, yog‘och o‘ymakorligi kabi san‘atlar keng rivoj topdi. Oltin, kumush, bronza va qimmatli toshlardan ishlangan zebi-ziynat va uy-ro‘zg‘or buyumlari, Go‘ri Amir, Shohi Zinda, Chilustun va boshqa chorbog‘lardagi qasrlarning ustun va shiftlariga ishlangan o‘ymakorlik san‘ati namunalari, doshqozon va sham-

donlar bezaklari bunga dalildir... Samarqandda yangicha san'at yuzaga keldi. Original, o'ziga xos me'morchilik san'ati xususiyatlarini hamda O'rta va Yaqin Sharqda rivojlangan badiiy tafakkurni o'zida ifoda qildi. XIV—XV asrlarda O'rta Osiyo rassomligi, naqqoshligi sohasida o'rta asr an'anaviy adabiy sujeti bilan birga, zamonaviy mavzudan foydalanish, janrlar, kompozitsiya xilma-xilligi, rasm ishlash mahoratini mukammallashtirish kabilarga intilish an'anasi ko'zga tashlandi.

Shubhasiz, bu yerda Kamoliddin Behzod ijodi, uning yaratgan asarlari dunyo miqyosida o'ziga xos o'rin egallaydi. Bu asarlar hamon o'z ahamiyatini yo'qotgan emas, balki hali ham odamlarni o'ziga jalb qilmoqda, hayratga solmoqda.

Insoniyat oldidagi xizmati

Amir Temur XIV asrda buyuk Temuriylar davlatiga asos soldi. 1,5 mln kv km hududda — O'rta Osiyo, Qozog'iston, Shimoliy Kaspiy, Shimolda Ural, G'arbda Sibir, Kustanay soyliklari, Sharqda Markaziy Qozog'iston va Tyan-shan janubiy etaklari, Pomir tog'liklari, Kopetdog' oldi hududlarida o'z imperiyasini tuzdi. 27 ta podshohlikni egalladi.

Amir Temur Xitoy chegaralaridan boshlab to Sharqiy Rum va Misr yerlarigacha bo'lgan hududlarni islom bayrog'i ostida yagona davlatga birlashtirdi. Sohibqiron tomonidan barpo etilgan markazlashgan mustahkam davlat qariyb 1,5 asr o'z kuchini ko'rsatdi. Bu esa uning adolat va shariat asosida qurilgani, ustozlari, pirlari Tayobodiy, Sayyid Mir Kulol, Sayyid Barakalar o'gitlariga amal qilgani bilan izohlanadi. Temuriylar mamlakatni 3 asrga yaqin boshqardilar.

Amir Temurning insoniyat oldidagi xizmati shundaki, uning harakatlari tufayli Osiyo va Yevropa davlatlari tarixda birinchi marta yagona jug'rofiy-siyosiy makonda ekanliklarini his etdi. Umuman, Amir Temurning jahon madaniyati siyosiy va ma'naviy hayotida tutgan o'rni va tarixiy ahamiyati quyidagilardan iborat:

Birinchidan, Amir Temur XIV asrdayoq mamlakatlararo va mintaqalararo munosabatlarni chuqurlashtirish asosida insoniyat taraqqiyotini jadallashtirish zaruriyat ekanligini ko'rsatib berdi.

Ikkinchidan, u mamlakatning kuchayib ketgan feodal tarqoqligiga barham berib, el-yurtni o'z tug'i ostiga birlashtirdi, markazlashgan yirik feodal davlatga asos soldi. Bu bilan ziroatchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniyat rivojiga mustahkam zamin yaratdi.

Uchinchidan, Amir Temur davlat tizimi va boshqaruvini tashkil etishda o'ziga xos maktab yaratdi. Hammaning qonun oldida tengligi va qonun ustuvorligini ta'min etishi uning buyuk xizmatidir.

To'rtinchidan, Amir Temur bir qator xalqlar va yurtlarga mustamlakachilik zulmidan ozod bo'lishda yordam berdi. Masalan, o'sha davrning eng qudratli podshohlaridan hisoblangan Boyazid Yildirimni tor-mor qilib (1402), Bolqon yarim orolidagi xalqlar va mamlakatlarni turklarning istibdodidan qutqardi.

Beshinchidan, Turkiston zaminini ziroatchilik, hunarmandchilik, ilm-fan va madaniyat rivojlangan ilg'or mamlakatga aylantirdi. O'z umrining ko'p qismini Amir Temur hayotini o'rganishga bag'ishlagan pokistonlik tadqiqotchi Ahmad Doniy: «Hozirgi zamon tarixi Amir Temurning buyuk shaxsiga yetarli e'tibor bermadi. U Osiyoda turkislom yuksalishiga asos soldi. Tarix uning ilmi amali bilan tenglashadigan boshqa bir muqobil hodisani bilmaydi»,— deb yozadi.

Amir Temur ulug' bunyodkor, ilm-fan va madaniyat homiysi sifatida tarixda qoldi. 1996-yil — Amir Temur yili deb nishonlanishi unutilmas voqea bo'ldi. UNESCO tashkiloti 1996-yil 24-aprelda Amir Temurning 660 yillik yubileyini Parijda keng ko'lamda nishonladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 1995-yilning 26-dekabrida Far-

Mustaqillik va Temuriylar merosi

mon, Vazirlar Mahkamasi bu xususda 1995-yili maxsus qarorlar qabul qildi. Nihoyat, 1996-yilning 24-oktabrida Toshkentda «Amir Temur va uning jahon tarixida tutgan oʻrni» mavzuida xalqaro ilmiy konferensiya boʻlib oʻtdi. Bu ilmiy anjuman dastlab Parijda oʻtkazilgan tantanalarning mantiqiy davomi boʻldi. Bu anjumanda 25 mamlakatdan yirik olimlar, tadqiqotchilar, jamoat arboblari ishtirok etishdi. Konferensiyada Islom Karimov «Amir Temur — faxrimiz, gʻururimiz» mavzusida maʼruza qildi.

Oʻtgan 600 yil mobaynida Amir Temurga bagʻishlab yaratilgan asarlar soni Yevropa tillarida 500 dan ziyod, Sharq tillarida esa 900 ga yaqin. Amir Temur oʻz davlatini aql-zakovat va huquqiy asos bilan idora etgan. Amir Temur: «... Saltanatimning u chetidan bu chetigacha biror bolakay boshida bir lagan tilla koʻtarib oʻtadigan boʻlsa, bir donasiga ham zarar yetmaydigan tartib-intizom oʻrnatdim», — degan edi.

Prezidentimiz Islom Karimov: «Maʼrifatli Movarounnahr ruhi, Temuriylar davrida fan va sanʼatning gullab-yashnagani Yevropada uygʻonish jarayoniga hayotbaxsh taʼsir etganini, umumjahon taraqqiyotiga koʻmaklashganini anglab faxrlanamiz», — degan edi.

Mustaqillik davriga kelib Amir Temur eʼtibor topdi. Toshkentning qoq markazida, bir vaqtlar mustamlakachilar oromgohi boʻlgan, hozir shaharliklar dam oladigan joyga aylangan xiyobonda, shuningdek, Sohibqiron tugʻilib oʻsgan Shahrisabz shahrida, saltanatining poytaxti qilgan Samarqand shahrida mahobatli haykal oʻrnatildi. Ulkan muzey tashkil qilindi.

Xalq oʻzining buyuk bobokaloni merosiga ega boʻldi, uni dunyoga koʻz-koʻz qilib, chuqur oʻrganmoqda va avaylab asramoqda.

TAYANCH SO‘Z VA IBORALAR

Temuriylar davri, Sharq Renessansi, Bibixonim, Oqsaroy, Dorus-saodat, Boshqaruv madaniyati, «Kuch – adolatdadir», saltanat, Xazina, Qo‘shin, Raiyat, «Temur tuzuklari», sayyidlar, mashoyix, no‘yon, hakim, munajjim, qonun ustuvorligi, millatning dardiga darmon bo‘lish, san‘at va hunar rahnamosi, Amir Temur yili.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Temuriylar davriga ta’sir etgan omillar nima?
2. Amir Temurning obodonchilik borasidagi faoliyati qanday edi?
3. Temuriylar davlatni qanday boshqargan?
4. Amir Temurning ma’naviy salohiyati qanday edi?
5. «Temur tuzuklari»da ma’naviyat masalalari qanday yoritilgan?
6. Temuriylar davrida qonunga qanday amal qilingan?
7. Temurning axloq masalasida qarashlari qanday edi?
8. Temuriylar ilm-fan va madaniyatning rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?
9. Mustaqillik davrida Temuriylar davri ma’naviyatiga munosabat qanday o‘zgardi?

Bahs yuriting

Temuriylar davri ma’naviyati va hozirgi zamon

TOPSHIRIQ

Amir Temurga xos bo‘lgan ma’naviy fazilatlarini aniqlang va dalillar bilan izohlang.

Adolatparvarlik, andishalilik, bolajonlik, bosiqlik, vatanparvarlik, vafodorlik, vijdonlilik, dovyuraklik, jasurlik, jonkuyarlik, jo‘shqinlik, zukkolik, insonparvarlik, insoflilik, kamtarlik, kengfe’llilik, mehmon-do‘stlik, mulohazakorlik, muruvvatlilik, odoblilik, or-nomuslilik, ochiq-qo‘llik, parhezkorlik, rahmdillik, rostgo‘ylik, sadoqatlilik, saxovatlilik, tashabbuskorlik, tinchliksevarlik, tirishqoqlik, fidoyilik, halollik, ham-jihatlik, yetakchilik, shukronalik, xalqi bilan iftixor qilish, intizomlilik, mas’uliyatlilik.

6-§. MA'NAVIYAT VA IQTISODIYOT, ULARNING O'ZARO MUNOSABATI HAMDA JAMIYAT HAYOTIDA TUTGAN O'RNI

Iqtisodiyot tushunchasi

Kishilik jamiyati taraqqiy etar ekan, uning barcha jabhalari bir-biriga bog'liqdir. Ma'naviyatli jamiyatda iqtisodiyot ham tez taraqqiy etadi. Jamiyat a'zolarining barchasi uchun iqtisodiy sharoit, ularning totuv yashashi uchun imkoniyat yaratiladi. Lekin ma'naviyati tuban, o'g'irlik, korrupsiya, poraxo'rlik, zo'ravonlik, qonunsizlik avj olgan jamiyatda faqat bir hovuch kimsalar uchun iqtisodiy imkoniyat yaratiladi hamda ularning turmush darajasi yuqori bo'ladi, jamiyatning qolgan a'zolari qashshoqlikka mahkum etiladi hamda oxir-oqibatda jamiyatda tartibsizlik kelib chiqadi.

Shu sababli ma'naviy taraqqiyotning yuksakligi iqtisodiyotning gurkirab rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. Iqtisod — bu muayyan ijtimoiy tuzumdagi ishlab chiqarish munosabatlari majmuyidir. Rivojlangan bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayonida «barcha islohotlarning — iqtisodiy, demokratik, siyosiy islohotlarning asl maqsadi insonga munosib turmush va faoliyat sharoitlarini vujudga keltirishdan iboratligini doimo esda tutish zarur.

Aholi turmush darajasi faqat uning daromadining oshishi, sifatli iste'mol tovarlari bilan yetarli ta'minlanishi asosida o'lchanmaydi. Balki ma'naviyat va ma'rifat, madaniy ehtiyoj, turli shakllarda sifatli xizmat ko'rsatish, bo'sh vaqtdan mazmunli foydalanish, jismoniy va aqliy yetuklik kabi ko'pgina sifat ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladiki, ularsiz yuksak turmush farovonligiga erishib bo'lmaydi.

Hayotda ehtiyojlar va manfaatlar — inson faoliyatini harakatlantiruvchi kuchdir. Inson oziq-ovqat, kiyim-kechak, joyga muhtoj. Hayvonot dunyosi ham oziq-ovqatga muhtojlik sezadi. Inson ishlab chiqarish orqali o'z ehtiyojlarini qondiradi, hayvonlar esa hech nima ishlab chiqarmaydi. Insonlarning moddiy ishlab chiqarish jarayonlari va bu bo-

rada yuzaga keladigan munosabatlarni iqtisodiyot fani o'rganadi. Abu Ali ibn Sino fanlarni tasnif qilar ekan, iqtisodiyotni xo'jalik yuritish sohasidagi amaliy fanlar qatoriga kiritadi. O'rta asrlarda ilmlar tasnifi bilan shug'ullangan Abu Abdulloh al-Xorazmiy xalq iqtisodiyotini xo'jalik yuritish sohasidagi amaliy falsafiy fan doirasiga kiritgan.

Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida «Iqtisod deb pul va mol kabi ne'matlarning qadrini bilmakni aytilur. Mol qadrini biluvchi kishilar o'rinsiz yerga bir tiyin sarf qilmas, o'rni kelganda so'mni ayammas. Saxovatning ziddi baxillik bo'lgani kabi, iqtisodning ziddi isrofdir. Alloh bunday kishilarni suymaydi. Iqtisodga rioya qilgan kishilar hamma vaqt tinch va rohatda yashaydilar. Hozirgi kunda maqsadga yetmoq, xalqqa maqbul bo'lmoq uchun ilm va mol lozimdir. Mol topmoqlikning eng barkamol yo'li — erkinlik, hunarmandlik, savdogarlikdir. Bularning har birini ham bilish lozim», — deyiladi.

Ishlab chiqarishning o'sishi va kishilar, mamlakatlar o'rtasidagi aloqalar bozor munosabatlarini keltirib chiqaradi. O'rta Osiyoda bozor munosabatlari qadim zamonlardan boshlab shakllangan. Tarixiy hujjatlar guvohlik berishicha, bundan ming yillar avval Buxoro va Xiva savdogarlari odamlar ko'zini quvnatib, hayron qoldirgan tovarlar va buyumlarni Hindiston va Xitoyga, Rossiya va G'arbiy Yevropa mamlakatlariga yetkazib berganlar. O'rta Osiyoda bozor munosabatlari qadimdan rivoj topganiga Buyuk Ipak yo'li yaqqol misol bo'la oladi. Shunday ekan, hozirgi zamon tilida ishlatilayotgan bozor iqtisodiyoti mohiyati nima? Uni qisqa ifodalaydigan bo'lsak, u quyidagilarni anglatadi.

Bozor iqtisodiyoti, birinchi navbatda, uzoqni ko'zlab ishlab chiqarish, muloqot, gaplashish, kelishish, savdolashish, ikki tomonga to'g'ri keladigan umumiy narxni, raqamni, xulosani topish, demakdir. Bozor iqtisodiyotining asosiy sharti va talabi — mumkin qadar ko'proq va mumkin qadar sifatliroq, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishdir. Xuddi

shu talablarning eng qulay sharoitlarini kapitalizm davri yuzaga keltirdi. Natijada, insoniyat keyingi besh asr ichida undan oldingi hamma tarixdagidan ko'p moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarishning haqiqiy qaynar bulog'iga aylandi. Bu davrda insoniyatning haqiqiy aqliy salohiyati, yaratuvchilik imkoniyatlari namoyon bo'ldi.

Jahon tajribasi, shu jumladan, o'zimizning mamlakatimiz tajribasi ham iqtisodiyot faqat uning o'zigagina xos bo'lgan qonunlar asosida rivojlanib borganligini ko'rsatadi. Bozor munosabatlari qonunlarini nazar-pisand qilmaslik, buzish iqtisodiyotni og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin. Chunonchi, sobiq ittifoqda 70 yildan ortiqroq davr mobaynida bozor iqtisodiyotiga aloqasi bo'lmagan iqtisodiyotni yaratishga urinib ko'rildi. Bu sobiq mustabid tuzumga va uning xalqiga juda qimmatga tushdi.

Demak, kimki iqtisodiy qonunlarni nazar-pisand qilmasa, uning kosasi oqarmaydi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, u qaysi yo'ldan borishi kerak, degan masala oldimizda ko'ndalang bo'lib turdi. Yurtboshimiz Islom Karimov mustaqillikka erishishimizning birinchi kunlaridanoq jahondagi turli mamlakatlarning tajribalarini chuqur va har tomonlama o'rganib, mustaqil O'zbekistonning bundan buyongi taraqqiyot yo'li bozor iqtisodiyoti munosabatlari yo'lidan borish ekanligiga qat'iy ishonch hosil etdi.

Ammo bozor munosabatlarining qaysi yo'li biz uchun maqbul, qaysi birini o'zimizning bundan buyongi taraqqiyotimiz uchun tanlab olishimiz kerakligi masalasi oldimizda turgan muammo edi. Bozor munosabatlariga o'tish Angliyada 200 yil, boshqa mamlakatlarda 100—150 yil mobaynida, Yaponiya, Koreya mamlakatlarida 20—30 yil mobaynida amalga oshgan.

**Taraqqiyotning
o'zbek modeli**

Yuqorida aytganimizdek, bozor munosabatlariga o'tish — davr talabi. Biz uchun bundan boshqa yo'l yo'q. Buni

respublikamiz ahli to'g'ri anglab yetdi. Ammo kutib o'tirishga vaqt yo'q. Chunki O'zbekiston — ulkan imkoniyatlar mamlakati. Bu zaminda tabiiy boyliklar, unumdor yer, qudratli iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy, insoniy va ma'naviy salohiyat mavjud. Eng muhimi, bu diyorda mehnatsevar va iste'dodli xalq yashaydi. Shu sababli bu xalqning kelajagini farovon qilish uchun mustaqil Respublikamizning bozor munosabatlariga tezkorlik bilan qanday qilib, qaysi usulda o'tishini tanlab olish, bunda jahonning barcha ilg'or tajribalarini umumlashtirish va ulardan foydalanishni hal etish lozim edi. Buning uddasidan chiqdik. Bunda Prezidentimiz I. Karimov katta shijoat ko'rsatdi. Bozor munosabatlariga o'tishning jahonda orttirilgan ijobiy tajribalarini o'rganib, xalqimizning tarixiy ruhiyatiga, milliy xususiyati, iqlim shart-sharoitlariga, mamlakatimizning jug'rofiy mavqeyiga asoslangan o'zimizga xos va mos yo'lni tanlab oldik.

Ushbu yo'lning, konsepsiyaning qoidalari Prezidentimiz kitoblarida, nutqlarida, mamlakat parlamenti qabul qilgan qonunlarda, xususan, I. Karimovning «O'zbekiston — bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li» asarida har tomonlama asoslanib, bayon qilib berilgan. Bu «O'zbekiston yo'li» — «I. Karimov yo'li» sifatida jahon bo'yicha yuksak baholanib kelmoqda. Ushbu tanlangan yo'l mohiyati O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. Karimov ishlab chiqqan va ilgari surgan besh tamoyilda o'z ifodasini topgan. Bu tamoyillar faqat bizning mamlakatda emas, endilikda boshqa mamlakatlarda ham tan olindi.

Bu tamoyillar quyidagilar:

1. Iqtisodiyot siyosatdan ustun va mafkuradan xoli bo'lishi.
2. Davlat asosiy islohotchi bo'lishi.
3. Qonun ustuvorligi, ya'ni qonun va qonunlarga rioya qilishning har narsadan ustunligi.
4. Kuchli ijtimoiy siyosat.
5. Bozor munosabatlariga o'tish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi.

Yuqoridagi besh tamoyilni qisqa izohlaydigan bo'lsak, ular quyidagilarni anglatadi:

Birinchidan, garchi iqtisodiyot siyosat va mafkura bilan bog'liq bo'lsa-da, siyosiy manfaatlarga mutlaq bo'ysundirilganda, u barbod bo'ladi. Buni sho'rolar misolida ko'rsatishimiz mumkin. Na siyosat, na mafkura iqtisodiyotni mutlaq nazorat qilishi, unga tazyiq o'tkazish darajasiga ko'tarilmasligi kerak. Ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlar har qanday mafkuradan xoli bo'lishi lozim. Bozorning qoidasi shunday: kimning mahsuloti yaxshiroq va arzonroq bo'lsa, o'sha mahsulotga hammadan ko'ra ko'proq talab bo'ladi. Bu yerda hech qanday siyosat yoki mafkura o'z ta'sirini o'tkazmaydi.

Ikkinchidan, I. Karimovning: «Davlat asosiy islohotchi bo'lishi zarur. U islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi, o'zgartirishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchil amalga oshirishi, jaholatparastlar (retrogradlar) va konservatorlarning qarshiligini bartaraf etishi shart»,— degan fikri o'ta ahamiyatlidir. Mustaqil O'zbekiston boshqariladigan ma'rifatli bozor iqtisodiyotiga o'tayotir. Unga faqat davlatning boshqaruvchilik kuchiga tayanib o'tishi mumkin.

Uchinchidan, I. Karimov «Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmay» risolasi hamda boshqa bir qator asarlarida hammaning qonunga itoatkor bo'lishi, qonunning hamma narsadan ustun turishini ta'kidlab o'tgan. Biz demokratik jamiyat sari borar ekanmiz, unda qonun ustuvor bo'lishini unutmashimiz, qonun oldida hamma tengligini, uni buzishga hech kim haqli emasligini bilishimiz lozim. Qonunning ustuvorligi huquqiy davlat barpo etish zaruriyatidan ham kelib chiqadi. Ma'rifiy dunyodagi bozor — bu, eng avvalo, qonunga hurmat, demakdir.

To'rtinchidan, respublikamizda ko'p sonli kishilar turmush darajasining pastligi totalitar iqtisodiy tuzumdan qolgan meros. Biz tanlagan yo'lning o'ziga xosligi aholi

nochor qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish orqali bozor munosabatlariga o'tilishidir.

I. Karimovning «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli asarida XXI asr arafasi va uning dastlabki yillarida aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlash islohotlarining barcha bosqichida asosiy yo'nalish bo'lib xizmat qilishi alohida ta'kidlanganligi diqqatga molikdir. Unda kelgusida ham, davlat tomonidan aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hajmi va miqdorini ko'paytirish bilan bir vaqtda, haqiqatda yordamga muhtoj bo'lgan kishilar va oilalar ijtimoiy yordam olishlari lozimligi ko'rsatib o'tilgan.

Beshinchidan, davlatimiz rahbari I. Karimov doimo islohot o'tkazishda shoshqaloqlikka yo'l qo'yib bo'lmasligini, uni ehtiyotlik bilan sekin-asta o'tkazish zarurligini ta'kidlab kelmoqdalar. Shuni aytish kerakki, islohot biz uchun mutlaqo yangi iqtisodiy tizimni, bozor tizimini yaratishi kerak. Yangilik hech qachon birdaniga yuzaga kelmaydi, har doim taraqqiyotga bosqichma-bosqich borilgan. O'zbekistondagi bozor iqtisodiga o'tish ham bundan xoli emas.

«O'zbek modeli»ning boshqa modellardan farq qiladigan xususiyati shundaki, u faqat iqtisodiy rivojlanish emas, balki keng ma'nodagi milliy tiklanish va ijtimoiy taraqqiyot modelidir. Shu bilan birga u iqtisodiyot bilan bir qatorda davlat qurilishi, ijtimoiy soha va ma'naviyatni, jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oladi.

Ayni paytda mashhur besh tamoyil asosida jamiyat hayotining barcha sohalarini erkinlashtirish bilan bog'liq olti ustuvor yo'nalish ham belgilandi.

Xullas, O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishi yuzasidan yuqoridagilar bayon qilinarkan, bu sohada hozirgacha erishilgan yutuqlar va yechimini kutayotgan dolzarb muammolar to'g'risida ham to'xtab o'tish lozim. Bu masalalar davlatimiz rahbari I. Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari», «O'zbekiston XXI asrga intilmoq-

da», «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot — pirovard maqsadimiz» nomli asarlarida bayon qilib berilganligini o‘quvchilar bilishi va undan foydalanishi zarur.

Iqtisodiyot va ma’naviyat

Iqtisod va ma’naviyat o‘zaro chambarchas bog‘liq. Ma’naviyatsiz iqtisod va iqtisodiyotsiz ma’naviyat yuksak bosqichga ko‘tarila olmaydi. Oldin iqtisodiy masalalarni, vazifalarni hal qilib, so‘ng ma’naviyat bilan shug‘ullanish lozim deguvchilar qattiq adashadilar va aldanadilar. Ikkalasini baravar rivojlantirish zarur.

Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi bozor munosabatlariga o‘tishning asosiy tamoyillaridan biri ekanligini Yurtboshimiz I. Karimov qayta-qayta uqtirib kelmoqdalar. Bundan ayrim kishilar bizga mafkura, siyosat kerak emas, degan noto‘g‘ri xulosaga kelib, ijtimoiy fanlarga nisbatan noto‘g‘ri munosabatda bo‘la boshlagan davrlar ham bo‘ldi.

Bu no‘noq, uzoqni ko‘ra bilmaydigan odamlar fikri. Avvalgi mavzularda aytganimizdek, ma’naviyatsiz jamiyat bo‘lishi mumkin emas. Har qanday iqtisodiy masalalarni ma’lum ma’naviyat va ma’rifat sohiblari hal etadilar. Mamlakat qanchalik iqtisodiy rivojlangan bo‘lsa, bu mamlakatda ma’naviyat va ma’rifat shuncha yuksak bo‘ladi. Yuksak ma’naviyat va ma’rifatga ega bo‘lgan mamlakatning iqtisodiy kuch-qudrati yuqori bo‘ladi. Demak, ma’naviyati va ma’rifati yuksak inson yurt, mamlakat oldida o‘ziga yuklatilgan mas’uliyatni chuqur his etadi. Shu yurt, mamlakat, xalq uchun halol, bunyodkorlik mehnati bilan uning yuksaklikka parvozi uchun hissasini qo‘shishi kerakligini teran tushunadi. Shunday qilib, yuksak ma’naviyat va ma’rifat yuksak iqtisodiyot bilan, yuksak iqtisodiyot esa, yuksak ma’naviyat va ma’rifat bilan bog‘lanib ketadi.

Ayrim kishilar erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida ma’naviy-ma’rifiy va axloqiy qadriyatlarning qiymati tushib ketadi, madaniyat ikkinchi darajali narsaga aylanadi, ma’naviy qashshoqlik avj oladi, deb da’vo qiladilar. Erkin

bozor iqtisodiyoti bilan ma'naviyatni bunday qarama-qarshi qo'yish mutlaqo o'rinsiz. Aksincha, yuqorida aytganimizdek, ular bir-birlarini to'ldiradi, chunki faqat ma'naviy sog'lom, kuchli jamiyatgina islohotlarga tayyor bo'lishi mumkin.

Erkin bozor iqtisodi sharoitida iqtisodiy yo'nalish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanish, ma'naviy o'nglanish, ma'naviy poklanish, ma'naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg'un holda boradi. Faqat moddiy boylik hamma narsani hal qilmaydi.

«Chunki bozor iqtisodiyoti hamma narsani joy-joyiga qo'yadi, degan yengil-yelpi qarashga itoat qilib, faqat moddiy boylik ortidan quvish — xalqimizning azaliy orzu-intilishlariga ham, insoniylik bilan yo'g'rilgan milliy qadriyatlarimiz mohiyatiga ham to'g'ri kelmas edi. Shu bois, islohotlarni amalga oshirishda ma'naviyat va iqtisodiyot bir-birini inkor etmaydi, — deyiladi Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» kitobida, aksincha, bir-birini quvvatlab, o'zaro ta'sirlanib, rivojlanib boradi, degan qoidani o'zimiz uchun dasturulamal sifatida belgilab oldik».

Prezident Islom Karimov moddiy va ma'naviy olamni bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslaydi. Qachonki ana shu ikki muhim omil o'zaro uyg'unlashsa, tom ma'nodagi qo'sh qanotga aylansa, shundagina inson, davlat va jamiyat hayotida o'sish-o'zgarish, yuksalish jarayonlari sodir bo'ladi.

**O'zbekistonning
iqtisodiy
salohiyati**

O'zbekistonning yirik sanoati 200 dan ortiq tarmoqni o'z ichiga oladi. 200 dan ziyod zavod va fabrikalarida juda ko'p sohada qo'llanadigan mahsulotlar ishlab chiqariladi. Respublika rivojlangan ichki transport va aloqa tizimiga egaligi bilan ham ajralib turadi. Chunonchi, temir yo'llar tarmog'i uzunligi 6700 km, avtomobil yo'llarining uzunligi 80 ming kilometr. Toshkent — Farg'ona vodiysi avtoyo'lining, Qoraqalpog'iston, Xorazmni bog'lovchi, shuningdek, G'uzor — Jarqo'rg'on temir yo'lining,

Asaka avtozavodi, Sho‘rtan gaz kompleksi, Qorovulbozor neftni qayta ishlash zavodi va ko‘plab yengil sanoat korxonalarining qurilishi mustaqillikka qo‘yilgan haykaldir.

O‘zbekiston qudratli ilmiy-ma‘naviy salohiyatga ham egadir. Respublikada Fanlar akademiyasi, 120 dan ziyod ilmiy tadqiqot oliygohlari, 60 dan ortiq oliy o‘quv yurtlari mavjud. Ilmiy xodimlar soni 100 mingdan ortiq bo‘lib, ular orasida 200 dan ortiq akademik, 2200 ga yaqin fan doktorlari va professorlar, 14600 dan ziyod fan nomzodlari va dotsentlar bor.

O‘zbekiston rivojlangan, ko‘p tarmoqli qishloq xo‘jaligiga egadir. U qimmatbaho xomashyo — paxta yetishtiradigan jahondagi eng yirik o‘lkalardan biri hisoblanadi. Paxta yetishtiradigan mamlakatlar orasida jahonda 4-o‘rinni va paxta mahsulotlarini eksport qiladigan mamlakatlar orasida 2-o‘rinni egallaydi. Har yili mamlakat dalalarida, bog‘larida 5 million tonnagacha meva va sabzavot yetishtiriladi. O‘zbekistonning mehnatsevar, iste’dodli va mehmondo‘st xalqi respublikaning chinakam boyligidir. O‘rta Osiyodagi barcha mehnat resurslarining 40 foizga yaqini O‘zbekiston hissasiga to‘g‘ri keladi.

Mustaqillik yillari O‘zbekistonda barqarorlik va tinchlik, fuqarolar osoyishtaligi va millatlararo totuvlik saqlanib turibdi. Yaxshi qo‘shnichilik va insonparvarlik o‘zbeklar tabiatidagi tug‘ma milliy va diniy fazilat hisoblanadi. Barcha zamonlarda O‘zbekiston ko‘p millatli davlat bo‘lib kelgan va kelajakda ham shunday davlat bo‘lib qoladi. O‘zbekistonda 130 ga yaqin millat va elat vakillari bo‘lgan 27 milliondan ziyod kishi yashaydi. Tinchlik, ijtimoiy totuvlik va adolat g‘oyalari bizning ajdodlarimiz qoldirib ketgan ma‘naviy meros hisoblanadi.

Mustaqil O‘zbekiston tanlab olgan bozor iqtisodiyoti yo‘li shuning uchun ham istiqbolliki, u har bir kishidan o‘ta tadbirkorlikni, hozirjavoblikni, tejamkorlikni, uddaburonlikni talab etadi.

Xullas, yuqorida ko‘rganimizdek, juda katta boyliklar mavjudligi, qudratli sanoat bazasi, ilmiy va intellektual salohiyat, davlat suvereniteti yangi jamiyat barpo etish, O‘zbekistonni rivojlangan, gullab-yashnayotgan davlatga aylantirish uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy, ijtimoiy, ma‘naviy, ma‘rifiy asos bo‘lib qoladi.

TAYANCH SO‘Z VA IBORALAR

Iqtisodiyot, Avloniy, ishlab chiqarish, bozor munosabati, bozor iqtisodi, taraqqiyotning o‘zbek modeli, qonun ustuvorligi, turmush darajasi, O‘zbekistonning iqtisodiy salohiyati, intellektual salohiyat, davlat suvereniteti, yangisini qurmay, eskisini buzmay, eksport.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Iqtisodiyot tushunchasini ta‘riflang.
2. Iqtisodiyot fani nimani o‘rganadi?
3. Bozor iqtisodiyoti deganda nimani tushunasiz?
4. Nima uchun ma‘naviyat va iqtisodiyot o‘zaro bog‘liq?
5. Tadbirkorlikning ma‘naviy xislatlariga nimalar kirishini izohlang.
6. Mustaqil O‘zbekistonning bozor munosabatlariga o‘tishining o‘ziga xos yo‘lini tushuntirib bering.
7. Ma‘naviyat va ma‘rifat jamiyatning yuksak iqtisodiy taraqqiyotga erishish sharti ekanligini izohlang.
8. Nima uchun moddiy va ma‘naviy olam parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslanadi?

TOPSHIRIQ

1. Oltin zaxiralari bo‘yicha O‘zbekiston nechanchi o‘rinda turishini va qayerlarda oltin ishlab chiqarilishini sharhlang?
2. O‘rta Osiyodagi barcha resurslarning necha foiz O‘zbekiston hissasiga to‘g‘ri kelishini aniqlang.
3. O‘zbekiston paxta mahsulotlarini eksport qiladigan mamlakatlar ichida nechanchi o‘rinni egallashini va qaysi mamlakatlar bizdan paxta sotib olishini izohlang.

Iqtisodiy madaniyatni belgilovchi fazilatlarni sharhlang.

Iqtisodiy qadriyatlarni bilish, mehnatsevarlik, tejamkorlik, halollik, saxiylik, tadbirkorlik, tashabbuskorlik, yaratuvchilik, faoliyat nafiligi va unumdorligi, iste‘mol madaniyati, iqtisodiy ziyraklik, davlat va xususiy manfaatlar uyg‘unligi, iqtisodiy mas‘uliyatlilik, Vatan ravnaqi va xalq farovonligiga xizmat qilish, kichik biznesni bilish, iqtisodning ma‘naviyat bilan o‘zaro bog‘liqligini tushunish, iqtisodning siyosatdan ustunligini bilish.

7-§. JAMIYATNING SIYOSIY HAYOTI, MAFKURA VA MA'NAVIYAT

Siyosat va siyosiy ong

Kishilik jamiyatini siyosatsiz tasavvur etish qiyin. Siyosat orqali ijtimoiy hayot boshqariladi, tartibga solinadi, o'zgartiriladi va rivojlantiriladi. Siyosat — yunoncha «polis» — davlat so'zidan olingan bo'lib, davlat va jamiyat ishlari bilan bevosita shug'ullanish jarayonini anglatadi. Siyosat — bu jamiyat hayotining xilma-xil sohalarida ro'y beradigan oddiy va murakkab vazifalarni hal qilishga, aniq maqsadlarga erishishga qaratilgan faoliyat yoki vositadir.

U yoki bu siyosat yuritilishi sinflar, ijtimoiy guruhlar, millat va elatlar o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirish faoliyatiga bog'liq bo'lib, uning markazida davlat turadi. Ana shu davlat hokimiyatini qo'lga kiritish, saqlab qolish, undan samarali foydalanish bosh masaladir. Siyosat yuritishdagi eng muhim va mohiyatli yo'nalish davlat hokimiyatini qurishdir. Siyosat deganda davlat ishlarida qatnashish, davlat faoliyatini yo'naltirish, uning shakllari, vazifalari va mazmunini belgilab berishni tushunamiz.

Jamiyat o'zgarishi bilan «siyosat» tushunchasining mazmuni ham o'zgarib boradi. Davlatlarda hokimiyatlarning ajratilishi, hokimiyat vakolatlarining quyi organlarga berilishi, partiya tizimlarining, maxsus manfaatlar asosida birlashgan ko'p va xilma-xil guruhlarining rivojlanishi sababli siyosatning mazmuni davlat faoliyati bilan cheklanib qolmaydi. U nodavlat tashkilotlarning faoliyatini ham o'z ichiga oladi.

Siyosat — iqtisodiyotning jamlashtirilgan ifodasidir, uning umumlashuvi va oxiriga yetishidir. Turli ijtimoiy guruhlar, tabaqalarning iqtisodiy manfaatlari xuddi shu siyosatda to'la va har tomonlama ifodalanadi. Siyosat iqtisodiyotga, iqtisodiy bazisga faol ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega. Shuning uchun kishilarning siyosiy ongini shakllantirish va rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi. «Agar iqtisodiy o'sish, taraqqiyot,— degan edi I. Karimov,— jamiyatimizning tanasi bo'lsa,

ma'naviyat-ma'rifat va siyosiy ong yetukligi uning ruhi, aqli va jonidir».

Siyosiy ong turli ijtimoiy guruhlarining davlat hokimiyatiga, siyosiy tashkilotlarga, ularning jamiyat hayotidagi roliga, boshqa davlatlar va millatlar bilan munosabatlar hamda shu kabilarga qarashlarning tizimga solingan nazariy ifodasidir. Siyosat o'zining ijtimoiy mohiyatiga ko'ra beqiyos bir san'atdir. U faoliyatning murakkab sohasi bo'lib, davlat va jamoat arboblari, hukmron siyosiy kuchlar va partiyalarning keng jamoatchilikni o'z ta'sirlarida saqlab turishlarida ustunlik bilan harakat qilishidan iborat. Siyosat — bu o'ylab bosilgan qadam, kelishuvlar, yon berishlar, siquvlaridir. Siyosat — bu ba'zida ayyorlik qilish, aldash, ba'zida ishontirishdir.

Siyosat o'zining mohiyati va xususiyatlariga ko'ra adolatli hamda adolatsiz siyosatga bo'linadi. Adolatli, taraqqiyparvar siyosat xalqlarning tub manfaatlari va ehtiyojlarini izchil himoya qiladi. Bunday siyosat ijtimoiy taraqqiyotning dolzarb vazifalarini hal etish vositasi bo'lib xizmat qiladi. U eskirgan, umrini yashab bo'lgan tartiblarni bartaraf qilishga hamda hayotning yangi tarzlari, ishlab chiqaruvchi kuchlarning yuksalishi uchun keng yo'l ochib beradi, ishlab chiqarishni rivojlantirishning yangi omillarini vujudga keltiradi, ishlovchilarning moddiy manfaatdorligini oshiradi. Bunday siyosat tarixning obyektiv yo'nalishiga mos keladi va uni jadallashtiradi.

Taraqqiyparvar siyosat ishlab chiqaruvchi kuchlar, fan, madaniyatni g'oyat yuksaltirib, xalq farovonligini ta'minlaydi. U tekinxo'rlik, ochlik, qimmatchilik va qahatchilikka qarshi qaratilgan bo'ladi. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni qaror toptirishda, atrof-muhitning tozaligi va sofliqini, inson salomatligini muhofaza qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adolatsiz siyosat ijtimoiy taraqqiyotga to'sqinlik qilishga, ayrim siyosiy kuchlarning manfaatlarini himoya qilishga,

demokratiyani bo'g'ishga, ommani zo'rlik, do'q-po'pisalar bilan saqlab turishga sabab bo'ladi.

**Ichki va tashqi
siyosat**

Siyosat o'zining tuzilishiga ko'ra ikki turga: ichki va tashqi siyosatga bo'linadi.

Ichki siyosat — bu subyektlarning mamlakat amalga oshiradigan faoliyatidir. Ichki siyosat quyidagi tur yoki yo'nalishlarga bo'linadi: iqtisodiy, ijtimoiy, milliy, demografik, agrar, texnikaviy, ekologik, madaniy, kadrlar, harbiy, geopolitik siyosat va h.k. Tashqi siyosat ham o'zining maqsad va mohiyatiga ko'ra bir xil bo'lmaydi. Davlat hokimiyati va vazifalariga ko'ra tinchliksevar siyosat, tajovuzkor siyosat bo'lishi mumkin. Tinchliksevar siyosat — bu xalqlarning, barcha mehnatkashlarning tub manfaatlarini xalqaro maydonda himoya qiladigan faoliyatdir. Xalqaro munosabatlarni sog'lomlashtirishga, tinch-totuv yashash qoidalarini amalga oshirishga, tinchlikni mustahkamlashga, xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikni rivojlantirishga qaratiladi. Tajovuzkor siyosat — bu xalqaro maydonda talonchilik qilishga, boshqa xalqlarni arosatga solishga qaratilgan faoliyatdir. Bu siyosat reaksiyon guruhlarining manfaatlariga mos keladi. Tarix shuni ko'rsatadiki, o'z boyliklarini ko'paytirishga intiluvchi hukmron doiralar u yoki bu davlatga, xalqlarga, millatlarga qarshi tajovuzkor siyosat olib boradi. Ular o'z siyosatini o'tkazish uchun zo'rlikdan, qurolli kurashdan, bo'hton hamda uydirmadan va boshqa vositalardan keng foydalanishadi. Militarizm va qurollanish poygasi misli ko'rilmagan miqyoslarda o'sadi. Bu siyosat xalqlar, davlatlar orasiga ishonchsizlik va dushmanlik urug'ini sochuvchi, urush olovini yoqish siyosatidir. Bu siyosat xalqlarga behisob kulfatlar keltiradi, butun-butun xalqlarni yuz yillab qullik asoratida yashashga mahkum etadi. Bu siyosat xalqlarning manfaatiga batamom yotdir.

Demak, siyosat — davlatni, jamiyatni boshqarishda muayyan maqsadlarga erishishni ko'zda tutuvchi, turli ijtimoiy guruhlar hamda davlat o'rtasidagi munosabatlar muvozanatini saqlab turuvchi, xalqning iqtisodiy, ijtimoiy,

ma'naviy ehtiyojlarini qondirish yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqib, amalga oshiruvchi vositadir.

**Markaziy Osiyoda
siyosat masalasi**

Siyosat tushunchasi Markaziy Osiyo xalqlarida qadimdan mavjud bo'lib, bu haqda ko'plab yozma ma'lumotlar qolgan. Jumladan, XI asr buyuk mutafakkiri Yusuf Xos Hojib o'zining mashhur «Qutadg'u bilig» asarida shunday degan edi:

*Beglar dargohini siyosat bezatdi,
Siyosat bilan beklar elni tuzatdi,
Yomonlarga siyosat yurgizish kerak,
Yurt orasidagi yaramaslarni siyosat tozalaydi.*

XI asrda Nizomulmulk Sharq tarixi va madaniyatida o'zining podshohlar turmushi haqida 1091-yilda yozgan «Siyosatnoma» («Siyar ul-mulk») nomli o'lmas asari bilan iz qoldirdi. Asarning asosiy g'oyalari shundan iboratki, vazir Nizomulmulk shoh va hokimlarni adlu insofqa, sulh va muruvvatga, davlatni oqilona boshqarib, qat'iy qoida va tartib o'rnatishga, amaldorlarni vijdonli, pok, halol va iymonli bo'lishga, mamlakat obodonligi, uning ahli farovonligi, tinchligi va totuvligini ta'minlash uchun harakat qilishga da'vat etadi.

Har bir mamlakatda nazariy bilimlar qancha chuqur va keng bo'lsa, siyosat shu qadar to'g'ri, mustahkam va real bo'ladi, jamiyat taraqqiyotini tezlashtiradi. Mustahkam nazariy poydevorga ega bo'lmasdan jiddiy, oqilona siyosatni amalga oshirib bo'lmaydi. Shu boisdan ham ulug' bobokalonimiz Amir Temur muazzam davlatini uch tamoyil asosiga qurgan: diyonat, adolat, siyosat. Ya'ni din-u iymon, odillik va kuchli iroda. Iymon yo'q yerda halollik yo'q, demak, yurtida baraka yo'q. Adolat bo'lmasa totuvlik, hamjihatlik o'rnini zulm va zo'rlik egallaydi. Siyosat, talabchanlik, qonun kuchli bo'lmasa, o'g'ri, muttaham, kallakesarlarning ovi yuradi. Amir Temur: «Siyosatda maslahat, mulohazakorlik, o'ylab ish qilish qurol kuchidan

ko‘ra o‘n baravar foydaliroqdir», — degan. Bu so‘zlar hozirgi kunda nizoli masalalarni siyosiy muloqot, ogohlantiruvchi diplomatiya yo‘li bilan hal qilish zarurligini bildiradi.

Oqilona siyosat har qanday mushkul ahvoldan chiqish imkonini beradi. Naql qilishlaricha, Amir Temur Eronga qarshi yurish boshlaganda Isfahonning qamali uzoq cho‘zilib, qo‘shinni ozuqa bilan ta‘minlashga mablag‘ yetishmay qoladi. Shunda u Samarqandga, Saroymulxonimga maktub yo‘llab: «Qo‘shinning zaxirasi tugadi, xazinadan zar yuboring», — deydi. Saroymulxonim maktubni o‘qib, orqa tomoniga: «Ulug‘ amir, zaringiz tugagan bo‘lsa, siyosatingiz ham tugadimi?» — deb yozib qaytarib yuboradi. Amir Temur Saroymulxonimning kinoyali zamzamasini o‘ylab-o‘ylab, bir qarorga keladi: lashkargohda so‘yib yeyilgan qo‘y, qoramol, ot va tuya suyaklarini o‘sha kuni yig‘dirib, turli hajmlarda qirqtirib, katta hajmdagisiga katta qiymat, kichigiga kichik qiymat belgilab, unga po‘lat muhrini qizdirib tamg‘a bostiradi hamda muvaqqat pul o‘rniga muomalaga kiritishga farmon beradi. Natijada, qo‘shni shahar va qishloqlardan suyak pulga qo‘shin uchun oziq-ovqat sotib olinadi. Tez kunda Isfahon taslim bo‘lgach, suyak pullar zar bilan almashtiriladi.

XV asrning ulkan allomalaridan biri Husayn Voiz Koshi-fiy «Axloqi Muhsiniy» asarining «Siyosat» degan bobida:

*«Mamlakat tobqay siyosatdin nizom,
Gar siyosat bo‘lmasa yetgay halal,
Tobmagay olam ishi aslo tuzut
Besiyosat hech vaqt-u hech mahal», — deydi.*

XVII asrda yashab ijod etgan Xoja Samandar Termiziy ham o‘zining «Dastur ul-mulk» asarida jamiyatda siyosatning roli, uning yuritilishi haqida qimmatli fikrlar bildirgan.

Turli mamlakatlarda davlat boshqaruv shakli turlicha bo‘ladi. Boshqaruv shakli konkret davlatda hokimiyatni tashkil etish usullarining majmuyidir. Boshqaruvning qadimdan ma‘lum shakli monarxiya va respublikadir.

Barcha siyosiy rejimlar ikki guruhga — demokratik va demokratiyaga zid rejimga bo‘linadi. Demokratiyaga zid rejim uch turdan — totalitar, fashistik va avtokratik turlardan iborat. Siyosiy rejim, ya’ni hokimiyatni amalda oshirish usullari albatta shaxs ma’naviyatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Yaxshi siyosiy rejim bo‘lsa, shaxs ma’naviyati rivojlanadi, yaxshilanib boradi yoki aksincha.

Taraqqiyparvar siyosat jamiyatni demokratlashtirish sharoitida shaxsning ijtimoiy mavqeyini oshirishni ta’minlovchi yangi imkoniyatlarni yaratadi. Fuqarolar davlatni boshqarishda ishtirok etadilar va o‘z huquqlaridan kengroq foydalanadilar. Siyosiy erkinliklardan, jumladan, so‘z, matbuot, saylash-saylanish va h.k. erkinliklardan foydalanish uchun ijtimoiy kafolat beriladi. Mamlakatda siyosiy pluralizm va parlament demokratiyasi uchun, qonuniy muxolifat uchun yo‘l ochiladi.

Siyosat va demokratiya

O‘zbekiston Respublikasi huquqiy demokratik davlat barpo etishga intilmoqda. Ma’lumki, demokratiya «xalq hokimiyati» degan ma’noni bildiradi. Biroq, uning asl mazmuni, jamiyat ma’naviy taraqqiyotida tutgan o‘rni, inson haq-huquqlarini belgilashdagi vazifalari nimalardan iborat? Demokratiya — fuqarolarning, davlat organlarini tuzish, ular faoliyatida ishtirok etish, mamlakatda inson huquqlarini ta’minlash orqali namoyon bo‘ladi. U davlat bilan inson munosabatlarini belgilaydi. Demokratiya — fuqarolarning ozodligi va tengligi tamoyillariga asoslangan siyosiy tuzum shaklidir. Demokratiya ozchilikning ko‘pchilikka bo‘ysunishini, davlat hokimiyati asosiy organlarining saylab qo‘yilishi, siyosiy huquq va erkinliklarning mavjudligini ko‘zda tutadi.

Demokratiya kishilik tarixida insonning ongli hayoti boshlangan davrdan boshlab, uning erk-irodasini, xohish-istagini belgilaydigan mezon bo‘lib kelmoqda. Jamiyat va insoniyat taraqqiyotining har bir yangi davrida demokratiya ham yangidan-yangi mazmun, mohiyat va shakl kasb etib borgan.

Demokratiya jamiyat taraqqiyotining siyosiy, huquqiy, ma'naviy va boshqa jihatlari bilan birga, shu jamiyatni tashkil etgan aholi umumiy dunyoqarashini o'zida uyg'unlashtiradi. Bu jihatdan qaraganda, aholining turmush tarzi, an'analari va urf-odatlariga asosida shakllangan ma'naviy-ruhiy olami jamiyatda qaror topadigan demokratik mafkura asosida qurilsa, uning o'z manfaatlariga mos keladigan siyosatiga xizmat qiladi. Mabodo, demokratiya siyosiy «o'yinlar» holatiga kirsam, mamlakatda parokandalik, anarxiya vujudga keladi. Shu boisdan ham har qanday davlat o'z huquqiy asosiga, siyosiy rejimiga, boshqaruvdagi aniq tamoyillariga ega bo'lishi lozim.

Demak, fuqarolar o'z haq-huquqlarini himoya qilish bilan birga jamiyat va davlat oldidagi, mamlakatimiz istiqboli yo'lidagi vazifalari, burchlarini to'la anglab olgan taqdirdagina demokratiya o'zining tom ma'nodagi mazmuni va jahon tajribasida tan olingan mohiyatiga ega bo'la oladi. Demokratiyaning ikki xil shakliga alohida e'tibor berish lozim. Bular: bevosita demokratiya; vakillik demokratiyasi.

1. Bevosita demokratiya — har bir fuqaroning davlatni boshqarishda bevosita, ya'ni shaxsan ishtirok etishidir. O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi. Shuningdek, har bir shaxs saylovda ovoz berish, takliflar kiritish hamda bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega.

2. Vakillik demokratiyasi — davlatni boshqarishda, davlat va jamoat ishlarida fuqarolarning vakillari orqali ishtirok etishidir. Vakillik demokratiyasining yorqin ifodasi xalq deputatlari bo'lib, ular saylovchilarning vakilidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ham xalq vakilidir.

Jahon davlatchiligi tajribalari tobora boyib, xalqning o'zligini anglash jarayoni tezlashib borgan sari demokratiyaning jamiyat hayoti taraqqiyotida tutgan o'rni xususida munozaralar keskin avj oldi. XX asr kishilik tarixida keskin burilish yasadi. Ikki lager o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy raqobat tufayli bir qator xalqaro tashkilotlarning paydo bo'lishiga, inson haq-huquqlarini ma'lum bir tartibga solib turishga, uni himoya qilishga ehtiyoj sezildi. Totalitar tuzumdagi inson huquqlarining cheklanganligi, birinchidan, mafkuraviy yakkahokimlik jamiyat ma'naviy taraqqiyotini cheklab qo'ydi. Ikkinchidan, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasida ozodlik uchun kurash, milliy davlatchilikka zamin yaratish va shu asosda inson huquqlarini himoya qilish, har tomonlama barkamol demokratik jamiyatni vujudga keltirishga intilish kuchaydi.

Qadimgi Sharqda azaldan huquqiy demokratik davlatchilik va fuqarolik jamiyatining turli elementlari mavjud edi. Bunga Afrosiyob va Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Temuriylar va boshqa qator sulolalar davlatchiligini misol qilib keltirish mumkin. Bu davrlar haqiqat va adolat g'oyasi nihoyatda baland ko'tarilganligi va butun mamlakatda aniq tartib-intizom o'rnatilganligi bilan alohida ajralib turadi. Sharq uyg'onish davri va keskin yuksalish paytlarida dunyoviy ilmlar, ishlar bilan islom madaniyati nazariyasi va falsafasi uyg'un taraqqiy topdi, turmush tarzimizga aylanib qoldi.

Sohibqiron Amir Temurning «Kuch adolatdadir» degan shiorida huquqiy demokratik davlatning, fuqarolik jamiyatining, insonning yashash huquqi va uning barcha erkinliklari hamda hozirgi zamon demokratik harakatlarining eng ilg'or tajribalari mujassam bo'lgan.

Sharq davlatchiligida inson erki, haq-huquqlari ko'p jihatdan himoya qilingan o'z davri talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, inson ozodligi va xatti-harakatlari erkinligi ta'min etilgan edi. Bu ayni jamiyatning muhim asosiy belgilaridan hisoblanadi.

O‘zbekistonda huquqiy demokratik islohotlar 1996-yil 29—30-avgustda Oliy Majlis 6-sessiyasida Islom Karimov «Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari» mavzuyida nutq so‘zladi. Bunda bir qator vazifalar belgilab berildi:

1. Mamlakatimizda siyosiy institutlar va sud tizimi islohotlarini chuqurlashtirish. Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish.

2. Respublika qonun hujjatlarini umume’tirof etilgan inson huquqlari sohasidagi xalqaro me’yorlar, qoida va standartlarga muvofiq holga keltirish.

3. Aholining siyosiy faolligini oshirish.

4. Jamoat, nodavlat tuzilmalarini rivojlantirish (muxolifat).

5. Matbuot, axborot vositalari demokratik rivojlanish uchun ulkan ahamiyatga ega. «Matbuot erkinligi to‘g‘risida»gi qonun.

6. Qonunchilik mexanizmini va qabul qilingan qonun me’yorlari ijrosi va nazoratini yanada takomillashtirish va boshqalar.

O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qiluvchi bir qator tashkilotlar, parlament demokratiyasi va huquqiy davlatning barcha asosiy institutlari tashkil etildi. O‘zbekiston davlat qurilishi va boshqaruvi tizimi sohasida tub islohotlardan ko‘zlangan maqsad, birinchidan, hokimiyat tizimlari bo‘linishining konstitutsion prinsipiga amal qilinishini ta’minlash, ya’ni davlatning kuch-qudrati, avvalo, demokratik institutlarning mustaqil faoliyat ko‘rsatishi uchun shart-sharoit yaratish, fuqarolar va jamiyatning barcha siyosiy, ijtimoiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, tadbirkorlik va iqtisodiy tashabbuslar erkinligi uchun zarur imkoniyatlarni tashkil etib berish qobiliyati bilan o‘lchanadi.

Ikkinchidan, ma’muriy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini kuchaytirish, ya’ni bu yerda gap mamlakatimizda demokratiya tamoyillariga asoslangan, avvalo, amaldagi Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq faoliyat

yuritadigan, hech qanday mansabdorlar, hatto, eng koʻzga koʻringan vazifada oʻtirgan shaxslarning ham subyektiv xohish-istagiga qaram boʻlmasdan, ishni barqaror va faol tashkil qiladigan, oʻz mohiyatiga koʻra jamiyatimizning olgʻa siljishiga xalaqit berayotgan barcha illat va eski asoratlarni bartaraf etishga qurbi yetadigan samarali tizimni vujudga keltirish haqida bor-moqda.

Oʻzbekiston oʻzining inson huquqlari sohasidagi siyosatini belgilashda 3 ta eng muhim tamoyillardan kelib chiqadi:

1. Normativ va tashkiliy jihatlardan xalqaro tajribaning ustuvorligi.

2. Vatanimizning insonga homiylik qilishdek tarixiy tajribasini hisobga olish.

3. Inson huquqlari boʻyicha xorijiy milliy institutlar tajribasini hisobga olish.

Inson huquqlari boʻyicha milliy institutlar tizimi tashkil etilib, respublikada hukumatga qarashli boʻlmagan 200 dan ortiq boshqarish anʼanalari tiklanmoqda. Demak, jamiyatni demokratlashtirish va Oʻzbekistonda huquqiy jamiyatni qaror toptirish uchun, avvalo:

1. Anʼanaviy mezonga eʼtibor berish va u bilan hisoblashish lozim.

2. Mamlakat aholisi turmushini yaxshilash bilan birga uning ongini rivojlantirish chora-tadbirlarini baravar olib borish lozim.

3. Turmushning yuksalishi, oʻz navbatida, odamlar ongi va tafakkuri tarzi oʻzgarishiga olib kelsa, ong va tafakkurning oʻsishi turmushning yaxshilanishiga taʼsir koʻrsatadi.

4. Inson tarbiyasida muhitning rolini hisobga olish zarur. Baʼzan turmushi yaxshi odamlardan ham oʻgʻri, muttahamlar chiqishini nazardan qochirmaslik kerak.

5. Huquqiy demokratik jamiyatga tabiiy yoʻsinda, hech qanday zoʻriqish va talafotsiz erishishimiz lozim.

Oʻzbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etishning oʻziga xos tomonlari uning Sharq davlatchiligini rivojlantirishga

qaratilgan hozirgi zamon jahon demokratik harakatlarining eng ilg'or tajribalariga mos kelmoqda deyish mumkin. Bu Yer yuzida har qanday zo'ravonlik va kuch ishlatishni rad etish bilan birga, jahon siyosiy madaniyatini oshirishga da'vat etish orqali siyosatga demokratik tamoyillarni olib kirishning o'zbekona yo'lidir.

**Siyosiy madaniyat,
mafura va
ma'naviyat**

Siyosiy madaniyat, mafura va ma'naviyat tushunchalari darajasi jamiyat hayotida inson ishtirokining qandayligini belgilaydi. Bizga ma'lumki, siyosiy madaniyat, mafura va ma'naviyat yuksak bo'lgan joyda odamlar hokimiyat ishida faolroq ishtirok etishadi. Qonun va qarorlar qanday qabul qilinishi, uning ijrosi qanday nazorat qilinayotganligini kuzatib borishadi, munosabat bildirishadi.

O'zbekistonda nodavlat va jamoat tashkilotlari faoliyatini chuqurlashtirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. So'nggi besh yil ichida mamlakatimizda jamoat birlashmalari va nodavlat tashkilotlar soni 2500 tadan ortdi va endi ular ijtimoiy fikrni shakllantirishga faol ta'sir ko'rsatayotganini ko'rish mumkin.

O'zbekiston o'zining mustaqil yo'lga qadam qo'ygan dastlabki kunlarda, eski mafuradan butunlay voz kechilayotgan, yangi mafura esa hali ishlab chiqilmagan, ilmiy asoslab berilmagan kezlarda ma'naviyat sohasida bo'shliq paydo bo'ldi. Shuning uchun ham yangi milliy g'oya, milliy mafurani yaratish zarurati kun tartibidagi asosiy masala qilib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 1993-yil 6-mayda Respublika Oliy Kengashi XII sessiyasida so'zlagan nutqida: «Oldimizda turgan eng muhim masala, bu milliy istiqloq mafurasini yaratish va hayotimizga tatbiq etishdir»,— degan edilar. Milliy g'oya — milliy mafura respublikamiz mustaqilligini mustahkamlash, O'zbekistonni kelajakda buyuk davlatga aylantirishga va inson haq-huquq-

larini himoya qilish, ijtimoiy adolatni, demokratiyani to'la qaror toptirish, millatimiz va mamlakatimiz istiqloli muammolarini hal etishga qaratilgan, ilmiy asoslangan xilma-xil bilimlar va xulosalarning muayyan tizimidir.

Milliy istiqlol mafkurasi millatning — o'zbeklarning manfaati bilangina chegaralangan emas. O'zbekistonda istiqomat qilayotgan o'zbeklar, qozoqlar, tojiklar, ruslar, ukrainlar, yahudiylar, hullas, respublikamizni o'zining jonajon Vatani deb bilgan, u bilan faxrlanadigan barcha millat va elatlarning teng huquqliligini, qadr-qimmatini, or-nomusi va milliy g'ururini, manfaatlarini himoya qilishda milliy istiqlol mafkurasi katta o'rin tutadi.

Bugungi kunda insoniyat qo'lida mavjud bo'lgan qurol-yarog'lar yer kurrasini bir necha bor yakson qilishga yetadi. Buni hammamiz yaxshi anglaymiz. Lekin hozirgi kundagi eng katta xavf-xatar insonlarning ongini va qalbini zaharlash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar ko'p narsani hal qiladi. Bu achchiq haqiqatni hech qachon unutmash lozim. Shuning uchun ham mafkura dunyosida bo'shliqqa yo'l qo'yib bo'lmaydi. Shunday holat yuz bergan taqdirda, bo'sh qolgan mafkura maydonidan bizga begona, orzu-intilishlarimizga mutlaqo yot g'oyalar o'rin egallashga urinishi shubhasizdir.

Agar yoshlarimiz ongini yot, begona g'oyalar egallasa, fikr qaramligi, tafakkur qulligi kelib chiqadi. Bu narsa har qanday iqtisodiy yoki siyosiy qaramlikdan dahshatli bo'ladi. Shu sababli milliy istiqlol mafkurasi millatni va barcha xalqlarni birlashtirish, uyushtirish, vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi yo'lida xizmat qilmoqda.

Hozirgi paytda ro'y berayotgan ayrim salbiy holatlar, nojo'ya xatti-harakatlar, yovuz ishlar, avvalo, mafkuraviy bo'shliq tufayli sodir bo'lmoqda. Nega deganda, hali hayotiy tajribaga ega bo'lmagan, oq-qorani tanib ulgurmagan

yoshlar har turli ta'sirlarga beriluvchan bo'ladi. Misol uchun, ba'zi yoshlarni yo'ldan chalg'itayotgan diniy ekstremizm xavfini olaylik. Bu xatarli oqim o'ziga xos tarixga ega. Xususan, 80-yillarning oxirida mamlakatimizga o'zini «do'st», «dindosh», «millatdosh» qilib ko'rsatib, go'yo islom dinining sofligi uchun kurashga «da'vat» etuvchi ayrim kimsalar kirib keldi. Ular muqaddas dinimizning asl mohiyatini bilmaydigan oddiy odamlarni, g'o'r yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirib, bizga begona diniy aqidalarni yoyishga urindi. Agar biz, avvalambor, yoshlarimizning iymon-e'tiqodini mustahkamlasak, irodasini baquvvat qilsak, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar qilib tarbiyalasak, ularning ongida ota-bobolarimizning muqaddas qadriyatlarini qaror toptirsak, ularning o'zbek farzandiman, deb g'urur va iftixor bilan yashashiga erishgan bo'lamiz va shundagina ular milliy ildizlari baquvvat, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon taraqqiyoti bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo'lib yetishadilar.

Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida aytilganidek: «Shu boisdan ham, o'z haquhuqini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayana-digan, yon-atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil yondasha oladigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalash vazifasi istiqloq yillarida biz uchun hal qiluvchi masalaga aylandi».

Hozir O'zbekistonda hali tajribasiz va yosh bo'lsa-da, o'z siyosiy yo'li — mafkurasiga ega bir necha siyosiy partiyalar faoliyat ko'rsatmoqda, bu ham respublikamizdagi demokratiya va erkinlikning dalilidir. Mazkur siyosiy partiyalar ham o'z yo'lidan borib, mafkura borasida muayyan tajriba to'plamoqda. Bizning nazarimizda, O'zbekistonning mustaqillik mafkurasini, asriy milliy qadriyatlarimiz, xalq tafakkurida vujudga kelgan va kelayotgan yangi-yangi fikr-

lar siyosiy partiyalarimiz to‘playotgan tajribalarning — qaymog‘i tarzida shakllanishi va boyib borishi zarur.

Xalq tafakkuridagi yangi fikrlar deganda biz quyidagilarni nazarda tutamiz. XXI asrga qadam qo‘ydik. Hozir qay bir xalq yoki mamlakat ilm-fan va texnologiya sohalarini ravnaqiga diqqat qaratmasa, mafkura borasida ham orqada qoladi. Ma‘naviyat ham eskirib qoladi, so‘zi so‘z bo‘lmay qoladi, inobatga olinmaydi. Amerika, ingliz, fransuz, yapon, italyan xalqlari ilm-fan va texnologiya sohalarida ilg‘orlik qilayotganliklari uchun ham umumjahon siyosatida yetakchi ekanini nazardan chetda qoldirish mumkin emas, deb o‘ylaymiz. Biz ham shunday yo‘l tutsak arziydi.

Ma‘naviy-axloqiy va madaniy yuksalish, xalqimizning azaliy turmush tarziga aylangan ma‘rifat va adolat mamlakatda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishning kafolatidir. Demokratik jarayon uzoq davom etadigan uzluksiz jarayon bo‘lganligi bois yangicha tafakkurni shakllantirish, huquqiy, siyosiy va ma‘naviy yangilanishlar lozimligi anglab yetildi. Qonun ustuvorligiga erishish uchun oldin barchaning tengligi ta‘minlandi. Aholining siyosiy faolligi bevosita uning jamiyat ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga qanchalik daxldorligi bilan belgilanishi anglab yetildi. Aholi siyosiy madaniyati shakllandi. Demokratiyaning yana bir belgisi — jamiyatda muxolifatning mavjudligi. Bizda haqiqiy ma‘noda muxolifat bo‘lmagan. Avvalo, islohotlar o‘tkazish, jamiyatning taraqqiyot va yangilanish yo‘lidan olg‘a borishi bo‘yicha muqobil dastur turlarini taklif etishga qodir amaliy muxolifatni nazarda tutmoq lozim. Prezident tasavvurida muxolifatning mavjudligi demokratik jamiyat uchun zaruriy hodisa va normal holatdir.

Demokratik jamiyatni rivojlantirishning muhim ma‘naviy omillaridan biri, bu hokimiyat tarmoqlarining bo‘linish tamoyilidir. Ya‘ni qonun chiqaruvchi — parlament, ijroiya hokimiyat — Vazirlar Mahkamasi, sud demokratik, huquqiy

davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim elementlaridir.

Demak, hokimiyat — bu parlament bo‘lib, qonun chiqaruvchi organ hisoblanadi. Ijro etuvchi organ — davlat mexanizmini to‘la asos bilan «davlat hokimiyati» yoki «oshkora hokimiyat» deyish mumkin.

Davlat mahkamasi (apparati) — davlat mexanizmining bir qismi bo‘lib, davlat hokimiyatini amalga oshirish uchun hokimiyat vakolatlariga ega bo‘lgan organlari majmuyidan iborat va u ma‘naviyat sohasidagi siyosatni ham yuritadi.

Davlat mexanizmi davlat mahkamasidan tashqari, davlat muassasalari va ma‘naviyat sohasini nazorat qiluvchi davlat korxonalarini ham o‘z ichiga oladi. Shu bilan birgalikda bir qator siyosiy institutlar, ya‘ni turli partiyalar, kasaba uyushmalari, yoshlar tashkilotlari hamda ijodiy uyushmalar — yozuvchilar, jurnalistlar, rassomlar, kinochilar, teatr arboblari, ilmiy muassasalar davlat siyosatini, jumladan, ma‘naviyat sohasidagi siyosatni ro‘yobga chiqarish sohasida faoliyat yuritadilar.

Hokimiyat tarmoqlari har birining demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish borasida tutgan o‘rni va roli benihoya kattadir. Hozirgi zamon demokratik jarayonlari «to‘rtinchi hokimiyat» — matbuot faoliyatidan foydalanishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, ma‘naviyat sohasida «to‘rtinchi hokimiyat»ning roli kattadir. U davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lgan ma‘naviyatni yuksaltiradigan qismidir.

Mamlakat taraqqiyoti bir me‘yorga tushgan va izchil amalga oshirilayotgan davlatlarda siyosiy dunyoqarash, siyosiy faoliyat shaxs ma‘naviyatida mustahkam o‘rnashib, fuqarolarning axloqiy normalariga aylanib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, demokratiya, ya‘ni qonunning ustuvorligi va unga to‘liq rioya etish jamiyat ma‘naviyatining yuksalishiga yordam beradi. Chunki, jamiyatning yuksalishi kishilar ongining o‘zgarishiga olib keladi. O‘z navbatida

haqiqiy demokratiya ma'naviy jihatdan yetuk jamiyatdagina qaror topadi.

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR

Siyosat, siyosiy ong, taraqqiyparvar siyosat, ichki va tashqi siyosat militarizm, «Siyar ul-mulk», «Axloqi muhsiniy», siyosiy erkinlik, vakillik demokratiyasi, huquqiy demokratik islohotlar, milliy istiqlol mafkurasi, hokimiyat, muxolifat, davlat mexanizmi, «to'rtinchi hokimiyat».

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Siyosat nima?
2. Nizomulmulkning «Siyosatnoma» asari mazmuni qanday?
3. Siyosiy rejimning mohiyati?
4. Siyosiy madaniyatni izohlang.
5. Demokratiya nima?
6. Huquqiy savodxonlik nima?
7. Qonunga itoatkorlik iborasini izohlang.
8. «O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat» shiorini izohlang.

TOPSHIRIQ

Siyosiy-huquqiy bilim va madaniyatni belgilovchi fazilatlarini sharhlang.

T/r	Fazilatlar	Izoh
1.	Siyosiy kurashchanlik	
2.	Milliy g'oyaga sodiqlik	
3.	Siyosiy idealga egalik	
4.	Ma'naviy-ruhiy komillik	
5.	Siyosiy bilimlarga egalik	
6.	Davlat irodasini ifodalovchi normalarni bilishlik	
7.	Huquqiy bilimdonlik	
8.	Huquqiy onglilik	
9.	Siyosiy madaniyatlilik	
10.	Huquqiy madaniyatlilik	
11.	Siyosiy sergaklik	
12.	Qonunga amal qilish	

8-§. AMALIY MASHG‘ULOT

Globalashuv jarayonlari va ma’naviy tahdidlar

Darsning maqsadi: o‘quvchilarni globalashuv jarayonlari bilan tanishtirish, ularda turli yot ma’naviy-mafkuraviy oqimlarga qarshi kurash tuyg‘usini, imon-e’tiqodni mustahkamlashga, vatanga xizmat qilishga undovchi mafkuraviy immunitetni shakllantirish.

Darsga oid jihozlar: 1. Dunyo xaritasi. 2. O‘zbekiston xaritasi. 3. Lug‘at (tushunchalarning izohlari). 4. Ko‘rgazmali materiallar 5. «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» kitobi. 6. Plakat va markerlar.

Darsning tuzilishi: 1. Tashkiliy daqiqa. 2. Topshiriqlarni bajarish vaqti. 3. Savol-javoblar. 4. Bahs-munozara. 5. Yakunlash.

I z o h: Amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishda o‘qituvchi oldindan sinf o‘quvchilariga topshiriq va vazifalar beradi. Kerakli adabiyotlardan qanday foydalanishni tushuntiradi. Bu esa o‘quvchilarni mustaqil ishlashga, mustaqil fikrlashga va amaliy mashg‘ulotlarning sermazmun o‘tishiga yordam beradi. Darsni o‘tishda interfaol metodlardan foydalanadi.

Sinf taxtasiga quyidagi so‘zlar yozib qo‘yiladi:

«Globalashuv jarayonlarining yanada bir o‘ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta’sir o‘tkazishning nihoyatda o‘tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog‘lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta, kuzatishi muqarrar». *Islom Karimov*.

A m a l i y m a s h g ‘ u l o t u s u l i: Bahs-munozara. Sinf o‘quvchilari doira yoki to‘rtburchak shaklida stollar atrofida ikki guruhga bo‘linib o‘tiradilar. Bo‘linish ixtiyoriy bo‘lib, ko‘k va yashil rangli qog‘ozlar tanlanadi. Har bir o‘quvchi o‘zi tanlagan rangli qog‘ozni (unga raqam qo‘yilishi ham mumkin) ko‘kragiga taqib qo‘yadi.

Yashil ranglar — savol beradi, **ko‘k ranglar** — javob beradi.

(Agar ko‘k ranglar javob bera olmasalar, savol bergan tomon javob berish huquqiga ega.)

Davra markazida boshlovchi (eng iqtidorli o‘quvchi) bo‘ladi va bahs-munozarani boshqarib boradi. Zarur hollarda o‘qituvchi aralashadi va kerakli tomonga yo‘naltiradi.

Boshlovchi: Endi biz asosiy vazifamizni bajaramiz, ya‘ni globallashuv va ma‘naviy tahdid bilan qisqacha tanishamiz. Marhamat.

Yashil raglar: Globallashuv jarayonlari, ularning ijobiy va salbiy tomonlari nima?

Ko‘k raglar: XIX–XX asrlar davomida fan va madaniyat taraqqiyoti jihatidan Yevropa mintaqasi boshqalardan uzil-kesil ilgarilab ketdi va natijada «jahon fani», «umuminsoniy qadriyatlar» deganda birinchi navbatda Yevropa madaniyati unsurlari tasavvur etila boshlandi. Yangi davrdagi bu mintaqaning yutuqlari ko‘p jihatdan madaniy integratsiya jarayonlari bilan bog‘liq. Bu davrda Yevropa xalqlari (inglizlar, nemislar, fransuzlar va h.k.) mintaqa miqyosidagi o‘zaro madaniy axborot almashinuv doirasidan chiqib, o‘zga mintaqalarda yaralgan boyliklarni o‘zlashtira boshladilar. Sharqshunoslik keng rivoj oldi. Turli fan sohalari sharqshunoslarning yutuqlaridan ijodiy foydalana boshladilar. Yevropaliklarning Osiyo va Afrika mamlakatlari va xalqlari hayotini o‘rganishi, bir tomondan, ularning olam haqidagi tasavvurlarini kengaytirib, turli mintaqa xalqlarining birbirlarini tushunish, o‘zaro erkin muloqot qilish imkoniyatlarini oshirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, muayyan g‘arazli kuchlar uchun o‘zlariga qaraganda iqtisodiy va harbiy jihatdan zaifroq bo‘lgan yurtlarni bosib olish, qaramlik asoratiga solishga bo‘lgan intilishlari yo‘lida xizmat qildi.

XX asr oxiri – XXI asr boshlariga kelib integratsiya jarayonlari yanada avj oldi, zamonaviy axborot texnologiyalarining bemisl rivoji va yagona jahon axborot maydonining

shakllanishi bu jarayonning yangi bosqichga ko‘tarilishiga, Prezidentning yangi kitobida topib aytilganidek, «sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi»ga olib keldi. Siyosatga doir ilmiy adabiyotlarida bunday jarayon «**globallashuv fenomeni**» deb nomlanmoqda. «**Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch**» kitobida bu hodisa oddiy qilib «hayot sur’atlarining beqiyos darajada tezlashuvi» deb tushuntiriladi.

Bashariyat taraqqiyotidagi bunday o‘zgarishlarni uzil-kesil «yaxshi» yoki «yomon» deb, salbiy yoki ijobiy hodisa sifatida baholab bo‘lmaydi. Kitobda yozilganidek, «har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda — ezgulik va yovuzlik yo‘lida foydalanish mumkin».

Prezident kitobida globallashuv va integratsiya jarayonlarining talay ijobiy imkoniyatlari birma-bir sanab o‘tiladi. Ularni umumlashtirib aytiladigan bo‘lsa, birinchi navbatda turli sohalarda (jumladan, iqtisod, siyosat, madaniyat sohaslarida) «davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi»ga xizmat qilishi mumkin, va darhaqiqat, bunday hamkorlik munosabatlar kundan-kunga kengayib va rang-baranglashib borayotganini o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rib turibmiz.

Shu bilan birga dunyoda barcha odamlar ham ezgu niyatlar bilan ish olib boradi, deyish qiyin. Ba’zilar uchun bu hayotda vujudga kelgan har bir yangilik ularning o‘z g‘arazli maqsadlariga qulay bir vosita xizmatini bajarishi kerak. Jumladan, jahonda yagona axborot maydonining vujudga kelishi ham bunday buzg‘unchi kuchlar uchun «ayni muddao» bo‘ldi. Ular zudlik bilan bu qudratli vositani ham o‘z qabih niyatlari yo‘lida ishga solish harakatiga tushdilar. Vaziyatning murakkabligi shundaki, bunday yovuz niyatli kuchlarning Vatani ham, millati ham, dinu imoni ham yo‘q. Ular goh «islomiy» qiyofada, goh «erkinlik va demokratiyani ol‘ga siljitish» niqobi ostida harakat qilishlari mumkin.

Yashil ranglar: «Bir-birini inkor qiladigan ikki xil hayotiy kurash nima?»

Ko'k ranglar: Prezident I.A.Karimovning yangi kitobida insonlarning Borliq haqiqatiga munosabatidagi ikki xil yondashuv, «**bir-birini inkor qiladigan ikki xil hayotiy qarash**» haqida gap boradi:

«Birinchisi – o‘z nonini halol mehnat bilan topadigan, xolis va ezgu ishlar bilan el-yurtga naf yetkazadigan, tiriklik mazmunini teran anglab, nafaqat bugungi hayot lazzatlari, balki oxirat haqida, uning obod bo‘lishi haqida o‘ylab yashaydigan insonlarga xos hayotiy qarashlar.

Ikkinchisi – bunga mutlaqo qarama-qarshi bo‘lgan yondashuv, ya’ni hayotning ma’no-mazmuni haqida bosh qotirmasdan, bunday savollar bilan o‘zini qiynamasdan, faqat nafs qayg‘usi va o‘tkinchi hoyu havasga, huzur-halovatga berilib, yengil-yelpi umr kechiradigan, o‘zining ota-ona va farzand, el-yurt oldidagi burchiga umuman befarq bo‘lib yashaydigan odamlarning fikr-qarashlari.

Mana shundan ikki xil dunyoqarash asosida paydo bo‘ladigan og‘ir savollar odamzot ongli yashay boshlagan zamonlardan buyon uni o‘ylantirib, qiynab keladi...»

Shu o‘rinda savol tug‘iladi: **befarqlik, loqaydlik bilan yovuzlik orasidagi munosabat qanday?** Tan olish kerakki, dunyoda son jihatidan olinsa, **mutlaq yovuz odamlar** juda kamchilikni tashkil qiladi. Ular aslida odam ham emas, sunami, to‘fon yoki zilzila kabi «**xudoning bir balosi**». Shunday ekan, qanday qilib **juda ozchilik bo‘lgan bu toifa** ba‘zan millionlab insonlar ustidan o‘z hukmini yurgiza boshlaydi? Ayni yuqorida aytilgan **hayotning ma’no-mazmuni haqida bosh qotirishni oshiqcha ish deb biladigan, Alloh va bashariyat oldidagi o‘z burchini eslashni ham istamaydigan, faqat nafs qayg‘usi va o‘tkinchi hoyu havasga berilib kun kechiradigan odamlarning befarq va loqaydligi tufayli** bunday yovuz kuchlar o‘z makru hiylalarini bemaalol amalga oshirishga muvaffaq bo‘ladilar. Chunki bunday kimsalar

ko‘pincha o‘zlari sezmagani holda yovuzlik kuchlariga xizmat qiluvchi dahshatli qurolga aylanib qoladilar. Shu sababli Prezidentning yangi kitobida **befarqlik va loqaydlik** asl insoniylikka zid turuvchi qusur sifatida qattiq qoralanadi.

Yashil ranglar: «Ommaviy madaniyat»ning kelib chiqishi qanday bo‘ldi?»

Ko‘k ranglar: Aytilganlarga eng yorqin misol sifatida bugungi kunda butun dunyodagi fikrlovchi insonlarni borgan sari qattiqroq tashvishga solayotgan «**ommaviy madaniyat**» hodisasining kelib chiqishiga e‘tibor qarataylik. Bu hodisa bugun butun dunyoga ko‘proq Yevropa va Shimoliy Amerikaning rivojlangan mamlakatlaridan tarqalayotganini hisobga olib, ushbu mintaqalardagi hozirgi ma‘naviy-axloqiy muhitning shakllanish tarixiga qisqa (eng umumiy bir tarzda) to‘xtab o‘tish kerak bo‘ladi.

Ma‘lumki, shu kungacha jahon ilmida «ma‘naviyat» hodisasi yaxlit tushuncha sifatida izchil ilmiy tahlilga tortilmadi. Bu sohaga oid mavjud izlanishlar boshqacha tushunchalar va tizimlar doirasida kechdi. Xususan, Yevropada inson ma‘naviyatiga oid bahslar, falsafa va uning tarkibiy qismi hisoblangan axloqshunoslik ilmi doirasida rivojlandi. Inson axloqi aslida zohiriy, aniqrog‘i, ikkilamchi hodisa bo‘lib, shaxs ma‘naviyatining insonlararo munosabatlarda namoyon bo‘lishidir. Uning botinida ma‘naviy omillar yotgani tufayli faylasuflar asosan axloqning botiniy omillariga e‘tibor qaratganlar. Agar bu sohadagi Yevropa an‘anasini umumiy bir tarzda ko‘zdan kechiradigan bo‘lsak, axloqshunoslik ilmi ko‘proq **insonning iroda erkinligi, aql va bilim, baxt va lazzatlanishga intilish, manfaatdorlik** kabi masalalarga e‘tibor qaratganligini ko‘ramiz. Aksariyat holatlarda **mas‘uliyat** va **burch** masalalari ham inobatga olinadi. Axloqning **imonga** bog‘liq jihatlari xristian axloqida alohida ta‘kid etilsa-da, Yangi davrda bu masala ko‘pincha aktuallashtirilmaydi. Umuman, insonning dunyoviy maqsadlariga

alohida e'tibor qaratilishi Yevropa axloq ilmining ustuvor jihati deyish mumkin.

Yangi Davr Yevropa ilmida axloqni o'rganuvchi aksariyat yo'nalishlar moddiyunchilik asosiga qurilgan bo'lib, axloqiy me'yorlarning shakllanishini faqat insonning moddiy (dunyoviy) ehtiyojlaridan keltirib chiqarishga urinadilar. Gedonizm, evdemonizm, utilitarizm, relyativizm axloqiy prinsiplari ayni shunday qarashlarga tayanadi. Ularga ko'ra axloqning negizida baxtli bo'lishga intilish (albatta, bu dunyoda, chunki oxiratda inson o'z erki bilan taqdirini o'zgartira olmaydi), lazzatlanishga intilish (bu lazzat xoh shahvoniy bo'lsin, xoh intellektual), manfaatdorlik, sharoitga moslashish kabi sof dunyoviy maqsadlar nazarda tutiladi. Ammo F.Nitshe kabi zukko aql egalari agar yagona tangri-ning mavjudligi inkor qilinsa, unda insonlar jamiyati uchun axloqning ham ma'nosi qolmasligini tushunib yetdilar.

Milliy ma'naviyatimiz an'analarida shaxs ma'naviyatining asosiy jihatlari — imon, ilm, mas'uliyat, mehrning o'zaro uyg'unligi masalasi ustuvor yo'nalish ekanligi ma'lum. Muayyan tarixiy sabablarga ko'ra Yevropa axloq ilmida ayni shu o'zaro mutanosiblikka yetarli e'tibor qaratilmadi. Natijada, bugungi kunga kelib, ushbu mintaqada ma'naviy-axloqiy sohada juda og'ir muammolar kelib chiqmoqda.

Shaxsning xulqi uning ma'naviyati ta'sirida takomillashib (ya'ni tabiiy xislatlari qusurdan fazilatga aylanib) borgan sari uning axloqi **zamima axloq**dan (insonni xudbinlik sari tortuvchi tarbiya ko'rmagan xulqdan) **hamda axloqqa** (ma'naviy kamolot natijasida go'zallashgan xulqqa) aylanib boraveradi. **Nafs tarbiyasi** — ma'naviy kamolot yo'li bo'lib, axloqi hamidaning shakllanish yo'li hamdir. Ammo ma'naviyat faqat nafs tarbiyasidan iborat emas. Ma'naviyat **imondan** boshlanadi, **ilm** bilan mukammallashadi, **tahliliy imon** orqali inson nafs tarbiyasi (samovospitaniye)ga o'tadi va oxiri **mehr ma'rifati** orqali ma'naviy kamolotga erishadi. «Axloq — ma'naviyatning o'zagi» degan hikmatning

mazmuni shundaki, insonning ma'naviy kamolot darajasi uning, axloqida eng yorqin shaklda namoyon bo'ladi. Agar inson faqat taqlidiy imon darajasida qolgan bo'lsa, u Allohning borligi va birligini tan olgan bo'ladi, buyurilgan farzlarni baqadri imkon bajarishga urinadi, ammo axloqi hamida sohibi bo'lmaydi.

Yuqoridagi mulohazalar I.A.Karimov kitobida bir jumlada bayon etilgan: «G'arb olamida esa odamlarning hayot tarzida zamonaviylikdan ko'ra individualizm, shaxsiy manfaat tamoyillari ustunlik qilishini kuzatish mumkin. Bu ham muayyan, obyektiv ijtimoiy-tarixiy omillar tufayli shakllangan voqelik bo'lib, uni ham inkor etib bo'lmaydi».

Yevropa xalqlari ijtimoiy va madaniy sohalarda o'z tarixiy tajribalaridan kelib chiqib, o'z ajdodlari qoldirgan merosga mos holda ilmiy andoza va o'lchovlar yaratganlar, ta'rif va tizimlar shakllantirganlar. Biz ulardan kamchilik topishga yoki qoralashga balki haqqimiz yo'qdir. Ammo o'zbekning milliy tafakkuri oxirgi 70-yilda shakllangan deb bo'lmaganidek, bugun endi ma'naviy-axloqiy sohalarda ilmiy mulohazalar yuritish uchun ongimizga kechagi zo'raki joylashtirilgan sun'iy qoliplardan o'ylamay-netmay foydalanishga urinishimiz ham o'rinli emas.

Yashil ranglar: «Ommaviy madaniyat» o'zi nima?

Ko'k ranglar: «**Ommaviy madaniyat**» hodisasi asosida birnecha omillarning chatishuvi yotadi. Ulardan **birinchisi** — imonsizlik, o'z insoniy burchi va mas'uliyatini tan olishni istamaslik, befarqlik va loqaydlik. **Ikkinchisi** — sanab o'tilgan qusurlarni oqlashga xizmat qiluvchi «**dunyoni manfaat boshqaradi**» (demak, bu dunyoda har kim o'z foydasi uchun qo'lidan kelgan harakatini qilsa, bo'laveradi, degan) dahriyona (aniqrog'i, xudbinona) tezis («qoida») asosida yashash. Bu ikki omil azaldan bo'lgan. **Uchinchisi** — oldingilaridan kelib chiqadigan **axloqiy relyativizm**, ya'ni dunyoda azaliy va abadiy qat'iy axloqiy me'yorlar mavjud emas, ko'pchilik o'zini qanday tutayotgan bo'lsa, biz ham

shunga qarab ketaveramiz, degan o'ysizlik, **fikriy dangasalik** tamoyili. Va nihoyat **to'rtinchisi** — bugungi axborot vositalarining cheksiz imkoniyatlari sharoitida yuqoridagi Prezident ta'rifiga muvofiq, **befarqlik va o'ysizlik botqog'iga botgan kimsalarning** dunyoni boshqarishga intilayotgan kichik bir guruh qo'lida qo'g'irchoqqa aylanib, **o'zlarining eng tuban hayvoniy xohish va istaklarini ochiqdan-ochiq namoyon qilishni «umuminsoniy axloqiy me'yorlar» darajasiga ko'tarishga urinishlaridir.** Bunday holatlar Yevropa mintaqasi tarixida ilgari ham bo'lgan, ammo hech qachon bu daraja jahon miqyosida keng ko'lam kasb etmagan va bu darajada kuchli targ'ibot imkoniyatlariga ega bo'lmagan edi. Prezident kitobida bu haqda shunday deyiladi: «Shuni unutmash kerakki, bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arzimas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin».

«Ommaviy madaniyat» Jamiyatda g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib biz uchun mutlaqo yot bo'lgan ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini olib kirishni tezlashtiradi. «Ommaviy madaniyat» niqobi ostida birinchi navbatda axloqiy buzuqlik, zo'rvonlik, individualizm, ya'ni faqat o'zini o'ylash, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, shu hisobdan boylik orttirish, axloqsizlikni ma'naviyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan eskilik sarqiti deb qarash, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik bilan qarash, ularni qo'porib tashlashga qaratiladi.

Yuqorida ko'rsatilgan g'oyalar bizning xalqimiz mentalitetiga mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Jumladan, axloqiy buzuqlik va zo'rvonlikni targ'ib etuvchi filmlarning qanday ta'sir ko'rsatayotganligini xalqimiz anglab yetgan. Inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga xavf solayotgan yuqoridagi

illatlarga qarshi kurashish hammamizning birgalashib harakat qilishimizni ta'minlaydi.

Yashil ranglar: Ma'naviy tahdidlar va ularning ta'sir ko'rinishlari qanday?

Ko'k ranglar: Yevropa Uyg'onishi (Renessans)dan boshlangan Yangi davr Yevropa ma'naviy muhitiga xos qarama-qarshiliklar kurashi keyin ham davom etdi. XVIII asr fransuz ma'rifatchiligi zaminida shakllangan ateizm yo'nalishi Gelvetsiy (1715-1771), Golbax (1723-1789), Didro (1713-1784) qarashlaridan nemis mumtoz falsafasiga o'tib, Feyerbax (1804-1872) orqali Karl Marks va F. Engelsning murossasiz sinfiy kurash targ'ibiga qaratilgan kommunistik utopiyaga olib keldi. Bunday xatarli rejalarning amalga joriy qilinishi insoniyat uchun naqadar qimmat tushganligi bugun barchamizga ayon bo'lib turibdi. Bu ofatdan endi qutuldik, deb turganida, insoniyat yana yangi, ilgarigilardan-da xatarliroq, makkorroq xurujlarga duch kelib turibdi.

«Bugungi kunda dunyoning ayrim hududlarida, — deb kuyunchaklik bilan qayd etiladi Prezident kitobida, — katta ma'naviy yo'qotishlar yuz berayotgani, millatning asriy qadriyatlari, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqayotgani, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash tarzi jiddiy xavf ostida qolayotganini kuzatish mumkin».

Axloq ilmidagi **relyativizm tamoyili** (ya'ni, axloqiy qoida va me'yorlarning zamona va ijtimoiy muhit bilan bog'liq holda o'zgarib turishini mutlaqlashtirish), inson axloqini mo'tadil tutishda imonning ahamiyatini yetarli hisobga olmaslik XX asr o'rtalaridan boshlab (ayniqsa, 60-70-yillarda Yevropa yosh yigit-qizlari orasida avj olgan ochiq zinakorlikni targ'ib qiluvchi «seksual inqilob» bahonasida) mohiyatan g'ayriinsoniy «axloqiy» (aniqrog'i, g'ayriaxloqiy) me'yorlarning Yevropa muhitida urchib ketishiga olib keldi (shahvatni qo'zg'atishga qaratilgan «moda»larning keng targ'ib qilinishi, bir xil jins egalari «nikohi»ga qonuniy tus berilishi, kino va telenamoyishlarda

ayol yalang'och badani va jinsiy munosabatlarning erkin namoyish qilinishi, zo'ravonlik, buzg'unchilik, qimor, mast qiluvchi ichimliklar targ'iboti va h.k.). Yevropa muhitidagi bunday xatarli tamoyillar turli yo'llar bilan dunyoning boshqa mintaqalariga ham kirib kelmoqda. «Hizb ut-tahrir» singari ekstremistik guruhlar «demokratiya» tushunchasini ayni shunday buzuqchilik sifatida talqin qilib, o'z g'arazli niyatlarini shu yo'l bilan tajribasiz yoshlarga yuqtirishga urinmoqdalar.

«Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda», — deb yozadi Prezident o'z kitobida va bunday xatarli holatdan faqat o'z xalqini emas, balki butun jahon afkor ommasini ogohlantirish lozim deb biladi.

Biz boshqalarga aql o'rgatmoqchi yoki «bu ishing — to'g'ri, bunisi — noto'g'ri» deb hakamlik qilmoqchi ham emasmiz. Biz faqat o'z tengdoshlarimizni turli axborot vositalari orqali yopirilib kelayotgan balo-qazolardan himoya qilmoqchimiz, ular ongi-shuurida ona suti, ajdodlar o'giti, xalq hikmati orqali o'zlashgan mustaqil milliy qadriyatlarga sadoqat, o'z insoniy fazilatlarini dadil himoya qila oladigan jasorat uyg'otmoqchimiz, xalos. Shu bilan birga o'zimizning hayotdagi turli qarashlarga munosabatimizni ham ochiq bayon qilmoqdamiz, zero oshkoralik bo'lmasa, tafakkur erkin bo'lmasa, ma'naviyat sohasida biror salmoqdi natijaga hech qachon erishib bo'lmaydi.

«Ma'naviy tahdid deganda, — o'rinli izoh berib o'tadi Prezident, — avvalo, tili, dini, e'tiqodidan qat'i nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlarni nazarda tutish lozim, deb o'ylayman».

Jumladan madaniy ekstremizm — ekstremizmning mafkuraviy ko‘rinishi bo‘lib, kishilar ongini zaharlashga, mavjud dunyoviy tuzumni tanqid qilib, islom davlatini barpo etishga qaratilgan. Ayni paytda missonerlik niqobi ostida boshqa dindagi kishilarni o‘z diniga o‘tkazib, kelgusida ma’lum mintaqada diniy to‘qnashuvlar keltirib chiqarishni maqsad qilib qo‘yadi.

Prezidentimiz topib aytganidek, «kimdir Rahmon izmida yursa, kimdir shayton izmida yuradi» har kimning gunohi ham, savobi ham o‘ziga. Ammo bostirib kelayotgan xavfni ko‘rib turib, ko‘rmaslikka olish, hoziri-yu huzuri, o‘zimning ishim bitsa bo‘ldi-da, o‘zga bilan nima ishim bor, degan kayfiyat bizga to‘g‘ri kelmaydi. Qolaversa, gap bizdan keyin shu yurtning chirog‘ini yoqib o‘tiradigan bolajonlarimiz taqdiri ustida ketayapti.

Vaziyatning murakkabligi shundaki, bugungi kunda yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurash va ziddiyatlar faqat saltanatlar, xalqlar va shaxslar o‘rtasida emas, balki har birimizning qalbimizda, ongimizda kechmoqda. Ya’ni bu muammolar faqat yosh avlodgagina taalluqli emas. Dushman ochiq-oydin o‘zini ko‘rsatmaydi: siz maxsus kabel orqali berilib kino ko‘rib o‘tiribsiz, yoki internet orqali muayyan saytlardagi ma’lumotlar bilan tanishayapsiz, ko‘chada turli reklamalar diqqatingizni tortayapti, ehtiyot bo‘ling, sizni kerakli yo‘nalishda «tarbiya» qilishayapti, o‘z qarashlarini turli vositalar bilan ongingizga singdirishayapti. Shunday, «ular ko‘pincha turli niqoblar, jozibali shior va g‘oyalar pardasi ostida ish ko‘radi». Biz esa sal g‘aflatga berilsak, ongimizdagi o‘zgarishlarni o‘zimiz ham payqamay qolamiz. Go‘yoki hech kim bizga tajovuz ham qilgani yo‘q, majbur ham qilgani yo‘q, biz o‘z ixtiyorimiz bilan «mustaqil» ravishda shu «xulosa»ga keldik. Bu yerda ta’sir o‘tkazishning shunday makkorona usullari qo‘llanmoqda-ki, unchamuncha odam g‘aflatda qolishi hech gap emas. Aslida imonli, e’tiborli inson bunday makru hiylalarni juda oson bilib olsa

bo‘ladi — ular barchasi insonlar ongining eng tubiga joylashgan biologik (hayvoniy) instinktlarni qo‘zg‘ashga qaratilgan, bunday filmlarda eng ezgu niyatlar ham qo‘lda avtomat bilan amalga oshiriladi, eng ijobiy qahramonlar ham shahvatga beriladi, oddiy hazillar ham o‘zini hurmat qilgan inson uchun haqoratli holatlar shaklida yoki hayosiz iboralarda ifodalanadi.

«Lo‘nda qilib aytadigan bo‘lsak, — xulosa qiladi Prezident, — bunday mafkuraviy xurujlar milliy va diniy tomirlarimizga bolta urishini, ulardan bizni butunlay uzib tashlashdek yovuz maqsadlarni ko‘zlashini, o‘ylaymanki, yurtimizda yashaydigan sog‘lom fikrli har bir odam yaxshi tushunadi».

Yashil rag‘nlar: Yoshlar ongini ma‘naviy tahdidlardan himoyalashning samarali yo‘li qanday?

Ko‘k rag‘nlar: Insonga faqat atrof-voqelik haqida, odobu axloq qoidalari haqida bilim berishning o‘zi uning ma‘naviy-axloqiy tarbiyasi uchun yetarli bo‘lmaydi. Unda iroda qudrati, mas‘uliyat tuyg‘usini shakllantirish, ko‘nglida atrof-tabiatga, mehnatga, kasbga, ilmga, o‘zga insonlarga mehr uyg‘otish, dilida ulug‘ maqsadlar tug‘ilishiga erishish lozim. Masalan, tan olib aytish kerakki, Vatan yoki Adolat tuyg‘usi haqida kitoblarda yozilganlarni o‘qib chiqqan odam darhol Vatanning qadriga yetadigan, yoki Adolatga xiyonat qilmaydigan bo‘lib qoladi, deb tasavvur qilish o‘ta soddalik bo‘lur edi. Har bir inson Vatan, Millat, Adolat timsol tushunchalarining o‘z ruhidagi poydor ma‘naviy qadriyatlarga aylanishi uchun o‘zgalar ibratida sinashi, bu yo‘lda riyozat chekishi, ularga nisbatan ko‘nglida mehr uyg‘onishi zarur. Bunga turli yo‘llar, turli vositalar bilan, birinchi navbatda yosh avlod tarbiyasiga samimiy (chin ko‘ngildan) va izchil yondashuv, tinimsiz izlanishlar bilan erishiladi.

«Bizning ulug‘ ajdodlarimiz, — deb yozadi Prezident, — o‘z davrida komil inson haqida butun bir axloqiy mezonlar majmuini, zamonaviy til bilan aytganda, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanliklarini eslash o‘rinli deb bilaman».

Shu gapga kichik bir misol:

Ma'lumki, imon-e'tiqod ma'naviyatning umurtqa pog'onasi hisoblanadi. Xalqimizda birovni «imonsiz» deb atash eng og'ir haqoratdir. Biz dinimiz islom deymiz, Qur'oni Karimda yozilishicha, Alloh bani basharni o'ziga ibodat qilish uchun yaratgan. Lekin ko'pchilik islomiy ibodatlar deganda, namoz, ro'za, zakot, haj amallarini ko'z oldiga keltiradi. Buyuk tasavvuf piri Bahouddin Naqshband esa Rasululloh (s.a.v)ning quyidagi hadisini keltiradi: «Ibodot o'n qismdir, uning o'ndan to'qqizi halol rizq topish harakati, qolgan barcha ibodatlar o'ndan birini tashkil etadi.» Ahmad Yassaviy va Abduxoliq G'ijduvoniylarning piri murshidi hisoblangan shayx Yusuf Hamadoniyning «Hayot mezoni» asarida Payg'ambarimizning yana bir hadislari keltiriladi: «Musulmon bo'lmaganlaringizcha jannatga kirmaysizlar, bir-birlaringizga samimiy mehr qo'ymaganlaringizcha musulmon bo'lmaysizlar». Shu sababli biz tengdoshlarimizga **imonning** asosiy sharti **halollik, adolat va insonga, tabiatga mehr** deb uqdirishimiz, nafaqat uqdirishimiz, balki shu yo'lda o'zimiz ibrat bo'lishimiz shart.

Prezident kitobida «**inson ma'naviy olamining yuksalishi**» deganda nimani tushunish kerak, degan savolga aniq va lo'nda javob berilgan: «**Ollohning o'zi bizga buyurgan komil inson bo'lish, halollik va adolat bilan hayot kechirish**». Ammo muallif yana ta'kidlaydiki, ushbu qoidani tushunish va e'tirof etishning o'zi kifoya emas, balki ayni shu e'tiqodga amal qilib yashash — «odamzot ma'naviy boyligini belgilab beradigan asosiy mezondir».

Buning uchun yoshlarni har bir ishda yolg'on qadamlardan, oson yechimlar qidirishdan asrashimiz lozim. Millatimizning buyukligiga, ajdodlarimizning ulug'ligiga, kelajagimizning porloqligiga ishonch tuyg'usini mustahkamlashimiz lozim.

Halol va to'g'ri yashash — mehnatsevarlikning mahsulidir.

Yashil ranglar: «Erkinlik va demokratiyani olg'a siljitish nima»?

Ko'k ranglar: «Erkinlik va demokratiyani olg'a siljitish». Bu g'oyani ko'tarib chiqayotganlar uzoqni ko'zlaydi. O'zlarining milliy va srategik rejalarini amalga oshirish uchun tabiiy resurslarga boy mamlakatlar tanlanadi va ularning mavjud hukumatlariga «demokratiyadan chekinish», diktator kabi «ayblar»ni to'nkab, muxolifat kuchlariga yordam berib, hokimiyatni ag'darib tashlaydi va o'zining aytganidan chiqmaydigan qo'g'irchoq hukumatni o'rnatadi. Dunyoda bunday misollar ko'p.

O'zbekistonga ham shunday urinishlar bo'ldi, lekin xalqimizning onglilik darajasi, o'z hukumati bilan jipsligi, ularning manfur niyatlarining amalga oshirishiga yo'l qo'ymadi. Shu sababli Prezidentimiz xalqimizning ma'naviyatini yanada yuksaltirish haqida katta-katta rejalarni ilgari surmoqda.

Boshlovchi: Biz ma'naviy tahdidning ma'nosiga chuqur e'tibor beradigan bo'lsak uning ma'lum bir davlat yoki xalqning tinchligi va barqarorligiga qarshi qaratilgan g'oyaviy qarashlar ekanligini ko'ramiz. Ma'naviy tahdid — oldiga yovuzlikni maqsad qilib qo'ygan turli xil markazlar tomonidan biron-bir mamlakatga nisbatan ichkaridan yoki tashqaridan turib bevosita amalga oshiriladigan g'oyaviy buzg'unchilikning bir ko'rinishidir. Ular o'zlarining jirkanch maqsadlariga erishish uchun turli xil usullardan, odamlarning diniy va milliy hissiyotlari, hayotdagi ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklardan, shuningdek, zamonaviy texnika vositalaridan ustalik bilan foydalanadilar.

Bugungi kunda ma'naviy tahdid — deganda, odamlarning qarashlarini o'zlariga mos yo'nalishga o'zgartirish, buzg'unchi va axloqsizlik g'oyalarini singdirish kabi g'arazli maqsadlar tushuniladi. Ularning bosh maqsadi — ma'lum bir mamlakat xalqini o'z izmiga solib, uning boyligiga egalik qilishdir. Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, «o'z-o'zidan

ravshanki, bugungi zamon voqelikka ochiq ko‘z bilan, real va xushyor qarashni, jahonda va yon atrofimizda mavjud bo‘lgan, tobora kuchayib borayotgan ma’naviy tahdid va xatarlarni to‘g‘ri baholab, ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqarib yashashni talab etmoqda».

O‘qituvchi darsni yakunlaydi va vazifa beradi.

TAYANCH SO‘Z VA IBORALAR

Mafkuraviy vositalar urush va tunchlik, ekologik falokatlar, ma’naviy qashshoqlik, narkobiznes, terrorizm, globallashuv, baynalmilallashuv, integratsiya, tatalitarizm, demokratlashtirish, insonparvarlik, ilmiy texnikaviy inqilob, atom energiyasi, informatsion kommunikatsiya, internet, ommaviy madaniyat, ma’naviy tahdid, erkinlik, ma’naviy olamning yuksalishi, globallashuv, relyativizm.

II bob. MA'NAVIYATNING TABIAT BILAN ALOQASI VA JAMIYAT IJTIMOIIY- MA'RIFIY HAYOTIDAGI ROLI

9-§. TABIATNI ASRASH — INSON MA'NAVIYATINING MUHIM BELGISI

Inson tabiat farzandi

Insoniyat tabiatning (mavjudotning, borliqning), inson esa atrof-muhitning ajralmas qismidir. Insonni qurshab turgan tabiat, uning paydo bo'lishi va rivojlanishi qonuniyatlarini falsafiy nuqtai nazardan fahmlash, ilmiy bilish amaliyotda katta ahamiyat kasb etadi. Alisher Navoiy aytganidek, «Inson aql chirog'i, qolaversa, butun koinot ko'zining nuridir». Tabiat benihoyat xilma-xil shakl va ko'rinishlarda bo'lib, insonni qurshab turgan moddiy olam, butun borliqni qamrab oladi. U keng ma'noda olganda materiya, koinot tushunchalarini ham ifodalaydi.

Inson har doim tabiat bag'rida yashagan va bundan keyin ham yashaydi. Inson hech qachon tabiatdan tashqarida, u bilan aloqa va munosabatda bo'lmasdan turib yashay olmaydi. «Tarixdan ma'lumki, — deb yoziladi «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» asarida, — O'rta Osiyo hududida aholi azaldan vodiylarda, katta suv manbalari — daryo va anhorlar bo'yida yashab keladi. Atrofi cho'l va sahrolar bilan o'ralgan, tabiati, iqlimi g'oyat murakkab bo'lgan mintaqa sharoitining o'zi ana shu elat va millatlarning ming yillar davomida bir-biriga moslashib, yaqin yelkadosh bo'lib, bir-birining og'irini yengil qilib yashashini taqozo etib keladi. Chindan ham, bu zaminda istiqomat qiladigan odamlarning tarqoq bo'lib yashashga imkoni yo'q, tabiatning o'zi, hayotning o'zi ularni shu ruhda tarbiyalagan». Tabiat biz uchun moddiy ne'matlarning birinchi manbasi sifatida ham, sog'liq, shodlik, hayotiy qiziqishlarning va har bir kishidagi ma'naviy boyliklarning bitmas-tuganmas

manbaya sifatida ham o'zining g'oyat zo'r ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydi.

Tabiatning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan Yer insonning oziq-ovqat manbaya, uning dastlabki mehnat vositalarining xazinasidir. Yer insonni boqadi. Ingliz olimi Vilyam Petti aytganidek, mehnat boylikning «otasi» bo'lsa, yer uning «onasi»dir. Odamlar bir necha ming yillar davomida uning issiq bag'rida voyaga yetdi. Demak, tabiat inson uchun eng e'zozli va qadrli maskandir.

Tabiat — tabiiy resurslar manbayidir. Tabiiy resurslar, ya'ni yonilg'i, nafas olinadigan havo, ichiladigan suv, har xil xomashyolar bo'lmasa, inson, jamiyat yashay olmaydi, sanoat, qishloq xo'jaligi va madaniyatni yuksaltirib bo'lmaydi.

Sharq falsafasi va islom ta'limotida Alloh hamma narsaning ibtidosi, materiyani ham, tabiatni ham Tangri taolo — Xudo yaratgan, deyiladi. Masalan, Mirzo Ulug'bekning «To'rt ulus tarixi» asarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Tangri taolo odamni suv bilan tuproqdan yaratgan. «Odam alyhissalomning yaratilishini muharram ul-ehrom oshuro oyi o'ninchi kuni, juma kuni soat 11 da; birinchi tole' bo'yicha Jadi va Zuhul darajasida, Mushtariy Xutda, Mirrix Hamalda, Qamar Saratonda, Shams Asadda, Atorud Sumbulada, Zuhro Mezonda paytida bug'doyrang kishi chehrasida baland qomatli va jingalak sochli qilib yaratdi. Yaratgan Tangri hazrati Odamga behishtdan joy berdi. Havvoni u uyqusirab turganda uning chap biqinidan yaratdi».

Ilmiy falsafa tabiiy fan ma'lumotlariga asoslanib, odam tabiatning ajralmas qismi, uning oliy mahsulidir, deb hisoblaydi. Tabiatning mavjudligi insonga, uning ongi va sezgisiga bog'liq emas, deb uqtiradi. Bundan million yillar muqaddam Yer shunday bo'lganki, unda o'zining sezgilari va ongiga ega bo'lgan inson u yoqda tursin, boshqa har qanday mavjudotning ham yashashi uchun hech bir imkoniyat bo'lmagan. Yer, Quyosh sistemasi, umuman tabiat har qanday ongdan tashqarida va unga bog'liq bo'lmagan holda mavjuddir. Kishi ongi tabiat taraqqiyotining faqat muayyan bosqichidagina uning mahsuli sifatida vujudga kelgan.

Tabiat, butun moddiy olam doimiy harakatda, to'xtovsiz o'zgarish va rivojlanishdadir. Tabiatning, materiyaning fazoda cheksiz va vaqtda abadiy bo'lgan tinimsiz harakati jarayonida ba'zi bir narsalar yemiriladi, yangilari paydo bo'ladi.

Tabiatning million yillar ichidagi tadrijiy taraqqiyoti jarayonida jonsiz dunyo kelib chiqqan. Jonli dunyoning paydo bo'lishi tabiatning, materiyaning cheksiz koinotdagi taraqqiyotidan kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlardan biridir. Jonli materiya keyinroq yuz bergan hodisalar, uzoq davom etgan taraqqiyot samarasidir. Jonli tabiat ham, jonsiz tabiat ham doimiy harakatdadir. Lekin harakat ularning har ikkalasida ham biroz boshqacharoq shaklda amalga oshadi.

Inson taraqqiyotning ilk bosqichlarida, u tabiatdan endigina ajralib chiqqan kezlarda juda nochor hayot kechirgan, tabiat kuchlariga qaram bo'lgan, tabiatning tayyor mahsulotlarini iste'mol qilib kun kechirgan. Keyinchalik mehnat tufayli turli ish qurollari yasash, moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratish asosida kishilik jamiyati paydo bo'lgan va rivojlangan.

Forobiyning fikricha, «har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi, ularga ega bo'lishi uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko'paydilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o'rnashadilar, natijada, inson jamoasi vujudga keladi».

Kishilik jamiyati moddiy olamning, tabiatning ko'p ming yillik tadrijiy taraqqiyotining qonuniy mahsulidir. U taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida, insonlar jamoasi kelib chiqqan davrda yuzaga keladi. Demak, jamiyat tarixi va uning taraqqiyoti inson ma'lum jamoaga birlashib mehnat qilgan, ishlab chiqarish qurollarini yaratgan, ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar shakllangan davrdan boshlanadi. Qadimgi xalq og'zaki ijodiyoti va yozma yodgorliklarni

o'rganish jarayonida hozirgi o'zbek xalqining ajdodlari bundan bir necha ming yillar oldin tabiat qo'ynida yashaganligiga e'tibor berish joiz. Ular yuksak va o'ziga xos madaniyatni vujudga keltirishda juda katta va mashaqqatli yo'lni bosib o'tishgan.

Dastlabki tosh qurollaridan tirikchilik uchun foydalanishdan ancha takomillashgan mehnat qurollari yasashgacha, undan urug'chilik, qabilachilik davrlariga kelib, xo'jalik va madaniy taraqqiyotda erishilgan yutuqlargacha bo'lgan tariximiz ota-bobolarimiz boy qadimiy madaniyatga ega bo'lganligidan dalolat beradi. Bu o'rinda miloddan avvalgi birinchi ming yillikda Baqtriya, Xorazm, So'g'diyona, Marg'iyona, Parfiya, Zarafshon vohalari, Parkana kabi o'lkalarda turli qabila va elatlar yashaganligiga e'tibor berish lozim. Bular hozirgi o'zbek xalqining «ildizi» hisoblangan saklar, massagetlar, so'g'dlar, xorazmiylar, baxtarlar, chochliklar va parkanaliklar kabi qabila va elatlar ekanligini bilishimiz kerak. Keyinchalik ular o'zaro va boshqa ko'p urug'lar bilan birlashib ketgan hozirgi Markaziy Osiyo hududidagi xalqlarning ajdodlari sifatida o'rganiladi.

Bu elatlar yashagan hududlarda tabiat bilan bog'liq o'ziga xos madaniy an'analar tarkib topa borgan. Eng qadimgi kishilarning dastlabki oddiy istaklari, orzu-umidlari va xislatlari qadimgi eposlarda, ulardagi afsonaviy obrazlar qiyofasida o'z ifodasini topgan. Shunga ko'ra tabiat kuchlariga, ruhga sig'inish — animizm, ajdodlar ruhiga sig'inish — totemizm, sehrgarlik kabi diniy e'tiqodlar va marosimlar aks etgan afsonalar, rivoyatlardan eng qadimgi avlodlarimizning tafakkur dunyosini bilib olsa bo'ladi. Bu rivoyatlar, afsonalar massagetlar, saklar, xorazmiylar, so'g'dlar yashagan davrlarga borib taqaladi.

**Zardushtiylik
va tabiat**

Zardushtiylik dini va uning muqaddas kitobi «Avesto» ham bevosita tabiat bilan bog'langan bo'lib, tabiatni avaylab asrashga da'vat etadi. «Avesto»da dunyoning moddiy asosi hisoblangan yer, tuproq, havo muqaddaslashtirilgan. Havoni bulg'ash, ifloslantirish, hayvonlar o'ligi u yoqda

tursin, odamlar jasadini ham yerga ko'mish, suvga oqizish, olovda yoqish gunoh hisoblangan. Marhumlar yerni, suvni, havoni zaharlab qo'ymasliklari uchun jasadlarini maxsus sopol idishlarda ko'mish rasm bo'lgan. Zardushtiylik diniga amal qilgan O'rta Osiyodagi qabilalar suvga va olovga sajda qilganlar, Quyoshni ilohiy mavjudot darajasiga ko'targanlar.

«Avesto» Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviyatining bizgacha yetib kelgan eng qadimgi yodgorligi bo'lib, zardushtiylikning muhim qonun-qoidalarini o'zida mujassamlashtirgan.

Qur'oni karim va hadislarda borliqqa munosabat, atrof-muhitni iflos qilmaslik, tozalik, daraxt ekish haqida muhim fikrlar mavjud. Hadislarda: «Qaysi bir musulmon biror daraxt yoxud biror ekin eksa-yu, uning hosilidan inson, qush yoki hayvon yesa, buning uchun unga ajr-u savob ato etilur»,— deyiladi.

Shuningdek, yerning shakli, yulduzlar, Quyosh va Oyning aniq hisob — o'lchov bilan harakatlanishi haqidagi ma'lumotlar berilgan bo'lib, islom dini ilmiy emas, degan ko'pgina bir tomonlama talqin etilgan tushunchalarni rad etadi. «Qur'oni karim»dagi «A'rof» surasining 30-oyatida: «Alloh bergan rizqdan yenglar, ichinglar, lekin isrof, uvol qilmanglar, haqiqatan ham Alloh isrof qilguvchilarni sevmaydi»,— deyilishi tabiatga ham munosabatni anglatib, uni isrof qiluvchilar, uvol qiluvchilarga qarshi qaratilgandir. Bu masala hadislarda ham bir necha joyda beriladi va «har qanday isrof qilish — haromdir»,— deb xulosa qilinadi. Hadislarda tabiatga mehr, tevarak-atrofn, suvni, havoni, tuproqni, hattoki hayvonni pokiza saqlash asosiy g'oyalardan hisoblanadi.

Xalq og'zaki ijodi va tabiat

O'rta Osiyo xalqlarining tabiat bilan bog'liq, eng qadimgi zamonlarga oid ayrim og'zaki adabiyot yodgorliklaridan ba'zi bir manbalar bizga qadar saqlanib qolgan. Antik tarixchilardan Gerodot, Kteziy, Polien, Xares Mitilenskiy va boshqalarning kitoblarida xalq og'zaki ijodiga mansub ayrim asarlarning mazmuni hikoya qilib qoldirilgan. Shuningdek,

oʻrta asr tarixchilaridan Hamza Isfahoniy, Tabariy, Maʼsudiy, Beruniy, Saolibiy va boshqalarning asarlarida ham ogʻzaki adabiyotga doir qimmatli maʼlumotlar uchraydi. «Avesto», «Behistun», «Bundaxishin», «Denkar» kabi yozma yodgorliklarda ham ogʻzaki adabiyotning tabiat bilan bogʻlangan baʼzi bir namunalari keltirilgan. Mahmud Koshgʻariy esa oʻzining mashhur lingvistik asari «Devonu lugʻotit turk»da tabiatning turli hodisalari haqida qadimgi qoʻshiq, lirik sheʼr va maqollardan turli namunalar bergan. «Xudoynomak» va ulugʻ shoir Firdavsiyning «Shohnoma»sida qadimgi xalq ogʻzaki adabiyotining bir qancha asarlari va tabiatga oid obrazlari qayta ishlangan. Shu bilan birga tabiat kuchlari haqidagi qadimgi ogʻzaki adabiyotning izlari, uning «arxaik elementlari» keyingi davrlarda yaratilgan xalq ogʻzaki ijodi asarlarida ham saqlanib qolganligini koʻrish mumkin. Bular qadimgi ogʻzaki adabiyot namunalari bilan tanishtirib, tabiat bilan muloqot haqida maʼlum tasavvur tugʻdiradi.

Quyida shunday mif va afsonalardan ayrim namunalar keltiramiz. «Xubbi va Erxubbi afsonasi» — Xorazm mifologik afsonasida Xubbi suv xudosi va kishilarni halokatdan qutqaruvchi sifatida gavdalanadi.

Juda qadim zamonlarda, Faridun va hatto Jamshid zamonidan burun, Amudaryoda Xubbi degan bir yigit boʻlgan ekan. U tabiat qoʻynida yashab, bir qoʻli bilan baliq tutar, ikkinchi qoʻli bilan uni quyoshga tutib turar, baliq bir zumda pishar ekan. Xubbi shu xilda baliq yeb, Amudaryoda 700 yil yashabdi, daryoni qoʻriqlabdi, biror yomon ruh, hattoki chivin ham daryoga yaqin yoʻlashga botinolmabdi. Xalq suvga maʼmur boʻlib, shod-hurram yashar ekan. Biroq Jamshid zamonasiga kelib, Xubbi gʻoyib boʻlibdi. Kishilar uni osmon suvlarining hukmroni boʻlgan qiz oʻgʻirlab olgan, deb faraz qilibdilar. Xubbi gʻoyib boʻlgandan keyin Amudaryoga uning onasi kelibdi. U birinchi boʻlib qayiq yasabdi, kishilarni qayiqda suzish va dushmanga qarshi suvda jang qilishga oʻrgatibdi. Biroq kunlardan bir kun Xubbining onasi gʻoyib boʻlibdi. Lekin kishilar oʻz homiylarini, Xubbi va

uning onasini unutmabdilar. Ular qayiqlarda Xubbining onasi qiyofasini tasvirlabdilar.

Bu narsa tabiat bilan insonlar o'rtasidagi muloqotning azaliyligini, tabiat insonning homiysi, boquvchisi ekanligini ko'rsatish bilan birga, uning qonunlariga qarshi chiqilsa, tabiatning muvozanati buzilsa, albatta falokat sodir bo'lishini ko'rsatadi.

Quyida keltirilayotgan «Baraktom qal'asi haqidagi afsona» ham buni tasdiqlaydi (III—IV asrlarda bino bo'lgan).

Qadim zamonlarda Qoraqalpog'istonning Qozog'istonga chegaradosh bir vodiysida Barak degan zolim shoh bo'lgan ekan. Shoh bir qasrida o'zi tursa, ikkinchi qasrida katta ov burgutini saqlar ekan. Kunlardan bir kun qasrga burgutning onasi Anqo (mifik qush) kelibdi. Shoh kishilarning gapiga quloq solmay, ona-bolaning diydor ko'rishishiga xalaqit berib, burgutni ovga olib chiqmoqchi bo'libdi. Burgut g'azablanib Barakka chovut solibdi-da, uni osmonga ko'tarib chiqib, yerga tashlab yuboribdi. Barak shohning parchalangan jasadi o'sha qasrda dafn qilinibdi. Vodiy xarob bo'libdi, karvonlar unga yaqin yo'lamaydigan bo'lib qolibdilar.

Jamiyat tarixi kishilar o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlar tarixidir. Jamiyat rivojlanishi esa, shu munosabatlarning o'sishi va takomillashishi shaklida bo'ladi. Jamiyat tarixi tabiat rivojlanishi tarixining ma'lum bir davridan boshlanadi.

Shunday qilib, inson va jamiyat tabiatning ajralmas bir qismi bo'lishi bilan birga, uning alohida ongli qismidir. Jamiyat hamisha tabiat bilan o'zaro aloqada bo'ladi. Inson har doim tabiatning qo'ynida yashaydi.

Insonning tabiatga munosabati

Inson hech qachon tabiatdan tashqarida, u bilan aloqada va munosabatda bo'lmasdan turib yashay olmaydi. Tabiat bilan jamiyat, tabiat bilan inson, tabiat tarixi bilan jamiyat tarixi dialektik birlikda, ta'sir va aks ta'sirdadir. Ularni bir-biridan ajratish mumkin emas. Har bir inson, umuman jamiyat va insoniyat tabiat bilan uzviy aloqador-

likda yashaydi. Kishilarning moddiy ne'matlar ishlab chiqarishi uchun muayyan tabiiy sharoitlar talab qilinadi. Tabiatning jamiyat bilan yaqindan aloqada bo'lgan, uning taraqqiyotiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadigan qismi tabiiy muhit deb ataladi. Yer va yer osti boyliklari, daryolar, iqlim, odamlar va boshqa shu kabilar tabiiy muhitni tashkil etadi. Demak, insonning tabiat bilan aloqasi Yerda inson paydo bo'lgan vaqtlardanoq yuzaga kelgan bo'lib, bu zaruriy obyektiv aloqadorlik o'z ahamiyatini bundan keyin ham hech qachon yo'qotmaydi. Tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi aloqadorlik, jamiyatning tabiatga, tabiatning esa jamiyatga ta'siri kishilar ongi va irodasiga bog'liq bo'lmagan obyektiv qonuniyatdir. Jamiyat bilan tabiatning obyektiv aloqadorligi, tabiiy sharoitlarning jamiyat taraqqiyotiga ko'rsatadigan ta'siri jahondagi ayrim xalqlar va mamlakatlarga taalluqligina bo'lib qolmay, balki butun insoniyat uchun, barcha jamiyatlar va mamlakatlar uchun bir xilda umumiydir. Tabiiy muhit insonning moddiy ne'matlar ishlab chiqarish faoliyatining doimiy, abadiy va zaruriy shartidir.

Odam paydo bo'lgan davrdan to hozirga qadar tabiatga ta'sir qilib, uni batamom o'zgartirib yubordi. Jamiyat rivojlangan sari qo'l mehnatidan mashinalashgan sanoat ishlab chiqarishiga o'tildi. Dehqonchilikda ham texnikani qo'llash kuchayib, texnologik ishlab chiqarish asosiy o'rin egalladi. Yer osti boyliklarini qazib olish mislsiz o'sdi. Ekinlar hosildorligini oshirish uchun kimyoviy usullar keng joriy etildi. Avtomobil, temir yo'l, suv va havo transportida neft yonilg'isini ayovsiz ishlatish kuchaydi. Fazoni o'zlashtirish, ommaviy qirg'in qurollarining yaratilishi natijasida jamiyat hayotida, kishilar turmush tarzida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Tabiat ifloslandi. Keyingi ming yilliklar davomida inson faoliyati natijasida Yer shari yuzasi, iqlimi, o'simligi, hayvonot dunyosining tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketganligi bunga misol bo'la oladi. E'tirof etish kerakki, insonning o'z istiqbolini o'ylamay qilgan xatti-harakatlari, ko'r-ko'rona qilmishlari tufayli tabiat behad ozor chekdi,

ko'p narsalardan abadiy judo bo'ldi. Har xil kosmik changlar, issiqlik elektr stansiyalari, avtomobillar sonining tez o'sib borishi, radioaktiv moddalar va boshqalar ta'siri ostida barcha jonli mavjudotning hayot manbayi bo'lgan havo toqat qilib bo'lmaydigan darajada ifloslanmoqda.

Atrof-muhitning radioaktiv va kimyoviy chiqindilar bilan bulg'anishi aholining, chorva mollarning, parrandalarning, daryo va ko'llardagi, suv omborlari, dengiz va okeanlardagi baliq hamda boshqa jonivorlarning ko'plab zaharlanishiga sabab bo'lmoqda.

Islom Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida...» kitobida ko'rsatilishicha, mamlakatimiz kelajagiga quyidagi ekologik muammolar xavf solmoqda:

1. Yerning cheklanganligi va sifat tarkibi pastligi.
2. Suv zaxiralarining taqchilligi va ifloslanganligi.
3. Orolning qurib borish xavfi.
4. Havo bo'shlig'ining ifloslanishi.

Tabiatga noto'g'ri munosabat, yer osti boyliklarini qazib olishda qoidalarga amal qilmaslik ba'zan zilzilalar keltirib chiqaradi. Yer yuzida vujudga keluvchi hududiy, xalqaro nizolar, kelishmovchiliklar, qonxo'rliklar bilan tabiiy ofatlar orasida o'zaro bog'liqlik bor, degan farazlar ham mavjud.

Hayvonot va nabotot olami hamda atrofimizni o'rab turgan boshqa narsalarni to'la-to'kis himoya qilish, saqlash, ularni buzmaslik, isrof qilmaslik to'g'risida ko'pgina maslahatlar mavjud, ularni doimo esda tutishimiz kerak.

Ekologik vaziyatning nihoyatda keskinlashib ketganini Markaziy Osiyo mintaqasi misolida ham ko'rishimiz mumkin. Sho'ro totalitar tuzumi davrida mintaqamizning yakka-ziroatchilikka ixtisoslashtirilishi va suv resurslarining cheklanganligi natijasida bugungi kunda Orol dengizi qariyb yarmigacha qurib bo'ldi. Suv ketib qolgan joylarda ikki million gektarga yaqin qum va tuzdan iborat sahrolar paydo bo'ldi.

Orol muammosi faqat O'zbekistonga yoki Markaziy Osiyodagi mamlakatlarga taalluqli mintaqaviy muammo bo'lib qolmay, umumbashariy muammo hamdir. Orol

bo‘yidagi ekologik vaziyat keyingi paytlarda shu qadar keskinlashib, fojiali tus olib ketdiki, undan faqat Markaziy Osiyo xalqlari emas, balki butun yer kurrasi zarar ko‘rmoqda.

Tabiat muqaddas bir dargoh, inson ko‘z ochib ko‘rgan dunyo bamisoli ona quchog‘i, inson uchun beshikdir. Biz yashab, nafas olib, kun kechirib turgan tabiat, uning tarkibiy qismi bo‘lmish Yerimiz — hammaning, butun insoniyatning umumiy uyi, umumiy makonidir.

Bugungi kunga kelib moddiy olam va undagi mavjud narsalar to‘g‘risida insoniyat ma‘lum bilimga ega. Shu sababli atrof-muhit muhofaza qilinmasa, insoniyatning yashashi tobora qiyinlashib borishi sezilmoqda. Natijada, «Ekologiya» fani yuzaga keldi. Bu fan atrof-muhitni muhofaza qilishning milliy, mintaqaviy va umumbashariy muammolarini o‘rgatadi. U kishilar ongiga «Ekologik xavfsizlik», «Ekologik tozalik» tushunchalariga amal qilish vazifasini ishlab chiqaruvchilar va aholi zimmasiga yuklashni tashviqot qiladi.

Tabiatni ko‘z qorachig‘idek saqlash, atrof-muhitning ifloslanishiga yo‘l qo‘ymaslik umumdavlat, umuminsoniyat ishidir. Tabiatni muhofaza qilishning dolzarbligi ham shunda.

Eng qadim zamonlardanoq aql va ijtimoiylik inson tabiatini tashkil etuvchi tamoyillar deb hisoblangan. Insonga aqli mavjudot va «ijtimoiy maxluq» degan ta’riflar berilgan.

Arastu inson tabiatiga biroz torroq qaragan va uni «siyosiy hayvon» (zoon roliticon) deb atagan.

Bizning buyuk bobokalonlarimiz Forobiy va Ibn Sino ham yunon falsafasining, xususan, Aflotunning inson tabiati to‘g‘risidagi fikrlarini e’tirof etganlar va rivojlantirganlar.

Dastlab Zigmund Freyd va uning izdoshlari inson tabiatiga irratsional ong osti hodisalari chuqur ta’sir ko‘rsatishini isbotladilar.

Inson tabiati haqida o‘ziga xos fikr yuritganlardan biri E. Kassirer bo‘ldi. U inson turli ramzlar yaratuvchi maxluq (animal sumboliot) ekani haqidagi g‘oyani o‘rtaga tashladi. Inson o‘zi bilan tabiat oralig‘ini turli ramzlar bilan to‘ldiradi hamda ular orqali o‘zaro va tabiat bilan bog‘lanadi. So‘z-

lashuv tili inson yaratgan shunday ramz. Madaniyatning har bir hodisasi — ramz. Masalan, til nafaqat kishilarning o‘zaro aloqasini ta’minlaydi, nafaqat ularning jamoaga birlashishi, jamiyatni vujudga keltirishiga shart-sharoit tug‘diradi, shu bilan birga tafakkurni yuzaga chiqaradi.

Shuningdek, badiiy so‘z san’ati madaniyatning eng qadimgi va uzoq tarixga ega bo‘lgan sohasidir. Uning kurtaklari ibtidoiy jamiyat kishilarining olam haqidagi tasavvuri, dunyoqarashi hali sodda xarakterga ega bo‘lgan davridayoq vujudga kelgan edi. Shunga ko‘ra mehnat jarayonining rivoji inson tajribasi va ongi mafkura turklarining bir-biri bilan uzviy aloqada bo‘lgan mustaqil sohalari sifatida taraqqiy etishiga xizmat qiladi. Kishilar turmush tajribalarini, tabiat va jamiyat haqidagi fikr-tushunchalarini obrazli so‘z orqali tasvirlash, bayon etish ko‘nikmalarini yarata boshlaganlar. Badiiy so‘z tajribasining o‘sishi, badiiy did va zavqning takomillashib borishi xilma-xil badiiy shakllarni, adabiy janrlarni vujudga keltiradi. Shunday qilib, badiiy so‘z san’ati yozma adabiyotning vujudga kelishi uchun zamin hozirlaydi. U og‘izdan-og‘izga, avloddan-avlodga, davrdan-davrga o‘tadi. Biroq dastlab qanday yaratilgan bo‘lsa, har qachon aynan o‘sha holicha saqlanib qolmay, balki ijodiy qayta ishlanadi. Sababi, turli xil o‘zgarishlarga uchraydi, yangi-yangi ma’lumotlar bilan boyiydi, yangi sharoitga muvofiqlashadi.

**Inson tushunchasi
bardavomligi** Hozirgi tarixiy sharoit hammaning, birinchi navbatda ziyolilar va siyosiy arboblarning inson haqidagi tushunchalaridagi ilmiy-falsafiy mazmuni anglab olishlarini taqozo etmoqda. Masalan, «odam» va «inson» tushunchalari hatto ba’zi ilmiy adabiyotlarda, ommaviy axborot vositalarida deyarli bir mazmunda qo‘llab kelinmoqda. Bu g‘oyaning davom etishi uning mafkuraviy ta’sirchanligiga putur yetkazishi mumkin.

Fiziologik jihatdan o‘xshash va ongli mavjudotning hammasi «odam» deyiladi. Prezident Islom Karimov «Yuksak

ma'naviyat — yengilmas kuch» kitobida ta'kidlaganidek: «Ollohning o'zi inson zotini vujudga keltirar ekan, uni turli qiyofada, nafaqat yuz-ko'zi, balki fe'l-atvorini ham bir-biriga o'xshamaydigan qilib yaratgan. Yer yuzida qancha inson yashaydigan bo'lsa, barmog'ining izi ham, ichki dunyosi ham bir xil bo'lgan ikkita odamni topish, uchratish qiyin. Tabiiyki, bu insonlarning fikrlash va yashash tarzi ham bir-biridan farq qiladi. Boshqacha aytganda, biologik mohiyati ijtimoiy mohiyatidan ustuvor turadigan, muqaddas qadriyat-larni o'zlashtirishga hali ulgurmagan, torroq manfaatlar qobig'ida cheklanib qolgan kishilarning hammasi odam hisoblanadi. Shu ma'noda o'g'ri, bosmachi (reketchi), tamagir, poraxo'r, fohisha va boshqalar ham, albatta, odam. Biroq ularni inson qatoriga qo'shib bo'lmaydi.

«Inson» tushunchasining falsafiy mazmuni bor. Muayyan jamiyat va madaniyat tomonidan e'tirof etilgan odob-axloq maromlari, tartib-qoida (qonun)larga ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz xilof xatti-harakat qilib qo'ysa, vijdon azobida qolib, chuqur iztirobga tushuvchi, o'zini-o'zi kechirmaydigan oliy bir zot insondir. «Alloh tomonidan yer yuziga xalifa qilib yaratilgan» Inson ma'naviy madaniyat, odob-axloq tashuvchisi, jamiyat tayanchidir. Chunki insonning fe'l-atvori, xatti-harakatini, butun faoliyatini ijtimoiy mohiyat belgilaydi, biologik mohiyat ikkinchi darajali bo'lib qoladi. Insonning ajralmas atributi muayyan dunyoqarash negizida shakllangan ma'naviyatdir. So'zi bilan ishi bir, insof-diyonatli, halol-pok, havoyi nafsini jilovlay biladigan, xalq, Vatan ishq'i bilan yashaydigan, adolat timsoli bo'lgan va shu kabi olijanob fazilatlar egalari ma'naviyatli shaxslar hisoblanadilar.

Odam uchun eng qiyin, murakkab muammo o'zligini anglash va qadrlashdir. O'zi inson ekanligini anglagan odam albatta o'z qadrini biladi, bunday kishilardagina boshqalarni qadrlash his-tuyg'usi kuchli bo'ladi. Aqlli odam zotiga mansub ekanligini to'la his etgan kishi shunga muvofiq, hayot yo'nalishini belgilaydi, bema'ni ishlardan o'zini tiya biladi.

Odamning insonga aylanishining zarur sharti jamiyat va undagi munosabatlardir. Jamiyat va undagi kishilar odam o'zini anglay bilishi uchun bir ko'zgu rolini o'ynaydi. Chunki u o'zining xulq-atvori, talab-ehtiyojini o'zini qurshagan odamlar, ularning jamoalari odob-axloq maromlari bilan taqqoslaydi, baholaydi va munosabatini belgilaydi.

Inson tashqi olamni ko'zi orqali ko'rishi, tanasidagi boshqa a'zolar orqali sezishi mumkin. Lekin u o'zini faqat oyna orqali ko'rishi mumkin. Ammo, u o'zini qanday bo'lsa, shundayligicha his etishi uchun real oynada emas, balki o'z xatti-harakatini boshqalarniki bilan taqqoslash, solishtirish, baholash «oynasi»ga qarashga o'rganishiga to'g'ri keladi. Odam o'zligini anglab yetgandagina o'zi yashab turgan jamiyat, o'tgan avlodlar, ularning tarixiy tajribalari, an'analarning ahamiyatini tushunib yetadi. Bunga o'qish, o'rganish orqali, o'tgan voqea va hodisalarni bugungi kun voqeligiga solishtirish, taqqoslash orqali his etadi, fahmlab oladi.

Odam o'zligini anglab, insonga aylanishi uchun u o'zini o'zi his etishi (sezishi), idrok etishi (fahmlashi), muayyan madaniyat va ijtimoiy guruhga o'zi mansubligini anglashi, o'z «Meni»ga ega bo'lishi lozim. Inson tabiati faqat umuminsoniy xususiyatlardan yoki tamoyillardan iborat emas. U, shuningdek, insonning muayyan tarixiy, ijtimoiy va xoslangan (individual) mavjudlik holati bilan ham bog'liq. Bu holat shaxsning moyilliklari, u yoki bu narsani yaxshi ko'rishi, sig'inishi, taqvodorlikka moyillik yoki uni inkor qilish kabi axloqiy, huquqiy, estetik, diniy tuyg'u va me'yorlarini ham qamrab oladi. Zero, ota-bobolarimiz: «Ishqsiz — eshak, dardsiz — kesak», deganlarida inson tabiatining eng muhim jihatini e'tirof etganlar.

Buni Alisher Navoiy so'fiyona tarzda shunday ifodalaydi: «Inson jazm qilsa, Haq vasliga ham erisha olur. Zero, Haq inson qalbidadir. Insonga Haqqa vosil bo'lish ishq va qobiliyati berilgan». Hadisi sharifda insonni ulug'laydigan, uni mukarram zot deb ta'riflaydigan fikrlar, ko'rsatmalar, shariat hukmlari istagancha topiladi. Islom dini ta'limotiga

ko‘ra, Alloh bandasi bo‘lgan inson tirikligida ham, vafot etganida ham ulug‘dir. Tirik insonlarga bo‘lganidek, uning jasadiga ham, qabriga ham hurmat ko‘rsatiladi.

Insonning erkin kamoliga xizmat qiladigan, undagi ijodiy qobiliyatlarni, fazilatlarni boyitadigan, rivojlantiradigan ehtiyojlari sog‘lom ehtiyojlardir. Aksincha, nafsning kuchayishiga, molparastlikka, shahvatparastlikka, mansabparastlikka — xullas, insondagi salbiy jihatlarning kuchayishiga xizmat qiladigan ehtiyojlar nosog‘lom ehtiyojlardir. Ular inson ma‘naviyatining qashshoqlanishiga, shaxsning nafi va hirsining quliga aylanib, yemirilishiga sabab bo‘ladi. Insonda sog‘lom ehtiyojlarning shakllanishiga, uning o‘z shaxsi bilan ixtilofga bormasdan yashashiga, asl insoniy mavjudligini ta‘minlashga xizmat qiladigan aqliy va hissiy muhit, falsafiy, axloqiy, ilmiy, diniy, badiiy va boshqa madaniy qadriyatlar, me‘yorlar, omillar hamda ijodiy faoliyatining mushtarak tizimi ma‘naviyatdir.

Har doim har bir insonda yuksak mas‘uliyat hissi bo‘lishi kerak. Chunki ota-bobolar yaratgan sivilizatsiyani kelgusi avlodga eson-omon yetkazish lozim. O‘zbek xalqi oldida ham shunday vazifa turadi. Chunki xalqimizning genofondi tozadir. Xalq sog‘lig‘ini ta‘minlash uchun juda katta ishlar qilinmoqda. Moddiy g‘amxo‘rlik, jismoniy chiniqish uchun davlat dasturlari mavjud. Chunki jismoniy sog‘lom va ma‘naviy barkamol xalq, millat dunyoda munosib o‘rin topadi.

Ma‘naviyat, madaniyat, ma‘rifat, odob-axloq, ta‘lim-tarbiya xususida islom dini ta‘limotida bayon etilgan asosiy qoidalar, huquqiy me‘yorlarning ahamiyatini butun dunyo allaqachon e‘tirof etgan.

Yuqorida zikr etilgan asosiy qarashlarni umumlashtirib, xulosa qiladigan bo‘lsak, ma‘naviyat insonning asl tabiatini, uning ijtimoiyligi va shaxs sifatida individualligini mustahkamlashga, aqliy va ruhiy dunyosini tarbiyalashga, kamol toptirishga, ijodiy va bunyodkorlik imkoniyatlarini yuksaltirishga, jamiyatning madaniy merosini boyitishga xizmat

qiladi, uning o‘zi ham aynan o‘sha narsalardan tashkil topadi.

TAYANCH SO‘Z VA IBORALAR

Inson, tabiat, tabiiy resurslar, zardushtiylik, xalq og‘zaki ijodi, Xubbi va Erhubbi, Baraktom, atrof-muhitning ifloslanishi ekologiya, Freyd, inson tabiati, Orol muammosi.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Inson — tabiatning ajralmas qismi ekanligi haqida fikr bildiring.
2. Tabiatni o‘zgartirishning yaxshi va yomon oqibatlari haqida misollar keltiring.
3. Zardushtiylikda tuproq, suv, havo va olov nega muqaddaslashtirilgan?
4. Tabiatdagi o‘zgarishlar, ekologik muammolar hozirgi davrda insoniyatga qanday xavf solmoqda?
5. Orol muammosi haqida o‘z fikringizni bildiring.
6. O‘zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Qonunini sharhlang.
7. Baliq ovi va turli hayvonlar, parrandalar ovi qay paytda taqiqlangan?
8. Hovli-joyga ekiladigan daraxt ko‘chatlarining ekilish tartibini tushuntirib bering.
9. Inson bardavomligi tushunchasini falsafiy izohlang.

TOPSHIRIQ

Tabiatni asrash madaniyati fazilatlarini izohlang.

T/r	Fazilatlar	Izoh
1.	Barqaror rivojlanish, atrof-muhitga oid bilimdonlik	
2.	Tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish	
3.	Global, hududiy va lokal ekologik muammolarni bilish	
4.	Atrof-muhitdagi o‘zgarishlarga munosabatda ziyraklik	
5.	Tabiatni muhofaza qilishda qat’iyatlilik	
6.	Axloqiy-ekologik onglilik	
7.	Ekologik mas’uliyatlilik	
8.	Tabiat boyliklaridan barqaror foydalanish	
9.	Ozodalik, saranjon-sarishtalik va pokizalik	
10.	Atrof-muhit himoyasidagi tashabbuskorlik	

10-§. MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT. BILIM OLI SH HAMDA KASB-HUNAR EGALLASH – MA'NAVIY YUKSAKLIK BELGISI

Yuqoridagi mavzularda aytilganidek, qalb quyoshi bo'lgan ma'naviyat — insonning ruhiy va aqliy olamining yig'indisidir. Ma'naviyat jamiyatning, millatning yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha. Ma'naviyat inson va jamiyat madaniyatining negizi, inson va jamiyat hayoti ma'lum yo'nalishining bosh omilidir. U muayyan iqtisodiy-ijtimoiy hayot tizimining shakllanishi, o'zgarishi yoki inqirozga yuz tutishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviyat boyib borsa, jamiyat ravnaq topa boradi va, aksincha, ma'naviyat qashshoqlashsa, jamiyat bora-bora tanazzulga yuz tutadi.

Prezident Islom Karimov Oliy Majlis 14-sessiyasida «ma'naviyat» so'ziga izoh berib ta'kidlaganidek, «Ma'naviyat... insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli botiniy kuchdir... Erkin fuqaro ma'naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir. Boshqacha aytganda, biz o'z haq-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak».

Yuqorida aytib o'tilganidek, ma'naviyat tushunchasi keng tushuncha bo'lib, u **ma'rifat**, **madaniyat** tushunchalarini ham qamrab oladi.

**Ma'rifat
tushunchasi va
ma'rifatparvarlik
g'oyalari**

Ma'rifat tushunchasi bilish, bilim, ma'lumot, tanish, tanishish ma'nolarini bildiradi. Umuman, uning lug'aviy ma'nosi bilimdir. Atama sifatida esa u tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi

turli-tuman bilimlar, ma'lumotlar majmuasini bildiradi. **Ma'rifatli** degani bilimli, muayyan sohada ma'lumoti bor, degani bo'lib, insonparvarlik ma'naviyati zaminidagina o'z mohiyatiga ega bo'ladi. Kishilarning bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiyaga ham ma'rifat deb qaraladi. Bu so'z ilm-u urfon ma'nolarida ham ishlatiladi. Boshqacha aytganda, ma'rifat bilim va madaniyatni yoyish va yuksaltirishning hamma turlari va sohalarini o'ziga qamrab oladi. Ma'rifat — kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya, maorif hamdir. Maorif umumiy va o'rta maxsus ta'lim beruvchi maktab va o'quv yurtlari tarmoqlarini qamrab oladi.

Ma'rifat tushunchasi kengroq bo'lib, bilim va ma'naviyatni yoyish va yuksaltirishning hamma turlari va sohalarini o'zida uyushtirgan. Lekin ma'naviyat bilan ma'rifat, maorif tushunchalarini izohlaganda, ular o'rtasiga «Xitoy devori»ni qo'yib ham bo'lmaydi, ya'ni ular bir-birini to'ldiruvchi, mukammallashtiruvchi tushunchalardir.

Prezidentimiz Islom Karimov «...ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi», deya ta'kidlab, «bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'limi va tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak»ligini aytgan edi.

Ma'rifat atama sifatida tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli-tuman bilimlar, ma'lumotlar majmuasini anglatadi. Yunon-rim falsafasida ma'rifat so'zi tafakkur va sof bilim deya ifodalangan. Aristotel bilimni insonning eng shirin va yaxshi faoliyati deb ta'riflagan. Platonning: «Mukammal bilimning, ya'ni men egallagan bilimning birdan-bir turi men o'zim bilmagan narsalarni bilishimdir», — degan falsafiy iborasi zamirida o'rganishning, bilimlarning cheksizligini anglatuvchi haqiqat yotadi.

Bu muhim va juda katta mavzuni o'rganishda o'rta asrlardagi islom ilm-fanida ma'rifat tushunchasi ilohiyot

bilan bogʻlanib, katta bilimdonlikni, oʻqimishlilikni bildirganligini eʼtirof etmoq lozim. Kishilarni maʼrifatli qilish va ularni maʼnaviy barkamol etib tarbiyalashda ilohiyotning taʼsiri beqiyos boʻlgan. Buyuk ajdodlarimizdan Imom Buxoriy, Hakim Termiziy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Moturidiy kabi allomalar oʻzlarining beqiyos bilimlari bilan umuminsoniy madaniyatning rivojlanishiga ulkan hissa qoʻshib ketganlar. Hakim Termiziy «Kitob bayonal-ilm» nomli risolasida maʼrifatni nur, yorugʻlikka qiyoslagan. Arab, xususan, Markaziy Osiyodagi ilohiyot fanida, «maʼrifat», «ilm», «amal», «odob» tushunchalari oʻzaro bogʻliq tushunchalar hisoblangan.

Oʻrta asr musulmon olami olimlari nuqtai nazarlariga koʻra kishining odobi, xulqi uning maʼrifati, bilimdonligi bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, inson qanchalik maʼrifatli boʻlsa, uning xulqi shunchalik yaxshi va mukammal hisoblangan. Masalan, Rohib Isfahoniyning fikricha, ilm, amal, adab yuksak unvonga, olijanob nasabga va boylikka tengdir. Bu uchta unsurga Sharqda ham, Gʻarbda ham katta eʼtibor bilan qaralganligini hisobga olsak, bilishning salohiyati, uning mohiyatini yanada chuqurroq his qilish mumkin.

Madaniyat tushunchasi

Maʼrifat tushunchasi bilan bogʻliq maʼrifatchilik Gʻarbda XVIII asrda yaxlit oqim sifatida shakllangan boʻlsa, «maʼrifat» atamasi mashhur nemis faylasufi Immanuel Kantning «Maʼrifat nima?» nomli maqolasidan (1784-yil) soʻng ilm-fanda uzilkesil qaror topgandir. Gʻarbnining tarixiy va falsafiy fanida «maʼrifat» deganda inson aql-idroki, kuch va bilimlari tananasiga cheksiz ishonch anglashilgan.

Madaniyat tushunchasi ham maʼrifat bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, u keng va tor maʼnoda ishlatiladi.

Keng maʼnoda madaniyat — insoniyatning butun tarixiy taraqqiyot jarayonida yaratgan moddiy va maʼnaviy boyliklarining yigʻindisidir.

Tor maʼnoda «madaniyat» tushunchasi jamiyatning maʼnaviy hayotini koʻrsatish uchun qoʻllaniladi. Madaniyat

atamasi keng ma'noda qo'llanilib, jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy hayotida qo'lga kiritilgan yutuqlar majmuyini, biror ijtimoiy guruh yoki xalqning ma'lum davrda qo'lga kiritgan shunday yutuqlari darajasini, o'qimishlilik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, ziyolilik va ma'rifatlilikni hamda turmushning ma'rifatli kishi ehtiyojlariga mos keladigan sharoitlari majmuyini bildiradi.

Demak, madaniyat so'zi, tushunchasi ham ma'rifat singari ma'naviyatni mukammallashtirishga xizmat qiladi va bir-birini to'ldiruvchi, boyituvchi, shaxsning komil inson bo'lib voyaga yetishuvidagi asosiy shartlardan biridir. Ma'naviy nur, ma'naviyatli shaxs — dilida haqiqat nuri aks etgan, o'zligini anglagan, o'zining borliqdagi o'rni va vazifasini tushunib yetgan, haqiqat oldidagi o'z maqomiga loyiq bo'lish va burchini ijro etish mas'uliyatini zimmasiga ola biladigan insondir. Millat ma'naviyati tarixiy shakllangan o'z qiyofasiga ega, shu bilan birga, mohiyatan umumbashariy qadriyatlarga aslo zid emas, balki muvofiqdir.

Bilim olish Har qanday jamiyatning o'ziga xos ma'naviy ehtiyojlari mavjud. Ular orasida bilimga bo'lgan ehtiyoj yetakchi o'rinni egallaydi. Chunki sog'lom odamda tinmay bilim olib turish ehtiyoji mavjud bo'ladi. Bilim kishilarning tabiat va jamiyat hodisalarini haqida hosil qilingan to'g'ri ma'lumotlari, ko'nikmasi, insonning ilgarigi tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni bajarish va boshqarish jarayonlarining zamonaviylashuvidir. Bularning hammasi amaliy faoliyatga mos mutaxassislar yetishib chiqishiga xizmat qiladi.

Bilimlar — ilohiy, insoniy va irfoniy turlarga bo'linadi. Bu bilimlarni egallagan kishigina o'ta komillikka erishadi.

Bilim olish — milliy g'ururni shakllantirish yo'nalishlaridan biri. Chunki inson kamolotida bilim egallash ulkan vazifalardan biri hisoblanadi. Prezidentimiz «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» asarida aytganidek, «shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi

kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq». Bilim olgan kishi har tomonlama rivojlangan, odobli, axloqli, kamtarin, komil inson bo‘ladi. Har qaysi insonning bilim darajasi jahon talablari darajasida, ya’ni fan-texnikaga, bozor iqtisodiyoti madaniyatiga javob beradigan holda bo‘lishi kerak. O‘sha komil inson, uning olgan bilimi hayot yo‘llarida tayanch, yolg‘iz damlarida yo‘ldosh, baxtiyor daqiqalarida rahbar, qayg‘uli damlarida madadkor bo‘ladi. Bilim insonni aql-idrokli, bilimdon, hunarmand, irodali, e’tiqodli qiladi.

*Yigitlikda yig‘ ilmning maxzani
Qarilik chog‘i xarj qilg‘il ani.*

(Navoiy)

*Ilmdan bir shu’la tushgan on
Shunda bilursankim, ilm bepoyon.*

(Firdavsiy)

Bu haqda ulug‘ allomalar shunday deyishadi: «Ma’naviy hayotda, ham amaliy hayotdagidek, kimki bilimga tayansagina to‘xtovsiz kamol topadi va yutuqlarga erishaveradi» (Y. Jeyms). Lekin o‘zi bilimli bo‘lib komillik darajasiga erishmagan johil, ochko‘z, nodon, bosqinchi, talonchi va tamagir insonlar haqida tarixda misollar ko‘p.

Jahon madaniyati sivilizatsiyasiga buyuk hissa qo‘shgan O‘rta Osiyolik allomalar, islom olamidagi buyuk zotlar bilim olish masalasiga jiddiy e’tibor berib qaraganlar. Komil insonni tarbiyalashning birdan-bir yo‘li ana shu bilimda, deb bilganlar. Bu haqda ko‘plab ma’lumotlar keltirish mumkin.

«Qur’on»da musulmonlarga narsani dalil-isbotsiz qabul qilmaslik buyuriladi, ilm doimo aniqlikni talab etishi, haqiqiy ilmiy narsalarga tayanishi kerakligi, gumonga ergashmaslik haqida ta’lim beriladi. «Qur’on» insonni aql ishlatishga chaqiradi. Unda aql insonga berilgan buyuk ne’mat,

**Islom —
ma’rifatparvar din**

deb ta'riflanadi. Aqlni ishlatmaslikning yomon oqibatlari xususida so'z yuritiladi.

Islomda bilim, aql inson kamolotining mezoni hisoblanib, inson ko'rish, eshitish, aqlni ishlatish vositasida bilish qobiliyatiga ega bo'ladi, deyiladi. «Qur'on»da dunyoviy ilmlar, tibbiyot, ruhshunoslik, geografiya, sotsiologiya hamda diniy ilmlarni o'rganish targ'ib etilgan.

«Qur'oni karim»da «ilm» so'zi — «alima» — bilmoq fe'li negiziga tayangan kalimalar 750 marotaba uchrashi ilmiy tadqiqotlarda aytilgan.

«Qur'oni karim»da har bir mo'min-musulmon bajarishi zarur bo'lgan yaxshi xulqlar insonni haqiqiy kamolotga undovchi insoniy fazilatlaridir, deb tushuntiriladi. Chunki islom dinining asosiy maqsadi ham yomonlikning oldini olish, kishilarga yomonlikning xunuk oqibatlarini tushuntirish hamda ularni doimo to'g'ri yo'lda yurishga chaqirishdan iboratdir.

Hadisi sharifda: «Kimki dunyoni xohlasa, ilm olsun, kimki oxiratni xohlasa, ilm olsun», — deyiladi. Aslida, hadislar o'z mohiyatiga ko'ra «Qur'on»dan keyingi ikkinchi muqaddas manba, eng mo'tabar va bebaho hikmatlar majmuasidir. Shuningdek, hadislar ko'p hollarda «Qur'on»ning turli oyatlarini tushuntirib, ularni to'ldirib ham beradi.

Hadislarda ilm poklik, halollik, kishilarni yaxshilik sari boshlovchi, qorong'ilikda yo'l ko'rsatuvchi mash'al tariqasida talqin qilinadi. Ilm — bu hikmat, poklik ramzi, ilmsizlik johillikdir. Ilm, avvalo, e'tiqoddir. Iymon bilan ilm egizak. Har qanday ilmli odam o'z bilimiga amal qilishi, undan kelib chiqib, kishilarga to'g'ri yo'l ko'rsatishi maslahat beriladi.

Dinning asosini iymon, e'tiqod tashkil etadi. Shuning uchun hadislarda dinning ofati uchta, deb ko'rsatiladi: 1) beamal olim; 2) zolim hokim; 3) bilmasdan fatvo aytuvchi ulamo. Ilm olijanob va savob ish. Hattoki, ilm olish ibodat, taqvodan afzal. Chunki ilm dinning asosini, ustuni tashkil etadi. Ilm hikmat, ilm fazilat, ilm dinning rivojini,

uning tarqalishini ta'minlaydi. Ilmni o'qish, takrorlash, yozish bilan mustahkamlash, chuqurlashtirish lozim. Ilm yangilanib turmasa, foydasiz. Ilmni yangilash uni quruq yodlash, takrorlash bilan emas, sadoqat, e'tiqod bilan bo'ladi. Ilm, hikmat kishini turli nopok ishlardan asraydi, hattoki, «bir soat ilm o'rganish kechasi bilan namoz o'qib chiqqandan afzaldir. Bir kun ilm o'rganish bir oy ro'za tutgandan yaxshiroqdir», deyiladi.

Ilm kishilarga naf keltirishi lozim. Olimlar bu yo'lda rahnamo bo'lishi kerak. «Ilm ikki xildir, biri qalbda bo'ladi — uni ilmi nofe' (foydali) deyiladi, ikkinchisi tilda bo'ladi — u Alloh taoloning odam bolasiga yuborgan hujjatidir». Ilm foydali bo'lishi uchun u odamlarga o'rgatilishi kerak. Ilmli inson sadoqatli bo'lishi, kishilarga yaxshilikni o'rgatishi kerak. Ilm bilimli, sadoqatli inson uchun fazilat bo'lsa, bu holatni u boshqalarga singdirishi zarur. Hadislarda ilmli kishi mevali daraxtga o'xshatiladi. Ilm — bu ma'rifat, fazilat. Ilmsiz mamlakatda fitnalar kuchayadi, qotillik avj oladi.

Umuman, islomda ilm-fanni egallash, ma'rifatli bo'lish juda savobli ish ekani qayta-qayta ta'kidlanadi. Beshikdan to qabrgacha ilm izlash lozimligi qayd qilinishining o'zi katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Hadislarda «sadaqaning afzali mo'min kishi ilm o'rganib, so'ng boshqa mo'minlarga ham o'rgatishidir», deyiladi.

Ilmda ajdodlar o'rnagi

Inson kibriga berilib ketmasa, o'zini hammadan ortiq qo'ymasa, Allohning xalifasi sifatida bilim egasi bo'lib, yorug' dunyoning barcha bilimlariga uning idroki yetadi. Din — ruhiyatimiz tarbiyachisi, ilm — dunyoni va oxiratni bilish quroli, inson ikkalasini ham egallamog'i kerak.

Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Yazid Tayfur al-Bistomiy, Imom G'azzoliy, Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Yusuf Hamadoniy, Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniy, Bahoud-

din Naqshband, Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchi, Bobur Mirzo, Alisher Navoiy, Behbudiy, Munavvarqori kabi ulug‘ zotlar hayot tarzi, ilm uchun fidoyiligi, e‘tiqodining pokligi bilan barchaga ibrat bo‘lganligini bilib olish mumkin. Demak, diniy va dunyoviy ma‘rifatni jam qilgan, ana shu har ikki ilmni egallagan kishining ikki dunyosi oboddir.

Islomni faqat aqida deb qaramaslik kerak, balki u, avvalo, ma‘rifat, ilmdir. Islom tarixi shundan dalolat beradiki, Muhammad Payg‘ambarimizgacha bo‘lgan davr arablarda «johiliya» davri deb atalgan. Forobiyning ta‘kidlashicha, «johiliya» nodonlik davri bo‘lib, islom ana shu nodonlik davri o‘rniga keng ma‘noda ma‘rifatni, madaniyatni vujudga keltirdi, ilm-fan, falsafa va san‘atni rivojlantirdi, o‘ziga xos ma‘naviyat va ma‘rifatni yaratdi.

Mustaqillik tufayli farzandlarimizni dunyoviy bilimlar bilan bir qatorda, Imom Buxoriy to‘plagan hadislar, Naqshband ta‘limoti, Termiziy o‘g‘itlari, Yassaviy hikmatlari, Imom G‘azzoliyning din va dunyo haqidagi qarashlari, Yusuf Hamadoniyning tasavvufi, Imom Moturidiyning hidoyat kalomi, G‘ijduvoniyning ta‘lim-tarbiyaga oid o‘g‘itlari asosida tarbiya qilish imkoniga ega bo‘ldik.

Bilimdonlik — ma‘naviy barkamollikka erishishning muhim shartlaridan biri. **Bilim** — kishilarning tabiat va jamiyat hodisalari haqida hosil qilgan to‘g‘ri ma‘lumotlari, **ko‘nikma** — insonning ilgari tajribalari, **malaka** — muayyan ish yoki harakatni amalga oshirish qobiliyati va boshqarish jarayonlarining zamonaviylashuvidir. Bularning hammasi amaliy faoliyatga mos mutaxassislar yetishib chiqishiga xizmat qiladi.

«Ilm — dunyoning izzati, — degan edi Abdulla Avloniy. — Ilm inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas bir fazilatdir. Zeroki, ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko‘rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkir qilur».

Bir kuni ilm olishning fazilatlarini va davlat haqidagi suhbat chog‘ida yahudiylar Hazrat Aliga bitta savol bilan murojaat

qiladilar. U ma'naviy-axloqiy, falsafiy-ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy jihatdan puxta javob beradi. Javoblar:

1. Ilm afzaldir, chunki ilm insonni yorug'likka olib chiqadi, davlat esa zulmatga.

2. Ilm afzaldir, chunki ilmli kishining do'sti ko'payadi, davlatli kishining esa dushmani ko'p bo'ladi.

3. Ilm afzaldir, chunki ilmni qancha ishlatsa, ko'payaveradi, davlatni ishlatsa kamayadi va yo'qoladi.

4. Ilm afzaldir, chunki ilmni hech kim o'g'irlyay olmaydi, davlatni esa o'g'irlyaydi.

5. Ilm ko'paygan sari kishining qalbi nurlanib, jilolanib boradi. Davlat ko'paysa, kishining qalbi qorayib, tumanlashadi.

6. Ilm ko'paysa, ko'ngil hamisha xotirjam, davlat ko'paysa, tun-u kun behalovat bo'lur.

7. Ilm qadimdan meros, janob Payg'ambarimiz sallallohu alayhi va sallamdan meros.

8. Ilm ko'paysa u dunyoda javob berilmas, davlat ko'paysa, hisob berilur.

9. Davlat ko'payib ketsa, Fir'avndek xudolikni da'vo qilur, ilm ko'paysa, yolg'iz Alloh taolodan qo'rqur. Hamma Alloh taoloni ilmiga qarab taniydi.

10. Ilm riyozatga, halollikka, davlat esa zalolat, haromlikka olib boradi.

Demak, ilm hayot va turmushda orttirilgan tajribalarning amaliy va umumiy — nazariy natijasidir. Inson ilm tufayli har qanday qiyinchilikdan oson chiqib ketishi mumkin.

Zukkolik, topqirlik, aql-zakovat, hozirjavoblik, donolik va donishmandlik, chechanlik kabi fazilatlar ilm-idrokning kuchliligi bilan bevosita bog'liq. Ha, aql chirog'i ilmdir.

«Qur'oni karim» va hadisi shariflarda bilim egallash — jamiyatga va o'ziga foyda keltiruvchi shaxs bo'lib yetishishda muhim omil, deb qayd qilingan. Tolibi ilm bo'lish farzdir. Bilimsizlik kishilarni nodonlikka olib keladi. Bilimsiz jamiyatda esa jaholat, razolat hukmronlik qiladi. Islom dinida:

«Bilimning ofati unutishdir. Uni noahil kishiga gapirish esa uni zoye qilishdir», «ilm-u hunarni Chin (Xitoy)da bo'lsa ham borib o'rganinglar», — deb da'vat etiladi. Shunga ko'ra, «olim bo'l, yo bo'lmasa bilimga va ilm ahliga muhabbatli bo'l. Beshinchisi bo'lma, halok bo'lasan», deyilgan.

Muhammad alayhissalom aytadilar: «Ilm — ibodatdan afzal», «Ibodat fazilatidan ko'ra ilm fazilati menga sevimliroqdir».

Imom G'azzoliy (XI—XII asrlar) aqlni (va fikrni) asrash borasida ilm va ilm olishning ahamiyati katta deb, aqlning 4 ma'noda kelishini bayon etgan:

a) aql insonni hayvonlardan ajratgan nafs bo'lib, inson aqli bilan nazariy ma'lumotlar va fikriy jarayonlarni o'rganish qobiliyatiga ega bo'ladi;

b) aql, aqlini tanigan bolaning zotida vujudga kelgan «imkonsiz — zaruriy — mumkin» haqidagi ma'lumotlardir. Bir ikkidandan kichikdir, bir narsa ayni paytda ikki joyda bo'lmaydi, kabi;

d) tajriba bilan qo'lga kiritilgan ma'lumotlarga ham aql deyiladi;

e) insonning oldinni ko'rib, shunga ko'ra sabot bilan chora-tadbir ko'ra olishiga ham aql deyiladi.

Bilimlarning bo'linishi

Demak, aql va ilm bir-biriga bog'liqdir.

Biri bo'lmasdan ikkinchisi bo'lmaydi.

Aql bir daraxt, ilm uning mevasidir. Aql bilim mevasini berishi uchun ishonchli bir sharoitda hur va erkin bo'lishi, tanqid va tortishish haqiga ega bo'lishi lozim.

Arastudan keyin jahon ilmida «Ikkinchi ustoz» («Mualimi soniy») deb tan olingan yurtdoshimiz Abu Nasr Forobiy (873—950) o'z davri jahon ilmining yutuqlariga tayanib, birinchi eng mukammal ilmlar tasnifini yaratdi va bu haqda qator asarlar yozdi. Forobiy ilmlarni inson o'zlashtirishi nuqtai nazaridan 3 darajaga taqsimlaydi:

1. Dastlabki bilimlar majmuyi bo'lib, har bir inson uchun o'z hayotini tartibga solishda birinchi darajali ahamiyatga

ega bo'lgan o'qish va yozish, hisoblash, lug'atshunoslik va grammatika, oldi-sotdi ilmi, tarix kabi eng muhim bilimlarni o'z ichiga oladi.

2. Shariat ilmi («Qur'on» va uning tafsiri, hadis ilmi, fiqh, ya'ni huquqshunoslik).

3. Eng yuqori bosqichda falsafiy bilimlar majmuyi tura-di. Beruniy (973—1048) fikricha, ilm-fan, shu jumladan, uning tarixi, inson uchun borliq haqida aniq va to'g'ri ma'lumot berishi bilan birga, uning ma'naviy qadriyatlarini, ma'naviy dunyosi shakllanishiga, axloqiy barkamollikka, xususan, yaxshilik va yomonlikni ajratishga qaratilgan muhim vosita va ma'naviy me'yor deb ta'riflanishi kerak.

Ibn Sino (980—1037) — falsafiy ilmlarni, avvalo, 2 ga: nazariy va amaliy ilmlarga bo'ladi. Nazariy bilimlar haqiqatni bilishga, amaliy bilimlar esa yaxshi ishlarni bajarishga qaratilgan.

Falsafaning nazariy qismi 3 ga bo'linadi: quyi darajadagi ilm — tabiatshunoslik; o'rta darajadagi ilm — matematika; oliy darajadagi ilm — metafizika.

Falsafaning amaliy qismi ham 3 ga bo'linadi: shaxs haqidagi ilm; insonning o'zaro munosabatlari haqidagi ilm; davlatni, mamlakatni boshqarish ilmi.

Shuningdek, Ibn Sinoning «Aqliy bilimlar tasnifi» asarida bulardan tashqari o'sha davrda mavjud ilmi nujum — munajjimlik, ilmi falakiyot — astronomiya, handasa — geometriya, tib — tibbiyot kabi 29 ilm tarmog'i tilga olinadi. Mantiq ilmi xatoliklardan saqlanish quroli, deb ta'riflanadi.

Bilim olishda ma'lumot muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumot so'zi ikki xil ma'noda ishlatilib, ikkalasi ham ma'rifatga tegishlidir. 1. Xabar, axborot — o'qish jarayonida amalga oshuvchi vosita. Bilimli kishining unga ega bo'lmagan odamga ma'lum qilish orqali bildirishi, yetkazishidir. Ma'lum qilish til va ko'rgazmalar yordamida uni boshqalarga bildirishdir. 2. Bilim darajasi. Ko'rish, bilish, ya'ni borliqdagi obyektiv mavjud qonuniyatlarni his qilish

natijasida olingan bilimlar yig'indisi — past ma'lumotli, o'rt va yuqori ma'lumotli va hokazo.

Ta'lim — ma'lumotni ma'lum bir tartibda berish va uni olish jarayoni sifatida qaraladi. Bu jarayon bir qator ma'rifiy usul va uslublar orqali amalga oshiriladi. Ta'lim turlari ko'p: axloq-odob ta'limi; tabiiy bilimlar bo'yicha ta'lim; texnika ta'limi; kasb ta'limi; akademik ta'lim va boshqalar.

Tarbiya — keng qamrovli tushuncha bo'lib, uning uch xil talqini mavjud. 1. Bolani boqib, voyaga yetkazish. 2. Parvarish, qarov. Tarbiyalab o'stirish. 3. Kishi olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishga o'rganishi. Masalan, odob va axloqqa o'rganishni axloqiy tarbiya, kasb-hunarga o'rganishni kasb tarbiyasi, shariat qoidalariga o'rgatishni shariat tarbiyasi va hokazo deyish mumkin. Tarbiya ta'limsiz amalga oshmaydi. Ta'lim berishdan maqsad uning ketidan tarbiya berishdir, ya'ni ta'lim orqali egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llay olishni o'rgatish. Ta'lim va tarbiya tushunchalari o'zaro uzviy bog'liqdir.

«Ma'lumki, — deyiladi «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» asarida, — ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilm-u ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan».

**Kuch — bilim
va tafakkurda**

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz taraqqiyoti uchun ilm-fanning ahamiyati yanada ortdi.

Chuqur bilim olgan va yaxshi tarbiya ko'rgan komil insonni, kelajagimiz egasini voyaga yetkazish uchun «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilingandan so'ng respublikamiz butun ta'lim tizimini tubdan isloh qilishning aniq strategik yo'nalishlariga ega bo'ldi. 1997-yil 6-oktabrda O'zbekiston Prezidentining «Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risida»gi Farmoni bilan bu masala davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi qilib belgilandi.

Mazkur hujjatlarda Dasturni uch bosqichda amalga oshirish koʻzda tutildi. Birinchi, oʻtish davridagi bosqich 1997—2001-yillarga, yaʼni 4-yil davomida joriy etish moʻljallandi. Bu bosqichda taʼlim faoliyatidagi ilgʻor tajribalarni saqlab qolgan holda uning rivojlanishi uchun huquqiy, ilmiy-metodik, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratildi. Bilim olishga, erkin tafakkur qilishga imkoniyat vujudga keldi.

Ikkinchi bosqich 2001—2005-yillarga moʻljallangan belgilovchi bosqich boʻlib, bunda dastur gʻoyalari va qoidalari Milliy dasturni keng miqyosda toʻliq amalga oshirish, mehnat bozorini hisobga olib, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit nuqtai nazaridan zaruriy oʻzgarishlar bilan toʻldiriladi. Dunyo standartlari asosida bilim olish va erkin fikrlash ragʻbatlantirib boriladi.

Bu bosqich, yurtimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitni hisobga olib, 2009-yilgacha oʻzgartirildi. 2009-yilga borib barcha 9-sinf bitiruvchilari akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari bilan qamrab olinadi.

Uchinchi bosqich, 2009 va undan keyingi yillarga moʻljallangan. Bu bosqichda ushbu sohada erishilgan tajribalar tahlil etilib va umumlashtirilib, xulosalanadi hamda tajribalar asosida takomillashtirilib, kadrlar tayyorlash tizimi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar negizida uygʻunlashtiriladi. Har bir inson uchun bilim sohasida juda keng imkoniyatlar yaratiladi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da taʼlim tizimlarini, uning mazmunini boshqarish va rivojlantirishni taʼminlashni tubdan isloh qilish yoʻllari koʻrsatiladi. Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi 4+5+3 tarkibida, boshqacha aytganda, $9+3=12$ yil qilib belgilab berildi. Bu narsa fuqarolarning toʻlaqonli bilim olishi va biron kasbni egallashi uchun yetarlidir.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning asosiy tarkibiy qismlari: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz taʼlim, fan va ishlab chiqarish asosida amalga oshirilishi koʻrsatib berildi. Bu narsa buyuk davlat qurishning negizini tashkil qiladi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning hayotga tatbiq etilishi pirovard natijada bilimdon, erkin hamda har tomonlama kamol topgan mas’uliyatli shaxsni shakllantirishni ta’min etadi. «Milliy dasturni amalga oshirish, hayotga tatbiq etish, — degan edi Prezidentimiz, — hech bir mubolag’asiz, strategik maqsadlarimiz — farovon, qudratli, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati barpo etishning asosi bo’lmog’i zarur».

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini to’laqonli amalga oshirish uchun mamlakatimiz Prezidenti tomonidan «Umid», «Iste’dod», «Ustoz» jamg’armalarini tashkil etish to’g’risida farmonlar chiqarildi. Yoshlar «Kamolot» ijtimoiy harakati tashkil etildi.

Natijada, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da belgilangan vazifalarning amalga oshirilishi barkamol shaxsni — insonni va shu tariqa ongli jamiyatning shakllanishiga, ya’ni yangicha ongga, tafakkurga ega bo’lgan shaxslarning ko’payishiga va bu, o’z navbatida, ijobiy ma’nodagi «portlash effekti»ning sodir bo’lishiga olib keladi. Islom Karimov so’zi bilan aytganda: «Ta’limning yangi modeli jamiyatimizning potensial kuchlarini ro’yobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi. Har qaysi insonda muayyan darajada intellektual salohiyat mavjud. Agar shu ichki quvvatning to’liq yuzaga chiqishi uchun zarur bo’lgan barcha shart-sharoit yaratilsa, tafakkur har xil qotib qolgan eski tushuncha va aqidalardan xalos bo’ladi. Va har qaysi inson Alloh taolo ato etgan noyob qobiliyat va iste’dodini, avvalo, o’zi uchun, oilasining, millati va xalqining, davlatining farovonligi, baxt-saodati, manfaati uchun to’liq baxshida etsa, bunday jamiyat shu qadar kuchli taraqqiyotga erishadiki, uning sur’at va samarasini hatto tasavvur qilish ham oson emas. Oldimizda turgan buyuk maqsadlarga erishishda jamiyatimizning har bir a’zosi qo’shadigan hissa shu hisobdan beqiyos bo’lishi muqarrar. Men «portlash effekti» deganda aynan shunday holatni nazarda tutmoqdaman».

Demak, har bir mamlakatda maʼrifatli shaxsning, xalqning, jamiyatning maʼnaviyatini shakllantirish, kishilarning ong va tafakkurini rivojlantirish — ularning borliqqa, hayotga boʻlgan munosabatini ijobiy tomonga yoʻnaltirish vositasidir. Jamiyat rivojlanib borar ekan, hayot davom etar ekan, ilm-maʼrifatga boʻlgan ehtiyoj kuchayib boradi. Shu sababli «Kuch — bilim va tafakkurda» tamoyili kelgusida ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab oladi.

Maʼrifat jaholatning, xurofotning kushandasi ekanligi yaqin tarixdan maʼlum. Shu sababli Prezident Islom Karimov taʼkidlaganidek: «Jaholatga maʼrifat bilan qarshi kurashmoq kerak». Bilimli, dono, ilmiga amal qilgan insonlar johillik, befarqlik, yalqovlik kabi illatlardan xalos boʻladi, tinmay mehnat qiladi, yaratadi va kishilar oʻrtasida hurmat-eʼtibor qozonadi.

Sharq xalqlari qadimdan texnika taraqqiyotida katta yutuqlarga erishgan. Lekin XVII—XIX asrlarda Gʻarbning texnika taraqqiyoti olgʻa ketganligi munosabati bilan «Sharq xalqlari, jumladan, oʻzbeklar texnika taraqqiyoti yutuqlarini egallashga moyil emasligi xususida farazlar» paydo boʻldi. Shoʻro davrida esa bu narsa ataylab kuchaytirildi.

Oʻzbekistonda faqat yigʻuv zavodlari barpo etilib, detallarni yasash markazda amalga oshirildi. Lekin kimyo, astronomiya, mexanika, meʼmorchilik, hatto kemasozlikning poydevori Sharqda qoʻyilgani maʼlum. Oʻzbek olimlari ham keyingi yuz yillikda jahonshumul kashfiyotlar qildilar. Oʻzbek yigiti fazoga uchdi. Yuzlab uchuvchilar, tankchilar urush yillarida jasorat koʻrsatdilar. Mustaqillikdan keyin Oʻzbekistonda avtomobilsozlik, toʻqimachilik va boshqa sohalarda yangi yoʻnalishlar paydo boʻldi. Oʻzbeklar oʻzlarining texnikani yarata olishlarini isbot qildilar.

Respublikamizda gʻalla, neft, samolyotsozlik, qishloq xoʻjaligi mashinasozligi, qurilish industriyasi, yoʻlsozlikni rivojlantirishning istiqbolli rejalari mavjud. Qishloq infratuzilmasini tubdan oʻzgartirish, maishiy xizmat, axborot tar-

moqlarini jahon andozalariga tenglashtirish uchun juda ko'p ishlar qilinishi lozim.

**Kasb-hunar
egallash**

O'quvchilarni hunar o'rganishga rag'batlantirish uchun turli vositalardan foydalanish zarur. Zero, inson uchun eng muhim narsalardan biri hunar egallamoq. Har qanday narsaning mohiyatini anglash, jahondagi voqealarning yaxshiyomon tomonini bilib olish, odamlarning qadr-u qimmatini to'g'ri tushunish, oilaning farovon yashashini to'g'ri tashkil qilish, qisqasi, har tomonlama mukammal inson bo'lish uchun ilm va hunar o'rganish zaruriy ehtiyojdir.

Har kimning zari bo'lmasa-da, ammo hunari bo'lsa, dunyoda hech bir qiyinchilik chekmaydi. Donolar deydi:

*Oltin topmagin-u o'rgangin hunar,
Hunaring oldida xasdir oltin-zar.*
(Jomiy).

*Quyoshliq istasang kasbi kamol et,
Kamol gar kasb etarsan bemalol et.*
(Navoiy).

Shuning uchun kishi hunar ziynati bilan bezanmog'i lozim. Hunarsiz kishi quruq savlatdir. Quruq savlat qotib turgan suratga o'xshaydi. Surat odamga o'xshasa-da, jonsiz bo'ladi, daraxt ham mevasiz bo'lsa, qadr topmaydi. Qalam garchi cho'p bo'lsa-da, ilm-u hunarni oshkor qilgani uchun azizdir. Oyna esa go'zallar yuzini ko'rsatgani tufayli qo'lda yuradi.

Bir rivoyat: aytishlaricha, Gushtasb Qustantaniya shahriga kelib qolibdi. Uning yonida biror tiyin ham yo'q edi. Yeyishga biror narsa topolmay, och qoldi. Birovdan so'ray desa, izzat-nafsi yo'l qo'ymas edi. Xuddi shu tobda uning yodiga yoshligi tushdi. U bolalik paytida maktabga borarkan, yo'l chetida joylashgan temirchi do'koni oldida biroz to'xtab, temirchilarning pichoq va bolta yasashlarini tomosha qilar va uning siridan birmuncha voqif bo'lib qolgan edi.

Gushtasb ko‘p o‘ylab o‘tirmay, temirchilar oldiga bordi va ularga dedi:

— Ey, birodarlar, men ham temirchilik siridan ancha xabardorman, meni ham o‘zlaringizga sherik qilib olsalaringiz.

Temirchilar rozi bo‘lishdi. Gushtasb bir necha muddat ishlab, pul yig‘di. So‘ng vataniga qaytib bordi. U martabaga erishgan paytida barcha yosh-u qarini kasb-hunar o‘rganishga da‘vat etdi. Bolalarga kunning avvalida o‘qib, ikkinchi qismida hunar o‘rganishga farmon berdi.

Demak, eng halol va yoqimli yeyish va kiyish hunarlardan hosil bo‘ladi. Hunar — yashirin xazina. Kuni kelib, kishi dunyo tasodiflari tufayli mol-mulkdan ajralsa ham, hunardan hech qachon ajralmaydi. Hunar doimiy hamroh, madadkoridir.

O‘zbek xalqining hunarmandchilik tarixi qadimiydir. Yerning ust va tuproq osti qismi ulkan bir muzey. Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Toshkent, Farg‘ona vodiysi va boshqa joylardagi har bir tarixiy obida milliy hunarmandchilikning yuksak namunasi.

Milodning boshlarida va IX—X asrlarda Turonda hunarmandchilik jadal rivojlandi. Me‘morlikda g‘isht qadab naqsh solish yuksak darajada taraqqiy etdi. Binolarning ichki tomonlariga ganch, yog‘och o‘ymakorligini qo‘llash yuksak rivoj topdi. Ayniqsa, maqbaralarning peshtoqlari, devor va ravoqlari ganch naqshlar bilan juda nafis bezatildi.

Temuriylar davriga kelib shaharsozlik yanada rivoj topdi. Tosh va g‘isht yo‘llar, keng ravon ko‘chalar, bir-biridan mahobatli binolar barpo etildi. Samarqandning Registon maydonidagi Ulug‘bek, Sherdor va Tillakori madrasalari, Shohi Zinda va Go‘ri Amir maqbaralari, Bibixonim masjidi, Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi, Toshkentdagi Ko‘kaldosh madrasasi, Shahrisabzdagi Oqsaroy va boshqalar bugungi kunda dunyoga mashhurdir.

Temuriylar davrida xalq hunarmandchiligi juda rivoj topdi. Temurning amri bilan turli mamlakatlardan ustalar, me'morlar olib kelinib, ajoyib takrorlanmas binolar qurildi.

Odamning barkamol va badavlat bo'lishi uchun kasb-u hunardan qimmatroq mato yo'q va ulug'lik hamda saodat osmoni uchun esa qobiliyatdan yorqinroq yulduz yo'qdir. Hunar suvi bilan sug'orilmagan kishi hidsiz va rangsiz gulga monanddir. Bilim va haqiqat bog'ining bog'bonlari kasb-u hunarsiz kishilarni jamiyatning razil va pastkash kishilari deb hisoblaganlar. Kasb-u kamolsiz kishining muhabbati hech bir dildan joy topmaydi va hech kim kasb-u hunarsiz kishiga yordam qo'lini cho'zmaydi. Hayot mazmunini ilm va hunarda deb bilgan insonlar uchun saodat xazinasining kaliti doimo muyassardir.

XVIII—XIX asrlarda Buxoro, Qo'qon, Farg'ona va boshqa joylarda yetuk xalq ustalari yetishib chiqdi. Mis-karlik, naqqoshlik, ganchkorlik va boshqa san'at turlari rivojlandi. Hunarmandlar mahalla-mahalla bo'lib yashay boshladilar. Har bir mahallada ustalar o'rtasida raqobat paydo bo'ldi. Chunki kimning mahsuloti sifatli bo'lsa, xalq o'shaning ishlab chiqargan mahsulotini sotib olgan. Shuning uchun har bir usta sifatli mahsulot tayyorlagan.

Qadimda hunarmandlar o'z kasbining sir-asrorini yozib qoldirmaganlar. Uni faqat shogirdlar bilgan. Shogirdlar usta bo'lganlaridan so'ng, ular ham o'zlariga qarashli shogirdlarga o'rgatganlar. Shunday qilib hunarmandchilik an'ana tariqasida rivojlanib kelgan.

Hunarmandlar shogirdlikka o'z bolasini yoki qarindosh-urug'larning bolalaridan olganlar. Shogirdlikka bolalar 7—8 yoshdan olinib, 10—12 yil hunar o'rganganlar. Ustoz shogirdlari bilan kunduzi ishlagan. Kechqurun esa ustoz rahbarligida xat-savod chiqarilgan. Ustozlar har tomonlama yaxshi bilimga ega bo'lganlar. Ustoz shogirdga qattiqqo'l va talabchan bo'lgan. Kasb o'rgatish tekin olib borilgan.

Hunar oʻrganish uchun sabr-toqat va nozik did talab etilgan. Ustalar shogirdlar uchun maxsus odob talablarini ishlab chiqqanlar. Masalan, ular shogirdan pokizalikni, ish vaqtida chalgʻimaslikni, egri va nomaʼqul ishlarga yaqin yoʻlamaslikni, ustoz ruxsatisiz biror ishga qoʻl urmaslikni qatʼiy talab qilganlar. Usta shogirdiga hunar sirini oʻrgatishidan tashqari, uy-yumush ishlarini bajarishga ham tayyorlab borgan.

Shogird hunarni puxta egallagandan soʻng unga oq fotiha berilgan. Marosimda ustozga shogird bosh-oyoq sarpo inʼom etgan. Ustalarining kattasi, ustakalon usta nomini olayotgan shogirdning boshiga salla oʻragan. Chopon kiygʻizib, beliga qiyiqcha bogʻlagan va unga arra hamda tesha qistirib qoʻyilgan. Shundan soʻng shogirdni ustalar va doʻstlari tabriklaganlar. Keyin katta usta dasturxondan yopgan non olib shogirdga bergan va uni duo qilgan. Shundan soʻng usta mustaqil ish boshlagan.

Har bir davrda kasb-hunar juda ham ulugʻlangan. Xalq donishmandlaridan biri: «Ey farzand, agar oqil va dono boʻlay desang, hunarmand boʻlishni oʻyla. Hunarmandchilik sababidan izzat va hurmatga erishasan, agar hunardan bebahra boʻlsang, quruq soyasiz daraxtga oʻxshab qolasan. Ey farzand, aqlli, farosatli va ilm-u hunarli kishilar bilan doʻst boʻl, hunarsiz kishida xosiyat boʻlmaydi. Mehnatdan, ilm-hunar oʻrganishdan uzoqlashma», — deydi.

Axloqshunos olim Majid Havofiy hunarmandchilik toʻgʻrisida shunday deydi: «Kasb va hunarmandlarni eʼzozla. Hunarmandchilikka ruju qoʻygan xalqning hurmat va eʼtibori oshadi». Juda koʻp ulugʻlar hunarmand boʻlganlar, jumladan, paygʻambar hazrati Dovud alayhissalom — temirchi, Forobiy — bogʻbon, Sakkokiy — pichoqchi, Zavqiy — mahsidoʻz boʻlgan. Xoja Bahouddin Naqshband miskarlik bilan tirikchilik qilgan. Rus olimi Mendelejev — ajoyib chamadonchi boʻlgan.

Hozirgi davrda yer yuzida 500 mingdan ortiq kasb boʻlib, barchasi odamlar uchun xizmat qiladi. Yoshlar shu hunardan

bir nechtasini o'rganib, el-yurt oldida o'z kasbining ustasi bo'lsa, ularning rizqi butun bo'ladi. Ota-bobolarimiz «bir yigitga yetmish hunar oz» deb bejiz aytmaganlar. Chunki hunarmandning el oldida obro'si baland, iqtisodi yaxshi. Usta Shirin Murodov, Mirvohid Usmonov, Mo'min Sultonov va boshqalarni xalqimiz ardoqlaydi.

Ularning shogirdlari bugun ulug' an'anani davom ettirmoqdalar. Buyuk Navoiy «Farhod va Shirin» dostonida: «Hunarni asrabon netgumdir, oxir. Olib tuproqqamu ketgumdir, oxir», — deb bejiz aytmagan.

Mustaqillikdan keyin yoshlarga kasb-hunar o'rgatish jiddiy masala sifatida kun tartibiga qo'yildi. Chunki sho'ro davrida bu ishga panja orasidan qaraldi, rus bo'lmagan xalqlarning mentaliteti hisobga olinmadi. Natijada, bolalarimiz hunarsiz qoldi. Bu nuqsonlarni yo'qotish, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da belgilangan vazifalarni ro'yobga chiqarish maqsadida 1998-yil 24-fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari tashkil etish va ularning faoliyati to'g'risida»gi Qarori qabul qilindi. Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq 1998-yilda akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari tajriba tariqasida tashkil etildi.

Ana shu o'tgan davr mobaynida, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ga muvofiq, 75 mingdan ortiq o'quvchiga mo'ljallangan 100 dan ortiq akademik litsey, 1 mln dan ortiq o'quvchiga mo'ljallangan 1000 dan ortiq kasb-hunar kolleji ishga tushirildi.

Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi $9+3=12$ tarzida yoki shu asosda faoliyatini yuritmoqda. Kasb-hunar kollejlari fundamental umumta'lim tayyorgarligi bilan birgalikda, o'quvchilar tekinga 2—3 ta zamonaviy kasblarni egallab, umumkasbiy va maxsus sohalar bo'yicha chuqur nazariy va amaliy bilimlar bilan qurollanmoqda. Har ikkala:

akademik litsey va kasb-hunar kollejlarini bitiruvchilar uchun oliy o'quv yurtlariga kirish huquqi saqlanib qoladi.

Demak, xulosa qilib shuni aytish mumkinki, insoniylikning eng muhim shartlaridan biri, bu ma'naviy va ma'rifiy bilim olish hamda kasb-hunar egallash bo'lib, yoshlarni komil inson qilib tarbiyalash, voyaga yetkazishda muhim omillardan hisoblanadi. Zero, hozirgi vaqtda Prezidentimiz yoshlar ta'lim-tarbiyasiga katta ahamiyat berayotganligining boisi ham shunda ko'rinadi.

Umuman, ma'naviyat-ma'rifat va madaniyatning asosiy belgilaridan biri — savodxonlik ham ilm bo'lib, bular ma'naviy boyligimizning poydevori hisoblanadi. Hozirgi paytda O'zbekiston aholisining 99,06 foizi savodli.

Kishilarga bilim berish jarayonining kechish qonuniyatlarini aniqlab beruvchi inson faoliyati turiga **ma'naviyat ilmi (didaktika)** deyiladi. Ma'naviyat ilmi aniqlagan qonuniyatlar asosida ta'lim-tarbiyani amalga oshirish uslublarini yaratuvchi ilm-fan turiga **uslubiyat (metodika)** deyiladi. Ma'rifat ilmi aniqlangan qonuniyatlar va shu qonuniyatlar asosida yaratilgan ta'lim hamda tarbiya berish usullarini ma'rifiy jarayonda qo'llash **ma'rifat (pedagogika)** fani tomonidan o'rgatiladi.

Bilim olish va uning afzalliklari haqida Sharqda qadim-qadimdan fikrlar bildirib kelingan. Har bir davrda bu fikrlar yangi-yangi qarash va g'oyalar bilan boyitib kelinmoqda. Chunki, bilish falsafaning ham asosiy muammolaridan biri sanaladi. Zero, bilim olish va, o'z navbatida, kasb egallash shaxs ma'naviyatini yuksaltiradi, jamiyatdagi o'rnini topishga yordam beradi.

Prezidentimiz I. Karimov 1996-yilda ma'naviyat va ma'rifatni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri, deb hisoblab, uni isloh qilishning muhim vazifalarini belgilab bergan edi. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» shu tariqa yuzaga keldi va bugungi

kunda bu sohaga davlat jiddiy e'tibor berayotganligi bejiz emas.

Chunki «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» kitobida aytilganidek: «Istiqlol davrida barpo etilgan, barcha shart-sharoitlarga ega bo'lgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan, zamonaviy kasb-hunar va ilm-ma'rifat sirlarini o'rganayotgan, hozirdanoq ikki-uch tilda bemalol gaplasha oladigan ming-minglab o'quvchilar, katta hayotga kirib kelayotgan, o'z iste'dodi va salohiyatini yorqin namoyon etayotgan yosh kadrlarimiz misolida ana shunday orzu-ntilishlarimiz bugunning o'zida o'z hosilini berayotganining guvohi bo'lmoqdamiz».

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR

Ma'rifatparvarlik, tafakkur, madaniyat, bilim olish, «johiliya davri», shariat ilmi, falsafiy bilimlar, ma'lumot, ta'lim, tarbiya, kuch – bilim va tafakkurda, kasb-hunar egallash, kadrlar tayyorlash milliy dasturi.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Ma'naviyat va ma'rifat tushunchalarini sharhlang.
2. Ma'rifatchilik harakati nima?
3. Ma'rifat ta'rifini izohlang.
4. Islom Karimovning: «Aqliy zakovat va ruhiy-ma'naviy salohiyat ma'rifatli insonning ikki qanotidir», — degan ta'rifini sharhlang.
5. Turkiston ma'rifatchilik maktabi namoyandalari: Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, A. Avloniy va boshqalarning faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
6. Mustaqillik yillarida ilm-fanga berilayotgan e'tibor qanday (qonunlar, jamg'armalar).
7. «Qur'on» va hadislarda ilm-ma'rifatga chorlash qanday berilgan? Hadislardan namunalar keltiring.

TOPSHIRIQ

Quyidagi fikrlarga keng sharh berib, insho yozib keling.

1. Odamlarda ma'rifatparvarlik g'oyalarini tarbiyalash, maktab-maorif tarmoqlariga homiylik, saxovatpeshalik kabi ezgu xususiyatlarni kuchaytirish zarur.
2. Bilim, ma'rifat yaxshi axloq bilan bezanmog'i lozim.

3. Ilm bir chiroqdirkim, seni rohat va farog‘atga hech bir zahmatsiz yetkazadi.
4. Kasb-hunari bo‘lgan odam hech qachon xor-zorlik ko‘rmaydi.
5. Hunar hunardan unar.
6. O‘zbekistonda hunarmandchilikning cho‘qqisi bo‘lgan buyuk obidalar.

11-§. AMALIY MASHG‘ULOT

Jadidchilik va jadidlarning ilm-ma‘rifat yo‘lidagi harakatlari

REJA:

1. Jadidchilik harakatining mazmuni, mohiyati va uning xalq ma‘naviyatini oshirishdagi roli.
2. Jadidchilik oqimi namoyandalarining faoliyati, ilmiy-ma‘rifiy qarashlari va taqdiri.

Darsning turi: Davra suhbat.

Darsning maqsadi: O‘quvchilarga jadidchilik harakatining asosiy mazmun-mohiyatini tushuntirish, jadidlarning ilm-ma‘rifat yo‘lidagi harakatlari mohiyatini ochib berish, jadidchilar faoliyati bilan tanishtirish orqali ularning erkin va mustaqil fikrlashlariga erishish, shuningdek, ilm-ma‘rifatga havasni kuchaytirish.

Darsni jihozlash: Kitoblar, jadidlar portretlari, kodoskop yoki multimediyada foydalanish uchun yozma materiallar, bo‘r, flamaster, marker va boshqalar.

Darsning tuzilishi:

Tashkiliy qism.

Dars rejasi bo‘yicha ishlash.

Darsning tugallanishi va uyga vazifa.

*Sinf taxtasiga quyidagi so‘zlar yozilgan
plakat ilib qo‘yiladi yoki ekranga chiqariladi:*

«XX asr boshidagi ma‘rifatchilik harakatining namoyandalari boylik uchun, shon-shuhrat uchun maydonga chiqishmadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat,

Tavallolar maktab ochganlari, xalqni o‘z haq-huquqlarini tanishga da’vat etganlari uchun birov maosh to‘laganmi? Birov ularga oylik berganmi? Albatta, yo‘q! Ular o‘t bilan o‘ynashayotganlarini, istibdodga qarshi kurashayotganlari uchun ayovsiz jazolanishlarini oldindan yaxshi bilishgan. Bila turib, ongli ravishda mana shu yo‘ldan borganlar. Chunki, vijdonlari, iymonlari shunga da’vat etgan».

Islom Karimov

O‘qituvchi:

– oldindan o‘quvchilarga darsga tegishli axborot materiallarini tarqatadi;

– dars mavzusi va o‘tkazish shakli haqida qisqa tushuntirish beradi;

– dars jarayonini boshqaradi;

– o‘quvchilarga savollar beradi;

– mavzuning eng qiyin qismlarini tushuntiradi;

– ilgari o‘tgan mavzulardan zarur bo‘lgan taqdirda muhim axborotlarni eslatadi;

– dars oxirida uni yakunlaydi va uyga vazifa beradi.

O‘quvchilar:

– berilgan savollarga javob tayyorlashda ijodiy yondashadi;

– berilgan mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini bildiradi va asoslab beradi;

– dars mavzusi muhokamasidagi munozarada faol qatnashadi;

– munozara davomida noaniq joylar bo‘yicha savollar beradi.

Savol: Jadidchilikning yuzaga kelishi va vazifasi nimadan iborat edi?

Javob: Jadidchilik tasodifan va sababsiz, o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan emas. Avvalo, u XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning natijasida hamda boshqa xalqlarning ma’rifatparvarlari ta’siri oqibatida ijtimoiy-falsafiy oqimiga aylanadi.

Avvalo, shuni ta'kidlash joizki, ma'rifatparvarlik mafkurasi, bir tomondan, kapitalistik munosabatlarning O'rta Osiyoga kirib kelishi natijasida yuz bera boshlagan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlarni o'zida aks ettirsa, ikkinchi tomondan, uni rivojlantirdi, ma'naviy mazmunini boyitib bordi.

Uning oldida turgan vazifa feodal qoloqlikdan chiqish, o'lkaning ilg'or taraqqiyoti uchun choralar topishdan iborat bo'lsa-da, hayot taqozosi bilan qo'yilgan masalalar va ularni hal qilish choralari turli bosqichda turlicha bo'lganligini bilib olish mumkin:

1. Ma'rifatparvarlikning ilk namoyandalari: Ahmad Donish (1827—1897) (Buxoro xonligini Rossiya bilan taqqoslaydi). Berdimurod Berdax (1827—1900) (Xiva xonligi haqida yozadi), Sattorxon (1830—1902) (Turkiston haqida yozadi), Furqat (1858—1909) (ma'rifatparvarlikka doir she'rlar bitadi).

2. Ma'rifatparvarlik harakatining demokratik namoyandalari: Muqimiy (1850—1903), Zavqiy (1853—1921), Anbar Otin (1870—1914), Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889—1929) lardir.

3. Jadidchilik harakati namoyandalari: Mahmudxo'ja Behbudiy (1875—1919), Munavvarqori Abdurashidxonov (1878—1931), Abdulla Avloniy (1878—1934), Abdurauf Fitrat (1884—1938) va boshqalar.

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Turkistonda chor mustamlakachiligining ildiz otishi natijasida Markaziy Osiyoning ko'p joylarida jadidchilik harakati yuzaga keldi.

Bu harakat mavjud jamiyatning ijtimoiy-madaniy asoslarini qayta qurishga qaratilganligi sababli eski tuzum tarafdorlarining kuchli qarshiligiga duch keldi.

Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy islohotlar yo'li bilan xalq va jamiyat hayotini yaxshilashga, madaniy yuksaklikka olib chiqishga qaratilgan dasturlarni bajarishga kirishildi.

Jadidchilik jamiyatni to‘ntarish yo‘li bilan emas, islohotlar yo‘li bilan rivojlantirishni o‘zining asosiy vazifasi deb belgiladi.

Jadidlar Turkiston hududida uzoq davr mobaynida yuz bergan ijtimoiy-madaniy inqirozga barham berishga harakat qilganlar. Shu maqsadda san‘at, din, matbuot, maorif, adabiyot sohalarida islohot o‘tkazish g‘oyalarini ilgari surganlar. Ular axloq-odob, e‘tiqod, adliya, sog‘liqni saqlash muammolarini qayta ko‘rib chiqish, ijtimoiy-ma‘naviy hayotning barcha sohalarini shakllantirishni maqsad qilib olgan edilar.

Savol: Chor Rossiyasi Turkistondagi ta‘lim-tarbiyaga qanday qaradi?

Javob: XIX asrning 60—80-yillarida Turkiston o‘lkasi Chor Rossiyasi tomonidan istilo qilingandan so‘ng ta‘lim-tarbiya sohasidagi tanazzul yanada chuqurlashdi. Endilikda Turkistondagi maktab va madrasalar maxsus yollangan ba‘zi bir ayg‘oqchilar tomonidan taftish qilinib, ularning faoliyati noto‘g‘ri talqin etilar, ta‘lim maskanlarida turli bid‘atlar rasm qilinardi. Vaqf mulklarini qisqartirish yo‘li bilan bir qancha madrasalar yopib qo‘yildi. Umuman, chor hukumati ma‘muriyati o‘lkadagi eski maktab va madrasalarga nisbatan turli xil kurash usullarini qo‘llay boshladi. 1890-yildan boshlab idoraviy yo‘l bilan nazorat qilib turish uchun maxsus inspektor (muboshir) lavozimi joriy etildi. 1896-yildan boshlab maktab va madrasalar shahar va uyezd hokimlari orqali nazorat qilinadigan bo‘ldi. Ta‘kidlanganidek, bu davrda Turkiston maktab va madrasalaridagi tarbiyaviy ishlarni general gubernatorlik boshqarardi. Mustamlakachilar 1875-yildan boshlab eski usuldagi musulmon maktablari qatorida avval o‘z bolalarini o‘qitish uchun Turkiston o‘lkasida ibtidoiy va o‘rta maktablarni joriy qilishga kirishdilar.

Toshkentning ilg‘or kishilari o‘lkada tub o‘zgarish qilishning bosh yo‘li maorifni isloh qilish, deb bildilar. Shu boisdan ular maktablar ocha boshladilar, unda dunyoviy ilmlar va rus tili o‘rgatila boshlandi. 1884-yil 19-dekabrda

o'z qarashlari bilan tanilgan Toshkent savdogari Saidazim-boyniing uyida mahalliy xalq vakillari uchun rus-tuzem maktabi ochildi. Oradan bir yarim yil o'tgach, rus-tuzem maktablari rasmiy tarzda ma'qullandi va 1886-yili yana shunday 14 ta maktab ochildi.

Har bir rus-tuzem maktabiga «Faxriy mutavalli» tayinlangan bo'lib, u maktab joylashgan shahar va qishloqda yashaydigan boylardan bo'lar edi.

1891-yilning 1-yanvariga kelib, rus-tuzem maktablarining soni 89 taga yetadi. Rus-tuzem maktablaridagi o'qish 4 yil edi. O'quvchilar rus tili, matematika, kasb, rus qonunlari va shariatni o'rganardi.

Biroq chor Rossiyasining o'lkada rus-tuzem maktablari ochib, rus-tilini o'rgatishga bo'lgan sa'y-harakatlari omma-viylik kasb etmadi. 1917-yilning may oyida o'z davrining mashhur pedagogi F. Yegorov Turkiston maorifining ahvoli to'g'risida shunday xulosaga kelgan edi:

1. Rus-tuzem maktablari tashkil etilishidan ko'zlangan maqsadga erisha olmadi. Normal aqliy rivojlanishni bera olmadi, rus tilini to'g'ri o'rgata olmadi, musulmon diniy ta'limoti asoslarini ongli tushunishga xalaqit qila olmadi.

2. Boshqa nohukumat maktablarning mavjudligi tuzem-chilarning keng ta'lim olishiga to'sqinlik qildi.

Shu boisdan 1917-yil 9—14-mayda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan O'lka o'qituvchilarining 1-qurultoyi kun tartibiga Turkiston o'lkasi aholisi uchun muhim bo'lgan rus-tuzem maktablarini tahlil etish to'g'risida masala kiritildi. Qurultoyning raisi qilib saylangan Munavvarqori Abdurashidxonov anjumanda Turkiston maktab ishlarini isloh qilish to'g'risida ma'ruza qildi.

Qizg'in bahslardan so'ng Turkistonda milliy maktab qurish uchun qaror qabul qilindi.

Ushbu qarorda o'sha davrgacha mavjud bo'lgan rus-tuzem bilim yurtlari milliy maktablarga almashtirilishi zarur; quyi, o'rta va oliy ta'limga bo'linadigan maktablarda o'qish ona tilida olib borilishi kerak; boshlang'ich ta'lim umumiy,

majburiy, bepul va 6 yoshdan bo‘lishi, shu bilan birga, maktab uchun mablag‘ davlat xazinasidan, mahalliy idoralar va shahar boshqarmalaridan ajratilishi lozim, deyilgan edi. Bu maktablarga ruslashtirish vositasi deb qaralardi. Ularga qarama-qarshi «yangi usul maktablari» tuzish dasturi olg‘a surildi. Bu maktablarda, asosan, turkiy til va ilohiyot o‘rgatiladi.

Jadidlar harakati tarixning porloq sahifalaridan biri bo‘lgan. Agar jadidlar faoliyatiga nazar solsak, ular naqadar vatanparvar, fidoyi, o‘z g‘oyalarini himoya qilish yo‘lida hatto o‘z hayotini qurbon qilishga ham tayyor mard insonlar ekanligini ko‘ramiz. Ular millatni ilm-ma‘rifatli qilish yo‘lida tolmas kurashchi bo‘lganlar. Bu yo‘l yangi yo‘l bo‘lib, milliy ta‘limni yuksak cho‘qqilarga olib chiqishga qaratilgan edi.

Savol: Jadidlarning ijtimoiy tarbiya ishlarida alohida oqim bo‘lib shakllanishi qanday yuz berdi?

Javob: Jadidlar harakati ijtimoiy tarbiya ishlarida alohida oqim sifatida XX asr boshlarida Qrim, Kavkaz va Markaziy Osiyoda shakllandi. Jadidlar o‘z siyosiy dasturini taniqli qrim-tatar siyosiy arbobi Ismoilbek G‘aspirali (Gasprinskiy) (1851—1914) dan oldilar.

Ismoilbek yuqori aslzodalar oilasidan chiqadi. Qrimda musulmon diniy maktabida, Moskva kadetlar korpusida harbiy ta‘lim oladi. Turkiya va Fransiya (2 yil yashagan) bo‘ylab sayohat qiladi. Qrim yarim orolida yashagan aholining 25 foizini tashkil qilgan qrim-tatarlari orasida turkiy til saqlanib qolishini yoqlagan. 20 yil «Tarjimon» jurnalini nashr etadi. Unda maktab va madrasalarda diniy bilimlarini, arab, fors, rus tillarini o‘rgatish bilan birga tibbiyot, kimyo, nabotot, nujum, handasa (jami 17 fan)ni ham o‘rgatishni targ‘ib qiladi. Jadidlar dasturi maktabni isloh qilishga qaratilgan edi. 1892-yilda Ismoilbek G‘aspirali musulmon maktablarini isloh qilish loyihasini Turkiston general gubernatori Rozenbaxga yuboradi va rad javobini oladi. 1893-yili Buxoro amiri Abdulahadga yangi usul

maktablarini tuzishni taklif qiladi. So‘ng u Qozon tatarlaridan foydalandi. Ismoilbek G‘aspiralining harakatlari natijasida keyinchalik Buxoro amiri unga birinchi jadid maktabini ochishga ruxsat berdi. Ikkinchi jadid maktabini 1898-yilda Qo‘qonda Salohiddin ochdi. 1920-yili Turkistonning turli joylarida 50 ga yaqin shunday maktab tuzildi. Toshkentda 20 ta, Qo‘qonda 16 ta ana shunday jadid maktablari ochildi.

Jadidlar 1908-yilda Buxoroda ro‘znomalar nashr ettirdilar, yangi usul maktabi («Maktabi usuli jadid») tashkil qildilar, bu maktablarda din asoslari bilan birga hisob, geografiya, tabiatshunoslik va boshqa dunyoviy fanlar o‘qitilar edi. Biroq har qanday islohiy harakatlarga tish-tirnoqlari bilan qarshi turgan jaholatparastlar ig‘vosi bilan amirlik saltanati yangi uslub maktablarini yopadi. Shundan so‘ng 1909-yil 18-iyunda Buxoro jadidlari «Bolalar tarbiyasi» nomidagi yashirin jamiyat tuzdilar. Bu maxfiy jamiyat kambag‘al-yo‘qsillar uchun maktablar ochdi, ularni bepul o‘qitdi, omma orasida gazeta, jurnal va kitoblar tarqatdi. Shu harakatlari bilan mehnatkash xalq fikrini uyg‘otishda katta hissa qo‘shdi. «Bolalar tarbiyasi» jamiyatidagi ma‘rifatparvar jadidlar tashabbusi bilan 1912-yilda gazetalar nashr etildi.

Jadid maktablarini bitirgan o‘nlab yoshlar ana shu jamiyat orqali musulmon Sharqining Istanbul, Anqara, Qohira, Makka shaharlariga o‘qishga yuborildi.

Savol: Jadidlar Oktabr to‘ntarishini qanday kutib oldilar va Turkiston birligi uchun qanday kurashdilar?

Javob: Shuni ta‘kidlash joizki, 1917-yilgi Oktabr to‘ntarishidan keyingi kunlardan oq Sidqiy Ajziy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Tavallo, Abdulla Qodiriy va boshqa jadidlar unga o‘z munosabatlarini ochiq bildirganlar, madaniyat va maorif sohasida samarali faoliyatlarini davom ettiraverganlar. Shu tariqa turkistonliklar birdamligiga muhim qadam qo‘yildi. Tarixda ilk bor Umumturkiston miqyosida musulmonlar syezdi chaqirildi. Unda xalqlarning

muxtoriyatga qat'iy intilishi, o'z urf-odatları, turmush tarzini himoya qilishi aytili. Bu manfaatlar ifodachisi sifatida Turkiston musulmonlari Markaziy Sho'rosi tashkil etildi. Albatta, buni jamiyatdagi ilg'or kuchlarning yutug'i sifatida qaramoq kerak.

Shunday qilib, Turkiston birligi uchun kurashda salmoqli hissa qo'shgan o'lka musulmon sho'rosining tashkil etilishi va dasturiy hujjatlarining qabul qilinishi, avvalo, Turkistonda milliy-ozodlik harakati erishgan ma'lum darajadagi yutuqlar ongda yetuklikdan guvohlik berar edi.

Turkiston birligi g'oyasi unda istiqomat qilib kelgan xalqlarning azaliy orzusi edi. Bugungi kunda bu g'oya barcha xalqlarimiz uchun mushtarak bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 5-mayda bo'lib o'tgan ikkinchi sessiyasida Prezidentimiz Islom Karimov shunday degan edi: «Markaziy Osiyoda faollik qilayotgan jamoatchilik bizga ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan tarixiy birlik tuyg'usini, muqaddas Turkiston tuyg'usini qaytadan tiklashi, xalqlarimiz qalbiga payvand etishi maqsadga muvofiq bo'lur edi».

Jadidchilik harakatining uchinchi bosqichi 1917-yildan boshlab 30-yillargacha davom etdi. Bu davrda jadidlar ahvoli yanada murakkablashdi. Tarixiy manbalardan shu narsa ma'lumki, jadidlar yangi maktablar ochish, til va adabiyotni isloh qilish, matbuot erkinligi, teatrlar tashkil qilish uchun kurash olib bordilar. Afsuski, jamiyat hayotining barcha sohalarini siyosatlashtirish, subyektivizmga haddan tashqari berilish natijasida jadidchilikka panturkizm, panislomizm va millatchilik tang'asi bosildi. Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir singari o'nlab millat gullari millatsevarligi uchun qatag'on qilindi. Salkam bir yarim asrlik mustamlaka va mustabidlik davrida Vatanimiz tarixi soxtalashtirildi. Xalqimizni o'z tarixiy xotirasidan judo qilish uchun katta kurash ketdi.

Ammo jadidlar chor hukumati davrida ham, bolsheviklar davrida ham ro'shnolik ko'rmadilar. Ularga millatchi,

jamiyatga yot unsurlar tamgʻasini bosishdi. Aslida ular har qanday etnik inson jamoasining tabiiy ehtiyoji boʻlgan, milliy mustaqillik tarafdorlari, milliy qahramonlar boʻlib, tazyiqdan qutulishning bosh yoʻli xalqni oʻqitib, bilimli, maʼnaviyatli qilishdan iborat, deb qaragan edilar.

Savol: Mahmudxoʻja Behbudiy kim edi?

Javob: Turkiston jadidlarining yirik namoyandasi Mahmudxoʻja Behbudiy Turkiston yoshlarini maʼrifatli qilish toʻgʻrisidagi gʻoyalarni targʻib qilib, ular har tomonlama maʼlumotli, madaniyatli kishilar, diniy murabbiylar sifatida islomning sofligini muhofaza qilishlari, ikkinchi tomondan esa, dunyoviy bilim egalari boʻlib, ijtimoiy hayotda musulmonlar manfaatlarini himoya qilishlari kerak, degan gʻoyani ilgari suradi.

Mahmudxoʻja Behbudiy butun ongli faoliyati davomida faqat xalq manfaatlarini himoya qildi, xalqni baxtiyor etish, farzandlarini savodxon qilish uchun kurashdi. 1914-yilda yozilgan «Yoshlarga murojaat» maqolasida «...islomiyat shunday diniy metin va qobili taraqqiyotdurki, naqadar ilmi zamonaviy koʻp oʻqilsa, insonning dini islomga shuncha aqidasi boʻlur... hatto lozim boʻlganda mulkingizni sotsangiz, oʻgʻlingizni zamoncha oʻqimogʻi sagʻiy qilingiz», deb taʼkidlaydi. Mahmudxoʻja Behbudiy Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlogʻida ruhoniy oilasida tugʻilgan. Otasi Behbudxoʻja turkistonlik, Ahmad Yassaviy avlodlaridan boʻlgan. Otadan yosh yetim qolgan Mahmudxoʻja togʻalari qoʻlida tarbiya topadi, qozixonada mirzalik qiladi, Samarqand va Buxoro madrasalarida tahsil koʻradi, soʻngra qozi, mufti darajasigacha koʻtariladi. Behbudiy dunyoqarashining shakllanishida jadidchilik harakatining asoschisi Ismoilbek Gʻaspiralining xizmati katta boʻlgan.

Behbudiy 1899—1900-yillarda haj safariga boradi. Safar yangi maktab haqidagi qarashlarini mustahkamlaydi. Uning tashabbus va gʻayrati bilan Samarqand atrofidagi qishloqlarda yangi maktablar tashkil topa boshlaydi. Adib maktablar uchun «Risolai asbobi savod» (1904), «Risolai jugʻrofiya

umroniy» (1905), «Risolai jugʻrofiya Russiy» (1905), «Kitobat ul-atfol» (1908), «Tarixi Islom» (1909) kabi darsliklar tuzadi. Behbudiy 1911-yilda oʻzbek dramachiligining birinchi namunasi «Padarkush» asarini yaratdi. Asar 1914-yilda sahnaga qoʻyildi va millatdoshlarga chaqmoqdek taʼsir etdi.

Behbudiy 1913-yildan matbuot ishlari bilan shugʻullandi. «Samarqand» gazetasi, «Oyina» jurnallarini chiqardi. «Nashriyoti Behbudiy» nomli nashriyot ochdi, kutubxona tashkil etdi. 1914-yilda ikkinchi bor Sharq mamlakatlariga sayohat qildi. Sayohat xotiralari «Oyina» jurnalida bosildi. Tilshunoslik, adabiy tanqidga, ijtimoiyotga oid yuzlab maqolalar yozdi. Behbudiy XX asr boshidagi Turkistonning yirik siyosiy arbobi edi.

Vatan taqdiri kun tartibiga qoʻyilgan 1917-yilda Toshkentda boʻlib oʻtgan Turkiston musulmonlarining oʻlka qurultoyida hayajonli nutq soʻzlagan Behbudiy oʻzaro ixtiloflardan voz kechishga, buyuk maqsad yoʻlida birlashishga chaqirdi, xuddi shu ixtiloflarimiz sababli «mustamlaka qoidasi ila bizni idora eturlar», deb ochiq aytdi. Xuddi shu yili Qoʻqonda eʼlon qilingan «Turkiston muxtoriyati»ning maʼnaviy otasi, shubhasiz, Behbudiy edi. Afsuski, muxtoriyat sovetlar tomonidan xoinona bostirildi: 10 ming turkistonlik oʻldirildi, 180 qishloq toʻpga tutildi. Voqeadan larzaga tushgan Behbudiy iztirob bilan Samarqandga qaytdi, u yerda tura olmay, Toshkentga keldi, hukumat rahbarlari bilan muzokara yuritishga urindi, bu natija bermadi. Orzulari chilchil boʻlgan Behbudiy 1919-yili haq-huquq istab dunyo jamoatchiligiga murojaat qilish niyati bilan yoʻlga chiqdi va Shahrisabzda qoʻlga olinib, Qarshida qatl etildi.

Bu yerda oʻqituvchi M. Behbudiyning «Padarkush» dramasidagi Tangriqul va Toshmurod obrazlariga qisqacha tavsif berib, quyidagi parchani keltiradi:

«Ziyoli odamlarga qarab: ilm va tarbiyasiz bolalarning oqibati shuldir. Agarda bularni otasi oʻqitsa edi, bu jinoyat va padarkushlik alardan sodir boʻlmas va bular ichkilikni

bo'yla ichmasdi, xun beg'ayri haqqin qilmas edi. Umri boricha Sibir va bandga va qiyomatga, jahannamga qolmas edi... Oh, haqiqatda boyni o'ldirgan va yigitlarni azobi abadiyga giriftor qilgan beilmlikdir. Bizlarni xonavayron, bachagiryon, bewatan va bandi qilg'on tarbiyasizlik va jaholatdir; bewatanlik, darbadarlik, asorat, faqir va zarurat va xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir. Dunyog'a taraqqiy qilgan xalq ilm vositasi ila taraqqiy qiladi. Asir va zabun bo'lganlar-da beilmlikdan. Modomiki, bizlar tarbiyasiz va bolalarimizni o'qitmaymiz, bul tariqa yomon hodisalar va badbaxliklar oramizda doimo hukmfarmo bo'lsa kerak. Bu ishlarning yo'q bo'lmog'iga o'qimoq va o'qitmoqdan boshqa iloj yo'qdir».

Behbudiyning bu so'zlarini hozirgi zamonga moslab, o'quvchilarning fikrlarini eshitadi.

Savol: Turkistonda ilm-ma'rifatni targ'ib qilishda Munavvarqori Abdurashidxonovning qanday o'rni bor?

Javob: XX asr boshlarida, bir tomondan, o'lkada chor hukumati manfaatlariga muvofiq keladigan ma'naviy qashshoqlik, ikkinchi tomondan, mahalliy burjuaziya va diniy aqidaparastlarning ta'siri muhitida «usuli jadid» maktablarining ochilishi ulkan ijtimoiy-siyosiy hodisa bo'lgan. Shunday maktablarga mo'ljallab yaratilgan dastur mualliflaridan biri, M. Behbudiyning hamfikrlaridan Munavvarqori Abdurashidxonov bo'lib, unda o'nta fan o'rganilishi nazarda tutilgan edi.

Umuman, Munavvarqori Abdurashidxonov ham «usuli savtiya» maktabiga ixlos bilan qarab, chor hukumati Turkiston o'lkasidagi aholini ma'naviy-madaniy qoloqlikda saqlayotgani va undan qutulish choralari faqat maktab ta'lim-tarbiyasidagi keskin islohotga bog'liqligini to'g'ri tushungan holda chor hukumatining mustamlakachilik boshqaruv usuliga qarshi kurashda faollik ko'rsatdi. Shu maqsad yo'lida Toshkentda ilg'or fikrli ziyolilar va turli guruhlardan 1918-yil may oyida «Turk o'chog'i» ilmiy-madaniy jamiyatini tuzdi. Ushbu jamiyat Turkiston turkiylarini milliy bayroq

ostida birlashtirib, ularga milliy ruh, milliy g'oya va milliy tarbiya berish, milliy urf-odatlar asosida umumiy turk madaniyatini vujudga keltirish, shu tariqa millatimizning ruhiy va jismoniy quvvatini orttirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

«Millat. Vatan. Ma'naviyat. Shunga o'xshash so'zlarni bilmoq bilan ziyoli bo'lmaydilar. Maorif va madaniyat bog'chasi birinchi darvozasi maktabdur. Teatr sahnasi har tarafi oynaband qilingan bir uyga o'xshaydurki, bunga har kim kirsam o'zining husni qabihini, ayb-u nuqsonini ko'rub ibrat olur va bu sahnada ko'zguga yomon ko'ringan past odatlardan va buzuq axloqlardan uzr qilmoqqa harakat qilur. Jannat kabi go'zal yurtning bugun sendan ish kutadir. Hurriyat berilmas, olinur», deb yozgan edi Munavvarqori.

Munavvarqori Abdurashidxonov adib, murabbiy, muharrir, ijtimoiy-siyosiy arbob, Turkiston mustaqilligining qizg'in kurashchilaridan biri. U 1878-yilda Toshkentning Shayxontohur mahallasida mudarris oilasida tug'ildi. Onasi Xosiyatxon qo'lida savod chiqardi. Toshkentda (Yunusxon madrasasida), Buxoroda o'qidi. XIX asr 90-yillari oxiridan jadidchilik harakatiga yaqinlashdi. 1901-yilda Toshkentda «usuli jadid» maktabini ochdi. Bu maktablar uchun «Adibi avval» (1907), «Adibi soniy» (1907) kabi alifbo va xrestomatiyalar, «Tajvid al-Qur'on» («Qur'on qiroati»), «Yer yuzi» («Geografiya») singari qo'llanmalar tuzib nashr etdi. Bolalar uchun o'nlab she'riy va nasriy hikoyatlar yozdi.

1917-yil fevral o'zgarishidan keyin milliy davlatchilik an'analariga asoslangan Turkiston hukumatini tuzish g'oyasini ilgari surdi. «Xurshid», «Najot», «Kengash» gazetalarini chiqardi, «Sho'roi islomiya» jamiyatining asoschisi va rahbari sifatida tanildi, Turkiston muxtoriyatini qo'llab-quvvatladi.

Munavvarqori — Turkistonda zamonaviy oliy tahsilni yo'lga qo'yganlardan. U, xususan, hozirgi Toshkent Davlat universitetining muassislaridan edi. 1918-yilning aprelida uning tashabbusi bilan Turkiston Xalq dorilfununining

musulmon bo‘limi tashkil qilindi, Munavvarqori rais (rektor) bo‘lib ishladi, ona tilidan dars berdi.

20-yillarning o‘rtalaridan jadidchilikka munosabat o‘zgara boshlagach, Munavvarqoriga ham hujum boshlandi. Shunga qaramasdan, u o‘z yo‘lidan qaytmadi. 1927-yilda Toshkent okrug madaniyatchilarining qurultoyida jadidchilikni himoya qilib chiqdi, 1929-yilda millatchilikda ayblanib, qamoqqa olindi. 1931-yilda qatl etildi.

Savol: Abdurauf Fitrat faoliyatida ilm-ma’rifat g‘oyalari qanday o‘rin tutadi?

Javob: Abdurauf Fitrat: «Vatan u mening jon-u tanim, sajdagohimdir. U mening to‘lin oyim, tinch-omonligim, izzatim, sharafim. Ka’bam, qiblam hamda gulistonimdir. Hech shubha yo‘qki, odamlar har xil din va mazhabdan, har xil qabila va millatdan bo‘lsalar ham, bir otaning va yagona jinsning farzandi. Boshqacha qilib aytganda, bir-birlarining aka-ukalaridir. Shunday ekan, ular o‘zaro umumiy birodarlikni yuzaga keltirishlari kerak. Rahbarim — fan, payg‘ambarim bilimdir», — deya xitob qiladi.

XX asr o‘zbek adabiyotining mashhur namoyandasi, Turkiston jadidchilik harakatining g‘oyaviy rahbarlaridan bo‘lgan A. Fitrat 1884-yilda Buxoroda savdogar oilasida tug‘ilgan. Otasi Abdurahimboy o‘qimishli, dunyoning baland-pastini biladigan kishi bo‘lgan. Abdurauf eski maktabda, so‘ng Mirarab madrasasida tahsil ko‘rdi. «Mijmar» taxallusi bilan she’rlar yozdi. 1909—1913-yillarda Istanbul dorilfununida o‘qidi. «Munozara» (1909), «Sayha» nomli kitoblarini chop qildirdi. «Sayha» to‘plamidagi she’rlarida Buxoro mustaqilligi g‘oyasini birinchi marta juda yorqin ifodalab berdi.

Fitrat Buxoro inqilobining g‘oyaviy-tashkiliy rahbarlaridan, keyin esa Buxoro xalq jumhuriyatining muassislaridan biri, siyosiy arbob sifatida ham shuhrat topdi.

Fitrat bu davrda yaratgan ko‘plab asarlari bilan yangi o‘zbek fani va madaniyatining bir qator yo‘nalishlariga yo‘l ochdi, xususan, O‘rta Osiyo xalqlarining boy va qadim

madaniy merosini har tomonlama izchil va chuqur oʻrganishni boshlab berdi, oʻzbek — tojik adabiy-madaniy yodgorliklarining mushtarak jihatlariga diqqatini qaratdi. Sovet hukumati tomonidan panturkist, millatchi, josus sifatida ayblanib, 1937-yilda qamoqqa olindi va 1938-yilda qatl etildi.

Savol: Abdulla Avloniyning maʼrifatchilik faoliyati qanday boʻlgan?

Javob: Abdulla Avloniy 1878-yilning 12-iyulida Toshkentda Mergancha mahallasida toʻquvchi oilasida tugʻildi. Otasi Miravlon aka asli qoʻqonlik edi. Yosh Abdulla eski maktabda savod chiqardi, bir muddat Shayxontohurdagi Abdumalikboy madrasasiga qatnadi. 90-yillardan sheʼr yozishga tutindi. 1904-yilda Mirobodda jadid maktabi ochib, dars berdi. 1909—1917-yillarda «Birinchi muallim», olti qismdan iborat «Adabiyot yoxud milliy sheʼrlar», «Turkiy Guliston yoxud axloq» kabi darsliklar yozdi. Ayniqsa, soʻnggi asari bolalarda milliy ong va axloqni shakllantirishda bugungi kun uchun ham gʻoyat ahamiyatlidir. Avloniy «Hijron» taxallusi bilan yozgan oʻnlab sheʼrlari anʼanaviy sheʼriyatimizning yangilanishida katta xizmat qildi.

Avloniy 1909-yilda turli xayriya jamiyatlari, shirkatlar tashkil etib, oʻlkaning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol qatnashib keldi. 1917—1918-yillarda Turkiston hayotida yuz bergan oʻzgarishlarda ishtirok etdi, sovet hokimiyatining xalqni fojialar girdobiga tortayotganini anglab yetdi va buni ayrim sheʼrlarida ifodaladi. 1919—1920-yillarda RSFSR ning Hirotdagi muxtor elchisi boʻlib turdi. Adib oʻz safar taassurotlari — «Afgʻon sayohati»da qizil saltanatdagi ish tizimining chor istilochilik siyosatidan zarracha qolishmasligini oshkora aytdi. 20-yillarda Oʻzbekiston oliy taʼlimini yoʻlga qoʻyishda qatnashdi. Oʻrta Osiyo Davlat universitetida til-adabiyot kafedrasini mudiri (1930), professor boʻlib ishladi. Ayni paytda maktablar uchun darsliklar tuzishni davom ettirdi. 1933-yilda VII sinf uchun «Vatan xrestomatiyasi»ni tuzdi. 1934-yil 25-avgustda vafot etdi.

Savol: Abdulhamid Cho‘lponning ma‘rifatparvarlik g‘oyalari nimalardan iborat edi?

Javob: Abdulhamid Cho‘lpon. Cho‘lpon — tong yulduzi ma‘nosini bildiradi. Bu Abdulhamid Sulaymon o‘g‘lining adabiy taxallusidir. Cho‘lpon 1897-yilda Andijonda tug‘ildi. Maktab — madrasa, so‘ng rus-tuzem maktabida o‘qidi. 1914-yildan «Andijon», «Qalandar», «Mirzaqalandar», «Cho‘lpon» taxalluslari bilan vaqtli matbuotda maqola va hikoyalari chiqa boshladi.

1917-yildan davrning shiddatli voqealari Cho‘lponni o‘z bag‘riga oladi. Fitrat «Hurriyat» gazetasi bilan aloqa bog‘laydi. Zakiy Validiy bilan Boshqirdistonda, 1920-yilda Buxoro jumhuriyat matbuot organlarida ishlaydi. So‘ngra O‘zbekiston Xalq Komissarlari Soveti tomonidan Moskva-ga yuboriladi va tarjimon bo‘lib faoliyat ko‘rsatadi. Shu yillari «Uyg‘onish» (1922), «Buloq» (1924), «Tong sirlari» nomi bilan she‘riy kitoblari bosildi. «Xalil farang», «Cho‘lpon sevgisi», «Cho‘rining isyoni», «Mushtumzo‘r», «O‘rtoq Qarshiboyev», «Hujum», «Yorqinoy» (1926) kabi dramalari ketma-ket sahnaga qo‘yildi, ayrimlari bosilib chiqdi. Navoiy, Fuzuliy, Tagor, Furqat, H. Jovid haqida maqolalari e‘lon qilindi.

1927-yildan matbuotda Cho‘lponga qarshi hujum boshlandi. O‘sha yili oktabrda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston madaniyat xodimlarining 2-qurultoyida Cho‘lpon majlisdan haydab chiqarildi. Keyingi o‘n yil xorliklar, zorliklar, tahqir-u iztiroblar bilan kechdi. U og‘ir vaziyatda «Soz» to‘plamini nashr ettirib (1935), zamonasozlik qilishga majbur bo‘ldi, oldingi fikrlaridan qaytganini e‘lon qildi. Shunday tang-u tor sharoitda «Kecha va kunduz» romanini yozib, chop ettirdi (1936), Shekspirning «Hamlet», K. Gotsining «Malikai Turandot», Pushkin, Gorkiyning asarlarini o‘zbekchaga katta mahorat bilan tarjima qildi.

Cho‘lpon adabiyotning juda ko‘p tur va janrlarida ijod etgan bo‘lsa-da, ko‘proq shoir sifatida shuhrat topdi. U XX asr o‘zbek adabiyotining zabardast vakilidir. Uning 20-

yillarda to'plamlarda bosilib chiqqan va bugun ma'lum bo'lgan she'rlari u qadar ko'p emas. Lekin ular o'zbek ziyolilariga chaqmoqdek ta'sir qilgan va butun adabiyotni o'z izmiga olgan edi. Cho'lpon 1937-yilda qamoqqa olinib, 1938-yilda qatl etildi.

Savol: Abdulla Qodiriy ijodida ilm-ma'rifatni tashviq qilish qanday o'rin tutgan?

Javob: Abdulla Qodiriy. U o'zbek adabiyotining ulkan namoyandalaridan biri, o'zbek romanchiligining asoschisidir. U 1894-yilda Toshkentda tug'ildi. Eski usul maktabida, rus-tuzem maktabida, so'ng Abulqosim madrasasida o'qidi. 1910-yillarning o'rtalaridan «Julqunboy», «Dumbulboy», «Jiyan», «Ovsar», «Shilg'ay», «Shakkok» kabi taxalluslar bilan vaqtli matbuotda she'r va hikoyalari chiqa boshlagan. «Millatimga», «Ahvolimiz» she'rlari, «Juvonboz» hikoyasi, «Baxtsiz kuyov» dramasi yozdi. Uning oktabr o'zgarishlaridan keyingi faoliyati, asosan, matbuot bilan bog'langan: «Oziq ishlari», «Rosta», «Ishtirokiyun», «Qizil bayroq» gazetalarida; «Inqilob», «Kommunist yo'ldoshi» jurnalida ishlagan, «Mushtum» jurnali (1923) ning asoschilaridandir. 1919—1925-yillarda matbuotda «Matbuot kuni», «G'irvonlik Mallavoy», «Ravot qashqirlari», «Bizda teatr ishining borishi» kabi yuzlab maqola va hikoyalar e'lon qildi. Abdulla Qodiriy yozuvchi sifatida elga tanitgan ilk asarlari «Kalvak mahzumning xotira daftaridan», «Toshpo'lat tajang nima deydi» hajviy qissalaridir. Abdulla Qodiriy ijodiy faoliyatining ilk qadamlaridanoq millatining taqdiri ustida qayg'urdi, uning uchun najot yo'lini izladi. Avvaliga u yangi hukumatga ishondi, biroq mustamlaka siyosati mohiyat e'tibori bilan o'zgarmay qolayotganini, sho'rlik xalq bu qonli siyosatning qurboni bo'layotganini ko'rdi. Ayniqsa, Qo'qon muxtoriyatining qonga botirilishi uni larzaga soldi. Qodiriy 1919—1920-yillarda «O'tkan kunlar» romanini yozdi, xalq ongini uyg'otmoqchi bo'ldi, «tariximizning eng kirlik qora kunlari», yurtni mustamlaka balosiga giriftor etgan keyingi «xon zamonlari» — XIX asr o'rtalaridagi tarixiy haqiqatni

badiiy chizib berdi. Ikkinchi yirik asari «Mehrobdan chayon» 1928-yilda yozilgan. 1934-yilda qishloq hayotidan «Obid ketmon» qissasini yozdi. Unda kollektivlashtirish harakatining bir qancha tomonlarini haqqoniy ko'rsatdi. Ichki ziddiyatlarni ochib berdi, ehtimol tutilgan xatarli oqibatlardan ogohlantirdi, kolxoz tuzumi pirovardida odamlardagi tashabbusni, manfaatdorlik tuyg'usini so'ndirishini aytdi. Bu asar ham sho'ro mafkurachilari kutgan asar bo'lib chiqmadi. Matbuotda Qodiriyga yana hujum boshlandi. 1937-yil hibsga olindi. To'qqiz oylik qiynoqdan so'ng 1938-yil qatl etildi.

Shundan so'ng o'qituvchi o'quvchilarning javoblarini umumlashtiradi, baholaydi va darsni quyidagicha yakunlaydi.

1. Jadidchilik oqimi o'z g'oyalarni keng xalq ommasiga yetkazish niyatida yangi o'zbek adabiy tilini ishlab chiqish, matbuot hurligi uchun kurash, xalq ommasiga tushunarli adabiyot va teatr yaratishni belgilab berganligi diqqatga sazovordir.

2. Xotin-qizlarni paranjidan chiqarish va jadid maktablariga qatnashlarini ta'minlash yo'li bilan ular taqdirini o'zgartirish va oilada islohot o'tkazish, mahalliy boylar va savdogarlarning siyosiy va iqtisodiy jihatdan rus burjuaziyasi bilan bir huquqda bo'lishi uchun, mahalliy amaldorlarning chor hukmdorlari tomonidan siquvga olinishiga qarshi kurash, shu yo'l bilan mustamlakachilik siyosatini isloh qilish ular dasturining markazida bo'ldi.

3. Jadidlarning asosiy maqsadlari ilm va ma'rifatni egalashga da'vat qilish bo'lib, Turkistonda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot uchun kurashga chorladi. Istilochilar va mahalliy mustabidlar oyog'i ostida toptalgan Turkistonni savodli, ma'rifatli, taraqqiyotga erishgan, obod, mustaqil mamlakatga aylantirish ularning g'oyaviy maqsadi edi.

4. Umuman, jadidchilik Turkistonda hukm surgan feodal munosabatlarga qarshi oqim bo'lib, xalqni Vatan musta-

qilligi va taraqqiyoti uchun islohotlar o'tkazish, ziyoli va taraqqiyparvarlarni, boy va ulamolarni birlashtirishga undaydi.

5. Avvalo, jadidchilik harakati va g'oyalarning asosini Turkistonning o'zida vujudga kelgan tarixiy, ijtimoiy-siyosiy vaziyat va sharoitlardan izlamoq kerak. Ma'lumki, Turkiston Sho'ro to'ntaruviga qadar ham, undan keyin ham istibdod tuzumi ostida bo'ldi. Binobarin, jadidlarning bosh g'oyalari ham ana shu istibdoddan qutulish va mustaqillikni qo'lga kiritish maqsadi bilan bog'lanib ketadi.

«Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida aytilganidek: «Tariximizning qaysi davrini olmaylik, yurtimizda ilm-u ma'rifat va yuksak ma'naviyatga intilish hech qachon to'xtamaganini, xalqimiz dahosining o'lmas timsoli sifatida eng og'ir va murakkab davrlarda ham yaqqol namoyon bo'lib kelganini ko'rishimiz mumkin. Masalan, chorizm mustamlakasi davrida ma'rifat g'oyasini baland ko'tarib chiqqan jadid bobolarimizning faoliyati bunga yana bir yorqin misol bo'la oladi».

Xulosa o'rnida shu narsani ta'kidlash joizki, Turkiston zaminida vujudga kelgan milliy uyg'onish vakillari, ya'ni jadidlarning ko'pchiligi maorif sohasida islohotlar o'tkazish, yangi usul maktablari tashkil etish, turkistonliklar uchun qisqa muddatda rivojlangan, madaniyatli va farovon turmushni barpo etishga harakat qildilar. Ularning ezgu amallari, ilg'or g'oyalari avlodlar tomonidan davom ettirilib, ularni taxminan 130 yildan keyingina amalga oshirish imkoniyati paydo bo'ldi.

Xullas, ma'rifatparvarlik va jadidchilik harakati Turon-zamin xalqlari ozodligi va mustaqilligi, milliy ravnaqi yo'lida muayyan bosqich bo'lib, xalqimiz ma'naviyati va madaniyati tarixidan alohida o'rin oladi.

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR

Jadidchilik, rus-tuzem maktablari, «Faxriy mutavalli», I. G'aspirali, «Bolalar tarbiyasi», Behbudiy, «Padarkush» M. Abdurashidxonov, A. Fitrat, A. Avloniy, A. Cho'lpon, A. Qodiriy, Qo'qon muxtoriyati, Turonzamin.

12-§. OILA MA'NAVIYATI VA MAHALLA MUHITI — MILLIY TARAQQIYOTIMIZ KAFOLATLARI

Oila

Inson ma'naviyatining shakllanishida oila ham juda katta o'ringa egadir. Oila — nikohga yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a'zolari ro'zg'orining birligi, o'zaro yordami va ma'naviy mas'uliyati bilan bir-biriga bog'langan. Oila jamoa-urug'chilik tuzumining yemirilishi bilan barqaror uyushma bo'lib yuzaga keldi. Monogamiyaning dastlabki tarixiy shakli patriarxal oila bo'lgan va oilani ota boshqargan. Oila ham jamiyat taraqqiyotiga va oila a'zolari o'rtasidagi mehnat taqsimotiga qarab mohiyatini o'zgartirib turadi. Sharq oilasi G'arb oilasidan farq qiladi.

Haqiqiy sevgi, muhabbat asosida qurilgan oilalar ko'p. Ba'zan hisob-kitob asosida, mulkiy munosabatlar asosida ham oila qurganlar uchraydi. Shu sababli oila buzilishlari ham ko'pdir.

Oilada doimo ahillik, totuvlik bo'lishi lozim. Agar bu narsa bo'lmasa, oilaga putur yetadi. Uning majburiyatlari buziladi. Oila rasmiy tus olgan taqdiridagina, er-xotin oldida, xotin eri oldida, ularning ikkovlari farzandlari oldida, farzandlari ota-onalari oldida mas'uliyatli va burchli bo'ladilar. Oiladagi ma'naviyat deyilganda er-xotin, ota-ona va bolalar o'rtasida o'zaro hurmat, mehr-muhabbat, shafqat, mehr-oqibat, odob-axloq, ta'lim-tarbiya va boshqa insoniy tuyg'ular ko'zda tutiladi.

Oilaning birinchi vazifasi o'z nasl-nasabini davom ettirishdan, solih va soliha farzandlarni tarbiyalashdan, oila a'zolarining tirikchiligini, bo'sh vaqtini ko'ngilli o'tkazishdan iboratdir. Aholi soni ma'lum muayyan ko'rsatkichda bo'lib turishi uchun, olimlarning hisoblashicha, har 100 oilaga 260 ta bola to'g'ri kelishi kerak. Aniqrog'i, 100 oiladan 60 tasida 3 tadan, 40 tasida 2 tadan bola bo'lishi lozim. Olimlar hisoblariga ko'ra, agar har bir oila bittadan farzand ko'rsa, 8-avlodga kelib, ya'ni 200 yildan keyin bu xalq millat sifatida yo'q bo'lib ketishi mumkin ekan.

Ma'lumki, oila jamiyatning birlamchi bo'g'inidir. Jamiyat ana shu bo'g'inlardan tashkil topadi. Lekin u shunchaki bo'g'in emas, tirik vujudlar ittifoqidir. Har bir tirik vujudning o'zi alohida bir olam. Oila — ota-ona va ularning bola-chaqalari, eng yaqin tug'ishganlaridan iborat kishilar guruhi, boshqacha aytganda, xonadondir. Oila odamlarning tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy munosabatlarga asoslangan ijtimoiy birligidir. Tabiiy munosabat deyilganda bola-chaqali bo'lish, iqtisodiy munosabat deyilganda mulkiy munosabatlar — uy-ro'zg'or, hovli-joy, boshpana; huquqiy munosabat deyilganda nikohni davlat yo'li bilan qayd etish nazarda tutiladi.

Oilaviy munosabatlar

Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa bo'lib, oilaning ichki ishlariga hech kim huda-behuda aralashishga haqli emas. Shu sababli oila muqaddas va daxlsiz hisoblanadi. Ramziy qilib aytsak, oila o'ziga xos kichik bir muxtor davlatdir. Lekin oila osmondan tushmaydi, oila jamiyat tashqarisida emas, uning tarkibidadir. Oilaviy munosabatlar jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy va ma'naviy munosabatlar bilan belgilanadi hamda ular ta'sirida o'zgarib boraveradi.

Xalqimizda, nikoh eng avvalo, Arshi a'loda o'qilur, keyin esa yerda, deb behuda aytilmagan. Ota-bobolarimizning azaliy tushunchalari bo'yicha, nikoh — ilohiy ahd, oila — muqaddas. «Xotinlaringiz ziroatgohingizdir», — deyiladi Qur'oni Karimning Baqara surasi 223-oyatida. Bu so'zlar bilan oila tuzishdan birinchi muddao — farzand ko'rish ekaniga ishora qilinmoqda.

Bola tarbiyasida otaning qattiqqo'lligi, onaning mehribonligi hal qiluvchi omillardandir. Oiladagi umumiy sog'lom iqlim mehr-muhabbat, oqibat, o'zaro hurmat, tinch-totuvlik ota-onaning bilim saviyasi, iymon-e'tiqodliligi, pul va puldorlikka, moddiy va ma'naviy boylikka munosabati va shu kabi ko'pgina narsalarga bog'liq.

Ma'naviyatsiz moddiy farovonlikka ham, umumtaraqqiyotga ham erishib bo'lmaydi. Ma'naviy qashshoqlik milliy tanazzulga olib boradi. Nohalol ayoldan halol farzand dunyoga kelmaydi. Umuman, nopok ayolni Ona deya sharaflab bo'lmaydi. «Qush uyasida ko'rganini qiladi»,— degan maqol behuda aytilmagan.

O'zbek oilasining o'ziga xos axloqiy mezonlari bor. Avvalo, ertalab barvaqt turish shart. Rizqi ro'z tongda ulashiladi, deyiladi. Barvaqt turilgan kuni ish, o'qishning unumli bo'lishi hammamizga ma'lum. Ikkinchidan, yuz-qo'lni yuvmasdan hol-ahvol so'ralmaydi, yuz-qo'l yuvilgandan keyingina kichiklar kattalarga salom beradilar. Ayollar nonushta hozirlaydilar. Qizlar, kelinlar hovlini, ko'chani supurib, suv sepib qo'yadilar. Dasturxonga birinchi bo'lib oilaning yoshi ulug'i qo'l uzatadi.

Ish yoki o'qishga oilaning yoshi ulug'idan fotiha olib ketiladi. Qaytganda ham ularga uchrashilib, salom beriladi. Ular bunday hurmatdan mamnun bo'lib, yoshlarni duo qiladilar. Shuning uchun ham oilani rohat-farog'at, tinchlik-xotirjamlik maskani deydilar.

Oila — millat parvozi uchun maydon. Oilaga qadimdan juda katta e'tibor qaratilgan. Qadimgi Yunon faylasufi Aflotun oila tashkil qilishda yigit qanday oilada tarbiya topgan qizga uylanajagini, qizning ota-onalari esa qanday oilalarga qizlarini berayotganlarini yaxshi bilishlari kerak, deb hisoblagan. 35 yoshgacha turmush qurmagan odam jamiyatda albatta «bo'ydoqlik» bojlarini to'lashi kerakligini Aflotun qonun tariqasida joriy ettirgan. Arastu fikricha esa oila — bu odamlar muloqotining dastlabki ko'rinishi bo'lib, oilalar majmuidan davlat kelib chiqqan. Hadislarda: «Eng yaxshi sadaqa — kishining o'zidan keyin boylik qilib qoldirgan narsasidir va, eng avvalo, o'zing boqadiringan kishilarga (ahli ayoling) xarj qilgin», — deyiladi va oilaning mustahkamligini ta'minlashning iqtisodiy asosiga alohida e'tibor qaratiladi.

Oila va jamiyat bir-biriga bog'liq bo'lib, jamiyatning o'zi ham oilalardan tashkil topgan. «Hammamizga ayon bo'lishi tabiiyki, oila sog'lom ekan — jamiyat mustahkam, jamiyat

mustahkam ekan – mamlakat barqarordir», – deyiladi «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» kitobida.

**Oilaning ma’naviy
va huquqiy
asoslari**

Oilaning ma’naviy va huquqiy asoslari Konstitutsiyamizda belgilab qo’yilgan. Asosiy Qonunning 63-moddasida: «Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega», – degan qoida mavjud. Oila huquqi — nikoh tuzish va nikohni bekor qilish tartibi va shartlari; er-xotin, ota-ona bilan bolalar o‘rtasidagi shaxsiy va mulkiy munosabatlar; farzandlikka olish, vasiylik va homiylik, bola asrab olish tufayli kelib chiqadigan munosabatlar; fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish tarzini belgilaydigan huquqiy me‘yorlar yig‘indisidir. O‘zbekiston Respublikasi oila huquqining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

— oila jamiyat va davlat muhofazasida; barcha fuqarolar: jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida teng;

— ayol bilan erkak oilada teng huquqqa ega;

— faqat yakka nikohlilikni tan olish va uni mustahkamlashda yordam berish;

— ixtiyoriy va erkin nikoh;

— davlat nazorati ostida nikohdan erkin ajralish;

— davlat otalik, onalik va bolalikni muhofaza etadi va ularning manfaatlarini har tomonlama himoya qiladi;

— bolalarni milliy istiqloq g‘oyasi va mafkurasi ruhida tarbiyalash va hokazo.

1998-yil 30-aprelda O‘zbekiston Respublikasining «Oila kodeksi» qabul qilindi. U 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan BMTning «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»ga to‘la mos keladi. «Oila kodeksi» 8 bo‘lim, 238 moddadan iborat bo‘lib, unda nikoh, qon-qarindoshlik va bolalarning nasl-nasabini belgilash, ota-ona hamda voyaga yetmagan bolalarning huquq va majburiyatlari, oila a‘zolarining va boshqa shaxslarning aliment majburiyatlari,

ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish shakllari, fuqarolik holati va dalolatnomalarini qayd etish, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni tartibga solish va boshqalar o'z ifodasini topgan.

**Ota-ona va
farzandlar burchi**

Shariatimizda har bir insonning bir-biriga haq-huquqlari bor. Avvalo, er-xotinning huquqlari, so'ngra ota-ona

bilan farzand orasidagi haq-huquqlar. Ota-onaning farzand oldidagi burchlari:

1. Farzand dunyoga kelgach unga chiroyli ism qo'yish.
2. Farzandning o'ng qulog'iga azon, chap qulog'iga takbir aytish (chaqaloqdan har xil dev, ins-u jinlar daf bo'ladi).
3. Farzandga aqiqa qilish. Qurbi yetmasa shart emas.
4. Farzandga ilm (diniy va dunyoviy ilm, kasb-hunar) o'rgatish.
5. Farzand voyaga yetgach, uylantirish yoki turmushga berish.

Farzandlarning ota-ona oldidagi burchlari:

1. Muhtoj bo'lganda taomlantirmoq.
2. Xizmatini qilmoq.
3. Chaqirganda labbay deb javob bermoq.
4. Gunohdan boshqa ishlarga buyursa itoat etmoq.
5. Ota-ona bilan yumshoq muomalada gaplashmoq.
6. Ota-onani, qodir bo'lsa, libos bilan ta'minlamoq.
7. Ota-onaning orqasida yurmoq.
8. O'zi rozi bo'ladigan narsani ota-onasiga ham ravo ko'rmoq.
9. O'zi yomon ko'rgan narsani ota-onaga ravo ko'rmaslik.
10. Doimo o'zi uchun duo qilganda, ota-onani ham duo qilmoq.

Har bir ota-ona yaxshi farzand o'stirishni xohlaydi. Lekin mavjud moddiy va ma'naviy muhit ba'zi farzandlarni buzadi, yo'ldan ozdiradi. Yusuf Xos Hojib aytadi:

*O'g'il-qiz deya qiynalar er joni
Bu kulfatni bilgan o'g'il-qiz qani?*

Shuning uchun xalqimiz: «O‘g‘ling yomon bo‘lsa qad-ding bukiladi, qizing yomon bo‘lsa yetti pushtingning ruhi chirqiraydi, xotining yomon bo‘lsa, seni do‘zax azobi kutadi»,— deb bejiz aytmaydi.

Oilaning iqtisodiy va ma‘naviy asosi Oilaning iqtisodiy asosi — bu oila a‘zolari ishlab topgan, ota-onasidan meros qolgan va boshqa mablag‘lardir.

Oila har bir narsani isrof qilmasdan o‘rinli va o‘z vaqtida ishlatsa, iqtisodiy nochorlikda qolmaydi:

*Sen agar isrof etishni tashlading
Ul zamon davlat etagin ushlading.*

Oilaning ma‘naviy asosini, yuqorida aytib o‘tilganidek, ahillik, fikriy birdamlik, halollik, poklik, mehnatsevarlik, odoblilik, axloqiy tozalik, inoqlik, totuvlik, bilimga, kasb-hunarga intilish, o‘z sha‘ni-shavkatini asrash, obro‘cini saqlash, sog‘lom turmush tarzi, har qanday nopok, jirkanch, qonunga to‘g‘ri kelmaydigan ishlardan saqlanish, xushmuomalalik, mehr-shafqatli, oqibatli bo‘lish, kattalarga hurmat, kichiklariga izzat va boshqalar tashkil etadi.

Mamlakatimizda oilani mustahkamlash uchun qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. 1998-yil 2-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «Respublika «Oila» ilmiy-amaliy markazini tashkil qilish to‘g‘risida» Qaror qabul qildi. Bu Qaror Prezidentimiz tomonidan 1998-yilni «Oila yili» deb e‘lon qilinishi munosabati bilan qabul qilindi. Ushbu Qarorda «Oilaning jamiyatni o‘zgartirishdagi tutgan o‘rni va ishtirokini yanada oshirish, oilalarning huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-axloqiy manfaatlarini va farovonligini yaxshilashni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish va izchil ta‘minlash» ta‘kidlanadi. Oila manfaatlarini ta‘minlash borasidagi tadbirlar Davlat dasturi kompleks tusga ega bo‘lib, u 150 dan ortiq tadbirni o‘z ichiga oladi. 1998-yilda ushbu tadbirlarni bajarish uchun davlat budjetidan 144,8 mlrd so‘m mablag‘ ajratildi.

1999-yil «Ayollar yili» deb eʼlon qilindi va ushbu yildagi Davlat dasturida ham oilaning ustunlaridan biri boʻlgan ayollarning manfaatini himoya qilishga alohida ahamiyat berildi.

2000-yil «Sogʻlom avlod yili», 2001-yil «Onalar va bolalar» yili sifatida tarixga kirdi. Bu yillarda oilaning asosiy tayanchi boʻlgan onalar va bolalar haqida katta gʻamxoʻrlik qilindi. Oʻnlab yangi sanatoriylar, dam olish uylari, tibbiy binolar qurildi. Bolalarga katta yordam koʻrsatildi. Oʻn minglab Orol boʻyi va Xorazm viloyati bolalari yozda respublikamizning Fargʻona, Toshkent vohasidagi dam olish uylarida hordiq chiqardilar.

2002-yil «Qariyalarni qadrlash yili» deb nomlandi va oilaning koʻrki, maslahatchisi, gʻamxoʻri boʻlgan otanalarga katta hurmat koʻrsatildi.

2003-yil «Obod mahalla yili» boʻlib tarixda qoldi. Mamlakatimiz shahar va qishloqlarida guzar va mahallalar obod qilindi, koʻchatlar oʻtqazilib, ariqchalar qazildi. Yurtimizning koʻrkiga koʻrk, chiroyiga-chiroy qoʻshildi. 2004-yil esa «Mehr va muruvvat yili» deb atalib, xalqimizning birligini, jipsligini mustahkamlash, qariyalar, yetim-yesirlar, nogironlar, kam taʼminlangan oilalarga yordam koʻrsatish borasida katta ish qilindi. 2005-yil — «Sihat-salomatlik yili», 2006-yil — «Homiylar va shifokorlar yili, 2007-yil — «Ijtimoiy himoya yili», 2008-yil «Yoshlar yili», 2009-yil «Qishloq farovonligi yili» deb nomlanib, oʻzaro hurmat, oqibat mustahkamlandi.

Insoniyat yaralibdiki, doimo uyushib yashab kelgan. Chunki bir joyda uyushib yashash turli xil xavfdan himoyalaniшни osonlashtirgan. Shu sababli ovullar, qishloqlar va shaharlar paydo boʻlgan. Ayniqsa, ishlab chiqarishning oʻsishi va mehnatni tashkil etish masalasi kun tartibiga qoʻyilishi xalqning bir joyda toʻplanib yashash istiqbolini yanada rivojlantirdi. Bu hol mamlakatimiz xalqlari tarixiga ham xos boʻlib, xalqimizning turmush tarzi va tafakkurida oʻchmas iz qoldirgandir. Oʻzbek qishloqlarida turli marosim va

to‘ylarni o‘tkazish uchun oqsoqollar muhim rol o‘ynagan. Qishloq oqsoqoli obro‘li, halol inson bo‘lib, boshqalarga o‘z ta‘sirini o‘tkazgan. Chorvador xalqlarda ham qishki va yozgi yaylovlarda muvaqqat ovullar bo‘lgan, ularni ham oqsoqollar, yurtning obro‘li insonlari boshqarganlar. Shaharlarning paydo bo‘lishi bilan mahallalar yuzaga kelgan. Uzoq tarixda turli xil kasb egalari alohida-alohida bo‘lib birlashganlar. Shu sababli boqqollar, kosiblar, kulollar va h.k. mahallalari paydo bo‘lgan. Lekin yaqin o‘tmishda barcha kasb egalari aralash-quralash bo‘lib ketgandan keyin ma‘lum bir hudud mahalla bo‘lib shakllandi. Mahallalar ham davrga qarab o‘zgarib bordi, ularning boshqaruv shakli ham yildan-yilga takomillashib, hozirgi ko‘rinishga ega bo‘ldi.

«O‘rta Osiyoda va, avvalo, O‘zbekistonda mahalla kabi o‘zini o‘zi boshqaruvchi ijtimoiy tashkilotning noyob shakli azaldan mavjud bo‘lgan va shu kungacha ham saqlanib qolgan, — degandi Prezident I. Karimov. — O‘zbeklar uchun mahalla jamoa tushunchasidan ko‘ra ko‘proq ma‘noni bildiradi». Mahallaning o‘ziga xos turmush tarzi bo‘lib, u yerda istiqomat qiluvchi kishilar kim bo‘lishidan qat’i nazar uning qonun-qoidalariga bo‘ysunadi, bir-birlariga yordam beradi, to‘y-ma‘raka, hasharida birga bo‘ladi. Shu sababli mahallaning turmush tarzi unda yashayotganlar tafakkurida o‘ziga xos iz qoldirdi.

Mahalla Mahalla (arabcha — joy, o‘rin, makon ma‘nosida) — kishilarning ma‘lum bir hududda birgalikda yashashlari tufayli yuzaga kelgan birlashmasi. Mahalla — yirik jamoa bo‘lib o‘zini o‘zi boshqarish tashkiloti. Mahallada norasmiy ijtimoiy aloqalar tizimi tarkib topgandir. Agar biron to‘y bo‘lsa, oqsoqolning bir og‘iz gapi bilan barcha qo‘ni-qo‘shnilar xizmatda bo‘ladi. Birov choy qaynatadi, birov masallig‘ olib keladi. Xotin-qizlar ham barchasi xizmatda bo‘ladi.

Ma'raka ham xuddi shunday, bir og'iz gap-so'zsiz ijro etiladi. Hamma mahalla sha'nini saqlashga harakat qiladi. Bu yerda jamoa va oqsoqollar fikriga bo'ysunish tamoyili ustuvordir. Bu narsa sharqona ruhiyatga mosdir. Shu sababli xalqimiz orasida «Mahallang — ota-onang», «Bir bolaga yetti mahalla ota-ona» iboralari paydo bo'lgan. Kishilarning eng xursandchilik va og'ir kunlarida ham mahalla insonlarning kuniga yaraydi, yordam ko'rsatadi, ko'nglini ko'taradi. Yuqorida keltirilgan iboralarning mazmun-mohiyati naqadar chuqur bo'lib, tarix sinovlaridan o'tgan. Shuning uchun xalqimiz orasida hamon yangi mazmun bilan yashab kelmoqda.

**Mahalladagi
ma'naviy muhit**

Respublikamiz mustaqilligidan keyin mahallaga juda katta e'tibor qaratildi. Davlat budjeti hisobidan haq to'lanadigan raislik, o'rinbosar va posbon shtatlari berildi. Yosh bolali ayollar va kam ta'minlangan oilalarni moddiy rag'batlantirish uning ihtiyoriga berildi. Bu narsa mahallaning an'anaviy tarbiya o'chog'i ekanligini mustahkamladi va uning oldiga zamon talablaridan kelib chiqib, yangi vazifalar yukladi. Ko'p qavatli binolar joylashgan hududlarda ham yangi-yangi mahallalar tuzildi va u respublikamizda yashovchi boshqa millat vakillari orasida ham mahalla udumlarining keng yoyilishiga olib kelmoqda. «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» asarida ta'kidlanganidek: «Mustaqillik yillarida mahalla hayoti bilan bog'liq ko'plab qadriyatlar, udum va an'analarimiz qayta tiklanib, zamon talablari asosida boyib bormoqda... Davlatchiligimiz tarixida birinchi marta «mahalla» tushunchasi Konstitutsiyamizga kiritilib, uning jamiyat boshqaruvidagi o'rni va maqomi qat'iy belgilab qo'yildi».

Ayni paytda mahalla ko'pchilik uchun ma'naviy muhit hisoblanadi. Chunki bu yerda ibrat bo'larli voqealar ham, ogohlantiruvchi voqealar ham sodir bo'ladi. Agar mahallada ma'naviy muhit yomon bo'lsa, u yerda turli bezorilar, jinoyatchilar, noqonuniy ishlar bilan shug'ullanuvchilar

ko‘payadi. Agar ma‘naviy muhit yaxshi bo‘lsa, buning teskarisi bo‘ladi, ya‘ni ilmli, iymonli, mehnatkash insonlar ko‘payadi. Shu sababli ma‘naviy muhit shaxsni ham, butun avlodni ham muayyan yo‘nalishda shakllantiradi, tarbiyalaydi, ijobiy xislatlarni yuzaga chiqaradi, ularni nomaqbul ta’sirlardan himoya qiladi. Ma‘naviy muhit har qanday yutuq va kashfiyotlarning (chetdan qabul qilingan yangi qadriyatlarining ham) taqdirini belgilaydi: yo rivojlantiradi, yo unutilishga mahkum etadi yoki deformatsiya qilib, o‘ziga moslashtiradi.

Ma‘naviy muhit — jamiyatning hissiy, aqliy va jismoniy kamolot borasida erishgan o‘rtacha saviyasi asosida vujudga kelgan talablari va ularning amalga oshishi tartibi. Muhit, odatda, barqarorlikka, bir tekislik va bir xillikka intiladi, uning talablari va ta’siri hammaga birdek — o‘rtacha bo‘ladi. Uning talablariga javob berish uchun kimlardir o‘zini tarbiyalaydi, takomillashadi, o‘sadi va hokazo. Kimlar uchundir umumiy ma‘naviy muhitning talablari kamlik qiladi. Bunday shaxslar yoki ijodiy guruhlarning imkoniyatlari to‘liq yuzaga chiqmasdan qolish xavfi tug‘iladi. Shu boisdan umumiy ma‘naviy muhit doirasida nisbatan moslashgan tabaqaviy, kasbiy — professional yoki guruhiy muhitlar — submuhitlar mavjud. Submuhitlar o‘zaro biroz farq qiladi. Farq muayyan ijtimoiy guruh, tabaqa va sinflarning psixologiyasi va siyosiy mavqei, intilishlari ta’sirida vujudga keladi. Ammo bu farqlar ortiqcha baholanmasligi va ma‘naviyatga bolshevikchasiga mustahkamlashtirilgan sinfiylik nuqtai nazaridan yondashish uchun asos bo‘lmasligi kerak. Submuhit umum muhitdan ajralib keta olmaydi va pirovardida uning talablariga bo‘ysunishga majbur bo‘ladi.

Har bir yosh avlodning ma‘naviy yetuk, komil shaxs bo‘lib voyaga yetishida musaffo havo, tabiat bilan birgalikda mahalla va oila muhiti juda katta rol o‘ynaydi.

Buyuk yunon olimi Demokritdan bir kishi kelib so‘raydi: — Hozirgi yoshlar to‘g‘risida nima deya olasiz?

— Hozir yoshlar o‘z bilganlaridan qolmaydilar, ularda kattalarga hurmat, kichiklarga izzat yo‘qolgan, mahmado-na va o‘zboshimcha bo‘lib ketishgan. Buning oldini olish uchun oiladagi va mahalladagi tarbiyani kuchaytirish kerak, — deb javob beribdi buyuk mutafakkir.

Demak, mahalla kishilarning tarixan shakllangan, yagona maqsad bilan yashab, faoliyat ko‘rsatadigan makoni hisoblanadi. U o‘zbek xalqining turmush tarzi, ruhiyati, ijtimoiy hayotining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi, milliy an‘analarini, urf-odatlarini, axloqiy-ma’naviy qadriyatlarini avloddan-avlodga yetkazuvchi muqaddas maskan bo‘lib kelgan. Mahalla insonlarning millati, yoshi, jinsi, dini, irqi, tili, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar ularni ezgulik yo‘lida jipslashtiruvchi va birlashtiruvchi katta oila hisoblanadi. Bu oila insonlarning bir-birlariga bo‘lgan o‘zaro hurmati, muhabbati, mustahkam do‘stligi asosida yashaydi, faoliyat ko‘rsatadi.

Oila va mahalla har tomonlama bir-birlari bilan bog‘liq. Zotan, mahalla oilalardan tashkil topadi. Farzandlar oila bag‘rida kamol topgani kabi, oila ham mahalla ichida ravnaq topadi, nurli kelajak sari intiladi. Kerak bo‘lsa, mahalla oilaning eng yaqin maslahatchisi, tog‘day tayanchidir. Sharq xalqlari, chunonchi, o‘zbek xalqi shu narsani biladi, teran ma’no-mazmunini yaxshi tushunadi. Darhaqiqat, sharq xalqlari uchun muhim xususiyat xursandchilik kunlari ham, boshga ish tushgan onlarda ham bir-biriga hamdard va hamnafas bo‘lishdir. Insonlar o‘rtasidagi bunday bog‘liqlik va hamjihatlikning muhim vositasi — mahalladir.

Prezidentimiz Islom Karimov: «Mahalla — kamdan kam mamlakatda mavjud bo‘lgan noyob idora. Bu maskan milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylashda, el-yurtimiz tinchligi va osoyishtaligini mustahkamlashda, yoshlarimizni komil insonlar etib tarbiyalashda muhim rol o‘ynab kelmoqda», deb ta’kidlagan.

**Mahalla –
birlashtiruvchi kuch**

To‘p-to‘p bo‘lib, mahalla-mahalla bo‘lib kun kechirganda, yashash uchun turli qulayliklar vujudga kelgan, insonlararo muhim munosabatlar, muomala yo‘sinlari shakllangan.

O‘zbekistonda turmush madaniyatini yuksaltirish va juda ko‘plab muammolarning hal etilishida tarixiy vazifani bajargan mahalla xalqning xalq bo‘lib maydonga chiqishida eng birinchi omillardan bo‘ldi. Mahalla birlashtiruvchi kuch bo‘lib, Vatanning bir bo‘lagi hisoblanadi. Mahallada yutuqlar, kam-ko‘stlar ham qo‘ni-qo‘shnilarga ma‘lum. Odamlarning bir-birlarini yaxshi bilishlari natijasida o‘rtada mehr-oqibat paydo bo‘ladi. Mehr-oqibatning boshi andishalilikda. Bularning barchasi xalqimizni ma‘naviy jihatdan yuksaltirgan, uni madaniyatli xalqlar qatoriga ko‘targan eng qimmatli milliy belgilardandir. Mahallani tinchlik va osoyishtalik qo‘rg‘oni, deyish ham mumkin. Afsuski, bizda mahallalar tarixi o‘rganilmagan. Aslida, millat tarixini o‘rganish mahallalar tarixini o‘rganishdan boshlanadi.

Bizda mahallalar o‘zaro yaqin hamkorlik va turli hunarmandchiliklarning ham maskani bo‘lgan. Mahallalar nomlarining o‘zi ko‘hna bir tarix: ko‘nchilik, pichoqchilik, juvozkashlik, charxchilik, etikdo‘zlik, tayibko‘cha va hokazo. Shu bilan birga «professorlar», «olimlar», «shifokorlar», «geologlar» kabi mahallalar ham mavjud.

Mahalla shunday bir muqaddas makonki, unda insonlar bir-birlari bilan opa-singil, aka-uka, quda-anda, do‘st-birodar bo‘lib, har bir xonadondagi to‘y-u ma‘raka, motamda, barcha xonadonlarning farzand tarbiyasida ham barcha mahalla ahli mas‘ul, yutuqlar ham, kamchiliklar ham umummahalla ahliniki hisoblanadi. Shuning uchun ham xalqimizda «Otang — mahalla, onang — mahalla» degan naql bejiz aytilmaydi.

Mahalla haqida gap ketganda, yurtboshimiz Islom Karimov ta‘kidlaganidek: «Asrlar mobaynida mahallalarda ko‘pdan-ko‘p hayotiy muammolar o‘z yechimini topib keladi. To‘y-ma‘rakalar ham, hayit-u hasharlar ham ma-

halla ahlisiz o'tmaydi. Mahallalarda siyosiy, iqtisodiy va boshqa masalalarga doir jamoatchilik fikri shakllanadi. Bu esa xalqimizning turmush tarzi, ota-bobolarimizdan bizga meros bo'lib kelayotgan tafakkur tarzidir. Binobarin, hayotning o'zi mahallalarni rivojlantirish va ularni qo'llab-quvvatlashni taqozo etmoqda. Mamlakatimizda ko'p qirrali islohotlar amalga oshayotgan bir paytda mahalla jamiyat uchun ishonchli tayanch va ta'sirchan kuch bo'lib xizmat qilishi lozim».

Mahallalarning faoliyatini yanada jonlantirish va ularning ta'sirini kuchaytirish maqsadida Prezidentimizning ibratli farmonlari va Respublika Oliy Majlisining qator qonunlari hayotga tatbiq qilinmoqda. Jumladan, «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonunni misol keltirsak bo'ladi.

Mahalla katta mamlakatning ichidagi kichik bir mamlakatdir, katta davlat ichra kichik davlatdir. Shuning uchun uning boshqaruv tizimi bo'lgani kabi, unga xos ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy faoliyat mexanizmi ham asrlar davomida shakllangan.

Mahallada, unda yashovchi oilalar va turli yosh-u jinslar uchun o'ziga xos bo'lgan turli xil tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Bular: «Balli, qizlar», «Yoshlar mustaqil hayot ostonasida», «Huquqingizni bilasizmi?», «Oila mustahkamligi kimga bog'liq?», «Oila — jamiyat tayanchi», «Bolali oilalarga imtiyozlar», «Qaynona-kelin munosabatlarining axloqiy-ma'naviy asoslari» va boshqa tadbirlar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining mazkur qonuni bo'yicha mahallalarga katta huquq berildi, ularning rahbarlik faoliyati kengaytirilib, budjetdan qo'shimcha shtatlar ajratildi va kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar tarqatish ham mahallalarga yuklatildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika «Mahalla» xayriya jamg'armasini tashkil etish to'g'risida»gi 1999-yil 12-sentabrdagi Farmoniga ko'ra, tarixan tarkib topgan milliy va ma'naviy qadriyatlarni e'zozlash va izchil

targʻib qilish, xalqimizning eng yaxshi udum va anʻanalarini keng ommalashtirish, respublika mahallalarida madaniy va maʼrifiy ishlarni keng yoʻlga qoʻyish, shuningdek, ularni ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan yanada mustahkamlash choralari davlat yoʻli bilan qoʻllab-quvvatlash maqsadida jamgʻarma tashkil etildi.

Ushbu jamgʻarmaning asosiy vazifasi:

- aholining tarixan qaror topgan udum va anʻanalarini avaylab-asrash va boyitishga har tomonlama koʻmaklashish;
- kam taʼminlangan oilalar, nogironlar, yetimlarga va yolgʻiz qariyalarga nisbatan insonparvarlik va mehr-shafqat munosabatida boʻlish gʻoyalarini targʻib qilish;
- ularga moddiy va maʼnaviy yordam koʻrsatish;
- bozor iqtisodiyoti sharoitida mahallalarni ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlantirishga koʻmaklashishdan iboratdir.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining maxsus farmo-niga koʻra, jamgʻarmaning hisob raqamiga 25 mln soʻm pul oʻtkazildi, shuningdek, respublika idora va muassasalariga jamgʻarmaga aniq maqsadni koʻzlab yordam koʻrsatish tavsiya etildi. Undan tashqari mahallada kam taʼminlangan, koʻp bolali oilalar, yolgʻiz keksalar, nogironlar, yetim-yesirlar, boquvchisini yoʻqotgan oilalarni ijtimoiy muhofaza qilish, xotin-qizlarning manfaatlarini muhofaza qilish, mahalla hududida jamoat tartibini taʼminlash, yoshlar va oʻsmirlar oʻrtasida huquqbuzarlikning oldini olish, voyaga yetmaganlarning huquqlarini muhofaza qilish, yoshlarni harbiy xizmatni oʻtashga jismoniy va maʼnaviy tayyorlash ishlari ham amalga oshiriladi. Har bir oilaning oʻz kasbiy sulolasi boʻlganidek, mahallaning ham uzoq tarixga ega boʻlgan kasb-hunar sulolasi mavjud. Mahalla aynan shu hunar nomi bilan ham ataladi. Mahallalar: zardoʻzlar mahallasi, etikdoʻzlar yoki duradgorlar mahallalari kabi. Mahallaning tartib qoidasi, qadriyatlariga barcha amal qilishi shartdir. Prezident I. Karimov aytganidek: «Hamma — u qanday odam boʻlmasin, qaysi lavozimda oʻtirmasin, mahalla ahliga boʻy-

sunishga majbur... Ayrim «beli baquvvatlar» ham, quturib ketayotgan ba'zi kimsalar ham mahallaga quloq soladi». Kimda-kim bularga rioya etmasa, hurmat qilmasa, u mahalladagi o'tadigan tadbirlardan, to'y-ma'rahalardan chetlatiladi, taklif etilmaydi. Agarda kibr-u havo bilan qo'ni-qo'shni, mahalla ahli an'anasini oyoq osti qilsa yoki bepisandlik bilan munosabatda bo'lsa, amaldagi qonunlarga xilof ish tutsa, u mahalladan chiqarib yuboriladi. Bu esa mahalla qonunida eng oliy jazodir. Bu jazo ota-onaning noqobil farzandni «oq qilish»i bilan tengdir. Mahallalardagi choyxonalar ham o'ziga xos ahamiyat kasb qilib, aynan ko'pgina tadbirlar, ta'lim-tarbiya ishlari va hokazolar ana shu joyda o'tkaziladi.

Xulosa qilib aytganda, mahalla Sharq xalqlari uchun muhim qadriyat bo'lib, mahallaning har bir fuqarosi uning sha'ni, gullab-yashnashi, taraqqiyoti uchun butun kuch va imkoniyatini safarbar etishi zarur.

Umuman olganda, oila va mahalla jamiyatning muhim bo'g'ini hisoblanib, uni yanada mustahkamlash uchun butun choralar ko'rilmogda. Zero, demokratik jamiyatda mahalla va oilaning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni beqiyosdir.

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR

Mahalla muhiti, «mahalla — ota-onang», Demokrit fikri, birlashtiruvchi kuch, «Mahalla» jamg'armasi, oila, oilaviy munosabatlar, «xotinlaringiz ziroatgohingizdir», oila — millat parvozi, «Oila kodeksi», ota-ona va farzandlar burchi, oilaning iqtisodiy va ma'naviy asosi, «Oila» markazi, «Obod mahalla yili».

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Mahalla muhitini yaxshilash omillari qanday?
2. «Oila tarbiyasi — jamiyat ma'naviyatining yuksalishi» iborasini sharhlang.
3. Mahalla va qo'ni-qo'shnichilik — milliy taraqqiyot negizi. Iboraning ma'nosi nima?
4. «Hovli olma, qo'shni ol», «Sholcha sotsang qo'shningga sot, bir chetida o'zing o'tirasana», «Bir bolaga yetti mahalla ota-ona» kabi hikmatli iboralarning sharhi.

5. Donishmandlar oila ma'naviyati va qo'ni-qo'shnicilikka oid aytgan o'g'itlardan namunalar keltiring.

6. «Vatan ostonadan boshlanadi» iborasi haqida fikr bildiring.

TOPSHIRIQ

Oilaning funksiyasi, oilamizda qanday kitoblar o'qiydiz, oilamiz bilan kino, teatrlarga boramiz, oilamiz iqtisodi, oilamizning to'ylari, oilaviy bazmlarga munosabati, oilaning iqtisodiy funksiyasi, oilamizda nechta farzand bo'lgani ma'qul, oilamizda amal qilayotgan milliy urf-odatlar, oilamiz an'analari, oilamiz shajarasi, oilamizning diniy marosimlarga munosabati, Islom dinida oila masalasi, mahallamizda amalga oshirilayotgan obodonchilik ishlari mavzularida bayon yozib keling.

13-§. AMALIY MASHG'ULOT

Oila va jamiyatning o'zaro ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy munosabatlari

Darsning maqsadi: Oila va jamiyatning o'zaro ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy munosabatlarini o'rganish asosida o'quvchilarni mustaqil dunyoqarash va erkin tafakkurni shakllantirish, oilaviy munosabatlarga sadoqat, qadriyatlarimizni avaylab asrash va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

Darsning shakli: «Aqliy hujum», bahs.

Darsni jihozlash: plakatlar, markerlar, kerakli adabiyotlar.

Darsning blok chizmasi:

1. Tashkiliy daqiqa.
2. Guruhlarda ishlash.
3. Munozara.
4. Badiiy chiqishlar.
5. Darsning tugashi va uyga vazifa.

O'qituvchi:

– darsning noan'anaviy amaliy mashg'ulot ekanligi haqida qisqa axborot beradi;

– mavzuni muhokama qilish jarayonida o'quvchilarda oilaviy qadriyatlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni shakllantirish uchun darsning asosiy maqsadi ekanligini tushuntiradi;

- «Aqliy hujum»ni amalga oshiradi;
- o‘quvchilarning xohishlarini inobatga olgan holda 5–6 ta o‘quvchilardan iborat guruhlar tuzadi;
- har bir guruhning vazifasini tushuntiradi;
- munozarani uyushtiradi;
- dars oxirida uni yakunlaydi va uyga vazifa beradi.

O‘quvchilar:

- munozara jarayonida javoblarni tayyorlashga ijodiy yondashadi;
- berilgan mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini ifoda qiladi va ularni asoslab beradi;
- mavzu bo‘yicha munozarada faol qatnashadi;
- munozara jarayonida o‘z savollarini beradi.

Noan’anaviy amaliy mashg‘ulot: «Aqliy hujum» bilan boshlanadi. Chunki o‘quvchilarda oila haqida ma’lum darajada bilimlar mavjud. Uni bevosita mustahkamlash uchun oldingi darslardan 3–4 savol beriladi. O‘qituvchi savollarga javob olgach, aqliy hujumini to‘xtatadi va bugungi mavzu yuzasidan bahs-munozara o‘tkazilishini hamda har bir o‘quvchi bu masalada mustaqil fikr bildirishi lozimligini aytadi.

Shu maqsadda sinf o‘quvchilari 4 yoki 5 guruhga bo‘linadi. Har bir guruh stoliga bahs mavzusi yozilgan kartochkalar qo‘yiladi. (Izoh: har bir o‘quvchi mavzularni o‘zi tanlashi mumkin. Bu majburiy emas.

1-savol: Oila nima? Uning munosabatlari qanday?

1-guruh o‘quvchilarining javoblari:

1-o‘quvchi: Oila — kishilar hayotining eng muhim qismi, jamiyatning hujayrasi, ijtimoiy-madaniy organizm hisoblanadi. Oila — kishilarning tabiiy-biologik (er-xotinlik, jinsiy munosabatlar, bola ko‘rish), iqtisodiy (mulkiy munosabatlar, hovli-joy, boshpana, uy-ro‘zg‘orni boshqarish), huquqiy (masalan, nikohni fuqarolik holatlarida davlat yo‘li bilan qayd etish), ma’naviy (er-xotin, ota-ona va bolalar o‘rtasida

mas'uliyat, mehr-muhabbat tuyg'usi kabi) munosabatlariga asoslangan birlik.

2-o'quvchi: 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi» 16-modda, 3- bandida ta'kidlanganidek, «Oila jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasi sanaladi va jamiyat hamda davlat tomonidan himoya qilinishga haqli». Demak: oila a'zolari bir-birlari oldida mas'ul va burchli bo'ladi.

3-o'quvchi: Ma'naviy munosabat deyilganda er-xotin, ota-ona va bolalar o'rtasidagi mehr-muhabbat, mehr-shafqat, mehr-oqibat, odob-axloq, ta'lim-tarbiya kabi insoniy tuyg'ular va talablar ko'zda tutiladi. Bu o'rinda ulug' alloma Shayx Sa'diyning ushbu dono so'zlarini keltirish joiz: «Yodingdami, do'stim, sen tug'ilgan on, hamma xandon edi, faqat sen giryon. Shunday yashagilki, ketar chog'ingda, hamma giryon qolsin, sen borgin shodon». Oila a'zolari bir-birlari bilan umumiy turmush, o'zaro iqtisodiy-mulkiy, huquqiy-ruhiy aloqalar orqali bog'lanishini yodda tutmoq zarur.

Oilaning birinchi vazifasi o'z nasl-nasabini davom ettirishdan, solih va soliha farzandlarni tarbiyalashdan, oila a'zolarining tirikchiligini, bo'sh vaqtini ko'ngilli o'tkazishini ta'minlashdan iboratdir.

4-o'quvchi: Amerika faylasufi Jorj Santayana (1863) ta'kidlaganidek, «Oila tabiatning shoh asarlaridan biridir». Odam oilada kamol topadi. Xuddi mana shu yerda u birinchi quvonch va tashvishlarini tatib ko'radi. Islomiy qadriyatlarning eng muhim tomonlaridan biri oilada ota-onaga izzat-hurmat va sadoqat ko'rsatish farzandlarning insoniy burchlari ekanligini ta'kidlashdir. Bizlarni dunyoga keltirib, ta'lim-tarbiya berib, e'zozlagan buyuk zotlar — ota bilan onaning xizmatida bir umr bo'lish farzandlarning qarzi, asosiy insoniy burchi ekanligini quyidagi misoldan ham bilib olish mumkin. Abdulloh ibn Amr rivoyat qiladilar: «Bir odam nabiy sallallohu alayhi vasallamga: «Jihad qilmoqchiman»,— dedi. Rasululloh: «Ota-onang bormi?» — dedilar.

U «ha» deb aytdi. Rasululloh: «Avval ota-onangning xizmatini qilib, roziligini olgin, so'ng jihod qilgin!» — dedilar.

2-savol: Oila masalasida demografik ma'lumotlar qanday?

2-guruh o'quvchilarining javoblari:

1-o'quvchi: Oila masalasi demografik siyosatning markaziy masalalaridan biri sanaladi. BMT ma'lumotiga ko'ra, hozir yer yuzida 6 milliarddan oshiqroq odam yashamoqda. Yer yuzida yiliga 80 mln ga yaqin chaqaloq dunyoga kelmoqda.

Aholisi bo'yicha qit'alar quyidagi tartibga ega:

1. Osiyo (Avstraliya bilan birga) qit'asi (3 mlrd 500 mln kishidan oshmoqda).
2. Amerika qit'asi (800 mln kishidan ko'p).
3. Yevropa qit'asi (770 mln kishidan ko'p).
4. Afrika (600 mln kishidan oshiq).

Mamlakatlar bo'yicha:

1. Xitoy. Aholisi 1 mlrd 300 milliondan ko'p.
2. Hindiston. Aholisi 1 mlrd dan ortdi.
3. AQSH. 350 mln dan ko'p.
4. Indoneziya. 200 mln dan ko'p.
5. Rossiya. 158 mln dan ko'p.

O'zbekiston dunyoda aholisi soni jihatidan, taxminan, 41-o'rinda — 27 mln kishi.

2-o'quvchi: BMT doirasida har yili 11-iyul kuni «Jahon aholishunoslik kuni» sifatida keng nishonlanadi. 1974- yili Buxarestda BMTning aholishunoslik bo'yicha bo'lib o'tgan Jahon anjumani «Aholishunoslik bo'yicha dunyo dasturi»ni qabul qildi.

Aholi sonining ortishi, eng ko'p tug'ilish Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasidagi rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi. Dunyo aholisi soni har yili, taxminan, 78—80 million kishiga ko'paymoqda.

Ba'zi joylarda davlat tomonidan tug'ilishni cheklashga qaratilgan demografik siyosat ham masalaga jiddiy ta'sir qilmoqda. Buni Osiyoning eng yirik davlatlari — Xitoy va Hindiston misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Xitoyda tug'ilajak bolalar sonini cheklash davlat dasturiga kiritilgan. Asosan, 1970-yillardan boshlab tug'ilishni kamaytirish uchun qator tadbirlar qo'llana boshlandi. Natijada, BMT ma'lumotlariga qaraganda, 1970—1974- yillarda har bir ayol o'rtacha 4,8 farzand ko'rgan bo'lsa, 1986—1990-yillarda bu ko'rsatkich 2,1 tani tashkil etdi.

3-o'quvchi: Xitoyda oilada tug'ilgan ikkinchi farzand uchun katta miqdorda jarima solinadi. Uchinchi farzand esa davlat fuqaroligiga olinmaydi. Shu bois bu mamlakatda «Bir oilaga — bir bola» «siyosati» yuritiladi. Lekin Xitoyning qishloq joylarida xitoylar uchun bir, uyg'urlar uchun ikki, o'zbeklar uchun uch farzand ko'rishga ruxsat berilgan.

Oilaning jamiyat oldidagi vazifalardan biri — farzand ko'rish va tarbiyalashdir. Aholi soni muayyan ko'rsatkichda turishi kerak.

Yer yuzi aholisi tarkibida ayollar ko'payib bormoqda. Chunki ayollar erkaklarga nisbatan ko'proq yashaydilar. Dunyodagi 210 mamlakatdan 102 tasida ayollar ko'p, 84 tasida erkaklar ko'p. Qolgan davlatlarda ular soni deyarli teng.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, tug'ilayotgan har 100 qiz bolaga 104—105 ta o'g'il bola to'g'ri keladi. Ya'ni tug'ilish nisbatiga ko'ra o'g'il bolalar ko'pchilikni tashkil qilgan. Lekin bolalar o'limi hodisasi o'g'il bolalarda ko'proq uchraydi. Bu — tashqi muhitga moslashuvchanlikning ularda ancha qiyin kechishi oqibatidir. 30 yoshga yetganda erkaklar bilan ayollar soni tenglashadi, keyin esa ayollar sonining ortib ketishi kuzatiladi.

4-o'quvchi: Hozirgi kunda mamlakatlarda nikohning quyidagi turlariga amal qilinadi:

1. **Monogam nikoh.** Nikohning bu turi eng ko'p tarqalgan bo'lib, 2 ta shaxs o'rtasida amalga oshiriladi. Dunyoning

deyarli barcha mamlakatlari uchun xos bo'lgan bu nikoh turi asosiy hisoblanadi.

2. **Poliginiya nikohi.** Yunoncha poli — ko'pchilik, giniya — ayol, xotin, ya'ni bitta erkakning bir necha ayollar bilan qonuniy nikohda turishiga aytiladi.

Poliginiya nikoh turlari, ayniqsa, musulmon mamlakatlari: Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Kuvayt, Marokash, Iordaniya, Bruney, shuningdek, musulmon bo'lmagan Tailand, Nepal, Butan, Svazilend kabi davlatlarda ko'proq tarqalgan bo'lib, jamiyatda yuqori tabaqa kishilariga berilgan ma'lum bir imtiyoz sifatida Qur'onda ham tan olingan. Lekin nikohning bu turi kamayib bormoqda. Hatto Misr, Pokiston kabi yirik mamlakatlarda ko'p xotinelilikni cheklashga qaratilgan davlat siyosati olib borilmoqda.

3. **Poliandriya nikohi.** Bunda bitta ayol bir nechta erkak bilan nikohda bo'lishi mumkin. Hozirda bu nikoh turi, asosan, shimoliy xalqlar — eskimoslar, aleutlar, Tibet va Hindiston janubidagi ba'zi etnik guruhlar o'rtasida tarqalgan bo'lsa-da, juda kam uchraydi.

5-o'quvchi: Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 1997-yilga kelib dunyoning rivojlangan mamlakatlarida har 100 o'g'il bolaga 105—107 qiz bola to'g'ri kelmoqda. Uncha taraqqiy etmagan davlatlarda esa raqam 100 va 102 ni tashkil etadi. Shunga ko'ra dunyo bo'yicha o'rtacha 100 ta o'g'il bolaga 104 qiz to'g'ri keladi. Bundan chorak asr ilgari, ya'ni 70-yillarda bu nisbat 100 ga 102 edi. Yer yuzida erkaklarning o'rtacha umri ayollarnikidan 6—10 yilga qisqaligini e'tiborga olsak, jinslar o'rtasidagi farq nisbatan yanada kattalashadi. O'rtacha umr ko'rish nisbati erkaklarda ayollarga qaraganda 10 yilgacha qisqa. Yoshi 50 dan oshgan ayol bilan xuddi shu yoshdagi erkakning kasalliklardan shikoyati boshqa-boshqa yillarda bo'lishi kuzatilgan. Yer shari aholisining o'rtacha umri 1950—1955-yillarda 47,4 yoshni tashkil qilgan bo'lsa, 2000-yilga kelib 64,5 yoshni tashkil qildi.

O‘rtacha umr ko‘rish qit’alar bo‘yicha quyidagicha:

1. Amerika qit’asida 78 yosh.
2. Yevropa qit’asida 72 yosh.
3. Osiyo (Avstraliya ham) da 70 yosh.
4. Afrikada 45 yosh.

Dunyodagi ba’zi mamlakatlarda o‘rtacha umr ko‘rish quyidagi holatda:

1. Yaponiyada 83 yosh, shu jumladan, ayollar o‘rtacha 81 — 91 yil, erkaklar 75 — 85 yil umr ko‘radi.
2. Fransiyada: ayollar 82, erkaklar 74 yil.
3. AQSHda: ayollar 82, erkaklar 76 yil.
4. Isroilda: ayollar 79, erkaklar 76 yil.
5. Germaniyada: ayollar 78, erkaklar 72 yil.

3-savol: Mamlakatimizda oila, davlat va jamiyat munosabatlari qanday?

3-guruh o‘quvchilarining javoblari:

1-o‘quvchi: 1998-yili O‘zbekistonda 3,8 million oila bo‘lib, shundan 58,7 foizi 5 va undan ko‘p bolali serfarzand oilalarni tashkil etgan. Keyingi 35 yil ichida oilalar soni 1,8 milliontaga ko‘paygan, uning 1 mln ga yaqini shahar, 950 mingtasi qishloq oilalariga to‘g‘ri kelgan. Yoki so‘nggi 10—15 yil davomida yiliga 250 ming atrofida yosh oilalar vujudga kelgan. Bugungi kunda respublikamizda har bir oilaga taxminan 4—5 farzand to‘g‘ri keladi. O‘zbekistonda oilalarning 35 foizdan ortig‘ini yosh oilalar tashkil qiladi. Yosh oilalar deganda, er-xotinning yoshi mos ravishda 26—30 yoshdan oshmagan, 5 yilgacha nikohda bo‘lgan, bolali yoki bolasiz oilalar tushuniladi. Mamlakat aholisining 43 foizini 15 yoshgacha bo‘lganlar tashkil etadi. Oilalar soni o‘sib borishida, ayniqsa, Qashqadaryo, Jizzax, Xorazm va Namangan viloyatlari alohida o‘rin tutadi.

Umuman, oila va jamiyat bir-biriga chambarchas bog‘liq tushuncha bo‘lib, jamiyatning o‘zi ham oilalardan tashkil topadi. Oila esa, o‘z o‘rnida, jamiyat bag‘rida vujudga keladi,

rivojlanadi. Ayni paytda oilaning jamiyatda o'z vazifalari mavjud. Oilaning mohiyati va vazifalari dunyodagi barcha xalqlar uchun bir xildir. Lekin uning tashkil topishi, taraqqiy etishi va oiladagi vazifalarni bajarish jarayonlari har bir xalqda alohida, o'ziga xos xususiyatga ega.

Mustaqillik munosabati bilan o'zbeklarning oilaviy hayotida istibdod yillarida taqiq ostida bo'lgan ba'zi xususiyatlarni tiklash masalasi hal qilinmoqda. Masalan, tarixan tashkil topgan hovlining tashqi va ichki hovliga bo'linishi — xalqning milliy ruhini, imon-u e'tiqodini, toat-u ibodatini aks ettirgan.

Hovlilarning ichki-tashqiga bo'linishi ayollarda farosat va malohat tuyg'ularini shakllantirishga, farzandlarning har xil odamlar nigohidan yiroqroq bo'lishiga, ortiqcha gap-so'zlarni eshitmaslikka, kattalarning ishiga aralashmaslikka imkon bergan. Ayniqsa, bu milliy odat to'y va ma'rakalarni o'tkazishda katta qulayliklar tug'dirgan. Yevropa madaniyatining ba'zida ko'r-ko'rona targ'ib qilinishi oilada ham o'z aksini topdi, tarbiyaviy ta'sirning kamayishiga, zaiflashuviga olib keldi, ma'naviy qashshoqlanish kuchaydi.

2-o'quvchi: Mamlakatimiz milliy istiqlolga erishgach, xalqning oilaviy qadriyatlari asta-sekin tiklanmoqda, sun'iy ravishda turmushga kiritilgan ayrim oilaviy marosimlar xalq nazaridan qolib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida: «Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega», — deyiladi. Yangi «Oila kodeksi»ga va Konstitutsiyamizning 63-modda, 2-qismiga binoan «Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi». BMTning 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»ning 16-moddasida shunday bandlar mavjud:

1. Balog'at yoshiga yetgan erkaklar va ayollar irqi, millati yoki diniy belgilari bo'yicha hech qanday cheklashsiz nikohdan o'tishga va oila qurishga haqli. Ular nikohdan

o'tishda, nikohda turgan vaqtlarida va uni bekor qilish vaqtida bir xil huquqdan foydalanadi.

2. Nikohdan o'tayotgan har ikki tomonning erkin va to'liq roziligi asosidagina nikoh tuzilishi mumkin.

3. Oila jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasi sanaladi va jamiyat hamda davlat tomonidan himoya qilinishga haqli.

Shu bilan birga oila huquqi — nikoh tuzish va nikohni bekor qilish tartibi va shartlari; er-xotin, ota-ona bilan bolalar o'rtasidagi munosabatlar, vasiylik va homiylik, bola asrab olish tufayli kelib chiqadigan munosabatlar; fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish tarzini belgilaydigan huquqiy me'yorlar yig'indisidan iborat.

3-o'quvchi: O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» asarida ta'kidlaganidek, «bizning davlatimizni ham katta bir oila deb tushunish mumkin va lozim. Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko'rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi. Xuddi shu fikrni «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» asarida davom ettirib «aynan oila muhitida paydo bo'ladigan ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash har qaysi insonga xos bo'lgan odamiylik fazilatlari va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma'naviy olamini tashkil etadi» deb alohida ta'kidlaydi.

Fransuz yozuvchisi Viktor Gyugo (1802—1885)ning bu haqda quyidagi fikri juda o'rinli bayon etilgan: «Kimki ayol huquqini himoya qilsa, bola huquqini himoya qilgan bo'ladi, boshqacharoq aytganda, u kelajakni himoya qilgan bo'ladi».

Keyingi vaqtlarda mamlakatimiz ijtimoiy hayotida ayollar mavqeini o'z o'rniga qo'yishga yo'naltirilgan nodavlat tashkilotlar ham yuzaga kela boshladi. Shu jihatdan 1997-yili Toshkentda «Ayol va jamiyat» instituti tashkil topishi

bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni bayon etmoq lozim. Adliya boshqarmasi ro‘yxatidan o‘tkazilgan bu institutning tadqiqotchilik va siyosiy ta‘lim bo‘limlari mavjud. Institut jamiyatda xotin-qizlarning siyosiy onglilik darajasini yuksaltirish bilan birga, ayollarga taalluqli ijtimoiy munosabatlarni o‘rganadi, shu orqali ayollarning iqtisodiy, siyosiy, maishiy, madaniy, ta‘limiy va boshqa sohalaridagi ahvolini tadqiq qiladi. Bugungi kunda O‘zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy ishlab chiqarish, sog‘liqni saqlash, maorif, madaniyat, savdo, maishiy xizmat ko‘rsatish sohalaridagi salmog‘i 80—90 foizga yetgan.

4-o‘quvchi: Avvalo, ushbu masalada shunga ham e‘tibor berish joizki, Respublika Xotin-qizlar qo‘mitasi huzurida Respublika «Oila» ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi.

Oila davlat qaramog‘ida bo‘lar ekan, unda albatta onalar ijtimoiy muhofazasi masalasini hal etmoq lozim. Prezident farmoniga muvofiq (1994-yildan) bolali oilalarga 3 xil nafaqa to‘lanadigan bo‘ldi.

4-savol: Oilada totuvlik, ibrat bo‘larli muhit yaratish va yaxshi farzand tarbiyalash haqidagi fikrlaringiz?

4-guruh o‘quvchilarining javoblari:

1-o‘quvchi: Hozirgi ilmiy adabiyotlarda oilaning ma‘naviy asosi masalasida, shaxsning kamol topishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan bilim, san‘at, arxitektura, milliy, diniy, axloqiy, badiiy va boshqa qadriyat turlari, milliy istiqlol mafkurasi kabi talay ma‘naviyat va ma‘rifat xususida gapiriladi. Bolaning ma‘naviy tarbiyasida oilaning ahamiyati muhimligi ta‘kidlanadi.

Ota-onaning oiladagi moddiy, tashkiliy, tarbiyaviy va o‘zaro shaxsiy masalalar yuzasidan bir-biri bilan bo‘ladigan munosabatlari sof, samimiy, erning xotiniga, xotinning eriga nisbatan o‘zaro hurmati asosida qurilsagina, bunday oilada musaffo ma‘naviy muhit va hamjihatlik vujudga keladi. Ayniqsa, ota-ona munosabatidagi, ularning bir-biriga meh-

ribonligi, farzandlariga bir xil muomalada bo‘lishi; har ikki tomonning qarindosh-urug‘lariga bir xilda mehr-oqibat, hurmat bilan qarashi; bir so‘zliligi, haqiqatni gapirish kabi ijobiy fazilatlarga ega bo‘lishi, shuningdek, sog‘lom hayot kechirishi; yolg‘onchilik, maishiy buzuqlik, dimog‘dorlik, manmanlik va boshqa shu kabi illatlardan xoli bo‘lishi oilaviy munosabatlar madaniyatining sofligini ta‘minlovchi xususiyatlardir.

Bunday ijobiy xususiyatlarga ega bo‘lish, serfarzand oilalarda ham, yoki faqat er va xotin yashaydigan oilalarda ham og‘ir kechadi. Chunki er-xotin turli sharoitda, muhitda tarbiyalangan, ularning qarashlari, ma‘lumoti, yoshi, ma‘naviy saviyasi va boshqalarda nomuvofiqlik mavjud bo‘lishi mumkin. Er-xotinning bir-biriga ko‘nikishi, o‘zaro hurmati, do‘stona munosabatlarining shakllanishi uchun ular orasidagi sevgi dastlabki manba bo‘lsa, axloqiy qadriyatlarning gultoji bo‘lgan ibo, hayo, xushmuomalalik, mehnatsevarlik, sarishtalik, ozodalik, pazandalik, g‘amxo‘rlik, mehr-shafqat kabi azaliy odatlarimiz oilani mustahkamlashda ikkinchi manba bo‘ladi.

2-o‘quvchi: Tajribali kishilar aytishicha, ota-onaning farzand oldidagi burchi nihoyatda mas‘uliyatli hisoblanishini ma‘naviy jihatdan his qilish darkor. Farzandlarning kelajakda qanday ma‘naviyat egasi bo‘lishi ko‘p jihatdan ota-ona, u bergan tarbiyaga bog‘liq. Har bir ota-ona farzandi oldida o‘z otalik, onalik burchini to‘liq his etishi, unga javobgarligini ma‘naviy jihatdan anglab yetishi lozim. Shulardan xulosa qilgan holda, «Sog‘lom avlod» davlat dasturini nazarda tutib, farzandlar tarbiyasi quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishini har bir ota-ona yaxshi bilishi foydadan xoli bo‘lmaydi:

1. Nasl tarbiyasi, ya‘ni bola tarbiyasi bola tug‘ilmasdan 3—4 yil oldin boshlanishi zarur. Bu farzand ko‘rishni istagan ota-onaning bo‘ljak farzandlari taqdiriga mas‘uliyat bilan qarab, o‘zlarining salomatliklarini yaxshilashlarini nazarda tutadi.

2. Ikkinchi bosqich — homiladorlik davridagi parvarish. Bu masalada oʻta muhim ahamiyatga ega boʻlib, «Sogʻlom avlod» davlat dasturida ham asosiy mavzu sifatida belgilab beriladi.

3. Uchinchi davr bola tugʻilgandan to 6—7 yoshgacha boʻlgan davr. Shu davrga kelib, bola maʼnaviyatining kurtaklarini parvarishlash va yanada rivojlantirish davri boshlanadi.

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar oʻz otanalari haqida gʻamxoʻrlik qilishga majburdirlar.

Sharqda oila muqaddas deb sanalgan va nikohsiz er-xotin boʻlish man etilgan. Millat koʻpayishining birdan-bir yoʻli erkak va ayolning nikoh va oila munosabatida boʻlishidir. Gʻarb oilasini gʻoyalar boshqarsa, sharqda oila urf-odat va diniy qoidalar bilan tartibga solingan.

Sharqda oilaviy munosabatlar ham asrlar davomida oʻzida diniy, milliy, umuminsoniy madaniyatni shakllantirgani, har qanday sharoitda ham insoniy qadr-qimmatni ustuvor bilgani, milliy axloq-odobga asoslanganligi bilan farqlanadi. Sharq oilasiga xos xususiyat oilalarning mustahkamligi, kishilarning oilaviy hayotdan tashqarida yashashni tasavvur qila olmasligi, oilaparvarligi, jamoa boʻlib yashashning ustunligi, serfarzandligi, bolajonligi, oilani muqaddas bilishida namoyon boʻladi.

3-oʻquvchi: Oila qurmoqchi boʻlgan har bir yigit-qiz oʻziga umr yoʻldoshi tanlashda boʻlajak farzandlarining otasi yo onasining shaxsiy fazilatlariga eʼtibor berishi kerak. Chunki otaning axloqi, odobi, onaning fazilatlarini bolaga oʻtishi isbot talab qilmas haqiqatdir. Xullas, oʻgʻil bola ham, qiz bola ham, eng avvalo, oila muhitida gʻuncha ochadi. Ana shu gʻuncha uning maʼnaviyatida, qalbida bir umr yoʻlchi yulduz kabi nur sohib turadi.

Rizouddin ibn Faxriddinning «Oila» risolasida «Tarbiyali xotun ota-onasini, eri hamda bolasini, butun oila ahlini, oilaga munosabati boʻlgan doʻst-u qoʻshnilarini, xodim-u xodimalarini xulqi bilan mamnun qilur»,— deyiladi.

Amoma binti Xoris ismli ayol tajribasidan misol. U o‘z qizlarini kelin bo‘lib, kuyovning uyiga ko‘chirilishidan oldin saodatli oila asoslarini bayon qiluvchi nasihatlarini qilib kuzatgan ekan: «Ey qizginam, agar ahli fazl va ahli odob-larga nasihat kerak bo‘lmaganida edi, senga nasihat qilmas edim. Lekin nasihat — g‘ofilga eslatma, oqilga yordamdir. Agar qiz bola ota-onasining kambag‘alligi sababli erga berilishi kerak bo‘lganida, sen hech qachon uzatilmagan bo‘lur eding. Chunki otangning boyligi ham, martabasi ham yetarli. Lekin hayot qonunlariga ko‘ra ayollar erkaklar uchun va aksincha erkaklar ayollar uchun yaratilgandir.

Ey qizginam, endi o‘zing o‘sgan havodan ayrilding. O‘zing yayrab-yashnagan oshiyondan chiqding va notanish joyga borib, avval o‘zing bilmagan insonga uchraysan. U endi sening xojang, do‘sting, mahbubingdir. Sen unga cho‘ri bo‘lsang, u senga qul bo‘ladi. Sen unga yer bo‘lsang, u senga osmon bo‘ladi. Sen uning uchun 10 xislatni ado qilsang, oilada mas‘ul va baxtiyor hayot kechirasizlar:

1. Qanoat sohibasi bo‘l, undan hayiqib tur, ering uyga nima ko‘tarib kelsa, xushfe‘llik va odob-nazokat bilan qabul qilib ol va tashakkur ayt.

2. Eringga hamisha itoatda bo‘l, amrlarini yaxshilab tingla va bajar.

3. Eringning nazari tushadigan joylarga e‘tibor qil. Uy ichi va hovlini nihoyatda ozoda va tartibli tut.

4. Eringning burniga hushyor bo‘l, dimog‘iga yomon hid kirmasin, xushbo‘ylik sezsin.

5. Ovqatni vaqtida tayyorla, aslo kechiktirma, kelishi bilan dasturxon yoz.

6. Uning ovqatlanish va uyg‘onish paytini bilib ol, chunki ochlik va uyquning buzilishi erkaklarning g‘azabini qo‘zg‘aydi.

7. Xojangning moli va ashysiga e‘tiborli bo‘l, isrof qilma. Avaylab-asra, chunki uning mol-u dunyosi senikidir.

8. Eringning yaqinlari va qarindoshlarini hurmat qil. Bu bilan xojangni hurmat qilgan bo‘lasan.

9. Eringning sirlarini boshqalarga aytuvchi bo'lma, uning ishonchini yo'qotasan.

10. Xojangning amriga osiy bo'lma, uning diniga to'g'ri keladigan barcha buyruqlarini ado qil. Shuni yaxshi bilib olginki, xojang xafa bo'lganda xursand ko'rinishdan, quvongan paytida g'amgin bo'lishdan o'zingni ehtiyot qil».

4-o'quvchi: O'zbekistonda 1980-yilda 173 ming 628 ta, 1989-yilda 200 ming 661 ta, 1996-yilda 171 ming 700 ta nikoh qayd etilgan bo'lsa, 2000-yilda 168 ming 900 nikoh ro'yxatga olingan. Bunda qishloqlarda shaharlarimizdagiga nisbatan salkam 2 baravar ortiq yoshlar nikohdan o'tishgani ma'lum.

Oila ikki ustundan iborat: birinchisi — iqtisod, ikkinchisi — ma'naviyat. Oilani shu ikki ustundan birisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Lekin iqtisodda imkoniyatdan, ma'naviyatda sharoitdan kelib chiqmoq kerak. Shunda oila mustahkam qo'rg'onga aylanadi. «Eng do'zaxi ayol — erining imkoniyati darajasidan ortiq talab etuvchi ayoldir», — deb uqtiliradi muborak hadislarda.

Oila tutishda ma'naviyatning sharoit taqozo etgan tomonlari borki, bu haqda allomalarimiz eslatib o'tishgan. Beruniy oila qurayotgan qizlarga ota-onaning pand-nasihatlarini keltirib, oiladagi tinch-totuvlik ko'proq ayollar zimmasiga tushishini ta'kidlab shunday yozadi: «Ey qizim! Sen o'rgangan uyingdan ketib, notanish xonadonga tushmoqdasan. Sen bo'lajak kuyovingning hamma xislatlarini bilmaysan. Sen yer bo'l, u esa osmon bo'ladi. Demak, sen u bilan shunday yo'l tutki, uning oldida yer kabi kamtar bo'lsang, u osmon kabi olijanob bo'ladi. Osmon shifobaxsh yomg'iri bilan yerni ko'kartirgani kabi u ham o'z mehr-u shafqati ila seni xushnud etadi. Ering sendan faqat yumshoq va shirin so'zlar eshitsin, yaramaydigan va eski libosda yoki sochlaring tartibga solinmagan holda uning oldida o'tirma. Qizim, kuyovingdan kuchi yetmagan va sotib olishga qudrati yetmagan narsalarni talab qilma. Bunday qilsang orada totuvlik yo'qoladi, turli xil janjallar paydo bo'ladi. Qizim,

rashk qilishdan saqlangin, chunki u ajralib ketishning kalitidir. Eringga hadeb gina qilaverishni man etaman. Yaxshisi, sen u bilan xushmuomalada, shirin soʻzli boʻlgin, bu ishing har qanday sehr-u jodudan yaxshidir. Oʻzingga xushboʻy narsalar bilan oro bergil. Pokizalik hamisha yoʻldoshing boʻlsin».

82 yoshli Lev Tolstoy 1910-yil oktabr oyining qorli, sovuq tunlaridan birida injiq ayolidan (ayoli boylikka berilgan edi) qutulish maqsadida uyini tark etib, boshi oqqan tomonga joʻnaydi. Oradan oʻn bir kun oʻtgach, kichkinagina temir yoʻl stansiyasida oʻpka shamollashidan vafot etgan yozuvchining soʻnggi soʻzi shu boʻldi: «Xotinimni yonimga yoʻlatmanglar». «Bemaʼni injiqlik — zahri qotil», deydi — Deyl Karnegi. «Oqila rafiqam! Agar ering yoningda boʻlishini istasang, shuning payiga tushginki, toki u hech yerda sening huzuringdagi kabi rohat-farogʻat va muloyimlikka duch kelmasin»,— deb yozganida buyuk olim Pifagor ming karra haq edi.

Shundan soʻng oʻqituvchi quyidagi xulosalar bilan darsni yakunlaydi va oʻquvchilarni baholaydi:

1. Demak, inson zotining shakllanishida oilaning oʻrni katta. Chunki maʼnaviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar oʻgiti bilan birga singadi. Har bir kishi insoniyat tajribasi, bilimi, odob-axloqi, xatti-harakati bilan oʻzining ruhiy olamini boyitib boradi. Aqlan, axloqan va jismonan kamol topib borgan sari u oʻz oldiga turli maqsad qoʻyib, unga erishish uchun harakat qiladi. Insonning mavjudligi uning jisman borligi bilan emas, balki maʼnaviy boy ekanligi bilan belgilanadi.

2. Keyingi paytlarda xalqimizning maʼlum tabaqalari oʻrtasida soxta shuhrat ketidan quvib, nom chiqarish, oʻzini koʻz-koʻz qilish, keragidan ortiq dabdaba bilan nikoh toʻyi oʻtkazish, zagsga olib borish, isrofgarchilikka yoʻl qoʻyish hollari koʻpayib qolgan edi. Bu esa muqaddas anʼanalari-mizni obroʻsizlantirishga olib kela boshladi va oddiy odamlarning nafsoniyatiga tegar edi. Oqibatda koʻp oilalar buzilib ketdi.

3. Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimovning 1998-yil 28-oktabrda qabul qilgan Farmoni to‘y-hashamlar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni, marhumlar xotirasiga bag‘ishlangan tadbirlarni o‘tkazishda dabdababozlik, isrof-garchilikka yo‘l qo‘yish kabi illatlarga barham berishni katta vazifa qilib qo‘yadi.

To‘ylarda yangicha tartib, yangicha rasm-rusumlarni joriy qilishda mahalla qo‘mitalari, xotin-qizlar faollarining ta’siri kuchli bo‘lmog‘i zarur. Har bir mahallada iqtidorli ayollardan laparchilar, musiqachilar guruhini tashkil etish, to‘yni qiziqarli, bir umrga esda qoladigan qilish uchun turli-tuman dasturlar tayyorlash, to‘y ishtirokchilarining faolligini oshirish yo‘llarini o‘ylab topish lozim.

TAYANCH SO‘Z VA IBORALAR

Oila va jamiyat, «inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi», Jorj Santayana, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Monogam, poliginiya, Viktor Gyugo, Lev Tolstoy, Deyl Karnegi.

14-§. INSONPARVARLIK, VATANPARVARLIK VA TINCHLIKSEVARLIK — SHAXS MA’NAVIYATINING AJRALMAS QISMI

**Odam, shaxs
va inson** Odam, kishi, shaxs, inson tushunchalari jonli muloqotda go‘yo bir xil ma’noda qo‘llanilsa-da, ularning mazmuniga chuqurroq kirib borilsa, orada ma’lum darajadagi farqlar ko‘rinadi.

Odam dunyodagi mavjudotlar ichida eng aqllisi hisoblanadi. Odam xoh katta, xoh kichik bo‘lsin, yashash uchun kurash olib boradi va atrof-muhitga moslashadi. Odam tushunchasi barcha shaxs va insonlar uchun bir xil ma’noda qo‘llaniladi. Lekin odamga baho berilganda yaxshi odam, yomon odam, aqlli odam, johillarga nisbatan — odam emas, degan iboralar ishlatiladi va odamning jamiyatdagi o‘rni aniqlanadi.

Shaxs esa o'zida ijtimoiy sifatlarni mujassamlashtirgan insonni ifoda etadi. Kishilar shaxs bo'lib tug'ilmaydi, balki jamiyatdagina shaxs bo'lib shakllanadi va rivojlanadi. Inson ta'lim-tarbiya, mehnat, muloqot jarayonida, ijtimoiy tajriba, bilim, turli munosabatlar, axloqiy me'yorlar, siyosiy g'oya, milliy mafkura kabi omillar ta'sirida yashaydi, ularni o'zlashtiradi va shu jarayonda ijtimoiylashadi, ya'ni shaxs bo'lib shakllanadi va unda yangi sifatlarni paydo bo'ladi hamda yaratuvchanlik omili yuzaga keladi.

O'zini o'zi nazorat qilish, o'zini o'zi tarbiyalash, yuksak mas'uliyatni his etish, g'oya uchun kurashish, mustahkam e'tiqodga ega bo'lish, o'z fikr-mulohazalarini erkin bayon etish va ijtimoiy, siyosiy faollik shaxsga xos belgilardir.

Shaxs mustahkam iymon-e'tiqod, g'oya va insoniy fazilatlariga ega bo'lgan, Vatan, millat tuyg'usi bilan yashaydigan, o'zida davr xususiyatlarini ifoda etadigan insondir.

Bir millatga mansub shaxslar qiyofasidan millat qiyofasi shakllanadi. Lekin shaxslar millat ma'naviyatiga ham bog'liq.

Agar chuqurroq mushohada qiladigan bo'lsak, shaxs jamiyatning bir a'zosi hamdir. U jamiyatdan tashqari bo'lishi mumkin emas. Buning sabablari bor: birinchidan, shaxs axloqi hamisha jamiyat axloqiga bo'ysunadi, shunga majbur; ikkinchidan, kishi ko'pgina narsalarsiz ham yashay oladi, lekin tanholikda yashay olmaydi, baxtni ham odamlar orasidan topadi, shaxs baxt-saodati jamiyatdan tashqarida bo'lmaydi. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida aytilganidek, «insonga xos orzu-intilishlarni ro'yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy olamni bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak» to'g'ri yechim topilgan bo'ladi.

Demak, har bir shaxs o'zi yashagan, yashab turgan jamiyatning a'zosi, bir farzandi hisoblanadi. Shaxs, davlat va jamiyat munosabatlarining nozik, sir-sinoatli tomonlari ham bor. Agar jamiyat adolatli bo'lib, unga adolatpesha shaxs rahbarlik qilayotgan bo'lsa, o'sha jamiyat ravnaq topadi va uning a'zolari erkin turmush kechiradi.

Adolatli jamiyat shaxsni shunchaki shakllantirib qo‘ya qolmaydi, balki ma‘naviy yetuk qilib kamol toptiradi. Shu boisdan ham «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da «shaxs — kadrlar tayyorlash bosh subyekti va obyekt, ta‘lim sohasidagi xizmatlarning iste‘molchisi va ularni amalga oshiruvchi» qilib belgilangan. Demak, davlat va jamiyat — ta‘lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish, nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafolatidir.

Falsafa ilmida ta‘kidlanishicha, Inson — o‘zida biologik, ijtimoiy va psixik xususiyatlarni mujassamlashtirgan ongli mavjudot. Insonning biologik xususiyatlariga ovqatlanish, himoyalanih, zurriyot qoldirish, sharoitga moslashish kabilar xos.

Inson boshqa mavjudotlardan sotsial xususiyatlari (moddiy va ma‘naviy) bilan ajralib turadi. Chunonchi, til-muomala, ramziy belgilar, bilim, ong, mahsulot ishlab chiqarish, taqsimlash, iste‘mol qilish, boshqarish, o‘zini o‘zi idora etish, badiiy ijod, axloq, nutq, tafakkur, qadriyatlar, tabu (ruxsat va taqiqlash) shular jumlasidandir. Insonning psixik xususiyatlariga ruhiy kechinmalar, hayratlanish, g‘am-tashvish, qayg‘u, iztirob chekish, zavqlanish, kayfiyat kabilar kiradi.

Insonga xos bo‘lgan biologik xususiyatlarni ijtimoiy xususiyatlardan ustun qo‘yish yoki psixologik xususiyatlarni bo‘rttirish uning mohiyatini buzib talqin etishga, bir yoq-lamalikka olib keladi.

Insonparvarlik («inson» — arabcha; «parvar» — fors-tojikcha; «lik» — o‘zbekcha — «kishiga g‘amxo‘rlik, gumanizm») — (odamzodning qadri, erkinligi, qobiliyatlari har tomonlama namoyon bo‘lishi uchun kurashish, insonning baxt-saodati, teng huquqliligi, adolatli hayotini ta‘min etishga intilish, degan ma‘noni anglatadi. Insonparvarlik g‘oyalari uzoq tarixga ega.

Insoniyatning baxt-saodat va adolatga erishish orzusi xalq og‘zaki ijodiyotida, diniy va falsafiy ta‘limotlarda uzoq

o‘tmishdan beri o‘z aksini topib kelmoqda. Markaziy Osiyo mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy va boshqalar o‘z asarlarida inson erkinligi, uning qadr-qimmatini, insonparvarlik g‘oyalarini olg‘a surganlar.

O‘zbek ma‘rifatparvar shoirlari Muqimiy, Furqat, Avaz O‘tar o‘g‘li va shuningdek, jadidlar Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat kabilar ijodida ham insonparvarlik g‘oyalari kuylangan.

Insonparvarlik har bir zamonaviy huquqiy-demokratik davlatning hayot qoidasi va ijtimoiy tuzilishi ustunlaridan biriga aylanmoqda. Mustaqil O‘zbekiston o‘z siyosatida gumanizm shartlari, talablari hamda qoidalariga, Sharq va G‘arb davlatlarining eng ilg‘or tajribasiga tayanib, xalq hayotini va jamiyat faoliyatini tashkil qilmoqda. O‘zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlari inson manfaatlarini himoya qilishga, uni qadrlashga, har bir shaxsning barkamollashuviga qaratilgan. Insonparvarlik g‘oyalari, mazmuni va tamoyillari o‘zbek milliy mentalitetining tarkibiy qismidir. Bu g‘oyalar tashqaridan, mutafakkirlarning harakati bilan kiritilgan emas, balki xalq tafakkurining uzviy qismi bo‘lgan. Bu an‘ana mustaqillik yillarida yanada izchillik bilan davom ettirilmoqda.

Insonparvarlik jamiyatida: «Agar sen kishilarning qadr-qimmatini hurmat qilsang, kishilar ham sening qadr-qimmatini hurmat qiladi»,— prinsipi tantana qiladi. Zaiplar va xo‘rlanganlarning qadr-qimmatini ko‘tarish, hurmat qilish hozirgi va bo‘lg‘usi jamiyat shaxsi mehr-muravvati, insonparvarligi me‘yoridir.

Insonparvar kishilar uchun o‘z xatti-harakatlarini jamiyatning adolatli va oqilona qonunlariga ixtiyoriy va tabiiy ravishda amal qilish asosida qurishni o‘rganish muhimdir. Yangi insonparvar jamiyat yangi, lekin u, albatta, insoniyatning insonparvarlik an‘analarini, asrlar davomida shakllangan ezgulik prinsiplarini hisobga oladigan axloqni yaratish yo‘lidan boradi. Insonparvar dunyoqarash inson ijodkorligining manguligini tasdiqlaydi. Zero, ayni inson

ijodkorligi mahsuli o'lmas qadriyatlarga aylanish tamoyiliga ega. Insonning tanasi, «qalbi» o'ladi, uning qilgan ishlari esa mangudir. Inson o'z hayotida ham xayrli, ham yomon ishlar qiladi, lekin ulardan birinchisining ustuvor bo'lishi uning umrboqiyilini belgilaydi.

Insonparvarlik jamiyatida mulkchilikning turli shakllari — aksiyadorlik, kooperativ, davlat va boshqa mulklarning, xususiy, shaxsiy, ayniqsa, xususiy-intellektual mulkning ustuvorligida birga mavjud bo'lishi ko'zga tashlanadi.

Umuman, bilim hosil qiluvchi ijodiy mehnat asosida insonparvarlik jamiyatining maqsadi — barkamol shaxs shakllanadi. Shaxsiy, xususiy mulk uni rivojlantirishning iqtisodiy negiziga aylanadi. Mulkning boshqa shakllari ana shu mulkni qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladi. Muqaddas va daxlsiz bo'lishi kerak bo'lgan xususiy-intellektual mulk alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli insoniy bilimlarni muhofaza qilish uchun davlat va qonun zarur bo'ladi.

Mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklarining ustuvorligidan kelib chiqadigan, xalqaro miqyosda qabul qilingan yangi yuridik tamoyil vujudga keltirilganligi katta yutuq hisoblanadi. Jumladan, insonparvarlik (gumanizm) g'oyalarining rivojlanishi natijasida 1948-yilda «Jahon xalqlari huquqlari deklaratsiyasi» qabul qilindi. Bu hujjat Respublikamiz tomonidan e'tirof etilgan hamda uning qoidalariga to'la amal qilinmoqda. Bugungi kunda mustaqil O'zbekistonda inson huquqlari bilan bog'liq bo'lgan institutlar vujudga keldi. Xususan, Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz, Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) tashkil etildi.

Ijtimoiy-siyosiy jihatdan olib qaraganda insonparvarlik eng avvalo o'z-o'zini anglash natijasi va inson ma'naviy olamining yuksalishi demakdir. Shu sababli O'zbekistonda insonparvarlikning namunasi sifatida «Sog'lom avlod uchun» qabul qilindi va millatidan qat'i nazar barchaga xizmat qilmoqda.

Insonparvarlik jamiyatiga insonparvarlik mafkurasi zarur. Mehr-oqibat, muruvvat ko'rsatish — insonparvarlikning oliy ko'rinishi. Insondagi bu sharaflı olıjanoblikning manbayı esa aql va donishmandlik, mehr-shafqat, mardlik, pokdillik sanaladi. Shu ma'noda insonni oliy qadriyat deb bilish hamda yuksak darajada e'zozlash milliy mafkuramizning asosiy maqsadlaridan biri va muhim talablaridan ekanligi e'tiborga sazovordir. Binobarin, mamlakatimiz taraqqiyotini belgilovchi besh tamoyildan biri — aholini ijtimoiy himoyalash asosiy yo'nalish bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

**Insonparvarlik
jamiyati**

Ijtimoiy munosabatlarni insonparvarlashtirish singari, uni jahonshumullashtirish (globalashtirish) tamoyillari taraqqiyotning yangi tipiga — ijtimoiy insonparvarlikka olib keladi. Buning ma'nosi shundaki, insonparvarlik munosabatlari nafaqat madaniyat sohasida, balki jamiyat tuzulmasining barchasida ro'yobga chiqariladi. Insonparvarlik jamiyatiga faqat islohotlar orqali o'tiladi. Insoniyat tarixida ijtimoiy inqiloblar ko'p bo'lgan. Ularning deyarli hammasi o'zlari avval qaror toptirgan tamoyillarini amalda barham toptirishga borib yetganlar. Inqilobdan ko'zlangan maqsadga, asosan, ijtimoiy larzalar va vayronagarchiliklar, cheksiz qurbonlar va azob-uqubatlar orqali erishilgan. Lekin oxir-oqibatda, ijtimoiy taraqqiyot behad qimmatga tushgani: unga kishilarning hayoti va taqdiri evaziga erishilgani ko'zga tashlanadi. Shuning uchun ham insonparvarlik jamiyatiga o'tishning eng maqbul varianti islohotlar yo'li bo'lib, kishilar va mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlar umuminsoniy, insonparvar xarakter kasb etishini bilib olish mumkin. Inson qadr-qimmatini xo'rlash esa eng dahshatli yovuzlik sifatida idrok qilinadi va qattiq, lekin adolatli jazoni taqozo etadi. Shunday qilib, o'z qadr-qimmatini va boshqa kishilar qadr-qimmatini hurmat qilish yovuzlik jamiyatini ezgulik hamda adolat jamiyatiga o'zgartira oladigan ma'naviy kuch hisoblanadi. Shuni ham unutmashlik lozimki, o'zida yovuzlikni bartaraf etish insonparvarlikning asosiy ma'naviy tamoyillaridan biridir.

Insonparvarlik dunyoqarashi inson ijodkorligining manguligini tasdiqlaydi. Ayni inson ijodkorligining natijalari (bularsiz tarixni tasavvur etib bo'lmaydi) oliy, o'lmas qadriyatlarga aylanish tamoyiliga ham ega.

Erkin ijod tamoyili o'zining ijod shakllari bilan birgalikda insonparvarlik jamiyatida muhim rol o'ynashini da'vo qilishi mumkin. Adolatli bo'lish jamiyatda uning hamma bo'lg'usi fuqarolari uchun bir xilda ijtimoiy shart-sharoitni ta'minlashni talab etadi. Qolganlari esa shaxsning erkin ijodiy mehnati jarayonidagi qobiliyatlari, mehnatsevarligi va yashirin imkoniyatlariga bog'liqdir. Lekin bunday mehnat uchun samarali rag'batlantirish mavjud bo'lishi kerak, chunki qilgan mehnati uchun adolat nuqtayi nazaridan taqdirlash g'oyat muhimdir. Mehnat qanchalik ijodiy bo'lsa, u shunchalik yuqori baholanishi, kishilik jamiyati uchun ahamiyati kattaroq bo'lishi lozim.

Shu sababli ijodiy mehnat negizida ma'naviy va moddiy jihatdan boy kishilar shakllanadi. Avtomatlashtirilgan va kompyuterlashtirilgan ishlab chiqarish sharoitida mehnatning ijodiy mazmundorligi darajasi ko'tarilib boradi, uning qiymati shunga bog'liq holda belgilanishi kerak. Hozirgi rivojlangan mamlakatlarda bilim hosil qiluvchi mehnat jamiyatning barcha sohalarida eng ko'p haq to'lanadigan mehnatdir.

Insonparvarlik jamiyatida xususiy mulkchilik shakli uzoq vaqt jamiyatning erkin, yaxlit rivojlangan shaxsini shakllantirishda iqtisodiy negiz bo'lib qoladi.

Bu jihatdan qaraganda, mafkura har qanday jamiyatning g'oyatda muhim tarkibiy qismi sifatida yuzaga keladi. Mafkuradan butunlay xoli etilgan jamiyatlar tarixda uchramagan. Inson fikrsiz, ijodiyotsiz, g'oyalarsiz yashay olmaydi.

Bu xususdagi qarashlar Islom Karimovning «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga javobida yana bir bor izohlanadi. Unda keltirilishicha, mintaqamizga xavf solib turgan bir qator xatarlar mavjud bo'lib, odamlar qalbidagi ikkita

kuch: bunyodkorlik va vayronkorlik hamisha kurashadi. Afsuski, insoniylikdan ko'ra vahshiylik, ur-yiqit instinktlari, ya'ni xatti-harakatlarini qo'zg'atib yuborish osonroq. Demak, odamlarimiz, yoshlarimizning iymon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash lozim. Ularning tafakkurida o'zligini unutmaslik, ota-bobolarimizdan meros qolgan muqaddas qadriyatlarni, jumladan, insonparvarlik tushunchalarini asrab-avaylash va hurmat qilish fazilatini qaror toptirib borish lozim bo'ladi.

Shu boisdan ham insonparvarlik jamiyati ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-siyosiy tamoyillarining rivojlanishi asosiy ijtimoiy ahamiyatga molik qadriyatlar borasida anchagina o'zgarishlar qilishni taqozo etadi. Bu narsa, ayniqsa, jamiyatni moddiy ne'matlarni jadal ishlab chiqarishdan ma'naviy qadriyatlarni hosil etishga qayta yo'naltirish mafkurasi borgan sari keng yoyilishi misolida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shuning uchun hamma joyda insonning hayoti uchun muhim bo'lgan bilimlarni hosil qilish va buning oqibatida insoniyatning yashashi va gullab-yashnashi uchun xavf solmaydigan moddiy qiymatlarni ishlab chiqarish insonparvarlik jamiyatining asosiy vazifasiga aylanadi. Insonparvar jamiyat uchun nafaqat shaxslar va guruhlarning, balki, umuman olganda, insoniyatning ham manfaatlarini hisobga oladigan ijtimoiy ishlab chiqarish zarur.

Shunday qilib, bilim hosil qiluvchi ijodiy mehnat asosida insonparvarlik jamiyatining asosiy maqsadi bo'lgan barkamol shaxs shakllanadi. Shaxsiy, xususiy mulk uni rivojlantirishning iqtisodiy negiziga aylanadi. Mulkning boshqa shakllari ana shu mulkni qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladi.

O'zbekiston Respublikasi insonparvarlik jamiyatini qurar ekan, inson huquqlari bo'yicha 21 ta xalqaro shartnomaga qo'shildi va bu bilan mustaqil davlat, xalqaro hamjamiyat a'zosi sifatida siyosiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan holda kelajak sari ilgarilab bormoqda. 1997-yil «Inson manfaatlari

yili» deb e’lon qilinib, eng oliy qadriyat — insonni e’zozlash zarurligi qayd etildi.

O‘zbekiston inson huquqlari sohasida o‘z siyosatini belgilashda 3 ta eng muhim tamoyilni nazarda tutadi:

1. Me’yoriy va tashkiliy jihatlardan xalqaro tajribaning ustuvorligi.

2. Insonga homiylik qilishda Vatanimiz tarixiy tajribasini hisobga olish.

3. Inson huquqlari bo‘yicha xorijiy milliy institutlar tajribasini hisobga olish.

**Milliy o‘zlikni
anglash**

Milliy o‘zlikni anglash inson taqdirida juda katta rol o‘ynaydi. Prezidentimiz Islom Karimov «O‘zbekiston XXI asr bo‘sasag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida shunday iborani keltiradi: «Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o‘lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o‘zligini anglashni, ta’bir joiz bo‘lsa, milliy iftixorni tiklash va o‘stirish jarayonida g‘oyat muhim o‘rin tutadi». Milliy o‘zlikni anglash tushunchalarining tarkibiy qismlari mavjud (3-§ ga qarang).

Yangi jamiyat poydevori barpo etilayotgan hozirgi o‘tish davrida shaxs milliy o‘zligini anglash jarayonini tahlil qilish hamda tegishli ilmiy xulosalar ishlab chiqish ijtimoiy-gumanitar fanlar vakillari oldida turgan muhim vazifalardan biridir. «Milliy o‘zlikni anglash, — deb yozadi I. Makatov, — xalqlarning etnik birligini hamda uning boshqa milliy tuzilmalardan tafovutini anglash demakdir». Shular orqali umumiy va individual baho berish, ijtimoiy pozitsiya, kishilarning o‘z ijtimoiy-etnik birligiga ham, boshqa birliklarga ham faol munosabati hosil qilinadi. Milliy o‘zlikni anglash milliy tuyg‘u, milliy mafkuraning ajralmas qismi hamdir. Milliy tuyg‘ularimiz majmuyi milliy tasavvurlarimiz, kayfiyatlarimizda oddiy ong sifatida ifodalanadi. Buni biz milliy ruhiyatimiz deb bilamiz. Agar milliy mansublik ehtiyojlari ilmiy asoslangan bo‘lsa, uni biz milliy

o'zligini anglash deb tushunamiz. Milliy o'zligimizni anglashimiz ilmiy-siyosiy tus olsa va ijtimoiy harakat uchun qo'llanma darajasiga ko'tarilsa, biz uni mafkura deb ataymiz.

Milliy mafkura haqidagi keng falsafiy qarashlarni mamlakatimiz rahbari I. Karimovning «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga bergan javoblaridan topish mumkin. Unda ta'kidlanganidek, mafkura qotib qolgan aqidalar yig'indisi emas. Millat o'z milliy mafkurasini butun umri davomida takomillashtirib boradi. Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, milliy mafkura bir emas, bir necha avlod umri davomida ishlab chiqiladi, takomillashib boradi.

Demak, falsafiy, psixologik, pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish natijasida milliy o'zlikni anglashga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

Milliy o'zlikni anglash— bu barcha insoniy fazilatlarining ibtidosi bo'lib, xalqimiz tarixiy xotirasi, ijtimoiy-ma'naviy hayoti, milliy meroslari, urf-odat va an'analari, qadriyatleri, ruhiyati haqida mustahkam bilim, ko'nikma va malakalar bo'lishiga erishish, ularni ongli ravishda baholash, ma'naviy his-tuyg'ularning ijobiy bo'lishiga erishish, o'zini ongli ravishda boshqarish, Vatan tuyg'usi bilan yashash, uning taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shish; ona tilini e'zozlash va boshqa millatlarga hurmat ila munosabatda bo'lish kabi fazilatlarini o'zida mujassamlashtirish majmuyidir.

Qadimgi grek faylasufi Suqrot (miloddan av. 469—399-y.y.): «O'zini anglagan inson o'zi uchun nima foydali va nimalarga qodir ekanligini yaxshi tushunadi. U qo'lidan keladigan ish bilan shug'ullanish asnosida o'z ehtiyojini qondiradi va saodatga erishadi. Har qanday xato va baxtsizliklardan xoli bo'ladi. Buning natijasi o'laroq, u o'zga odamlarni qadrlay oladi va ulardan ezgulik yo'lida foydalana biladi. Oqibatda, o'zini kulfatlardan asraydi». Suqrotning bu dono so'zlari o'zlikni anglashga undaydi.

Milliy ruhiyatni shakllantirishda «milliy g'urur», «milliy iftixor», «milliy his», «milliy xarakter» kabi tushunchalar ham muhim o'rin tutadi.

Har bir shaxs o‘z yutuqlaridan mamnuniyat hissini tuyadi, ota-ona farzandlaridan, ustoz iste’dodli shogirdidan, yozuvchi yaxshi asaridan, bog‘bon so‘lim bog‘idan faxrlanadi va hokazo. O‘zligicha qola bilgan odamning g‘ururi butundir.

Milliy g‘urur o‘zlikni anglashdan boshlanadi. O‘zlikni anglash milliy ongning uyg‘onishi va shakllanishi, dunyoqarashni umuminsoniy ko‘lamlarda kengaytirishdir.

Milliy iftixor — millat ma’naviy kamolotining barcha jihatlarini, merosi va bugungi qadriyatlarini o‘z ichiga oladi. Milliy istiqlol natijasida iqtisodiy va ma’naviy sohada erishilajak va erishilgan yutuqlar ko‘paygan sari O‘zbekiston bilan faxrlanish hissi — milliy his shunchalik boyib boraveradi. Milliy his — bu millat manfaati bilan yashash, o‘zining kimligini tanimoq. O‘zligini tanimagan insonda milliy iftixor so‘nadi. Milliylik, millatga mansublik — bu umumjahon taraqqiyotining qonuniyatidir, milliy g‘urursiz hech bir millat millat sifatida shakllanmaydi. Milliy xarakter — o‘zbek xarakteri, milliy ruhiyati, milliy o‘ziga xos tomonlari asrlar davomida shakllangan hamda asta-sekin ularning qoniga va joniga singib ketgan. «Insonning kimligini nimani anglashiga qarab bilib olamiz» —degan edi hind mutafakkiri R. Tagor.

Milliy iftixor Milliy iftixor tuyg‘usi — o‘z milliy mansubligidan faxrlanish imkoniyati.

Milliy iftixor tuyg‘usi o‘z millatining boy tarixi, madaniy va ma’naviy merosidan, uning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasidan g‘ururlanish imkoniyati. Milliy iftixor tuyg‘usi — o‘zligini anglash va o‘zgalarni tushunishga da’vat etuvchi qudratli kuch. Milliy iftixor tuyg‘usi — mansublikni chuqur anglash va uni e’zozlashga intilish — ma’naviy ehtiyoj mahsulidir. Milliy iftixor, eng avvalo, o‘zligini anglash, milliy ravnaqini ta’minlash yo‘lidagi xatti-harakat, o‘z millati istiqboli oldida mas’ullikning beqiyos namunasidir.

Milliy iftixor egasi bo‘lgan kishi, eng avvalo, o‘z millati o‘tmishini yaxshi bilgan, uni qadrlay oladigan va ayni paytda uni yangicha sharoitlar va holatlarda boyitib boradigan komil inson hamdir.

Marhum professor Begali Qosimov yozgandi: «Biz jahon sivilizatsiyasiga katta hissa qo'shgan va qo'shib kelayotgan ma'rifatli millat ekanligimizni unutdik. To'g'rirog'i, ongimizdan siqib chiqardilar, o'rniga askarlikka qiziqmaydigan, texnikaga uquvsiz, til bilishga yaroqsiz bir millat sifatida o'zimizni o'zimizga tanitmoqqa urindilar. Oqibatda, millatning eng yaxshi xususiyatlari, an'analari yo'qolib bordi. Shu tariqa millatning o'zligini mahv etish jarayoni boshlandi» («Fidokor» gazetasi, 2000- yil 8-iyun). Bosqinchilar xalqni zabun etish uchun, avvalo, ta'lim-tarbiyani milliy zamindan uzoqlashtirib, bizga maorifning g'arbona usullarini taqdim qilganlar. Mustaqillikka erishgach, milliy ma'rifat tarmog'ini vujudga keltirish vazifasi qo'yildi. Prezident Islom Karimovning 1997- yil 29-avgustda Oliy Majlis 9-sessiyasida «Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» nutqida, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da olg'a surilgan masalalar tufayli xalq ta'limi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu hujjatlar ma'rifat sohasiga keng imkoniyatlar ochib berdi. Maktab — maorifimiz sharqonalik va zamonaviylik kasb etishga qaratilganligi katta tarixiy voqea bo'ldi.

Yevropa xalqlarida tarbiyaning mezoni nafosat (estetika), Sharq xalqlarida esa asosan, axloq-odob (etika)dir. Nafosat va axloq-odob mohiyati o'zaro bog'liq bo'lsa-da, nafosat ko'proq tashqi ko'rinishda zohir bo'lib, axloq-odob esa, asosan, muloqot jarayonida ko'zga tashlanadi.

Dunyo mamlakatlari millat va elatlarining odat, rasm-rusum va odob qoidalari bir xil emas. Bu qoidalar tarixan tarkib topgan bo'lib, joy va iqlim, an'ana va sharoit taqozosi bilan o'zgarib boradi. Taniqli rus yozuvchisi Ilya Erenburg deydi: «Xitoyda men birinchi marta rasm-rusum, urf-odat va axloq qoidalari xususida bosh qotirdim. Negaki, Osiyoning odatlari yevropaliklarni taajjublantiradi. Negaki, oyoq kiyimini yechmasdan turib uyga kirish mumkin emas, restoranlarda yevropacha kastum, paypoq kiygan yapon erkaklari polda o'tiradi... Venalik korchalon esa, sira ikki-

lanmasdan, begona ayolga: «Qo‘lingni o‘paman», deydi va uning qo‘lini o‘padi. Xitoy va yaponlarning odati sharqliklar, turkiylarga juda mos keladi. Kiyinish bobida Janubiy Amerika va Afrikaning ba‘zi bir qabilalarida ayollar hozir ham yalang‘och yuradi, talay Yevropa mamlakatlarida qiz-juvonlar yoqasi yelkasiga qadar ochiq, etagi tizzadan bir-bir yarim qarich baland kiyimlarni xushlaydilar, bu hol sharqliklar uchun kamida behayolik sanaladi.

Sharq iftixori xususida Ibn Sino bunday yozadi: «Axloq — har bir kishining o‘zini-o‘zi idora qilish ilmidir. Bu ilmni egallash o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi, balki unga ko‘nikma natijasida, e‘tiqod vositasida erishiladi. Muayyan axloq qoidalarining maqsadga muvofiq bo‘lishi uchun ularning zaruriylikni anglab yetmoq lozim». Abdulla Avloniy: «Axloq — insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdir. Yaxshi xulqlilarning yaxshiligini, yomon xulqlilarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurg‘on kitobni axloq kitobi deyilur».

Buyuk fransuz adibi G. Flober «Nimaiki go‘zal ekan, u axloqiydir»,— deydi. Yoki rus faylasufi N. Chernishevskiy: «Inson qaysi narsada o‘zi o‘ylagan ma‘nodagi hayotini (tiriklikni) ko‘rsa, o‘sha mavjudot go‘zaldir», deb yozadi. Bu gaplardan mumtoz rus estetikasining mohiyati o‘zligini anglashdan iboratligi ma‘lum bo‘ladi. Milliy g‘urur va millatga sadoqatlilik masalalarida ma‘naviyat va ma‘rifatning bir bo‘lagi bo‘lmish milliy mafkura muhim amaliy ahamiyatga egadir. Milliy mafkura, Yurtboshimiz ta‘biri bilan aytganda, bu xalqning, millatning o‘tda yonmaydigan, suvda cho‘kmaydigan o‘lmas e‘tiqodidir.

Vatan tuyg‘usi

Har bir insonning o‘z makoni va vatani bo‘ladi. Inson bevatan bo‘lmaydi.

Shunday bo‘lgan taqdirda ham, bu ibora biron shaxsga nisbatan ishlatiladi. Yagona zamin, yagona vatan, yagona taqdir tushunchasi ko‘pgina xalqlarga xos bo‘lib, xalq qudratini birlashtirib turadi. «Ona Vatan» iborasi kishilar orasida muqaddas, aziz, sevimli Vatanga nis-

batan ishlatiladi. Vatan Onaga tenglashtiriladi. Ularning ikkalasiga bevafoqlik, sotqinlik qilgan kishining kosasi oqarmaydi, xor-zorlikda, pushaymonlikda, yolg'izlikda kun o'tkazadi.

Vatan tushunchasi tarix davomida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot munosabati bilan o'zgarib, kengayib, rivojlanib, boyib borgan. Ibtidoiy jamoa tuzumi sharoitida muayyan qabila yashagan joy o'sha qabilaning vatani sanalgan. Jondosh va tildosh qabilalarning uzviy ittifoqidan elat paydo bo'lgan, elat yashagan hudud el deb atalgan. Masalan, o'zbek xalq dostonlarida Chambil eli iborasi ko'p uchraydi. Muayyan hudud doirasida markaziy boshqaruvning paydo bo'lishi bilan Vatan tushunchasi elat, ya'ni xalq va davlat tushunchalarini qamrab olgan.

Xalqning madaniyati, iqtisodiy turmush, ruhiy va ruhoniyligi, ma'rifiy va ma'naviy ravnaq topa borishi natijasida shu xalqqa mansub kishilar orasida mushtaraklik shakllanadi. Xalq bilan millat o'rtasidagi birinchi va birlamchi farq shundaki, millat vakillarida uyushqoqlik, jipslik, birdamlik, hamjihatlik, maslak va e'tiqodda yagonalik, o'zaro manfaatdorlik, bog'liqlik va aloqadorlik, bugungi turmush va kelgusi maqsadlarda umumiylik xalq vakillaridagidan ko'ra kuchli va qudratli bo'ladi. Kishilik taraqqiyotining bugungi bosqichida ijtimoiy guruhlarining eng ravnaq topgan bo'g'ini millatdir. Shuning uchun ham hozirgi kunda o'ziga jahondagi 187 davlatni birlashtirgan eng nufuzli xalqaro uyushma Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) deb ataladi, Xalqlar Tashkiloti deb emas.

Biroq haligacha yer yuzida kishilik taraqqiyotining ilgari bosqichlarida yashayotgan qabilalar, elatlar va xalqlar mavjud. Demak, hozirgi talab nuqtayi nazaridan yondashilsa, xalq millat deb hisoblanishi uchun boshqa asos va omillardan tashqari xalqaro huquqning subyektini deb tan olingan mustaqil va suveren davlatga ham ega bo'lishi kerak. Shundan kelib chiqilsa, O'zbekiston Respublikasi o'zbek millatining vatanidir. Bu o'rinda davlat va ona-Vatan ayni

bir ma'noni ifodalaydi, ya'ni O'zbekiston Respublikasi deganimizda Vatanimizni tushunamiz, Vatan deganda O'zbekiston Respublikasini idrok etamiz.

Vatan hissi shu Vatanning egasi bo'lmish xalqni bilishdan, uning qadriga yetishdan, buyukligini e'tirof etishdan boshlanadi. Vatan va xalq egizak, mushtarak tushuncha: birinchisini his etish uchun ikkinchisini bilmoq kerak. Vatan bu xalqning o'tmishi, buguni va kelajagidir. Bu madaniyati, ma'naviyati, ma'rifati, tili, dini, fe'l-atvori, ota-bobolaridan qolgan oltin merosi, tomirlarida gupurib turgan, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan pokiza qoni, tarixidagi muhim bosqichlari, buyuk davlat qurish maqsadida olib borayotgan kurashidir.

Zero, ma'naviyat odamlar qalbi va ongiga kelajakka ishonch tuyg'usini olib kirishi, Vatanga muhabbat, insonparvarlik, mardlik va sabot-matonat, adolat hissini tarbiyalashga xizmat qilishi lozim. Hadisi sharifda qayd qilingan «Vatanni sevmoq iymondandir», «Ota yerim», «Ona yurtim», «Kindik qonim to'kilgan yer» kabi tarixiy tushunchalar hayotda o'z o'rnini egallab, ahamiyatini tiklamoqda va xalqimizning o'zligini anglashiga xizmat qilmoqda. «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» kitobida aytilganidek: «Inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini chuqurroq bilgani sari yuragida **Vatanga muhabbat tuyg'usi** ildiz otib, ulg'aya boradi. Bu ildiz qancha teran bo'lsa, tug'ilib o'sgan yurtga muhabbat ham shu qadar yuksak bo'ladi».

Vatanga muhabbat — vatanparvarlikning asl mohiyatidir. Vatanni yurakdan his qilmoq va sevmoq kerak. Buning uchun sog'lom, aqlli va o'tyurak bo'lmoq lozim. Ingliz shoiri J. Bayron: «Kimki o'z yurtini sevmasa, u hech nimani seva olmaydi»,— degan edi.

Vatanni qalbdan chuqur his qilish uchun ham, xalqning vatanparvarlik namunalarini ko'rsatish uchun ham Vatan hur, mustaqil bo'lishi shart hisoblanadi. O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilingach, Vatanning qadri ortdi, xalqimizning qadri tiklandi. Shu bois mustaqillikning qadriga

yetishimiz, uni e'zozlashimiz, mustahkamlab borishimiz kerak.

Vatan mehrini, Vatan tuyg'usini, uning mo'tabarligi-yu ulug'vorligini so'z bilan ifodalash qiyin. Har bir barkamol inson Vatan uchun hamma narsani, hatto jonini ham ayamaydi. Mavlono Fuzuliyning: «Mening bitta hayotim bor, bordi-yu mingta hayotga ega bo'lgan taqdirimda ham hammasini Vatan uchun sarflagan bo'lur edim», — degan so'zlari Vatanni his qilish zaruriyatini anglatadi. Shu o'rinda Vatan tuyg'usini quyidagicha izohlash lozim bo'ladi:

«Vatan tuyg'usi — bu aziz vatanimizni obod etgan oddiy kishilarimizning fidokorona mehnatini yodda tutishdir.

Vatan tuyg'usi — bu o'z aql-idroki bilan jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan qomusiy mutafakkirlarni yodga olishdir.

Vatan tuyg'usi — bu musulmon dunyosi e'tirof etgan Imom Buxoriy, Termiziy, Samarqandiy kabi allomalar nomini yodga olishdir.

Vatan tuyg'usi — bu islom ta'limoti rivojlanishiga bemisli hissa qo'shgan (Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy singari) o'nlab buyuk zotlarni yodga olishdir.

Vatan tuyg'usi — bu Vatanni himoya qilib, Vatan deya fido bo'lgan (To'maris, Shiroq, Spitamen, Kubro, Solihbek)larni eslash.

Vatan tuyg'usi — Turonzaminni yer yuzida eng qudratli davlatga aylantirgan buyuk sarkarda Amir Temurni esga olish va unga munosib bo'lishdir.

Vatan tuyg'usi — bu mustamlaka tuzumiga qarshi bosh ko'targan Dukchi eshon xotirasini unutmazlikdir.

Vatan tuyg'usi — bu 20, 30, 40, 50 va 80-yillarda qatag'on qilingan, qurbon bo'lgan minglab millat vakillarini unutmazlikdir.

Vatan tuyg'usi — bu aziz va go'zal Vatanimizga yuksak e'tiqod bilan yashash, unga hamisha sadoqatli bo'lishdir».

1994-yil 23-mayda O'zbekistonda Qozog'iston kunlarining ochilishiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishda yurt-

boshimiz Islom Karimov shunday degan edi: «Ona yurtimiz Turkiston — katta bir uy, buyuk bir ro‘zg‘or, buyuk bir oila. Bu oila farzandlari qanchalik yaqin va ahil bo‘lsa, ro‘zg‘or ham shunchalik obod va to‘kin bo‘ladi... Markaziy Osiyo mintaqasida ham iqtisodiy, ham ma‘naviy, ham siyosiy jihatdan yagona muhit tashkil qilish bugungi kunning eng dolzarb masalasidir. Yagona Turkiston shiorini barcha xalqlarimiz qo‘llab-quvvatlashiga zarracha ham shubha yo‘q. Buni Markaziy Osiyo mintaqasining tinchligi, barqarorligi va kelajak ravnaqini qadrlaydigan ming-minglab insonlar ochiq qalb va ochiq chehra bilan kutib olmog‘i muqarrar». Ana shu yig‘ilishda Yurtboshimiz Islom Karimov «Turkiston — umumiy uyimiz» degan nomni taklif qildi va bu tashabbus to‘la qo‘llab-quvvatlandi.

1994-yil 10-yanvarda Toshkentda O‘zbekiston bilan Qozog‘iston o‘rtasida yagona iqtisodiy makon barpo etish to‘g‘risidagi Shartnoma imzolandi. 1994-yil 16-yanvarda Qirg‘iziston ham shartnomaga qo‘shildi. 1994-yil 30-aprel-da Qirg‘izistonning Cho‘lponota shahrida O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston o‘rtasida yagona iqtisodiy makon barpo etish to‘g‘risidagi shartnomaga Tojikiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risidagi protokol, mintaqaviy integratsiyani yanada chuqurlashtirish to‘g‘risida 4 davlat rahbarlarining bayonoti qabul qilindi.

O‘zbek, qozoq, qirg‘iz va boshqa turkiy xalqlar o‘rtasida amaliy do‘stlik va qardoshlik, iqtisodiy, madaniy-siyosiy aloqalar yo‘lga qo‘yilganligi mustaqillikning buyuk samarasidir. Prezidentlar va Hukumat boshliqlarining Toshkent, Bishkek, Ashxoboddagi uchrashuvlarida Markaziy Osiyo xalqlari hayotiga oid ko‘pgina iqtisodiy, madaniy-siyosiy muammolar muhokama qilinib, ularni hal qilish yo‘llari, moliyaviy asoslari belgilab olinganligi va ularning amaliy natijalari sezilayotganligi diqqatga sazovordir.

Umumiy ma‘naviy qadriyatlar bilan bir qatorda bizni, shuningdek, energetika, suv va mintaqaning boshqa tabiiy

resurslaridan foydalanishga asoslangan an'anaviy savdo, iqtisodiy aloqalar ham bog'lab turibdi.

Shuni hisobga olgan holda 1995-yil 3-mart kuni Toshhovuz shahrida bo'lib o'tgan kengashda Markaziy Osiyo prezidentlari Qo'shma bayonot qabul qildilar. Unda hozirgi muhim bir davrda mamlakatlarimiz xalqlari hayotining buguni va kelajagi uchun teng huquqli hamkorlik, yaxshi qo'shnichilik asosiy tamoyillar bo'lib qolishi e'tirof etildi.

Vatan tuyg'usi tushunchasini diliga jo qilgan har qanday inson mahalliychilikdan xoli bo'lishi lozim. Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek: «Biz Vatan tuyg'usini mana shunday yaxlit holda, ya'ni dunyoda yagona o'zbek millati bor, xorazmlik, farg'onalik, surxondaryolik o'rtasida hech qanday milliy farq yo'q, ularning barchasi o'zbek xalqining farzandi deb anglashimiz, yosh avlodimizni aynan shu ruhda tarbiyalashimiz zarur».

Vatanparvarlik Vatanparvarlik — insonning o'z yurti manfaatlarini himoya qilish yo'lidagi fidoyiligi, Vatanning har qarich tuprog'i, har bir giyohini ko'z qorachig'iday asrashi, uning uchun zarur bo'lganda jonini ham fido etishdir. Boshqacha aytganda, vatanparvarlik — Vatanga bo'lgan mehr-muhabbatning e'tiqod va iymon darajasiga ko'tarilishi, ona-yurt tarixi, milliy meros va qadriyatlarini bilish va e'zozlash, xalq va millat manfaatlari yo'lida astoydil mehnat qilish, Vatan himoyasi yo'lida har doim shay turish, o'z aql-zakovati, mehnati bilan uning boyligiga boylik, qudratiga qudrat qo'shishdir.

Vatanparvarlik — o'z vatanining mustaqilligini asrab-avaylash, uning yo'lida fidokorona mehnat qilish, Vatan posbonligiga tayyor bo'lish, Vatan tarixi, madaniyatini bilish, faxrlanishdir. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy maqsadlaridan biri ham O'zbekistonda yashovchi har bir fuqaroni, birinchi navbatda yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini chuqur singdirishdan iboratdir.

Shiroqning o‘z Vatanini yovlardan ozod etish uchun jonini fido qilgani, To‘marisning tengsiz shijoati vatanparvarlikning yorqin ko‘rinishidir. Bunday insonlarning nomi xalq qalbida mangu yashaydi.

Bugungi O‘zbekistonning eng buyuk vatanparvari Prezident Islom Karimovdir. Yurtboshimiz mamlakatimizni mustaqillikka boshlab, uning dunyo hamjamiyatidan munosib o‘rin egallashida mislsiz xizmatlar qilmoqda, eng og‘ir vaziyatlarda ham «Biz tanlagan yo‘limizdan qaytmaymiz!» deb xalqni olg‘a boshlamoqda.

Shuning uchun ham bugun yuksak natijalarga erishayotgan yurtdoshlarimiz Vatanimiz dovrug‘ini dunyoga yoymoqda.

Vatanparvarlik — iymon-e‘tiqodga aylangan yuksak ma‘naviyatdir. Vatanparvarlik so‘z va ish birligidir. Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat havoyi va‘dalar, balandparvoz so‘zlarda emas, mehnatda, insonning bunyodkorlik faoliyatida namoyon bo‘ladi. Prezidentimiz Islom Karimov asarlarida vatanparvar insonni tarbiyalash vazifalari chuqur tahlil qilingan. Demak, xalqimiz oldida turgan eng muhim, eng dolzarb vazifa — jamiyatimiz a‘zolarining qalbida milliy g‘oya, milliy mafkura, o‘z Vataniga mehr-sadoqat tuyg‘usini uyg‘otish, o‘zligini anglash ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Vatanparvarlik — bu ona zaminni sevish, e‘zozlash, o‘z ona-Vatani uchun jonkuyarlik qilish, o‘z xalqining milliy madaniyati, san‘ati, me‘morchilik yodgorliklarini asrab-avaylash, Vatan oldida mas‘uliyatli bo‘lishdir.

Shu boisdan ham Abdulla Avloniy «Turkiy Guliston yoxud axloq» nomli asarida: «Har bir kishining tug‘ilib o‘sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug‘ilgan, o‘sgan joyini jonidan ortiq suyar... Biz turkistonliklar o‘z vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumlik, issiq cho‘llarini, eskimoslar shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarni boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga hijrat qilurlar edi».

Vatanparvarlikni tarbiyalashda avvalo xalq og‘zaki ijodi katta rol o‘ynaydi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek: «Alpomish» dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqo‘y bo‘lishga, o‘z yurtimizni, oilamiz qo‘rg‘onini qo‘riqlashga, do‘st-u yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o‘rgatadi».

Vatanparvarlik ajdodlarimizdan avlodlarga meros bo‘lib o‘tayotgan buyuk tuyg‘udir. To‘maris, Shiroq, Spitamen, Mahmud Torobiy, Jaloliddin Manguberdi singari xalq qahramonlari, Mirzo Bobur, Qurbonjon Dodhoh, Dukchi Eshon, Namoz Pirmqulov va boshqalar jasoratlari hammamizga o‘rnak bo‘ladi. Istiqlol uchun kurashgan vatandoshlarimiz va ikkinchi jahon urushi yillarida jasurlik namunalarini ko‘rsatgan va uzoq joylarda qurbon bo‘lgan yurtdoshlarimizning jasorati qalbimizda mangu qoladi.

Inson uchun na davlat va na saltanat, na toj-u taxt, hech bir narsa Vatanga, el-yurt mehriga teng kelolmaydi. Zero, Vatandan judolik — inson uchun katta baxtsizlik. «O‘zbekiston fuqarolari uchun mustaqillikning muqaddas ramzlari: Davlat gerbi, Davlat bayrog‘i, Davlat madhiyasi azizdir. Ular ona-Vatan — O‘zbekiston Respublikasiga iftixor va cheksiz hurmat tuyg‘usini tarbiyalaydi.

Tinchliksevarlik — insonparvarlik va vatanparvarlik kabi shaxs ma’naviyatining asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Urush xavfidan xalos bo‘lish, tinchlikka intilish har bir ma’rifatli mamlakatning bosh g‘oyasidir. Shu boisdan ham mamlakatimizda islohotlarni amalga oshirish va taraqqiyotimizning asosiy shartlaridan biri sifatida tinchlik va barqarorlik ustuvor vazifa sifatida belgilab qo‘yilgan. Albatta, bu g‘oyani amalga oshirish, uni xalqimiz qalbi va ongiga singdirishda istiqlol mafkurasining ahamiyati benihoya kattadir.

Bashariyat o‘z taraqqiyotining barcha bosqichlarida, avvalo, tinch-totuvlikka intilib kelgan. Biroq, har doim ham bu maqsadga erishilavermagan. Tarixga nazar tashlasak,

inson ongli hayotining 6 ming yili davomida sodir bo‘lgan 14 ming 513 ta turli darajadagi urushlarda 3 mlrd 640 mln kishi qurbon bo‘lgan. Hisob-kitoblarga ko‘ra, agar mana shu son-sanoqsiz urushlar natijasida barbod etilgan qiymat — qadriyat oltinga aylantirilganda, Yerning ekvator aylanasi bo‘yicha uni qalinligi 10 metr, eni 8 km bo‘lgan oltin kamar bilan aylantirib chiqsa bo‘lar ekan.

Bu narsa urush va tinchlik, xavfsizlikni ta’minlash masalasi hanuzgacha insoniyat oldidagi eng olamshumul muammo bo‘lib kelayotganidan dalolatdir. Xolbuki, bashariyat faqat tinchlik va osoyishtalik barqaror bo‘lgan taqdir-dagina o‘z oliy maqsadlariga erishadi, moddiy va ma’naviy yuksaklikka ko‘tariladi.

Sohibqiron Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulug‘bek Movarounnahrda podshohlik qilgan 40 yil mobaynida mamlakatda tinchlik-barqarorlik ustuvor bo‘lgani sababli ilm-fan, madaniyat yuksak taraqqiy etgan, bunyodkorlik ishlari rivojlangan, ko‘hna zaminimiz gullab-yashnagan. Aksincha, urush nizolari insonni odamiylik qiyofasidan ayiradi, jamiyatni butkul tanazzulga botiradi. 20 yildan ortiq o‘zaro harbiy mojarolar tufayli sivilizatsiyadan batamom uzilib, dunyoning eng qoloq mamlakatlardan biriga aylanib qolgan Afg‘oniston buning yaqqol dalilidir.

Demak, tinch-totuv yashash ulkan siyosiy hamda ma’naviy masala bo‘lib, u davlatlarning o‘zaro hamkorlik, yaxshi qo‘shnichilik, bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik, har bir davlatning milliy mustaqilligi va suverenitetini hurmat qilish, zo‘ravonlik, kuch ishlatish siyosatidan voz kechish kabi qoidalarga asoslanadi.

Tinch-totuv yashash siyosati, avvalo, har bir davlatning to‘la teng huquqliligini, ularning bir-biriga tazyiq o‘tkazmasligini, o‘zaro ishonch va hurmatga asoslangan munosabatlarni har tomonlama rivojlantirish, chegaralarning daxlsizligini e’tirof etishni nazarda tutadi.

Tinchliksevarlikning eng muhim belgilaridan biri — dunyoning bir butunligini va yaxlitligini anglashdir. Shu

sababli Respublikamiz ba'zi davlatlar o'rtasidagi o'zaro nizolarni siyosiy vositalar bilan hal etish tashabbusi bilan chiqmoqda. Hozirgi vaqtda urush va tinchlik masalasi dunyodagi eng yirik va boy mamlakatlar qo'lidadir. BMT doimo tinchlik tarafdori bo'lsa-da, dunyoning turli joylarida olovli nuqtalar tinchlikka xavf solib turibdi. O'zbekiston o'z xavfsizligini mustahkamlash maqsadida BMTning «Tinchlik uchun sherikchilik» dasturi mashqlarida qatnashmoqda. Urush olovini yoquvchilar tuban va ma'naviyatsiz kimsalardir. XXI asrda dunyoni ma'naviyat qutqaradi.

Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov mustaqil O'zbekiston davlatini jahon hamjamiyatiga tanitishda, xalqaro va tinchlik siyosatini yuritishda hamisha rahnamo bo'lib kelmoqda.

Xullas, insonparvarlik, vatanparvarlik va tinchliksevarlik Sharq xalqlari hayotiy tajribasi va taraqqiyotida asosiy ma'naviy mezonlardan bo'lib kelgan. Bugungi demokratik huquqiy jamiyatni shakllantirishda ham bu tushunchalar e'tibordan chetda qolayotgani yo'q. Aksincha, bugungi yangi jamiyatning ham asosiy poydevori ayni shu tushunchalar zaminida qad rostlamoqda. Bu esa jamiyat a'zolaridan ma'naviy yetuklik va yuksak ongilikni talab qiladi.

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR

Odam, shaxs, inson, insonparvarlik, insonparvarlik jamiyati, «Inson manfaatlarini yili», milliy o'zlikni anglash, Suqrot, milliy g'urur, milliy iftixor, milliy xarakter, Vatan tuyg'usi, Vatanga muhabbat, Cho'lponota bayonoti, «Turkiston — umumiy uyimiz», vatanparvarlik.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Vatan tushunchasi nima?
2. «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir», «Vatanni sevmoq iymondandir» tushunchalarini izohlang.
3. Vatanparvarlik haqida o'tmish mutafakkirlari fikrlaridan namunalar keltiring.

4. Navoiy ijodida insonparvarlik g'oyalarning kuylanishi: Odamiy ersang, demagil odami, onikim yo'q xalq g'amidin g'ami.

5. Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan 1997-yilni «Inson manfaatlari», 1998-yilni «Oila», 1999-yilni «Ayollar yili», 2000-yilni «Sog'lom avlod», 2001-yilni «Onalar va bolalar», 2002-yilni «Qariyalarni qadrlash», 2003-yilni «Obod mahalla» yili, 2004-yilni «Mehr va muruvvat yili» deb belgilanishini insonparvarlik asosida sharhlang.

6. Qomusimizning insonparvarlik g'oyalari bayon qilingan moddalaridan misollar keltiring.

7. Mustaqil O'zbekistonning insonparvarlik siyosati nimalarda ko'rinadi?

8. Tinch-totuv yashash, tinchliksevarlik haqida Vatanimiz tashqi siyosatidan misollar keltirish.

TOPSHIRIQ

Insonparvarlik, vatanparvarlik, tinchliksevarlik fazilatlarini belgilovchi quyidagi so'zlarning ma'nosini izohlang.

T/r	Fazilatlar	Izoh
1.	Kishilarga g'amxo'rlik	
2.	Inson qadrini bilish	
3.	Inson erkinligini tan olish	
4.	Qobiliyatlarni tarbiyalash	
5.	Inson baxt-saodati uchun kurashish	
6.	Teng huquqlilikni tan olish	
7.	O'z yurtiga muhabbat	
8.	Ona zaminni himoya qilish	
9.	Vatan ozodligi uchun jonini ayamasklik	
10.	Mustaqillikni mustahkamlash	
11.	Fidoyilik, jasorat	
12.	Urushlarga qarshi chiqish	
13.	Tinch-totuv yashashni targ'ibot qilish	

15-§. SHAXS MA'NAVIYATINING ZOHIRIY (TASHQI) VA BOTINIY (ICHKI) ALOMATLARI, ULARNING NAFOSAT BILAN MUNOSABATI

Ma'naviyat va inson faoliyati

Ma'naviyat jamiyat hayoti va inson faoliyatining barcha sohalarida namoyon bo'ladi. «Ma'naviyat» so'zining qan-

chalik ko'p qirrali va purma'no ekanligi to'g'risida Islom Karimov shunday yozadi: «Er, oila, ota-ona, bolalar, qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar, xalq, mustaqil davlatimizga sadoqat, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, vijdon, erkinlik — ma'naviyatning ana shunday ma'nosi keng».

Ma'naviyat ishlab chiqarish madaniyatida va me'morchilik-qurilishda ham namoyon bo'ladi. Ishlab chiqarilayotgan har bir mahsulot toza, sof, insonni o'ziga tortadigan, inson sog'lig'iga zarar keltirmaydigan bo'lishi kerak. Me'morchilik-qurilish obyektlari esa insonga estetik zavq beradigan, uni hayratlantiradigan, hayotga muhabbat uyg'otadigan va ilhomlantiradigan bo'lmasa odamlar u yerga bormaydilar. Odamlar yurtimizning buyuk me'morchilik inshootlarini dunyoning turli burchaklaridan kelib ko'rib ketishlarining siri ham ana shundadir.

**Shaxs
ma'naviyatining
botiniy belgilari**

Ish (o'qish) joylarini, hovlilar va uylarni hamda buyumlarni tartibli, ozoda tutish, iqlim sharoiti va milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda orasta kiyinish, jamoat o'rtasida, shuningdek, ota-onalar, qarindosh-urug', qo'ni-qo'shni, keksalar, erkak va ayol, do'st-birodarlar oldida o'zni tuta bilish, xushmuomalalik, kamtarlik shaxs ma'naviyatining zohiriy belgilari hisoblanadi.

Iymon, diyonat, fidoyilik, vijdonlilik, mehr-shafqat, poklik va halollik singari fazilatlar shaxs ma'naviyatining eng muhim botiniy belgilaridir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kishilar, ayniqsa, yoshlar o'rtasida mazkur fazilatlarining ahamiyati ortadi.

Ajdodlarimiz insonning botiniy va zohiriy olamini poklashga, ma'naviy dunyosini boyitishga katta e'tibor berganlar. Tasavvuf ta'limoti vakillari faoliyati bunga misol bo'la oladi. Gap shundaki, hazrat Muhammad Mustafo alayhissalom vafotlaridan keyin musulmonlar jamoasi ichida bo'linish yuz berdi, ayniqsa, xalifa Usmon zamonida boylikka ruju qo'yish, qimmatbaho tuhfa bilan qarindosh-urug'lar, yaqin do'st-birodarlarni siylash rasm bo'ldi. Ummaviylar xalifaligi davriga kelib esa, saroy hashamlari,

dabdabali bezaklar, oltin-kumushga berilish, xazina to‘plash avj oldi. Ya’ni diniy mashg‘ulotlar, xudo yo‘lidagi toat-ibodat o‘rnini dunyoviy ishlar, dunyo moliga muhabbat egallay boshladi. Bu hol diniy amrlarni ado etishni har qanday dunyoviy ishlar, boyliklardan ustun qo‘ygan e’tiqodli kishilarning noroziligiga sabab bo‘ldi. Ularning bir qismi dinni himoya qilib, ochiq kurashga otlangan bo‘lib, ikkinchi qismi qanoat va zuhdni («zohid» so‘zi «zuhd» so‘zidan kelib chiqqan) asosiy maqsad qilib, saroy ahli va sarvaddorlar (boylar) axloqiga qarshi norozilik belgisi sifatida tarkidunyochilik g‘oyasini targ‘ib etgan, ijtimoiy faoliyatdan butunlay chetlanib, surunkali toat-ibodat bilan shug‘ullangan.

Zohidlar uzlat va taqvonni peshva etgan bo‘lishlariga qaramay, ishq va irfon (ma’rifat)dan bexabar kishilar edilar. Falsafiy mushohadakorlik, ajzu irodat bilan ma’naviy-axloqiy kamolot sari intilish, valiylik, karomat —mo‘jizalar ko‘rsatish zohidlarda yo‘q edi. Zohidlarning niyati taqvo yo‘li bilan oxirat ma’rifatini qozonish, Qur’onda va’da qilingan jannatning huzur-halovatiga yetishish edi. So‘fiylar nazarida esa jannat umidida toat-ibodat qilish ham tamaning bir ko‘rinishidir.

Shaxs ma’naviyatining zohiriy (tashqi) alomatlariga quyidagi holatlarni kiritish mumkin. Bular orasta va pokiza kiyinish, o‘zini o‘zgalardan ustun qo‘yishga, manmanlikka bormaslik, kamtarlik, ota-ona, aka-uka, ustoz, qariyalar, qarindosh-urug‘, qo‘ni-qo‘shni do‘st-u birodarlarga hurmat bajo keltirish, ig‘vo va fitnalardan uzoq yurish, o‘zaro muomalada oddiylik va soddalikdir.

Quyida ulardan ba’zilariga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz:

Orasta va pokiza kiyinish. Inson uchun yuzi uning axloqi va qalbidagi niyatini aks ettiruvchi ko‘zgudir. Unda har xil buyukliklar bilan birga, tubanliklar ham ko‘rinishi mumkin. Beruniyning ta’kidicha: «Ko‘rinishda go‘zallik va xushbichimlik ham insonlar nazdida mahbub sanaladi. Insonlar

oʻzlari uchrashadigan shaxslarda shunday holat — xushroʻylik va xushbichimlikni koʻrishni istaydi. Hatto boshqa mamlakatlarga elchi sifatida odam yuborilmoqchi boʻlsa, xushroʻy va xushbichimlarni va ismlari yaxshi boʻlgan kishilarni yuborish talab qilingan». Bu dono soʻzlar bugungi kunda ham davlatimiz tashqi siyosatida muhim ahamiyatga ega, deb bilamiz.

Kamtarlik (tavoze) — oʻzini oʻzgalardan kam koʻrmaslik hamda boshqalarni izzat-u hurmat qilmoqlikdir. Bu xislatning davlatmand va mansabdor kishilarda boʻlmogʻi goʻzal fazilatdir. Hadisi sharifda: «Kimki tavoze qilsa, Alloh taolo uning martabasini ulugʻ qilur», — deyiladi.

Oʻzbek xalqi milliy qadriyatlarida, urf-odatlarida kamtarlik ulugʻlanib, takabburlik, manmanlik, firibgarlik, maqtanchoqlik keskin qoralanadi. «Kamtar boʻlding — gavhar boʻlding», «Kamtar boʻlsang, osh koʻp, manman boʻlsang, tosh koʻp», «Kamtarlikning kamoli bor», «Kamtarga kamol, manmanga zavol» degan oʻgit-u maqollarda kamtarlikning fazilatlarini aytib oʻtilgan.

Albatta, bu fazilatlarini inson dastlab oilasida oʻrganadi, soʻngra esa maktabdan. Shu sababli Fitrat: «Hayot yoʻlidagi birinchi masala maktab masalasidir», — deb bejiz taʼkidlamagan edi.

Hurmatni bajo keltirish. Ota-ona, aka-uka, ustoz, qariyalar, qarindosh-urugʻ, qoʻni-qoʻshni, doʻst-u birodarlarga hurmatni bajo keltirish yoxud haqlarini ado etishda, eng avvalo, Alloh taolo ato etgan neʼmatlarga shukrona aytish lozimdir.

Undan soʻng, ustoz, ota-ona, qarindoshlar, yetimlar, miskinlar, musofirlar va qoʻshnilar haqini ado etmoqlik har bir inson zimmasidagi burchdir. Ota-ona haqini ado etmoq xususida Hadisi sharifda: «Ota-onasi rozi boʻlgan kimsadan men ham roziman», — deb aytilgan. Onaning oʻz bolasidan xushnudligi otaning duosidan ortiqroq natija beradi. «Ota-onasining xizmatini qilgan va ularning koʻrsatgan mehr-u shafqatlari haqini ado etgan moʻmin-musulmonlar jannatga kirurlar».

Ig'vo — oraga nizo, nifoq solishga, ittifoqni buzishga, buzg'unchilikka qaratilgan xatti-harakat, yolg'on-yashiq, uydirma, bo'hton va shu kabilardir. G'iybat deb bir kishining kamchilik va qusurini orqasidan so'ylamakka aytilur. Ig'vo, g'iybat soyasida ikki inson — musulmon orasiga dushmandlik tushadi, — deydi Abdulla Avloniy.

Fitnalardan uzoq yurish. Fitna — g'arazli maqsadga erishish yo'lida birovni qoralash uchun yashirin til biriktirish yo'li bilan biror shaxs yoki tashkilotga qarshi qilingan harakat.

O'zaro muomalada oddiylik. Oddiylik — axloqiy barkamollikning bosh sharti. Oddiylik eng olijanob fazilat hamdir.

Tabiatni sevish. Tabiatdan to'g'ri foydalana bilishni tarbiyalash ekologik tarbiya va madaniyatning asosi bo'lib, kishilarda tabiat oldida mas'uliyatni anglash malakasini hosil qiladi.

Ekologik tarbiya kishilarga maxsus ekologik bilim va tarbiya berib, ularda bu sohada muayyan malaka hosil qilish; ekologik o'zgarishlarni oldindan ko'ra bilishni tarbiyalash; ekologik madaniyatni singdirish va tarbiyalash; kishilarni tabiat «in'omlari»dan to'g'ri foydalanish ruhida tarbiyalash kabi masalalarni o'z ichiga oladi.

Aqli teranlik — aql mohiyati jihatidan yagona bo'lsa-da, odamlarning aqliy darajalari har xil. Barcha insonlar aqlga egaliklari bilan bir xildirlar, lekin aqliy darajalari bilan bir-birlaridan farq qiladilar. Yer yuzida qancha odam bo'lsa, hammasi aqllilik darajalari jihatidan, millionlarning biricha bo'lsa-da, farqlanadi.

**Shaxs
ma'naviyatining
zohiriy belgilari**

Botin kishilari — dunyo lazatlaridan ko'ngil uzgan, ammo zohidlarga o'xshamaydigan, zehn-u zakovat, aql-u farosatda tengsiz, o'zga mutafakkirlar, faylasuflardan ajralib turadigan, shariat ilmini suv qilib ichgan, toat-u ibodatda mustahkam, lekin oddiy dindordan farqlanadigan ajoyib xislatli odamlar toifasidir. Ular ruh kishilari edilar. Ularning fe'l-atvori, yurish-turishi, fav-

qulodda (odatdan tashqari) soʻzlari va ishlari atrofdagilarni hayratga solar, baʼzilarning gʻoyibdan bashorat beruvchi karomatlari, sirli moʻjizalari aqllarni lol qoldirardi. Ularni ahlulloh, avliyo, ahli hol, ahli botin, arbobi tariqat, darvesh, qalandar, faqir degan nomlar bilan tilga oladilar. Ammo bu toifaga nisbatan «soʻfiy» nomi koʻproq qoʻllanilgan, holbuki botiniy kishilar, yaʼni soʻfiylar uchun na dunyodan, na oxiratdan tama boʻlmasligi kerak. Mashhur soʻfiy, oʻzining chuqur botiniy dunyosiga ega boʻlgan ayol Robia al-Adviya (714—801) Tangriga munojotlarida nola qilib aytar ekan: «Ey, Parvardigorim, ey Yori aziz, agar jannating tamasida toat qiladigan boʻlsam, jannatingdan benasib et, agar doʻzaxingdan qoʻrqib ibodat qiladigan boʻlsam, meni doʻzax oʻtida kuydir, ming-ming roziman! Ammo agar Sening jamolingni deb tunlarni bedor oʻtkazar ekanman, yolboraman, meni jamolingdan mahrum etma!»

Soʻfiylar fikricha, Tangri taologa quruq, koʻr-koʻrona mutelikning hojati yoʻq. Xudo gʻazabidan qoʻrqibgina amri maʼrufni bajarish sadoqat belgisi emas, balki riyodir. Shuning uchun soʻfiylar Allohni jon-dildan sevish, uning zoti va sifatlarini tanish va bilish, koʻngilni nafs-u hirs gʻuboridan poklab, botiniy musaffo bir holatda Iloh vasliga yetishish va bundan lazzatlanish gʻoyasini keng targʻib qildilar.

Shaxs maʼnaviyatining botiniy alomatlari qalb tozaligi, halollik, samimiylik, mehr-shafqat, hayo, oqkoʻngillik, adolatparvarlik, iymon, diyonat, taqvo, or-nomus kabi axloqiy tushunchalarni qamrab oladi. Quyida ularning har biriga qisqacha toʻxtab oʻtamiz.

Qalb tozaligi. Qalb yurak, dil maʼnolarini bildiradi. Kishining ruhiy yoki maʼnaviy dunyosi, ichki his-tuygʻulari markazi ramzidir.

Halollik. Vijdon bilan insof yuzasidan ish tutish, toʻgʻrilik, soflik, vafodorlik. Halollik har qanday martabani bezaydi. Halollik, toʻgʻrilik — katta baxt. Oʻz halolligini namoyish etish koʻproq xushxulq odamga yarashadi. «Yuksak maʼnaviyat — yengilmas kuch» kitobida aytilganidek:

«Muqaddas kitoblarimiz va qadriyatlarimiz, buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi bizni doimo halol mehnat bilan yashashga, mardlik, saxovat, kamtarlikka chaqiradi, lekin, shu bilan birga, hayotda bu kabi da'vatlarga amal qilishga intiladigan odam ko'pincha turli qiyinchiliklar, hatto azob-u uqubatlarga duch kelishini kuzatish qiyin emas». Harom, haromxo'rlik kabi illatlarga misollar juda ko'pdir.

Samimiylik. Sidqidillik, chin qalbdan, yurakdan, dildan chiqqan. Samimiylik haqiqatning joni va halol odamning peshonasiga yozilgan belgisidir (D. Didro). Samimiylik — og'ir va juda nozik masala, u aql va chuqur ma'naviy odobni talab etadi (V. V. Veresayev). Samimiylik sofdillikdir. Bu fazilat kamdan-kam odamda bor.

Mehr-shafqat. Mehr insonning o'z tug'ishganlariga, yaqin kishilarga va umuman odamga bo'lgan samimiy muhabbati, shafqati, rahmdilligi; shafqat — biror kimsaga achinish, ayash, rahmdillik, mehribonlik kabi ma'nolarni bildiradi. Mehr-muruvvatli, shafqatli ma'nolaridan tashqari, ba'zan egizak, qo'shaloq holda ishlatilib, yetim-yesirlarga, nogironlar, qarovsiz qolgan qariyalar, g'ariblarga, muhtojlarga nisbatan moddiy va ma'naviy yordam berishdir.

«Hadis namunalari»da bitilgan shunday so'zlarga e'tibor bering: Odamlarga yaxshilik qilish va qarindoshlar bilan yaqin aloqada bo'lib hol-ahvol so'rashib turish bu savobi tez tegadigan xayrli ishlardandir. Zulm va qarindoshlardan uzilib ketishlik esa jazosi tez bilinadigan yomon ishlardandir.

Ba'zida mehr-muruvvat (odamgarchilik) kishining o'zi, urug'-aymog'i, yaqinlari, shogirdlari, do'stlari va hatto begonalar ahvoliga achinish, yordam ko'rsatish kabi ma'nolarda ishlatiladi. Mardlik (futuvvat) esa undan ham ustun bo'lib, o'zidan tashqari, ya'ni jamoa, el orasida o'zining odamgarchiligi bilan tanilgan kishilarga nisbatan aytiladi.

Muruvvatli, mard kishi barcha ishni o'z manfaati nuqtayi nazaridan emas, balki adolat yuzasidan hal qiladi.

Mardlik. Mardlik (futuvvat) undan ham ustun bo'lib, o'zidan tashqari, ya'ni jamoa, el orasida o'zining odam-

garchiligi bilan tanilgan kishilarga nisbatan aytiladi. Shu sababli Islom Karimov: «... mehr-oqibat, muruvvat, or-nomus, sharm-hayo kabi fazilatlar xalqimizni ko'p jihatdan ajratib turadi», deb alohida ta'kidlaydi.

Muruvvatli, mard rishi o'ziniki ekanligiga hech kim shubha qilmaydigan narsadan boshqasiga egalik qilmaydi. Barcha ishni o'z manfaati nuqtayi nazaridan emas, balki adolat yuzasidan hal qiladi.

Hayo — uyatchanlik. «Bir ketgan uyat qaytib kelmay-di», «Dilda dog' ko'tarib yurgandan ko'ra betning qizarga-ni afzal», deydi xalqimiz. Lekin tilimizda hayosiz deyilganda uyatsiz ish qilganda xijolat chekmaydigan, adabsiz kimsa tushuniladi.

Oqko'ngillik — oqko'ngil odam ko'ngli toza, aldamchi-lik, mug'ombirlikni bilmaydigan insondir. «Inson chehrasi hamisha uning ichki olamini aks ettiradi, shu sababli fikr yuzda aks etmaydi, deb o'ylash xatodir» (A. Shopengauer).

Adolatparvarlik — adolat (arabcha — odillik, to'g'rilik) — ma'naviy barkamollikka erishishning asosiy fazilatlaridan biri bo'lib, axloq va huquqning me'yoriy kategoriyasidir. Bu kategoriyada mavjud muayyan voqelik inson mohiyati va huquqiga mos yoki mos emas (adolatsizlik), deb talqin qilinadi. Abdulla Avloniy adolatga shunday ta'rif beradi: «Adolat deb boshqalarning mol va nomusini rioya qilmakni aytilur. Adolatli va marhamatli kishilar o'ziga loyiq ko'r-magan bir ishni o'zgalarga ravo ko'rmas. Kishi adolat va insoniyat vazifasini yolg'uz o'zi buzuq ishlardan saqlanmak ila ado qilolmas, balki o'zi ila barobar jinsdoshlarini xato va fanoliklardan tuzatmak va yaxshi yo'lga sa'y qilmak ila ado qila bilur. Adolatni rioya qilgan kishilar hech bir kishiga jabr-zulmni xohlamas va jonli narsalarga bekorga ozor bermas. Aql va shariatga muvofiq ravishda harakat qilur. Jabr-u zulm ila boshqalarning diliga ozor bergan kishilarning yoqalari jazo qo'lidan qutula olmas. Zero, janobi haqning adolati zolimlarning jazo va sazosini bermakda».

Shuni ham ta'kidlash joizki, ma'rifatli jamiyat ma'rifatli shaxslardan tarkib topadi. Bunday jamiyat shukuhli va fayzli

bo‘ladi. Odam bolasiga nomunosib turli illatlar, yuzaga kelgan ruhiy aziyatlar barham topadi.

Xalqimizning ruhiga jarohat yetkazgan totalitar tuzum g‘ayriaxloqiy siyosatining asoratini keskin tugatish mustaqillikning ilk kunlaridanoq hayotiy zaruriyatga aylandi. Shuning uchun ham Prezident Islom Karimov: «Biz shunchaki demokratik davlat emas, balki adolatparvar demokratik davlat qurishga intilyapmiz. Adolatga intilish — xalqimiz ma‘naviy-ruhiy dunyosiga xos eng muhim xususiyat. Adolatparvarlik g‘oyasi butun iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tizimiga singib ketishi, ijtimoiy ko‘maklashuv mexanizmida o‘z aksini topishi kerak», deya ta‘kidlagan edi.

Iymon — arabcha so‘z bo‘lib, lug‘aviy ma‘nosi ishonchdir. Shariatda esa janob Payg‘ambarimiz Muhammad alay-hissalomga Alloh taolo tarafidan yuborilgan barcha xabarlariga til bilan iqror etib, dil bilan tasdiqlashga iymon deyiladi, ya‘ni Qur‘oni karim va hadisi shariflar orqali Alloh to‘g‘risida, jannat va do‘zax, qiyomat kabi g‘oyibiy narsalar haqida berilgan xabarlar ishonch — iymondir.

Iymon barcha dinlarning ustuni sanaladi. Jumladan, zardushtiylik iymoni 3 tayanchga: 1) niyat — fikrning sofli-giga; 2) so‘zning sobitligiga; 3) amallarning insoniyligiga suyanadi. Iymonli kishi o‘g‘rilik va talonchilikdan, o‘zgalarning mol-mulkiga ko‘z olaytirishdan, birovning haqiga xiyonat qilishdan, o‘zligiga, ya‘ni iymonga xilof, zid ish qilishdan o‘zini tiya biladigan komil insondir.

Hozirgi paytda iymonli odamni qisqacha shunday tavsiflash mumkin: e‘tiqodli, o‘zining aniq maslagiga ega, taqvodor, hamiyatli, oriyatli, or-nomusli, sharm-hayoli, vijdonli, andishali, insofli va shu kabi fazilatlar sohibidir.

Diyonat — (arabcha — ishonmoq) halollik, sofdillik, nomus, vijdon kabi ma‘nolarni ifodalaydigan axloq kategoriyasi. Diyonat — vijdonlilik, insof ma‘nolarini bildiradi. Islom dinida yuqoridagi ma‘nolardan tashqari, taqvodor, xudojo‘y, dinning barcha aqidalarini bekam-u ko‘st bajara-digan mo‘minlarga nisbatan ham qo‘llaniladi. Diyonat,

shuningdek, diniy qonun-qoidalarga qattiq rioya etish, dindorlik, taqvodorlik ma'nolarini ham bildiradi.

Rahm-shafqatlilik — biror kishiga yoki jonivorga ko'rsatilgan mehribonchilik va marhamatdir. Kimki boshqalarga rahm-shafqat qilmasa, uning o'ziga ham hech kim rahm-u shafqat qilmaydi.

Halollik haqida bitilgan hikmatlarning birida shunday deyiladi: «Kimda-kim halol yo'l bilan badavlatlikka intilsa, u o'zi uchun ham, jamiyat uchun ham foydali odamdир».

Taqvo — iymonning bosh mezonlaridan biri bo'lib, u noto'g'ri ishga qo'l urishda Allohdan qo'rqish, yomon ishlardan saqlanishdir. Taqvo — mustahkam diniy e'tiqod, xudojo'ylik, dindorlik; harom-harishdan o'zini saqlash, tiyish kabi ma'nolarni ham bildiradi. Allohdan qo'rquvchi banda oilada, jamiyatda halol yashaydi, haromga qo'l urmaydi, oxiratda javob berishini o'ylab, birovning haqiga xiyonat qilmaydi, to'g'ri bo'ladi, poraxo'rlik qilmaydi, qasamxo'r bo'lmaydi, birovni aldamaydi, yolg'on gapirmaydi, kishilarga, Vatanga xiyonat qilmaydi va hokazo.

Or-nomus — iymonli bo'lishning belgilaridan biri sanaladi. Or qilish o'ziga nomunosib yoki ep ko'rilmagan ishdan, narsadan xijolat tortish, uyalish tuyg'usi, uyat, nomus; obro', faxr ma'nolarini bildiradi. Or yana biror narsadan hazar qilishni ham bildiradi.

Oriyat esa, or-nomusdan tashqari, izzat-nafs, qadr tuyg'usidir. Odatda, oriyatli odamlar o'zlari va oilalarining, tug'ishganlarining izzat-nafsi, qadri, hurmatini yuksak tutib, boshqalar tomonidan toptalishi, haqorat qilinishi, hurmatsizlanishiga befarq qarab turmaydi.

Nomus — kishining o'z obro'sini ulug'lash va ardoqlash his-tuyg'usi, oriyat, diyonat, vijdon; xijolat tortish his-tuyg'usi, uyat-andisha, sharm, hayo, or; qiz pokligi, iffat, qizlik kabi ma'nolarda ishlatiladi. Nomus — bu iffat, bokiralik ma'nolaridan tashqari, kishining oila va ajdodlari sha'niga dog' tushurmaslik ma'nolarini ham ifoda etadi. Tariximizga bir nazar solsak, ota-bobolarimiz, xalqimiz qadimdan or-nomusli, oriyatli bo'lib kelgan. Shu boisdan

ham o‘z yurti, tuprog‘i, onalari, farzandlarining bosqinchilar tomonidan toptalishiga yo‘l qo‘ymagan, buni o‘zlariga or deb bilgan. Or-nomuslilik mohiyatida vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg‘ularini sezish mumkin.

Abdulxoliq G‘ijduvoni insonning o‘z ichki dunyosini tozalashi bilan bog‘liq psixologik jarayonni 3 bosqichga bo‘ladi:

1. Inson ichki dunyosidagi barcha noma‘qul xatti-harakatlarni chuqur anglash.

2. Shu noma‘qul harakatlardan xoli bo‘lish.

3. Ularni bundan keyin qilmaslikni maqsad etish.

Inson hayotda to‘g‘ri va noto‘g‘ri harakat qilganini, avvalo, oilada, keyin jamiyatdan va buyuk madaniy-ma‘rifiy merosimizdan anglab boradi.

Insonning ruhi ilohiydir va demak, asosiy maqsad ilohiy olamga borib qo‘shilishdir.

Buyuk Navoiy ham tuyuq, fard, ruboiy va hikoyatlarida kishilardagi insonparvarlik va mehnatsevarlikni ulug‘lagan. Shu o‘rinda bir hikoyatga murojaat etsak. Unda aytilishicha, Navoiy har kuni bir aravakash yigit xalqning og‘irini yengil qilib, loyga botib qolgan aravalarni tortib chiqarishga yordam berayotganini ko‘rib, unga hurmat bilan salom berib o‘tar edi. Yigit shoirning e‘tiboridan hayron bo‘lib, shu e‘tiborga loyiq bo‘lish uchun taqvoga beriladi. Ertasi kuni tasbeh o‘girib o‘tirgan yigit shoirga salom beradi. Navoiy esa, hattoki, yigitning salomiga alik ham olmaydi. Ertasiga ham shu holat takrorlanadi. Shunda u Navoiyning yoniga borib, buning sababini so‘raganida, Navoiy shunday deb javob beradi: «Sen ilgari kishilarning og‘irini yengil qilding, hozirgi holatingda esa xalqqa hech qanday nafing tegmaydi. Ular bergan bir-ikki chaqa pul bilan kun o‘tkazasan». Navoiy hurmatining boisini tushungan yigit yana o‘z hunarini davom ettiradi.

Bu hikoyatda Navoiy insonparvarlik g‘oyasini ilgari surgan. Demak, insonparvarlik, vatanparvarlik, tinchlik-sevarlik shaxs ma‘naviyatining botiniy belgilaridan ekan.

Yangi axloqiy qarashlar insonparvarlik va vatanparvarlik a'moli tevaragida shakllanishi lozim. Bejiz emaski, mamlakatimizda insonparvarlik umuminsoniy qadriyatlardan biri, vatanparvarlik esa mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlaridan biri sanaladi.

Xalqning ongi tubida milliy g'ururi, milliy qadr-qimmat bilan bog'liq Vatan tuyg'usi doimo yashirin, mudroq holatda bo'ladi va tashqi xavf tug'ilganda yuzaga chiqib, xalqni Vatan himoyasiga safarbar etadi. Ushbu xislatlarning barchasi, ta'kidlab o'tganimizdek, botiniy alomatlardandir.

**Ma'naviy
qashshoqlikni
yo'qotish**

Ma'naviy qashshoqlikni va uning ijtimoiy oqibatlarini bartaraf etish uchun odamlarda dil va saviyani tarbiyalash lozim. Og'zaki va yozma adabiyot, tasviriy san'at, xalq amaliy san'ati, musiqa, kino, teatr, televideniyaning bu boradagi imkoniyatlaridan foydalanish zarur. Shunga erishish kerakki, har bir fuqaro:

1. San'atning obrazli tasvir vositalari mazmunini anglay bilsin, ma'naviy tahdidlarni tushunib yetsin.

2. G'oyasi haqida mustaqil fikrga ega bo'lsin va uni bayon qila olsin, ulardan o'z faoliyatida foydalansin.

3. Asarlardan zavqlana bilsin, ulardan ibrat va ruhiy quvvat olsin va boshqalarga tashviqot qilsin.

4. Mamlakatda ro'y berayotgan o'zgarishlarni chuqur idrok qilish, ularda faol qatnashsin.

Bularning barchasi shaxs ma'naviyatining ichki va tashqi alomatlarini shakllantiradi. Inson hayoti va faoliyatida, dunyoqarashida muayyan o'zgarishlar yasaydi.

Umuman, ma'naviyat yuqoridagi insoniy fazilatlarining shaxs kamolotidagi o'rnidir. Ma'naviyatning ichki va tashqi alomatlarini shakllantirish turli omillarga: ta'lim-tarbiya jarayoni, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy muhit va diniy e'tiqod kabilarga bog'liq. Bu esa ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash uzoq muddatli jarayon ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, shaxs ma'naviyatining tashqi va ichki alomatlarini, ularning qay darajada mu-

kammalligi jamiyatga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Uni doimo boyitib, yaxshi tomonga yo'llab borish har bir fuqaroning burchidir. Prezident I.A. Karimov ta'kidlaganidek: «Chinakam insoniy fazilatlarga ega bo'lgan yoki ega bo'lishga intilgan odam demokratiya ne'matlarining oddiy iste'molchisi emas, balki ularning faol yaratuvchisi va himoyachisiga aylanadi. Demokratiya, fuqarolik jamiyati asoslarini amalda barpo etish, inson haq-huquqlari va erkinliklarini ta'minlashi mumkin bo'ladi. Shundagina inson o'z mamlakatining tom ma'nodagi munosib fuqarosi bo'la oladi».

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR

Shaxs ma'naviyati, zohiriy, botiniy, nafosat, iymon, diyonat, zohidlar, kamtarlik, ekologik tarbiya, qalb tozaligi, halollik, samimiylik, adolat-parvarlik, taqvo, ma'naviy qashshoqlikni yo'qotish.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Ma'naviyatning inson faoliyatidagi rolini izohlang.
2. Shaxs ma'naviyatining zohiriy belgilari nima?
3. Kamtarlik yaxshimi? Yoki zararli tomoni ham bormi?
4. Shaxs ma'naviyatining botiniy belgilari qanday?
5. Iymon tushunchasini izohlang.
6. Ma'naviy qashshoqlikni yo'qotish uchun nimalar qilish kerak?

TOPSHIRIQ

Shaxs ma'naviyatining botiniy belgilari haqida ma'lumotlar to'plab bahs yuriting.

16-§. MAROSIMLAR — XALQ VA SHAXS MA'NAVIYATI KO'ZGUSI

Marosimlarning xalq hayotidagi o'rni Har bir xalqning o'ziga yarasha urf-odatlarini, marosimlari bo'ladi. Agar biz dunyo xalqlarining hayotiga nazar tashlasak, bir-biriga o'xshamagan, turli-tuman marosimlarni ko'ramiz.

Marosimlar jamiyat, xalq va shaxs hayot faoliyatidagi muhim o'zgarishlar, ijtimoiy ahamiyatga molik voqea-

hodisalar bilan bog‘liq bo‘lib, ular ibrat orqali tarbiyalash, ruhiy-estetik ta‘sir ko‘rsatish vazifasini bajaradi. Marosimlarda milliy, diniy urf-odatlar va rasm-rusumlar ham o‘z ifodasini topadi.

O‘zbek xalqining paydo bo‘lishi tarixi qanchalik uzoqqa borib taqalsa, uning milliy an‘analari, urf-odatlari, marosimlari ham shunchalik teran tarixiy ildizga ega. Ular xalqning ma‘naviy ehtiyojlari zaminida paydo bo‘lib, shakllanib, sayqallanib, o‘z mazmunida shu xalqning orzu-o‘ylari, istaklari, turmush tarzi, axloq normalarini mujassam etadi. Shuning uchun ham har bir xalq, millat, elat ularni ko‘z qorachig‘iday avaylab-asrashi, taraqqiy ettirishi, kelgusi avlodlarga ma‘naviy qadriyat sifatida yetkazmog‘i lozim. Darhaqiqat, an‘analar, urf-odatlar, marosim va bayramlar xalqning, millatning ma‘naviyati, qadriyatlarining ajralmas qismidir.

Chunki asrlar mobaynida shakllangan, avloddan-avlodga bebaho va noyob meros sifatida sayqallanib, to‘ldirilib, xalqchillashib, zamonaviylashib kelayotgan urf-odatlar va marosimlar milliy istiqolol g‘oyasi va milliy istiqolol mafkurasini xalqimiz qalbi va ongiga singdirishda muhim vositadir. Bugungi kunda eng sara urf-odat va an‘analari-mizning jamiyatni birlashtiruvchi, xalqimizni jipslashtiruvchi, odamlar o‘rtasida mehr-oqibatni kuchaytiruvchi, ularni safarbar etuvchi xususiyatlaridan yanada samaraliroq foydalanish lozim. «Milliy an‘analarni o‘rganish, targ‘ib etish bilan bir qatorda, — deb yoziladi «Milliy istiqolol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» kitobida,— to‘y-ma‘rakalarni, odat va udumlarni ixchamlashtirish, bu boradagi isrofgarchilik va dabdababozlikka yo‘l qo‘ymaslikka alohida e‘tibor qaratish darkor».

Professor I. Jabborovning yozishicha: «Bayramlar va marosimlar ijtimoiy va shaxsiy hayotning barcha tomonlarini qamrab oluvchi va kishilar o‘zaro munosabatlarining turli jihatlari va shakllarida namoyon bo‘luvchi muayyan urf-odatlar va an‘analar, axloqiy tamoyillar va huquqiy tartibotlarning tarixan shakllangan yig‘indisidir».

Ularning muhim belgilari va xususiyatlari barqarorligi, om-maviyligi, rivojlanishidagi takroriyliigi, davomiyligi va uzluksizligidadir.

Odat tusiga kirgan marosimlar kishilar xulq-atvorini boshqarar ekan, nafaqat jamoatchilik fikri nufuziga, balki qabul qilingan va qaror topgan qonun-qoidalar kuchiga ham suyanadi.

**Umumxalq
bayramlari —
marosimlar gultoji**

Har bir xalqning o‘z umumxalq bayram-lari bor. Chunki umumxalq bayramlari marosimlar ichida eng go‘zali, chiroylisi yoki gultojidir. O‘zbek xalqining shun-day go‘zal shodiyona kunlaridan biri — Mustaqillik bay-ramidir.

1991-yil 31-avgustda XII chaqiriq O‘zbekiston Oliy Ken-gashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasi «O‘zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligini e‘lon qilish to‘g‘-risida» Qaror qabul qildi. Qarorda: «1-sentabr O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb belgilansin va 1991-yildan boshlab bu kun bayram va dam olish kuni deb e‘lon qilinsin», — deb qat‘iy belgilab qo‘yildi. Muqaddas orzu ushaldi. Shunday qilib, xalqimizning asriy orzusi amalga oshdi va o‘zining Mustaqillik bayramiga erishdi. Har yili ushbu bayramda katta tantanali yig‘ilish, Mustaqillik maydonida maxsus konsert dasturi bo‘lib o‘tadi. Respublikamizning barcha viloyatlari, shaharlari va qishloqlarida shod-xurramlik bilan Mustaqillik kuni bayram qilinadi. Mahalla va guzarlarda xalqqa bepul osh tarqatiladi, xalq o‘yinlari, badiiy jamoalarning keng bayram konsertlari namoyish etiladi.

Mamlakatimiz Prezidentining Farmoni e‘lon qilinib, mehnatda o‘rnak ko‘rsatgan, mustaqillikni mustahkamlash-ga katta hissa qo‘shgan kishilar davlat mukofotlari bilan taqdirlanadilar. Respublikamizda katta-katta ishlab chiqa-rish korxonalari, yirik qurilishlar, madaniy-maishiy obyektlar bayramda ishga tushiriladi yoki foydalanishga topshiriladi.

Mustaqillik bayramida istiqloлга erishgan xalqimizning ruhi, uning boy o‘tmishi va sermazmun buguni hamda buyuk kelajagi aks etadi.

«Navro‘z» bayrami Markaziy Osiyoda mashhur «Navro‘z» bayrami va marosimlari juda uzoq davrlardan beri nishonlab kelinardi. Lekin xudosizlikka asoslangan sobiq Ittifoq davrida bu bayramga diniy tus berilib, nishonlanmaydigan bo‘lgan edi. «Navro‘z» rasmiy bayramlar qatoriga kiritilmagan va norasmiy taqiqlangan.

Lekin 60-yillarning o‘rtalarida xalq bu bayramga e‘tibor bera boshladi, matbuot, radio, televideniya ba‘zan yoritila boshladi. 80-yillarning o‘rtalarida «Navro‘z»ni O‘zbekistonda xalq bayrami sifatida nishonlash masalasida yangi to‘siqlar paydo bo‘ldi. 1985—1987-yillarda ommaviy axborot vositalari bu bayramni chetlab o‘tishdi. Bu borada katta tortishuv yuzaga keldi. Respublikaning ilg‘or yozuvchilari, olimlari va madaniyat xodimlari tomonidan «Navro‘z» qadimdan davom etib kelayotgan haqiqiy xalq bayrami ekanligi, uning mohiyati din bilan emas, tabiat qonunlari bilan bog‘liqligi va uni eng yaxshi an‘analarda asosida davom ettirish lozimligi haqida jiddiy so‘zlar aytili.

Buning natijasida «Navro‘z» haqiqiy xalq bayrami sifatida keng nishonlanadigan bo‘ldi. 1990-yildan boshlab 21-mart, ya‘ni «Navro‘z» bayrami nishonlanadigan kun mamlakatimizda dam olish kuni deb e‘lon qilindi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng «Navro‘z» respublikamizning asosiy rasmiy bayramlaridan biriga aylandi.

«Navro‘z» bayrami o‘ziga xos katta tarixga ega. Bu bayram asli qadimiy dehqonchilik kalendari bilan bog‘liq bo‘lib, Yerning shimoliy yarim sharida bahorgi kecha bilan kunduz teng kelgan kunlari — 20—21-martda boshlanadi. O‘sha davrda butun tabiat uyg‘ona boshlaydi. Bunday yangilanish jarayonining boshlanishi shamsiy (Quyosh) yil hisobida 21-martga to‘g‘ri kelgan birinchi yangi kunni «Navro‘z» deb ataganlar.

O‘rta asrning buyuk mutafakkiri Beruniy mazkur yil hisobining boshlanish oyi hisoblangan farvardin oyi to‘g‘risida shunday yozadi: «Navro‘z» yangi yilning birinchi

kuni bo‘lib, uning forscha nomi ham shu ma‘noni taqozo etadi. «Navro‘z» eronliklar zijlari bo‘yicha o‘tmish zamonlarda ular yillarini kabisa qilgan vaqtlarida Quyoshning saraton burjiga kirish paytiga to‘g‘ri kelar edi. So‘ngra u orqaga surilgach bahorda keladigan bo‘ldi. Endi u bahor yomg‘irining birinchi tomchisi to‘kilishidan gullar ochilguncha, daraxtlar gullashidan mevalar yetilguncha, hayvonlarda shahvat qo‘zg‘olishidan to nasl vujudga kelguncha va o‘simlik unib chiqqan boshlaguncha davom etgan vaqtda keladi. Shuning uchun «Navro‘z» olamning boshlanishi va yaratilishiga dalil qilingan».

Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida rivoyat qilinishicha: «Navro‘z» kuni payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomga holva solingan kumush jom hadya qilingan. Payg‘ambar: «Navro‘z nima?» — deb so‘raganlar. «Eronliklarning ulug‘ hayiti», — deb javob berishgan. Keyin payg‘ambar holvani yeb, jomni sindirib suhbatdoshlariga taqdim etgan: «Koshki biz uchun har kun «Navro‘z» bo‘lsa edi», — deganlar.

Mashhur olim Umar Xayyom «Navro‘znoma» asarida «Jamshid shu kunni (Farvardin oyining boshi) «Navro‘z» atalsin deya farmon berdi va odamlarga har yili farvardinning kirishini bayram qilishni, uni yangi yil deb hisoblashni buyurdi», — deb yozadi. Ulug‘ shoir Alisher Navoiy ijodida ham «Navro‘z» o‘z ifodasini topgan. «Saddi Iskandariy» dostonida Navro‘zning bayram qilinishi quyidagicha aks etgan:

*Ki bu sir erur olam afruz ham,
Xususan, erur fasli Navro‘z ham.*

Navro‘z haqida juda ko‘p tarixiy asarlar, rivoyatlar mavjud. Yuqoridagilardan tashqari A. Firdavsiyning «Shohnoma», Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit-turk», Xoja Ali Termiziyning «Navro‘znoma», «Solnoma»

asarlarida, shuningdek, Mashrab, Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Nodira, Uvaysiy, Zebuniso ijodlarida Navro‘z haqida fikrlar bayon etiladi. Ogahiy Navro‘zni shunday kuyladi:

*Ey yor sanga tangri taborak bo‘lsun,
Navro‘z ila toza yil muborak bo‘lsun,
Ilohi, har kuning Navro‘z bo‘lsun,
Hamisha toleing Feruz bo‘lsun.*

Mustaqil O‘zbekistonda «Navro‘z» har yili katta tantana bilan nishonlanmoqda. «Navro‘z» arafasida umumxalq hasharlari o‘tkaziladi. Oy davomida xayriya ishlari: yetim, nogironlarga, muhtojlarga yordam berish, qariyalarni qadr-lash, ular holidan xabar olib ziyorat qilish, kasallar holidan xabar olib, ularga sovg‘a-salomlar ulashish, bolalar uylariga turli sovg‘alar topshirish tadbirlari amalga oshiriladi. Barcha kasb egalari «Navro‘z»ga atab o‘zlarining xayriyalarini, hadyalarini tayyorlaydilar.

«Navro‘z» arafasida va bayram kunlari sumalak, halim, ko‘k somsa, ko‘k chuchvara va boshqa turli-tuman taomlar pishiriladi. Qizlar «Navro‘z»da kiyadigan liboslarni tayyorlashga kirishishadi. «Navro‘z»ga san‘at ahli alohida tayyorgarlik ko‘radilar. Ular «Navro‘z»ga bag‘ishlangan kuy, qo‘shiq, raqs tomoshalarini qunt bilan tayyorlaydilar va turli joylarda, sayilgohlarda xalqqa ijro etib beradilar. «Navro‘z» kunlari shahar va qishloqlarda katta tomoshalar, tantanalar va xalq sayillari bo‘lib o‘tadi.

«Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» kitobida aytilganidek: «Milliy ma’naviyatimiz azaldan qanday omil va mezonlar negizida shakllanib kelayotgani xalqimiz uchun eng aziz va eng milliy bayram – sharqona yangi yil bo‘lmish Navro‘z ayyomi misolida ayniqsa yorqin namoyon bo‘ladi. Barchamiz doimo orziqib kutadigan va katta xursandchilik, shodiyona bilan o‘tkazadigan Navro‘z bayrami biz uchun hayot abadiyligi, tabiatning ustuvor qudrati va cheksiz saxovatining, ko‘p ming yillik milliy qiyofamiz, olijanob urf-odatlarimizning betakror ifodasi bo‘lib kelmoqda».

Poytaxtimizning «Milliy bog‘i»da har yili respublikada eng yirik «Navro‘z» teatrlashgan tomoshalari bo‘lib o‘tadi. Bu markaziy tadbirda turli san‘atkorlar milliy raqslarini, bahorni kutib olish, tabiatning yangilanishi, insonlar dillari-ning poklanishi va dalalarda yangi mehnat mavsumiga bag‘ishlangan kuy, qo‘shiqlar ijro etishadi, har bir viloyat vakillari maxsus tomoshalar ko‘rsatadi.

Navro‘zga bag‘ishlangan tomoshadan keyin barcha viloyatlar markazlarida, poytaxtning asosiy maydon va ko‘chalarida umumxalq sayillari bo‘lib o‘tadi, turli tanlovlar, musobaqalar tashkil etiladi.

Hozirgi davrda mustaqil diyorimiz uchun «Navro‘z» kishilarga yasharish va bunyodkorlik, poklanish va yangilanish, ruhiy ko‘tarinkilik olib keladigan asosiy bayram bo‘lib qoldi.

Qurbon va Ro‘za hayitlari

Yurtimizda islom dini bilan bog‘liq Ro‘za va Qurbon hayitlari umumxalq bayrami sifatida nishonlanib kelingan.

Lekin sobiq Ittifoq davrida bu bayramlar ham taqiqlangan edi. Mustaqillik qo‘lga kiritilishi bilan ushbu bayramlar milliy qadriyat sifatida qayta tiklandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 20-iyunda «Diniy bayram — Qurbon hayitini dam olish kuni deb e‘lon qilish haqida», 1992-yil 27-martda «Ro‘za hayitini dam olish kuni deb e‘lon qilish to‘g‘risida» Farmoni chiqdi. Farmonda, jumladan, shunday deyiladi: «Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi musulmonlarining istak va xohishlarini inobatga olib hamda fuqarolar o‘rtasida mehr-oqibatni barqarorlashtirish maqsadida diniy bayram — Ro‘za hayitining birinchi kuni dam olish kuni deb tayinlansin».

1991—1992-yildan boshlab har yili mamlakatimizda Qurbon va Ro‘za hayiti umumxalq bayrami sifatiga nishonlanadi. Ushbu bayram kunlari birinchi navbatda dunyodan o‘tganlar ruhiga tilovat qilinadi, kasallar, nogironlarga yordam beriladi, qarindosh-urug‘lar, yaqin kishilar

bir-birlarini qutlashadi, omonlik tilashadi. Bolalar ham, kattalar ham yaxshi kiyinishib, turli sovg'a-salomlar ulashiladi. Mahallalarda qizlar «kelin ko'rdi»ga borishadi. Umuman, bu hayitlar xalqimizning hamjihatligiga, mehr-shafqatning kuchayishiga, oqibatli bo'lishga xizmat qilib kelmoqda.

To'ylar — xalq yuzi Hamma xalqlarda ham qadimiy marosimlardan biri to'ydir. Bizning xalqimizda to'yga tayyorgarlik ko'rib yashashadi. O'g'il tug'ilsa, sunnat to'yga tayyorgarlik ko'riladi. Qiz tug'ilsa, sep yig'ilib oshlanadi. Shu sababli to'y xalqimizning qadimiy marosimi, qarindosh-urug' va do'st-u yorlar diydoriga to'yish, ular bilan uchrashish, yaxshi kuy, qo'shiqni eshitish, ko'pkari-yu kurashni tomosha qilish vositasi sifatida qadrlanadi. Xalqimiz doimo odamlarni duo qilganda «Topganing to'yga buyursin», «Toydan boshing chiqmasin», «Uying to'yxona bo'lsin» deb duo qilishadi.

Bizning xalqimizda to'ylarning bir qancha turlari mavjud, jumladan, beshik to'yi, nikoh, xatna to'yi, hovli to'yi, muchal to'yi, payg'ambar yoshi, yubileylar, oltin to'y, kumush to'y va h.k.

To'y qilishdan maqsad nima? Agar buning mohiyatiga chuqurroq yondashadigan bo'lsak, nima uchun bir inson ko'p yillar topgan-tutganini bir kunda elga yedirib, ichiradi, degan savol tug'ilishi tabiiy. To'y qilgan odam ba'zan qarzga ham botadi, lekin shunga qaramay elga to'y qilib beradi. Nima uchun? Maqsad xalq orasida obro' olishmi? Yoki odamlarni qoyil qoldirishmi? Yoki falonchi to'y qilmadi. Elning oshini yegan, degan gapdan qochishmi?

Agar to'y qilishning bosh maqsadini o'ylab ko'rsak, farzandlarga xalqning duosini olib berish ekanligini ko'ramiz. Lekin sobiq Ittifoq davrida ushbu muammo, ya'ni inson uchun duoning qudrati muammosi chetga surib qo'yildi.

Ammo xorijda duoning kuchini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilib, yaxshi natijalarga erishilganli-

gi ma'lum. Islom ilmida ham duoning kuchi ijobiy baholanadi.

Ota-bobolarimiz: — «Oltin olma, duo ol, duo oltin emasmu», — deb bejiz aytishmagan. Shu sababli ota-onalar bolalariga ko'pchilikning duosini olib berish uchun to'y qiladilar. Ammo, sobiq Ittifoq davrida bu narsa butunlay unutildi, xudosizlar jamiyati to'ylarga kundalik tantana tusini berdi. Shu sababli to'ylar faqat xursandchilik qilish, yebichish, o'yin-kulgi qilish, tomosha ko'rsatish vositasiga aylanib qoldi va kim o'zarga to'y qilish, xonandalarni ko'paytirish, kunlab ko'pkari berish poygasi boshlanib ketdi.

Natijada, to'yning haqiqiy mazmun-mohiyati butunlay o'zgarib ketdi. Hozirgi kunda, ya'ni mustaqillikdan keyin ham to'ylarni asl holiga qaytarish, tarbiyaviy ahamiyatini kuchaytirish qiyin kechmoqda.

Shu sababli bir ijtimoiy tuzumdan ikkinchisiga o'tish jarayonida xalq an'analari, urf-odatlar va marosimlarini davr ruhiga moslashtirish, ularni milliy, qolaversa, umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tarish kun tartibiga qo'yiladi.

Xalqimiz o'zining xursandchiligini ham, xafagarchiligini ham turli marosimlar, rasm-rusumlar, udumlar orqali namoyish qiladi. Jumladan, xalqimiz tomonidan o'tkaziladigan to'y tantanalari, motam marosimlari, ular bilan bog'liq xilma-xil urf-odatlar fikrimizning dalilidir.

To'y va marosimlar qanchalik yaxshi bo'lmasin, xalqimizning ma'naviy yuksalishida qanchalik ijobiy rol o'ynamasin, uni o'tkazish bilan bog'liq ba'zi ortiqcha rasm-rusumlar, odat tusiga kirib borayotgan sun'iy udumlar jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, oilalarning maishiy barqarorligi ta'minlanishiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazishi tabiiydir.

Ortiqcha dabdababozlik, shuhratparastlik kabi salbiy holatlar, soxta obro' orttirish, o'zini unutib marosimlar o'tkazilishi harom, mehnatsiz qing'ir yo'llar bilan topilgan boyliklar hisobiga bo'layapti.

Albatta, shunaqangi usul bilan soxta «insonparvarlik» namunalarini ko'rsatib, mehmonnavozlik qilish, o'zini shu yo'l bilan o'zgalarga tantilikda namuna qilib ko'rsatish, marosimlarni o'tkazishda kim o'zarga harakat qilishlar xalqimizga salbiy ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

Shunday ekan, xalqimizning juda go'zal, mazmunan rang-barang to'y-u marosimlarini o'tkazishda kim o'zarga yo'l qo'ymay, balki avvalambor, to'ylar bo'lsa yoshlarning baxt-iqboliga, marosimlar bo'lsa, el-yurtga hurmat, ehtiromimizni namoyon qila olsak, yoshlarimizni ham shunday ruhda tarbiyalay olsak, hayotimiz yanada go'zallashadi.

Bu narsa bugungi gap emas. Millatimiz ichidan yetishib chiqqan taraqqiyparvar ziyolilar — jadidlar xalqning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirish uchun turli xurofot va zararli bid'atlarga qarshi kurashishni maqsad qilib qo'ygan edilar hamda ular o'z asarlari orqali serhasham va dabdabali to'y-ma'rakalarni o'tkazishni keskin qoraladilar.

Ma'rifatparvar jadidlar — Abdulla Avloniy, Ashurali Zohiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Is'hoqxon Ibrat va boshqalar «Sadoyi Turkiston», «Sadoyi Farg'ona» kabi nashrlarda xalqning maishiy turmushiga alohida e'tibor berishib, xususan milliy to'ylar va ularning o'tkazilishi borasida qimmatli fikrlar bildirdilar. Cho'lpon «Sadoyi Farg'ona» gazetasida to'ylardagi isrofgarchilik haqida: «Avvallari qandoq yaxshi bo'lsa, so'nggi kunlarda va so'nggi yillarda kundan-kun orqaga qadam tashlamoqdalar... Ul vaqtlarda bundoq behuda isroflik to'ylar ham bo'lmas edi», — deb yozgan edi. Muallifning fikricha, burun dehqonlar yoz davomida ishlab topgan mablag'larini qish davomida yebichar edi, bugungi iqtisodiy nochorliklarga isrofgar to'ylar ham qo'shildi.

Farg'ona jadidlarining taniqli namoyandasi Is'hoqxon Ibrat to'ylardagi isrofgarchiliklar, ortiqcha xarajatlar, yoshlarning ilm olishidan ko'ra turli ishqibozliklarga moyil ekanligi haqida o'zining teran mulohazalarini bildiradi: «Hali

ham biz o‘z dinimizcha harakat qilmay, aqcha topmoq, hoy-u havas ovloq to‘ylarga o‘n ming behuda sarf qilamiz, qaysi ulamo halol deb bularga fatvo bergan... Bu ahvoli ba‘dlar, bu maraz dard-u dorusi ilmdir». Ibrat bu fikrlari bilan zamona yoshlarini ilm o‘rganishga chaqiradi va ilmli kishilarning ortiqcha hoy-u havasga berilmasligini uqtiradi.

Jadidlar «Sho‘royi islomiya» tashkilotining to‘y-ma‘rakalarni tartibga solish to‘g‘risida «Najot» ro‘znomasida e‘lon qilingan qarornomasida shunday satrlar bitilgan: «Turkiston musulmonlarining syezdi mana shu holni e‘tiborga olub oramizda bo‘lib turgan ba‘zi bid‘at va xurofotlarni, chunonchi, to‘y, ma‘raka, gap, bazm... va janoza kuni bo‘ladurg‘on xurofotlarni bikulliya (hammasiga) barham berishga qaror qildi». Shuningdek, mazkur qarornomada janoza, qiz, sunnat to‘ylarini o‘tkazish tartibi batafsil ko‘rsatib berilgan.

Ushbu qarornoma hozirgi davrda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Chunki, XXI asrning boshlarida ham mamlakatimizda o‘tkazilayotgan to‘y-ma‘rakalarda isrofgarchilikka, dabdababozlikka, ortiqcha xarajatlarga yo‘l qo‘yish, bu ma‘rakalarga obro‘ va e‘tibor topishning bir vositasi sifatida munosabatda bo‘lishdek zararli illat hamon jamiyatimiz taraqqiyotiga g‘ov bo‘lib turibdi.

Turkiston jadidlari yo‘lboshchisi Mahmudxo‘ja Behbudiyning (1875—1919) «A‘molimiz yoinki murodimiz» («Oyina», 1913-yil, 6—7-sonlar), «Bizni kemiruvchi illatlar» («Oyina», 1915-yil, 13-son) kabi maqolalari bosilib chiqdi va ularda to‘y-u marosimlarni tartibli, ixcham o‘tkazish zarurligi ta‘kidlandi.

Taraqqiyparvar jadidlar Turkistonning turg‘unlik, qoloqlik va jaholat girdobidan qutulishiga nimalar xalaqit berishi va taraqqiyot sari qoloqlikni bartaraf etishga xalaqit berayotgan omillar sabablarini oldindan ko‘ra olganlar. Go‘yoki shariat bilan himoyalanganday tuyuluvchi, biroq aslida musulmon qonun-qoidalariga zid holda kishilarning yengil

bo‘lmagan hayotini yanada mushkullashtiruvchi zararli urf-odatlar xalqni taraqqiyotdan orqaga tortmoqda.

Millatparvar ziyolilar o‘lkamizning juda ayanchli ahvoli, aholining erk va hurriyatga intilishlarini bo‘g‘ish sabablarini, iqtisodiy va ma‘naviy hayotdagi turg‘unlik holatlarini anglab, ularning ongiga jamiyatni isloh qilish, barcha eskirib qolgan, zararli urf-odatlarini, marosimlarni qulay, kamchiqim qilib o‘tkazish g‘oyasini ilgari surdilar.

Sobiq sho‘ro tuzumi davrida bir qator «yangicha urf-odatlar» tiqishtirildi. Natijada, o‘tkazilayotgan marosim va tadbirlardan milliylik ko‘tarildi. Oqibatda, to‘ylarimizda ichkilikbozlik kuchaydi. Hatto nikoh to‘ylarida «горько» deyishgacha borib yetildi. Qariyalarning pand-nasihatlariga quloq solmay, ularni eskilik sarqitiga chiqarib qo‘yildi. Ota-onaning roziligisiz, umr yo‘ldoshining kim ekanligini, kelib chiqishini surishtirmasdan, «yonib turgan sevgi» asosida oila qurish natijasida ozgina qiyinchilikka bardosh berolmay ko‘pchilik oilalar buzilib ketdi. Ajralish odatiy holga aylandi. Natijada, minglab bolalar ko‘chada, qarovsiz qolib yoki bolalar uylariga topshirilib, ota-ona mehriga zor bo‘lib o‘sishi natijasida jinoyatchilik ko‘paydi.

Afsuski, hozirgi kunda ham dabdabali, kim o‘zarga, ko‘z-ko‘z uchun bo‘layotgan to‘ylar kam emas. Aslida, agar to‘y munosabati bilan bir qator qadrdon va vatandosh yor-birodarlar bir joyda yig‘ilib, xursandchilik qilib, samimiy suhbat qilsalar, albatta, bir millat va xalq o‘rtasida bo‘lgan samimiy muhabbat va mehribonlik ziyoda bo‘ladi. Ba’zilar orasida oldingi kek va kudurat shu bahonada yo‘qoladi. Buning ustiga qancha miskin va muhtoj odamlar shu bahona to‘y ne‘matlaridan bahramand bo‘ladilar. Shuning uchun ham to‘y oilaviy marosimdir.

Dafn marosimlari Eng muhim ta’sirchan marosimlardan dafn marosimlari turli xalqlarda turlichadir. Xalqimizda dafn marosimlarida, bu dunyoda halol-pok yashash, bir-birini hurmat, meh-

nat qilib Allohning buyurgan farzlari hamda payg‘ambarimiz sunnatlarini bajarish va iymonli bo‘lishga da‘vat etiladi. Marhumlarning xotiralariga bag‘ishlab yigirma, yil oshi, qirq va hokazo marosimlar o‘tkaziladi, ularda o‘tganlarning ruhi shod bo‘lishi uchun Qur‘on oyatlaridan tilovat qilinadi. Undan tashqari marhumlar xotirasi yod etiladigan boshqa tadbirlar ham o‘tkaziladi, ro‘za, qurbon hayiti va to‘ydan oldin xudoyi beriladi. Xalqimizda «o‘lik to‘ymasa, tirik to‘ymaydi», degan naql ham bor. Shu sababli ularni xotirlab, ruhiga tilovat qilib turish har bir komil farzandning burchi hisoblanadi.

Har qanday inson, u amaldor, boy, polvon yoki boshqa kasb egasi bo‘lishidan qat’i nazar, o‘zi ham dunyoda omonat ekanligini his qiladi, dafn marosimida, qabriston ichida yuvoshlashib, muloyimlashib qoladi. Biroz insofga kelsa ham ajab emas. U o‘lim tabiat qonuni ekanligini, o‘limdan hech kim qochib qutulolmasligini his qiladi.

Shu sababli Allohning o‘z bandalariga bergan umri, tiriklik – bu g‘animatdir yoki vaqtinchadir. Umr insonga berilgan buyuk ne‘matdir. Uning qadriga yetish, uni behuda o‘tkazmaslik, har xil maza-bemaza ishlarga sarflamay, undan oqilona foydalanish, tiriklikni mazmunli o‘tkazish, vaqtning qadriga yetish, qisqa hayot davrida o‘zidan yaxshi nom qoldirish uchun xayrli ishlarni qilish har bir fozil insonga xos xususiyatdir.

Inson o‘z hayotini sarhisob qilib bormog‘i, xayrli amallarga, xayrli ishlarga e‘tiqod qo‘ymog‘i, savob ishlarni ko‘proq qilmog‘i, saxovatli bo‘lmog‘i yaxshi fazilatdir. Afsuski, umrini bekorga zulmkor ishlarga sarflab o‘tkazayotganlar ham yo‘q emas.

Inson vafoti munosabati bilan o‘tkaziladigan bir qator marosimlarning, ayniqsa, kim o‘zarga «osh berishlar», qabrga hashamatli sag‘ana qurishlar, isrofgarchilik — bular dinimizda ham bid‘at sanaladi. Ko‘p joylarda saqlanib qolgan janozada pul ulashish, qarz olib bo‘lsa-da, marhum xotirasiga osh

tortish va Qur'oni karimda farz qilinmagan boshqa ortiqcha xarajatlarni qilish o'rniga, ularni marhumlarning oilasiga yordam berishga, xotira maydonlari va qabristonlarni ziyoratgohga aylantirishga sarflansa savob ish bo'lardi.

Mavsumiy marosimlar

O'zbek xalqi orasida tarqalgan, milliy tusga ega bo'lgan urf-odatlardan mavsumiy marosimlar mavjud bo'lgan. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, o'zbek mavsumiy marosimlaridan bahorda yerga urug' sochish, ko'chat o'tqazish, ariq-zovurlarni tozalash, chorvani dalaga olib chiqish, hasharlar o'tkazish, sumalak, halim pishirish, yozda qovun sayli, qishda uloq chopish, qorxat yozish, kitobxonliklar qilish, hosil bayrami, uzum sayli kabilarni ko'rsatish mumkin.

Ushbu marosimlarning ba'zilar turli joylarda o'tkazib kelinadi. Lekin ba'zi biri o'tkazilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, to'y-ma'rakalarni va marosimlarni zamonaga moslashtirish, kam chiqimli, lekin fayzli va tarovatli qilib o'tkazish hozirgi davrning asosiy talabidir. Zero, allomalar uqtirganlaridek, o'tmish tarixidan bexabar xalq — mazlum xalq, tarixini o'rgangan va bilgan xalq — buyuk va qudratli xalq. Shu sababli xalqimiz marosimlari va urf-odatlarini tarixini chuqur o'rganish, ularga sayqal berish va dunyoda o'zligimizni ko'rsata bilish davri keldi.

Bunda Prezidentimizning 1998-yil 28-oktabrdagi to'y-hashamlar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni, marhumlarning xotiralariga bag'ishlangan tadbirlarni o'tkazishni tartibga solishga bag'ishlangan Farmoni xalqimizning turli marosimlar, urf-odatlarini bozor iqtisodiyoti talablari sharoitidan kelib chiqib, ixcham va chiroyli o'tkazishda dasturulamal bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi davrda yurtimizda jamiyatni ma'naviy yuksaltirish, milliy qadriyatlarimizni tiklash, ularning umrboqiyiligini ta'minlash borasida juda katta g'amxo'rliklar qilinmoqda.

Shukronalar bo'lsinki, xalqimiz mustaqillik sharofati bilan o'zligimizni namoyish qiladigan an'analarimiz, oilaviy-

maishiy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni tiklash, ularni mazmunan boyitish, umrboqiyiligini ta'minlash imkoniyatga ega bo'ldi. Sharq xalqlarining muhim qadriyati hisoblangan «Navro'z», «Mehrjon» bayramlari, qadimiy diniy qadriyatlar hisoblanmish «Ro'za hayiti» va «Qurbon hayiti» xalqqa qaytarildi. Ular bilan bog'liq rasm-rusum, urf-odatlar, udumlarni davr talabiga, insonlarning ehtiyojiga moslashtirishga harakat qilinmoqda.

Ayniqsa bu sohada Respublikamiz Prezidentining «9 mayni Xotira va qadrlash kuni deb e'lon qilinishi to'g'risida»gi Farmoni katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ldi. O'sha kuni yetim-yesir va qariyalar holidan xabar olish, ota-ona va qarindosh-urug'larni ziyorat qilish mehr-oqibatni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek: «Biz Sharq farzandi ekanimizdan, o'zimizning urf-odatlarimizdan faxrlanamiz. Milliy qadriyatlarimizni asrash va hech qachon unutmashlik haqida ota-bobolarimizdan tarbiya olganmiz. Endi esa buni bolalarimizga ham o'rgatyapmiz».

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR

Marosimlar, umumxalq bayramlari, «Navro'z», Qurbon va Ro'za hayitlari, to'ylar — xalq yuzi, dafn marosimlari, mavsumiy marosimlar sumalak, hashar, halim pishirish, qovun sayli, uloq chopish, hosil bayrami.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Marosimlar xalqimiz hayotida qanday o'rin tutadi?
2. «Mustaqillik kuni» qanday bayram?
3. «Navro'z» bayrami haqida buyuk olimlar nimalarni yozib qoldirishgan?
4. Qurbon va Ro'za hayitlari qachondan boshlab bayram qilina boshlandi?
5. To'ylarning qanday turlari bor? Qanday to'ylar bo'lishini va qanday o'tishini xohlaysiz?
6. Dafn marosimlari nima?
7. Mavsumiy marosimlarga nimalar kiradi?

TOPSHIRIQ

Respublikamizda nishonlanadigan bayramlarni ta'lim muassasalarida o'tkazish bo'yicha ssenariysini tuzib tanlov o'tkazing.

17-§. MUSTAQILLIKNI MUSTAHKAMLASH — HAR BIR FUQARONING BURCHI

Mustaqillik uchun kurash — azaliy meros Tarixdan ma'lumki, qaysi mamlakat biron-bir bosqinchilar tomonidan bosib olinsa, albatta, bosib olingan mamlakatda ozodlik va istiqlol uchun kurash harakati boshlanadi. Chunki ozod tug'ilgan inson birovlariga qaram bo'lishni, boshqalarning zulmi ostida yashashni istamaydi. Shu sababli mustamlakachilikka qarshi ozodlik urushlari doimo bo'lib turgan. Butun insoniyat tarixining sabog'i shudir.

Jumladan, O'zbekiston xalqlariga ham mustaqillikka erishish g'oyasi azaldan merosdir. Chunki jannatmakon yurtimizga bostirib kelib, uni egallash uchun xorijiy bosqinchilar qadimdan qattiq urinishgan. Xalqimiz eron axamoniylariga, grek-makedonlarga, arab istilochilariga, mo'g'ul-tatar bosqinchilariga, chorizm mustamlakachiligiga va, nihoyat, sho'ro totalitar tuzumiga qarshi milliy ozodlik kurashlari olib bordi. Chunki mustaqillik xalqimizning orzusi edi. Bu tuyg'u ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib o'tgan buyuk tuyg'udir. To'maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Mahmud Torobiy, Jaloliddin Manguberdi singari xalq qahramonlari, Najmiddin Kubro, Amir Temur kabi daholarimiz vatanparvarligi, Mirzo Bobur qalbidagi Vatan tuyg'usi, Qurbonjon dodho, Dukchi Eshon va Po'latxondek ozodlik yalovbardorlari bilan barchamiz faxrlanamiz. Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Usmon Nosir kabi qalam ahllari erksevarligini hech qachon unutmamiz.

Asoratga solish usullari Bosqinchilarning bosib olingan mamlakat xalqlari ma'naviyati va madaniyati taraqqiyotini bo'g'ib qo'yish, mustamlakachilik tartiblarining saqlanib turishi va mustahkamlanishi tarix sinovidan o'tgan usullardan biri hisoblanadi.

Xitoy donishmandi Konfutsiy 2700 yil oldin o'z imperatoriga: «Xoqonim, agar biror mamlakatni bosib olib, u yerda uzoq hukmronlik qilmoqchi bo'lsangiz, dastavval o'sha

yerda yashayotgan xalqni o‘z tarixiy madaniyatidan mahrum eting, ma’naviy bo‘hronni kuchaytiring. O‘z madaniyatidan bebahra, ma’naviy qashshoqlik holatiga uchragan xalq uyushmaydi, ichki nizolar girdobiga o‘raladi, sizga qarshilik ko‘rsata olmaydi. Bunday holga kelgan xalqni, mamlakatni idora qilish qiyin bo‘lmaydi»,— deb maslahat bergan ekan. Madaniyat va ma’naviyatni barbod etish, milliy til, urf-odatlar kamolotiga yo‘l bermaslik itoat ettirilgan xalqni jilovda ushlab turishning eng zarur va nozik yo‘llaridan biri ekanligini istilochi va bosqinchilar juda yaxshi bilgan.

Chingizxon ham Movarounnahrni istilo qilayotganida o‘z farzandlari va sarkardalariga: bosib olgan yerlaringizda avvalo, shu yerning aqlli, donishmand kishilarini qiring, shunda xalq birlasha olmaydi, o‘z oralaridan chiqqan aqlsiz, nodon, johil, ahmoqlarini boshliq etib tayinlang, ularni qo‘llab-quvvatlang va ko‘klarga ko‘tarib maqtayvering. Shunda xalq ma’naviy rahnamolaridan mahrum bo‘lib, qovusha olmay tarqalib ketadi, degan edi. Tarixiy manbalar buni isbotlab turibdi. Hamma vaqt bosqinchi mamlakatlar hukmdorlari o‘zlari bosib olgan mamlakatlarda Konfutsiy va Chingizxon aytgan tarzda siyosat olib borganlar. Bundan Chor Rossiyasi ham mustasno emas.

Chor Rossiyasi makkorona siyosatini amalga oshirish uchun Turkistonga ayg‘oqchi ekspeditsiyalar yuboradi. Ular orasida yirik sharqshunos olim V. Bartold ham bo‘lib, u bu o‘lkadagi siyosiy-iqtisodiy vaziyatni o‘rganib, Sankt-Peterburg Fanlar akademiyasi Ilmiy kengashida shunday degan edi: «Biz shu paytgacha madaniy saviyasi o‘zimizdan past bo‘lgan xalqlarning yerlarini bosib olgandik. Endi bo‘lsa, Turkiston misolida tamom teskari holatga duch kelib turibmiz...Turkistonliklar bizning harbiy ustunligimizga tan berishadi, ammo ma’naviy ustunligimizni tan olishgani yo‘q. Vazifa ana shuni tan oldirishdan iboratdir. To shuni tan olishmas ekan, biz uzil-kesil g‘alaba qozondik, deb ayta olmaymiz».

Haqiqatan ham, tarixiy manbalar guvohlik beradiki, chor hukumati olimlar maslahatiga amal qilib, Turkistonning yerli xalqidan o‘zlarining «ma’naviy jihatdan ustunligi»ni qanday qilib bo‘lsa-da, isbotlashga va shu zaylda «uzil-kesil» g‘alabaga erishishga astoydil kirishgan.

Turonzaminni bosib olish siyosati 150 yil davom etdi. XIX asr oxirida chor imperiyasi Yer yuzi quruqlik qismining oltitadan bir qismiga egalik qila boshladi. Bu hududning 95 foizi Turon yerlari edi. Natijada, shu hukmronlik muhiti madaniyat, fan, san’at, adabiyot, ijtimoiy-siyosiy fikr kabi sohalarga o‘z ta’sirini o‘tkaza boshladi. O‘lkada Yevropa turmush tarzi bilan xalqning asriy an’analari yuzma-yuz keldi.

**Mustamlakachilik
mafkurasi**

Mustamlakachilik mafkurasi bosqinchi, zulmkor kuch sifatida o‘lkada milliy madaniyatga tish-tirnog‘i bilan qarshi bo‘lgan bo‘lsa, Turkiston hududidagi johil kuchlar ham Yevropaning ilg‘or fan va madaniyatiga shunday munosabatda bo‘ldilar. Demak, har ikki tarafning reaksion kuchlari milliy madaniyatning barq urib o‘shishiga to‘sqinlik qildilar. Mustamlakachilar o‘zlarining madaniyat sohasidagi siyosatida o‘lka xalqlarining qalbini zabt etishni ko‘zladilar. Generalleytenant Matsiyevskiy Sharqshunoslok jamiyati Toshkent bo‘limi rahbariyatiga yuborgan yo‘riqnomasida: «Jamiyat Sharqni fan va Sharq uchun emas, balki uning ellarini Rossiyaga singdirib yuborish — ruslashtirish maqsadida o‘rganishi lozim», deb ko‘rsatgan edi. Aksincha, har ikki tarafning ilg‘or kuchlari esa ilm-fan va madaniyatning o‘lkada umumiy rivojlanishiga katta hissasini qo‘shdi.

Chor Rossiyasining Turkistondagi mustamlakachilik siyosatining tub negizi va mohiyatida qanday maqsad yotganligini xalqimizning bilimli va ma’rifatli kishilari tushunib yetgan edilar. Ana shunday insonlardan biri Abdurauf Fitrat yozadi: «Ko‘rdim, kezdim, eshitdim, o‘qidim. Mamlakatlar orasida Turkistonimiz kabi baxtsiz bir mamlakat yo‘qdir. Rus kapitalistlari bilan rus poplarining sodiq va ishonchli

qorovullari bo‘lgan eski Rusiya hukumati yil orasida Turkistondagi Turk bolalarning foydalariga biror ish ko‘rdimi, ko‘rmoqchi bo‘ldimi? Mana shu savolga — yo‘qdan boshqa bir javobimiz yo‘qdir...».

Chor hukumati Turkistonning tabiiy-iqtisodiy boyliklarini talash bilan kifoyalanib qolmasdan, o‘zining mustamlakachilik siyosatida tobe xalqlarni bo‘g‘ishga, ularni siyosiy ongsiz qilib qo‘yishga, siyosiy faoliyatdan umuman chetlashtirishga zo‘r berib tirishdi.

Umuman, chor Rossiyasining Turkiston xalqlariga nisbatan tutgan mustamlakachilik siyosati xalqlar o‘rtasidagi har qanday davlat kurtaklarini yo‘q qilish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma‘naviy taraqqiyotini bo‘g‘ish, ularga erkinlik bermaslik, milliy qadriyatlarini va milliy g‘ururini toptash, qo‘rquvda tutishdan iborat edi.

Mahalliy xalqlardan talangan barcha boyliklar (paxta, ma‘dan, rangli metall, qorako‘l teri, pilla, meva mahsulotlari va boshq.) avvallari tuya, ot, aravalar, eshak, ho‘kizga yuklangan karvonlarda tashilgan bo‘lsa, O‘rta Osiyoga temir yo‘l o‘tkazilgandan keyin ko‘plab vagonlardan iborat uzun eshelonlarda chor Rossiyasiga olib ketiladigan bo‘ldi. O‘rta Osiyoning yer osti va yer usti boyliklari Rusiya imperiyasining asosiy xomashyo bazasiga aylandi.

Turkiston general gubernatori Fon Kaufman imperatorga yo‘llagan maktublarining birida istilo O‘rta Osiyo xalqlarining madaniyatini, ijtimoiy taraqqiyotini 300 yilga orqaga surib yuborganligi to‘g‘risida maqtanib yozgan. Inqilobdan avval masjid, maktab, madrasalarda o‘qish chegaralangan, arab, fors, tojik va turkiy xalqlar tillarida bitilgan noyob qo‘lyozmalar chor ma‘muriyati tomonidan kuydirilgan va olib ketilgan, 30-yillardagi qirg‘in-barotlar davrida esa ma‘rifatlilar bilan birga kitoblar ham yo‘q qilindi.

**Bolsheviklarning
bosqinchilik
siyosati**

Rossiyada 1917-yilgi oktabr to‘ntarishidan keyin sovet hokimiyatining mazlum millatlarga nisbatan olib borgan siyosati chor Rossiyasi siyosatidan ham

battar bo‘ldi. Markaz tomonidan yuritilgan davlat siyosati tufayli millatlarning ongi, tili, tarixi, urf-odatlar va umuman, ma‘naviyatini rivojlantirishga yo‘l qo‘ymaydigan muayyan g‘oyalar o‘ylab chiqila boshlandi. Agar chor Rossiyasi ma‘naviyatimizni turg‘unlikda tutishga uringan bo‘lsa, bolsheviklar mahalliy xalqlarni o‘z milliy ma‘naviyatidan, madaniyatidan butkul begonalashtirib, ruslashtirish siyosatini olib bordi. Sho‘ro tuzumi milliy birdamlik, milliy tuyg‘u rivojlanishini millatchilik deb qaradi.

Sho‘ro hukumatining birinchi kunlaridan boshlaboq milliy ma‘naviyatga qarshi kurash, markscha-lenincha mafkura, marksistik-falsafiy fikrning muhim masalalarini targ‘ib qilish va omma o‘rtasida tezlik bilan tarqatish ishlari avj ola boshladi.

20-yillar oxiri va 30-yillarda sotsializm qurish, uning uzilkesil g‘alabasini ta‘minlash uchun kuchayib borayotgan turli sohalardagi sinfiy kurash ma‘naviy hayotni, madaniyatni keng qamrab oldi. Kommunistik partiyaning yagona hukmronligi, diktaturasi kuchaya bordi, totalitar rejim mustahkamlanib, odamlarni siyosiy ta‘qib qilish avj oldi. Bu hol, shubhasiz, madaniy hayot, mafkurada ham o‘z ifodasini topdi.

Sho‘ro hukumati xalqning milliy g‘ururini poymol qilish maqsadida bir qator tadbirlarni amalga oshirdi. Shular qatorida, milliy ma‘naviyatga kuchli ta‘sir etadigan Qur‘oni karim, Hadisi sharif hamda al-Buxoriy, at-Termiziy, Shayx Najmiddin Kubro kabi yuzlab allomalarning mo‘tabar asarlari kuydirib tashlandi, xalqdan yashirildi. Natijada, islom dinini «fosh etish» maqsadida aziz-avliyolarning mozorlariga, masjid-madrasalarga o‘t qo‘yildi. Eski tipdagi maktablarning faoliyat ko‘rsatishiga ruxsat berilmadi. Chorakam bir asr davomida diniy-ma‘naviy tarbiya berilmadi. Prezidentimiz Islom Karimov yozganidek: «Sobiq SSSRdagi hukmron Kommunistik partiyaning qattiqqo‘llik siyosati tufayli diniy jamoalarni xalqlarning aql-idrokini egallash uchun kurashda o‘zlarining xavfli raqibi deb hisoblar edi. Ular o‘zining butun faoliyati davomida dinni kamsitish,

ruhoniylarni yo‘qotish va omon qolganlarini bo‘ysundirish uchun eng keskin choralarni ko‘rgan edi».

Kommunistlar, rahbar xodimlar ota-onalari, yaqin kishilari janozasiga borishdan qo‘rqib qolishdi. Shu bilan birga xalq o‘rtasida dinsizlikni targ‘ib qilish va dinga qarshi murossasiz kurash niqobi ostida o‘rta asr me‘morchiligining takrorlanmas namunasi bo‘lgan, milliy naqshlar bilan jilolanib turgan minglab masjidlar, yuzlab madrasalar, xalqimizning milliy g‘ururi bo‘lgan muhtasham qasrlar, tarixiy obidalar, xonlar, amirlar saroylari vahshiylik va yovuzlik bilan buzib tashlandi yoki omborxonalariga, paxta quritadigan joylarga aylantirildi.

1931-yilning 12-fevralida XQK (xudosizlikka qarshi kurash) jangovar xudosizlar ittifoqi murojaatnoma bilan chiqib, bu tashkilot a‘zolari uchun daftarchalar joriy qilinganligi munosabati bilan shaharlar, rayonlar, sanoat korxonalari, jamoa xo‘jaliklari, tashkilotlar, maktablar va o‘quv yurtlarida ular (xudosizlar) ro‘yxatdan o‘tishlari va dinga qarshi o‘t ochishni kuchaytirishlari topshirilgan edi.

Madaniy inqilob shiori ostida o‘zbek xalqining yuzlab iqtidorli, bilimli, istiqlolchi farzandlari qatag‘on qilindi. Ayniqsa, mash‘um 1937—1953-yillarda sodir etilgan bedodlikni tasavvur etish uchun O‘zbekiston bo‘yicha qariyb 100 ming kishi qatag‘onga uchrab, 13 ming nafari otib tashlanganligini eslash kifoya.

«Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch» kitobida aytilganidek: «Insoniyatning ko‘p ming yillik tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyodagi zo‘ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o‘ziga tobe qilib, bo‘ysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo‘lsa, avvalambor, uni qurolsizlantirishga, ya‘ni eng buyuk boyliklari bo‘lmish milliy qadriyatlarini, tarixi va ma‘naviyatidan judo qilishga urinadi».

**«Shahidlar
xotirasi»**

1999-yili Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan mamlakatimizda mustamlakachilik davri qurbonlari xotirasini abadiylashtirish va «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuyini

barpo etishga qaror qilindi. Qisqa vaqt ichida bu borada ulkan ishlar amalga oshirildi. Milliy mustaqillik, Vatan ravnaqi, yurt ozodligi uchun jonini fido aylagan el o'g'lonlarining qutlug' xotirasiga Toshkent shahrida muaz-zam xiyobon yaratildi. 2000-yil 20-mayda Toshkent shahri markazidan oqib o'tuvchi Bo'zsuv sohilida yodgorlik majmuyining ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

«Alvasti ko'prik» deb sovuq nom olgan, inson qalbiga qo'rquv soladigan bu qarovsiz joyda xalqimizning minglab asl farzandlari otilgan, bekafan, bejanoza, nom-nishonsiz ko'mib tashlangan edi.

Ushbu yodgorlik majmuyining ochilishiga bag'ishlangan marosimda mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, zulm va zo'rvonlikka qurilgan mustabid, beshafqat tuzum davrida o'zligini, millat qadr-qimmatini teran anglagan, ijtimoiy-siyosiy ongi yuksak, xalqni uyg'otishga va boshqarishga qodir bo'lgan, ma'rifat va ma'naviyat yo'lida fidoyilik ko'rsatgan ko'plab aql-zakovat sohiblarining jasadlari mana shu tepalik va jarliklarda nom-nishonsiz qolib ketgan. «Bugun biz, — degan edi I. Karimov, — mo'tabar insonlar siymosida va asrlar davomida yurtimizning chinakam ozodligi uchun qurbon bo'lganlar misolida — ilohim ularning arvohlari shod bo'lsin! — Vatanni ardoqlash, uni yomon ko'zlardan va harakatlardan asrab-avaylash, himoyalash, kerak bo'lsa, ona yurtimiz uchun jonimizni ham fido qilishdek buyuk insoniy fazilatni o'rganmog'imiz lozim».

Dogmatik mafura

Sotsialistik ishlab chiqarishning dogmatik mafkuraga bo'ysundirilishi sovet jamiyatining turg'unligini belgiladi va uni biqiq doirada harakat qiladigan an'anaviy jamiyatga aylantira boshladi. Adabiyot va san'atda bu — sotsialistik realizm deb ataladigan badiiy usulda namoyon bo'ldi.

Mustamlakachilik davrida xalqimizda milliy nomukammallik, kamsitilish tuyg'ularini shakllantirishga zo'r berib urinildi. Shu bois milliy qahramonlarimiz jinoyatchi va

qonxo‘r jallod deb e‘lon qilindi. Milliy g‘ururimiz toptaldi. Chorizm davrida go‘yoki xalqimizning yoppasiga savodxon bo‘lishi uchun 4600 yil kerak ekanligi, Rossiyasiz taraqqiyotga erisha olmasligimiz kabi g‘oyalarni ongimizga singdirishga harakat qildilar.

«KPSS tarixi», «Ilmiy kommunizm nazariyasi», «Ilmiy ateizm» kabi siyosat bilan sug‘orilgan ilmlar oliy o‘quv yurtlari dasturiga kiritilgan. Baynalmilallik bayrog‘i ostida haqiqiy milliyligni asta-sekin yo‘qotib, millatlarning umumiy lashuvi, markazga bo‘ysunuvi targ‘ib qilindi.

Madaniy merosga KPSSning munosabati nafaqat uni mafkuraviy elakdan o‘tkazishda, shuningdek, ilgari arab alifbosidan foydalangan xalqlarning imlosini o‘zgartirishda ham namoyon bo‘ldi. Bulardan shunday xulosa chiqarish mumkin: birinchidan, sobiq Sovet davlati insonga yangi sotsialistik jamiyatni qurishning bir g‘ishti, vositasi deb qaradi. Bu jamiyatni qurishida u har qanday qurbonlardan tap tortmadi.

Esda tuting:

Millat oldida turgan navbatdagi vazifa, istibdod davridan qolgan illatlarni bartaraf qilib, O‘zbekistonning buyuk kelajagini qurishdir.

Istiqlol sharofati

«Istiqlol sharofati bilan ma’naviyat buloqlarining ko‘zi ochildi, — degan edi Islom Karimov, — biz bu buloqning zilol suvlaridan bahramand bo‘la boshladik. Sho‘ro davrida unutilgan qadriyatlarimiz, nomi qoralangan bobokalonlarimizning durdona so‘zlarini biz obi kavsardek ko‘zimizga surtmoqdamiz».

1991-yili dunyoning oltidan bir qismida 70 yildan ortiq davron surib hukmronlik qilib kelgan Sovet imperiyasi ilk bor parchalandi. Tarixiy manbalarga qaraganda, Rossiya

o‘zini 1721-yili rasman Imperiya deb e‘lon qilgan edi. 1917-yilga qadar ijtimoiy-siyosiy tuzum ana shu Rossiya manfaatlari asosida qurilgan va rivojlangan edi. Shuni ham ta‘kidlash joizki, Rossiya va Sovet imperiyasini qo‘shib hisoblaganda qozoqlarning ko‘pchilik qismi 250—270 yil, ukrainlar 200 yildan ortiq, o‘zbeklar, tojiklar, qirg‘izlar, turkmanlar 110—130 yil mobaynida ana shu imperiyalar changalida bo‘ldilar.

Mustaqillik nima? Prezident Islom Karimovning quyidagi so‘zlari bu savolga to‘la javob beradi: «Biz uchun mustaqillik — eng avvalo, o‘z taqdirimizni qo‘limizga olish, o‘zligimizni anglash, milliy qadriyatlarni, urf-odatlarimizni tiklash, hammamiz uchun mo‘tabar shu zaminda har bir xonadonda tinchlik-osoyishtalikni, barqarorlikni saqlashdir». Aziz Vatanimizda adolat, insof, din-u diyonat, mehr-u oqibatni qaror toptirishdir, biz uchun mustaqillik — Allohning o‘zi el-yurtimizga in‘om etgan tabiiy boyliklarga egalik qilish, xalqimiz qudrati, salohiyati, aql-u zakovatiga tayanib, O‘zbekistonda yashayotgan har bir inson, har bir oila uchun munosib hayot qurish, kelajak avlodlar uchun ozod va obod Vatan qoldirishdir.

Biz uchun istiqlol — millatimiz, mamlakatimizning jahonda obro‘-e‘tibori, shon-shavkatini ko‘taradigan sog‘lom avlodni, har jihatdan barkamol va fidoyi o‘g‘il-qizlarni tarbiyalash, ularni voyaga yetkazish va baxtini ko‘rishdir. Har bir fuqaromiz uchun — millat, irqi va diniy e‘tiqodidan qat‘i nazar — erkinlik, tenglik, birodarlik, munosib sharoit yaratib berishdir.

Biz uchun istiqlol — davlatchiligimizni mustahkamlash, buyuk kelajagimizning poydevorini qurish, milliy ongimiz va faxrimizni yuksaltirish, jahon hamjamiyatida munosib o‘rnimizni egallashdir».

Mustaqillikni mustahkamlash Mustaqillikni siyosiy jihatdan mustahkamlash faqat davlat tizimlari va zarur qonunlar majmuasini yaratishdan iborat emas. Buning uchun yangicha ong va umuman

yangicha siyosiy madaniyat ham zarur. Bu siyosiy madaniyat, «Ma'naviyat — millat nishoni» kitobida ta'kidlanishicha, «sovet davridagidan farqli o'laroq, bir tomondan, yuksak axloqqa, vatanparvarlikka, ilg'or milliy va zamonaviy an'analarga, fuqaroviy onglikka tayansa, ikkinchi tomondan, qonunlarga va huquqiy me'yorlar ustuvorligiga, ularning hamma uchun birday majburiyligiga tayanmog'i lozim».

Mustaqillikni iqtisodiy jihatdan mustahkamlash ham, sovet davridagidan farqli o'laroq, yangicha iqtisodiy tafakkurni, bozor munosabatlarini yaxshi o'zlashtirishni, bozor va sog'lom raqobat bilan bog'liq holda yangicha tushuniladigan huquqiy va axloqiy me'yorlarni o'zlashtirishni, o'tmishdan bozor munosabatlariga oid ma'naviy qadriyatlarimiz, madaniy merosimizdan foydalanishni taqozo etadi.

Mustaqillikning ijtimoiy jihatdan mustahkamlanishi ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi mulkiy, iqtisodiy, huquqiy, axloqiy, madaniy, maishiy munosabatlar, turmush tarzining ko'pgina sohalarini — ma'naviy me'yorlar, ta'lim-tarbiya, oila, ilm-fan, adabiyot, san'at kabi xalq ma'naviy hayotining eng nozik va ijodiy sohalarini qamrab oladi.

Mustaqillikni ma'naviy jihatdan mustahkamlash deganda ma'naviy hayot rivojiga ta'sir ko'rsatuvchi barcha nomoddiy omillar, jumladan, davlatning ta'lim-tarbiya, madaniyat, mafkura va targ'ibot-tashviqot sohalarida olib borayotgan siyosati ham nazarda tutiladi.

Mustaqillikning ma'naviy mustahkamligini ta'minlash uchun umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi va vatanparvarlikni kuchaytirish zarur. Demak, buning uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

1. Ijtimoiy ongga oid hodisalar: tushunchalar, g'oyalar, baholar, me'yorlar, omillar doirasida falsafiy ong, axloq, ishonch, estetik ong, huquqiy ong, diniy, yangicha dunyoqarash va uning alohida tarkibiy qismi sifatida milliy istiqloq mafkurasi ta'kidlab ko'rsatilishi kerak. Ongning ikki

darajasi — psixologiya va mafkura ham bir-biridan farqlanishi maqsadga muvofiq.

2. Ma'naviy madaniyat, shu jumladan, madaniy meros. Bu yerda esa siyosiy madaniyat, axloqiy madaniyat, huquqiy madaniyat hamda san'atning muayyan turlari — badiiy, teatr, haykaltaroshlik, rassomlik, naqqoshlik, dizayn, musiqa, kinochilik va shu kabilar alohida ajratilishi mumkin.

3. Ma'naviy funksiyalarni boshqaruvchi ijtimoiy muassasalar. Bunga xalq ta'limi tizimi va turlari (davlat, nodavlat, ilmiy-pedagogik muassasalar, ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari; ta'lim turlari: maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy o'quv yurtlaridan keyingi ta'lim — kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim); ilmiy tadqiqot tizimi (ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari, ilmiy tekshirish institutlari, O'zR Fanlar akademiyasi va shu kabilar); ijodiy uyushmalar (yozuvchilar uyushmasi, rassomlar, kompozitorlar, kinochilar, teatr arboblari va boshqa ijodiy soha xodimlarining turli uyushmalari; matbuot, matbaa va ommaviy axborot tizimi (gazeta-jurnallar, radio va televideniya, noshirlik faoliyati va shu kabilar; tarbiyaning turli tizimlari va tashkilotlari, maskanlari (shu jumladan, diniy tashkilotlar) faoliyati, urf-odatlar, an'analar hamda oilaning tarbiya va ma'naviyatga tegishli jihati kiradi.

Ko'rsatilgan sohalarda ishlarni yanada jonlantirish, uni milliy g'oya asosida tashkil etish, mustaqillikni ma'naviy mustahkamlashning bosh omili hisoblanadi.

Shunga ko'ra, ma'naviy siyosatning konseptual asoslarini yaratishda quyidagi 4 ta asosiy mezonga tayanildi:

- 1) insonparvarlik;
- 2) taraqqiyparvarlik;
- 3) xalqchilik;
- 4) vatanparvarlik va yurt tinchligi.

Aynan shu mezonlar majmuasi yordamida haqiqiy qadriyatlarni soxta qadriyatlardan farqlash mumkin. Shuni ham unutmaslik kerakki, milliy ma'naviyatimizni tiklash

va uni rivojlantirish yangi demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim qonuniyatidir. Busiz jamiyatni barpo etish mumkin emas.

Prezidentimizning «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li», «O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari» risolalarida ma’naviyat o‘z mohiyati bilan kelajak poydevori ekanligi atroflicha asoslab berildi.

Ma’naviyatni mustahkamlash

O‘zbekistonda yangi jamiyat qurish yo‘lida ma’naviyat sohasida quyidagi vazifalar amalga oshirilganligiga e’tibor

bermoq zarur:

1. Ma’naviyat va axloqiylikni qayta tiklash.

2. Xalqimizning milliy madaniyati va o‘ziga xosligini ifoda etuvchi vosita bo‘lmish o‘zbek tilini rivojlantirish, bu tilning davlat maqomini izchil va to‘liq ro‘yobga chiqarish.

3. Hurfikrlilik, vijdon va din erkinligi qoidalarini qaror toptirish.

Islom Karimovning «O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida ikkinchi ustuvor yo‘nalish — jamiyat ma’naviyatini yanada yuksaltirishdan iborat qilib qo‘yildi. Bu borada 2000-yil 22-yanvarda ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning 1-sessiyasida Prezident Islom Karimovning «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot — pirovard maqsadimiz» ma’ruzasida va «Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch» asarida ma’naviyat sohasida asosiy vazifa aniq ko‘rsatib berildi.

Xullas, milliy ma’naviyat va ma’rifatning rivojlanishi tarixining qisqacha tahlili shuni ko‘rsatib turibdiki, u ijobiy ma’noda shakllansa, rivojlansa, quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Milliy ma’naviyat va ma’rifatning birdan-bir maqsadi aholiga bilim berish, ma’naviy qarashini yuksaltirish, ichki ruhiy kechinmalarini boyitish, ular olgan ana shu bilimlarini hayotda qo‘llay olishga o‘rgatish.

2. Odamlarda tegishli ko‘nikma hosil qildirish, ijobiy ijtimoiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish.

3. Sadoqatlilik, vafodorlik, odob va axloqiylik, mehnat-sevarlik, mehmonnavozlik, iymon va e‘tiqod tuyg‘ularini yosh avlod ongiga singdirish.

4. Ta‘lim-tarbiyada oddiydan murakkabga, ma‘lumdan noma‘lumga, umumiydan xususiyga borish, ko‘rgazmalilik va uzluksizlikka amal qilish, ular olgan ana shu bilimlarni tushunarli tilda, hayotiy misollarda hamda zamonaviy usullarda bayon qilish.

5. Ma‘naviy tarbiya vositalari bo‘lgan ibrat, iroda va mehr-muruvvatdan unumli foydalanish. Lekin demokratiyada zid, mustabid tuzum davrida inson ma‘naviyati tubanlashishi va jaholatga yo‘l ochilishi ham mumkin.

O‘zbek xalqi azal-azaldan ma‘naviyat va ma‘rifat tushunchalarini qadrlagan hamda ilmli, ma‘rifatli bo‘lishni targ‘ib qilgan. Vatanimizning gullab-yashnayotganligi, uning jahon hamjamiyatiga yuz tutayotgani, urf-odatlarimizni, qadriyatlarimizni, milliy udumlarimizni qaytadan tiklayotganimiz va bularni davlat siyosati darajasiga ko‘targanimiz bizning ma‘naviyatli xalq ekanimizdan dalolat beradi.

Ma‘naviyatga ichki tahdidlar

Bugungi globallashuv sharoitida, hayot sur‘atlari beqiyos darajada tezlashmoqdaki, bu narsa iqtisod bilan bir qatorda ma‘naviyatga ham tahdid solmoqda. Prezident Islom Karimov «Yuksak ma‘naviyat — yengilmas kuch» asarida bu ichki tahdidlarni batafsil bayon qilgan. Bular quyidagilardan iborat:

1. Xudbinlik, loqaydlik va befarqlik — xalqimizning, millatimizning taraqqiyotiga, gullab-yashnashiga to‘sqinlik qiladigan noma‘qul odatlardir. Prezidentimiz Islom Karimov mashhur faylasufning quyidagi fikrlarini keltiradi: «Befarq odamlardan qo‘rq — ular seni o‘ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli yer yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo‘laveradi».

2. Qarindosh-urug'chilik va mahalliychilik – jamiyat va mamlakat taraqqiyoti uchun eng xavfli noma'qul odatlardan bo'lib, millat ravnaqiga iqtisod va ijtimoiy hayotga ziyon yetkazadi, kadrlar siyosatini barbod qiladi. Afsuski, bu narsa turmushda juda ko'p uchrab turibdi. Prezidentimizning viloyatlarga rahbarlarni tayinlash davridagi nutqlarida bunga o'nlab misollar keltiriladi. Ba'zi yuqori lavozimda o'tirgan rahbarlar ham bu kamchiliklari uchun o'z ishlaridan ozod qilindilar. Ayniqsa, mahalliychilikning o'quvchi va talabalar orasida yoyilmasligi choralarini ko'rish, uning xavfini tushuntirish dolzarb vazifalardan biridir.

3. Korrupsiya va manfaatparastlik – jinoyat olami bilan davlat xodimlarining o'zaro til biriktirishi natijasida kelib chiqadi va mamlakat taraqqiyotiga rahna soladi. Davlatda qonunlar ishlamaydi. Natijada odamlar o'rtasida davlat siyosatiga ishonmaslik fikrlari paydo bo'ladi va jinoyatchi, mafioz to'dalarning qudratiga sajda qilib, ularga sig'inish kuchayadi. Bu esa, davlatni zaiflashtiradi, demokratiya tag-tugi bilan qo'porib tashlanadi, fuqarolar faqat qo'rquv ostida yashaydilar. Prezidentimiz bu illatning tag-zaminini yo'q qilib tashlash uchun barcha choralarni ko'rmoqdalar. Bu illat yildan yilga kamayib bormoqda.

4. Sotqinlik va boshqalarni mensimaslik – ma'naviy hayotga jiddiy xavf soluvchi, ezgulik va haqiqatga sadoqatli bo'lmaslik, jamiyat uchun xavfli bo'lgan noma'qul odat. Prezidentimiz Islom Karimov: «Shaxsan o'zim bu illatdan jirkanaman. Bu illatga chalingan odamni ko'rarga ko'zim yo'q. Bu – sotqinlikdir», deb ta'kidlaydi.

Sotqinlik har qanday yovuzlikni keltirib chiqaradi. Tariximizda ne-ne ulug' zotlar sotqinlik qurboni bo'lganlar. Sotqinlik nafaqat davlatning qudratiga, balki ijtimoiy hayotga ham zarar keltiradigan xavfli odatdir. Sotqinlik natijasida do'stlar ajrashadi, oilalar buziladi, rishtalar zaiflashadi.

Boshqalarni mensimaslik odati barcha qatlamlarda uchraydi. Biroq, mansabdorning bolalari bo'lgan talabalar kambag'alroq oiladan chiqqanlarni mensimaydi. Biron kishi

amalga chiqsa, o'zining do'stlarini ham mensimay qo'yadi. Shuning uchun xalqimizda «odamni sinamoqchi bo'lsang mansab berib ko'r» deb bekorga aytishmaydi. Boshqalarni mensimaslik illati ba'zan yoshlarning sevgi-muhabbatiga ham jiddiy zarar yetkazadi. Xalqimiz bag'ri keng, halol-pok, vijdonli, mehr-oqibatli, el-yurt g'am-u tashvishi bilan yashaydigan kishilarni boshiga ko'taradi.

**Mustaqillikka
otilayotgan o'qlar**

Mustaqilligimizni ko'rolmagan, vatan-furush, muqaddas dinimizni niqob qilib, buzg'unchilik bilan shug'ullanayotgan kimsalar barchamizni hayratga solmay qo'ymaydi. Ular oddiy mehnatkash oilalarni g'am-g'ussaga botirib, onalarning va jaji farzandlarning ko'z yoshlarini daryodek oqizib, begunoh insonlar umriga zomin bo'ldilar.

Eng asosiysi shundaki, yurtimizda bunday fojialar takrorlanmasligi uchun, avvalo, xavfsizlikni va barqarorlikni ta'minlash barchamizning hayotiy ishimiz ekanligini anglashimiz zarur.

Yurtboshimiz «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida barchamizni ogoh bo'lishga da'vat etib: «...eng murakkab savollardan biri shuki, bizdagi barqarorlik va xavfsizlikka tahdid solayotgan muammolarni anglab yetayapimizmi? Xavfsizligimizga tahdid solayotgan muammolarga nimani qarshi qo'ya olamiz? Jamiyatimiz to'xtovsiz va barqaror rivojlanishiga, biz istiqomat qilayotgan mintaqada jo'g'rofiy-siyosiy muvozanat saqlanishiga nimalar kafolat bo'la oladi?» — deb yozgan edi.

Chindan ham, qo'yilgan savollar g'oyat murakkab. Har kim bu masalaga o'z saviyasiga ko'ra yondashishi turgan gap. Lekin eng muhim xulosa shuki, yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga katta e'tibor berishimiz, g'oyaviy bo'shliq bo'lmasligini ta'minlashimiz, kishilar, ayniqsa, yoshlar ongiga o'z xalqining qoni evaziga siyosiy shuhratparastlikdan, boylik orttirishdan ham toymaydiganlar diniy murosasizlik, millatchilik, separatizm, fashizm, ekstremizm kabi «g'oya»

va «g'oyacha»lar bilan ta'sir etishiga yo'l qo'ymasligimiz lozim. Ular o'zlarining manfur niyatlarini qanday amalga oshirishlarini hammamiz 1999-yil 16-fevralda Toshkent shahrida, 2000-yil kuzida Uzun va Sariosiyo tumanlarida, 2004-yil bahorida Toshkent shahri, Toshkent viloyati va Buxoro viloyatida, shu yil iyul oyi oxirida Toshkentda, 2005-yil Andijonda sodir bo'lgan voqealarda ko'rdik. Bunday fojialarning qaytarilmasligi uchun hammamiz bor imkoniyatlarimizdan foydalanishimiz, qo'ldan kelguncha harakat qilishimiz lozim.

Chunki mustaqillik — bu nafosat, ozodlik va suverenlik. Mustaqillik — bu hurriyat, milliy davlatchilik, ozod va obod Vatan. Mustaqillik — bu jamiyatimizning, xalqimizning emin-erkin yashnab yashashi, ijod qilishi, ishlashi. Mustaqillik — har bir insonning shu vatanda kamol topib, o'zini to'la namoyon qila olishi. Mustaqillik — bu asriy orzuyimiz. Mustaqillik — avlodlarimizning asrlardan buyon tashna bo'lib kelgan istiqboli va istiqlolidir.

**Muqaddas
burch**

Endilikda mustaqillik shunday bir oliy ne'mat ekan-ku, deb qo'l qovushtirib o'tirish emas, balki uni himoya qilishimiz, asrab-avaylashimiz, yanada rivojlantirib, madaniyatning eng taraqqiy qilgan nuqtasiga yetkazishimiz lozim.

Savobni har kim qilishi kerak, savobni har kuni qilish kerak, deganlaridek, mustaqilligimizni har bir fuqaro mustahkamlashi va rivojlantirishi, uni har kuni mustahkamlash va rivojlantirish darkor. Zotan, biz nafaqat ozod va obod, kelajagi buyuk Vatanda yashamog'imiz, balki Ozod va Obod Vatanni yaratmog'imiz, uni bizni ko'ra olmaydigan turli xil tashqi va ichki yovuz kuchlardan himoya qilishimiz, farzandlarimizga, kelajak avlodga o'zimizdan Ozod va Obod Vatanni meros qoldirmog'imiz darkor.

Buning uchun hozirgi globallashuv jarayonida o'zligimizdan judo qilishga, xalqimiz orasiga parokandalik solib, yoshlarimizni hissiz manqurtga aylantirishga, mehr-muruvvatdan, hayodan behavra qilishga, oqibatda vatandan ko'ra

boylikni, iymondan ko'ra yovuzlikni afzal biladigan hissiz, milliy g'urursiz kosmopolitlarga aylantirishga harakat qilayotgan turli xil ma'naviy tajovuzlardan, missionerlardan himoya qilishimiz lozim. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» kitobida keltirilgan «Globalashuv jarayonining yana bir o'ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog'lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta, kuzatishi muqarrar... bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega».

Demak, qisqacha xulosa qilib shuni aytish kerakki, hozirgi globalashuv sharoitida ilmiy tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, yuksak ma'naviyat va qudratli milliy g'oyaga e'tiqod taraqqiyotning asosiy vositalaridan biri bo'lib qolmoqda. Chunki rivojlanishning mohiyati, uning sur'ati jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida insonlarning ma'naviy kamoloti darajasiga bog'liq bo'lgan. Qayerda ma'naviy rivojlanish yuksak bo'lib, ma'rifiy-tarbiyaviy ishlar oqilona yo'lga qo'yilgan bo'lsa, shu yerda jamiyat ijtimoiy adolat mezonlari asosida tez taraqqiy qilganligi tarixdan ma'lum. Biz qurayotgan demokratik-huquqiy davlatning uch muhim tomoni bor. Bu – iqtisodiyot, siyosat va ma'naviyat. Shu uch omil qanchalik mustahkam va o'zaro kuchli dialektik aloqada bo'lsa, kelajagimiz ravnaqi ham shunchalik ishonchli bo'ladi. Jamiyat tez rivoj topadi.

Yuksak ma'naviy burchlar kecha yoki bugun o'ylab topilgan emas. Ular insoniyatning necha-necha asrlik hayotiy tajribasi davomida yuzaga kelgan. Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, o'giti bilan singib kelgan.

Mustaqillikdan keyin ma'naviyat, iqtisod va siyosat sohasining barcha hayotiy masalalari o'zaro bog'liqligini hisobga olib, xalqimiz ruhiyati, turmush tarzi, urf-odati va an'alariga mos ravishda har tomonlama o'ylangan islohotlar amalga oshirildi va uni butun dunyo tan oldi.

Mamlakatimiz oldida juda buyuk vazifalar turibdi. Prezidentimiz aytganidek:

«Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo‘lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma‘naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat‘iyat va mas‘uliyatimizni yo‘qotsak, bu o‘ta muhim ishni o‘z holiga, o‘zibo‘lar-chilikka tahlab qo‘yadigan bo‘lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo‘g‘rilgan va ulardan oziqlangan ma‘naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o‘zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo‘lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin».

Xalqimizning birligi, jipsligi, ongliligi, birdamligi, o‘zaro yordami, ittifoqi, vatan manfaati yo‘lida fidoyiligi har qachongidan ham zarur.

TAYANCH SO‘Z VA IBORALAR

Mustaqillik uchun kurash, mustaqillikni mustahkamlash, arosatga solish, mustamlakachilik, mustamlakachilik mafkurasi, M. D. Skobelev, bolshheviklarning bosqinchilik siyosati, «Shahidlar xotirasi» dogmatik mafkura, Istiqlol sharofati, ma‘naviyatni mustahkamlash, mustaqillikka otilayotgan o‘qlar, mustaqillikni mustahkamlash — muqaddas burch.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Mustaqillik uchun kurashganlar kimlar?
2. Millat va milliy o‘zlikni anglash munosabatlarini qanday tushunasiz?
3. Millatlarni arosatga solish usullari qanday?
4. O‘zbekiston mustamlakachilik istibdodi ostida.
5. Milliy o‘zlikni anglashning mohiyatini izohlang.
6. «Shahidlar xotirasi» haqida nimalarni bilasiz?
7. Mustaqillikni mustahkamlashni qanday tushunasiz?
8. Demokratiya va soxta demokratiya tushunchasining mazmuni va mohiyatini izohlang.
9. Muqaddas burch nima?

TOPSHIRIQ

«Mustaqillik bergan baxt» mavzusida insho yozib, tanlov o‘tkazing.

FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILUVCHI ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qur’oni Karim (Abdulazim Mansur tarjimasini). –T.: «Cho’lpon», 1992.
2. *Imom Buxoriy*. Hadis (Jome’ as-sahih). –T.: Qomuslar Bosh tahririyati. 1991–1997.
3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: «O‘zbekiston», 2007.
4. *Karimov I.* Istiqlol va ma’naviyat. –T.: «O‘zbekiston», 1994.
5. *Karimov I.* O‘zbekistonning o‘z istiqloq va taraqqiyot yo‘li. 1-jild. –T.: «O‘zbekiston», 1996.
6. *Karimov I.* Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. –T.: «O‘zbekiston», 1996.
7. *Karimov I.* Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. –T.: «O‘zbekiston», 1996.
8. *Karimov I.* Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili. 4-jild. –T.: «O‘zbekiston», 1996.
9. *Karimov I.* Yuksak ma’naviyatsiz kelajak yo‘q. 5-jild. –T.: «O‘zbekiston», 1997.
10. *Karimov I.* O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: «O‘zbekiston», 1997.
11. *Karimov I.* Amir Temur — faxrimiz, g‘ururimiz. 5-jild. –T.: «O‘zbekiston», 1997.
12. *Karimov I.* Iqtisodiyot va ma’naviyat ajralmasdir. 6-jild. –T.: «O‘zbekiston», 1998.
13. *Karimov I.* Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. 4-jild. –T.: «O‘zbekiston», 1998.
14. *Karimov I.* Ma’naviy yuksalish yo‘lida. –T.: «O‘zbekiston», 1998.

15. *Karimov I.* O‘zbekiston buyuk kelajak sari. –T.: «O‘zbekiston», 1998.
16. *Karimov I.* Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. 7-jild. –T.: «O‘zbekiston», 1999.
17. *Karimov I.* Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. 7-jild. –T.: «O‘zbekiston», 1999.
18. *Karimov I.* Alloh qalbimizda, yuragimizda. 7-jild. –T.: «O‘zbekiston», 1999.
19. *Karimov I.* Yuksak ma’naviyat – jamiyat taraqqiyotining asosi. 7-jild. –T.: «O‘zbekiston», 1999.
20. *Karimov I.* O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. –T.: «O‘zbekiston», 1999.
21. *Karimov I.* Milliy istiqlol mafkurasi xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. 8-jild. –T.: «O‘zbekiston», 2000.
22. *Karimov I.* Xushyorlikka da’vat. 8-jild. –T.: «O‘zbekiston», 2000.
23. *Karimov I.* Milliy mafkura – davlatimiz va jamiyatimiz qurilishida biz uchun ruhiy-ma’naviy kuch-qudrat manbayi. 8-jild. –T.: «O‘zbekiston», 2000.
24. *Karimov I.* Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot — pirovard maqsadimiz. 8-jild. –T.: «O‘zbekiston», 2000.
25. *Karimov I.* Vatan ravnaqi yo‘lida har birimiz mas’ulmiz. 9-jild. –T.: «O‘zbekiston», 2001.
26. *Karimov I.* Iqtisodiyotni erkinlashtirish — farovonlik poydevori. 9-jild. –T.: «O‘zbekiston», 2001.
27. *Karimov I.* Qoraqalpoq diyorining salohiyatini ro‘yobga chiqarish, odamlar hayotini yanada yaxshilash — dolzarb vazifa. 10-jild. –T.: «O‘zbekiston», 2002.
28. *Karimov I.* Biz tanlagan yo‘l — demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. 11-jild. –T.: «O‘zbekiston», 2003.
29. *Karimov I.* Jismoniy va ma’naviy yetuk avlodni tarbiyalash — bosh maqsadimiz. 12-jild. –T.: «O‘zbekiston», 2004.
30. *Karimov I.* Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o‘z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjuhatligi va bukilmaz irodasiga bog‘liq. 12-jild. –T.: «O‘zbekiston», 2004.
31. *Karimov I.* O‘zbekiston xalqiga Navro‘z tabrigi. 13-jild. –T.: «O‘zbekiston», 2005.

32. *Karimov I.* O‘zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo‘lmaydi. 13-jild. –T.: «O‘zbekiston», 2005.

33. *Karimov I.* Bizni tanlagan yo‘limizdan hech kim qaytarolmaydi. 13-jild. –T.: «O‘zbekiston», 2005.

34. *Karimov I.* Xavfsizlik va barqarorlikni saqlash, xalqlarimiz farovonligini oshirish – eng muhim va ustuvor masala. 14-jild. –T.: «O‘zbekiston», 2006.

35. *Karimov I.* Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. 14-jild. –T.: «O‘zbekiston», 2006.

36. *Karimov I.* Inson xotirasi – muqaddas, inson qadri – ulug‘. 14-jild. –T.: «O‘zbekiston», 2006.

37. *Karimov I.* Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oliy qadriyat. 14-jild. –T.: «O‘zbekiston», 2006.

38. *Karimov I.* Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma’naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. 15-jild. –T.: «O‘zbekiston», 2007.

39. *Karimov I.* O‘z hayotimizni Vatan istiqboli, farovon kelajak uchun bag‘ishlab yashash insoniy va fuqarolik burchimizdir. 16-jild. –T.: «O‘zbekiston», 2008.

40. *Karimov I.* Asosiy maqsadimiz — yurtimizda erkin hayot barpo etish yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirishdir. 16-jild. –T.: «O‘zbekiston», 2008.

41. *Karimov I.* Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma’naviyat», 2008.

42. Ma’naviy yuksalish yo‘lida. –T.: «Ma’naviyat», 2008.

43. Ma’naviyat va ma’rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. –T.: 1996.

44. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi qonunning yangi tahriri. –T.: 1998.

45. Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. 2006-yil 25-avgust. «O‘zbekiston ovozi», 2006-yil 26-avgust.

46. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. «Yoshlar yili» Davlat dasturi to‘g‘risida. «Xalq so‘zi», 2008, 1-mart. BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. –T.: «Adolat», 1998.

47. *Abu Nasr Forobiy*. Fozil odamlar shahri. –T.: 1993.
48. *Abu Xamid al-G‘azzoliy*. Kimyoi saodat. –T.: 2005.
49. «Avesto» –T.: «Sharq», 2001 (Asqar Mahkam tarjimai).
50. *Alisher Navoiy*. Xamsa. –T.: 1960.
51. *Alisher Navoiy*. Mukammal asarlar to‘plami. 1–20 jildlar. –T.: 1987–2000.
52. *Abdulla Avloniy*. Turkiy guliston yoxud axloq. –T.: «O‘qituvchi», 1982.
53. *Behbudiy*. Tanlangan asarlar. –T.: 1999.
54. *Ibrohimov A., Sultonov X., Jo‘rayev N.* Vatan tuyg‘usi. –T.: «O‘zbekiston», 1996.
55. *Jumayev R.* Davlat va jamiyat. –T.: «Sharq», 1998.
56. Inson huquqlari. –T.: 1997.
57. *Ziyoyev X.* Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. –T.: 1998.
58. *Ziyoyev X.* Istiqlol – ma‘naviyat negizi. –T.: «Ma‘naviyat», 1999.
59. *Imomnazarov M.* Milliy ma‘naviyatimiz asoslari. –T.: O‘FMJ nashriyoti. 2006.
60. *Karamatov H.* Xo‘rlangan payg‘ambarlar g‘alabasi. –T.: 1998.
61. *Komilov N.* Tafakkur karvonlari. –T.: 1999.
62. *Конрад Н.* Запад и Восток –M.: 1972.
63. *Lafasov M.* Ekstremizm, terrorism tarixi va mohiyati. –T.: «Iqtisod-moliya», 2008.
64. *Lafasov M., Ishquvvatov V.* Jadidlarning ma‘rifatchilik harakati. –T.: «Iqtisod-moliya», 2008.
65. «Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar» qisqa izohli tajribaviy lug‘at. –T.: «Yangi asr avlodi», 2002.
66. *Murodov M.* O‘zbek qadriyatlari. –T.: «Cho‘lpon», 1995.
67. Ma‘naviy kamolot omillari. –T.: 1995.
68. Ma‘naviyat yulduzlari. –T.: 1999.
69. Mashriqzamin – hikmat bo‘stoni. –T.: «Sharq», 2008.
70. Ma‘naviyat – mas‘ullik (1-kitob), –T.: 1997.
71. Ma‘naviyatning oydin yo‘li (2-kitob), –T.: 1997.
72. Ma‘naviyat va komillik (3-kitob), –T.: 1997.
73. Ma‘naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. –T.: G‘.G‘ulom nashriyoti, 2009.

74. *Musurmonova O.* Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. –T.: 1996.
75. *Musurmonova O.* Oila ma'naviyati – milliy g'urur. –T.: «O'qituvchi», 2000.
76. Nizomulmuluk. Siyosatnoma yoki siyar-ul-muluk. –T.: 1997.
77. *Rajabova M.* Diniy ekstremizm va terrorchilik. –T.: 2000.
78. *Sulaymonova F.* Sharq va G'arb. –T.: 1997.
79. *Xo'jamurodov I.* Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglash. –T.: 1991.
80. *Shayxova X., Nazarov Q.* Umuminsoniy qadriyatlar va ma'naviy kamolot. –T.: 1992.
81. *Qosimov B.* Milliy uyg'onish. –T.: «Ma'naviyat», 2002.
82. *G'aybulloh as-Salom.* Ezgulikka chog'lan odamzod. –T.: 1997.
83. *Erkayev A.* Ma'naviyat – millat nishoni. –T.: 1997.

MUNDARIJA

Kirish	3
--------------	---

I bob. Ma'naviyatning rivojlanishi va uning jamiyat iqtisodiy, siyosiy hayotidagi o'rni

1-§. «Ma'naviyat asoslari» fanining predmeti, ta'rifi hamda tarkibiy qismlari	7
2-§. Ma'naviy meros, qadriyatlar, ularning shakllari va o'zaro munosabati	22
3-§. Amaliy mashg'ulot. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar va ularning o'zaro munosabati	36
4-§. Din va ma'naviyat. Islom dinida ma'naviy barkamol inson masalasi	52
5-§. Temuriylar davri ma'naviyati	70
6-§. Ma'naviyat va iqtisodiyot, ularning o'zaro munosabati hamda jamiyat hayotida tutgan o'rni	87
7-§. Jamiyatning siyosiy hayoti, mafkura va ma'naviyat	97
8-§. Amaliy mashg'ulot. Globallashuv jarayonlari va ma'naviy tahdidlar	113

II bob. Ma'naviyatning tabiat bilan aloqasi va jamiyat ijtimoiy-ma'rifiy hayotidagi roli

9-§. Tabiatni asrash — inson ma'naviyatining muhim belgisi	128
10-§. Ma'naviyat va ma'rifat. Bilim olish hamda kasb-hunar egallash — ma'naviy yuksaklik belgisi	143

11-§. Amaliy mashg'ulot. Jadidchilik va jadidlarning ilm-ma'rifat yo'lidagi harakatlari	165
12-§. Oila ma'naviyati va mahalla muhiti — milliy taraqqiyotimiz kafolatlari	183
13-§. Amaliy mashg'ulot. Oila va jamiyatning o'zaro ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy munosabatlari	198
14-§. Insonparvarlik, vatanparvarlik va tinchliksevarlik — shaxs ma'naviyatining ajralmas qismi	213
15-§. Shaxs ma'naviyatining zohiriy (tashqi) va botiniy (ichki) alomatlari, ularning nafosat bilan munosabati	235
16-§. Marosimlar — xalq va shaxs ma'naviyati ko'zgusi	247
17-§. Mustaqillikni mustahkamlash — har bir fuqaroning burchi	262

*Nosirxo‘jayev Sobit Hoshimovich,
Lafasov Moyli Fozilovich,
A‘zamxo‘jayeva Saida*

MA‘NAVIYAT ASOSLARI

*Akademik litsey va kasb-hunar
kollejlari uchun darslik*

To‘ldirilgan va qayta ishlangan nashr

«TURON-IQBOL» MCHJ, 2016

Muharrir *A. Mansurova*
Badiiy muharrir *E. Muratov*
Texnik muharrir *T. Smirnova*
Musahhihlar *S. Abdunabiyeva*
S. Alimboyeva

Nashriyot lits. AI №223, 16.11.2012
Bosishga 02.09.2016 da ruxsat etildi. Bichimi 60×90^{1/16}
«Tayms» garniturasida ofset bosma usulida bosildi.
Shartli b.t. 18,0 + 1,0 rangli vkleyka.

Nashr t. 16,10. Jami 4189 nusxa. 532-raqamli buyurtma.

«NISO POLIGRAF» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent viloyati, O‘rta Chirchiq tumani, «Oq-Ota» QFY,
Mash‘al mahallasi, Markaziy ko‘chasi, 1-uy.

UO'K: 94(4/9)
KBK 71.04
N 80

Nosirxo'jayev S. H.

N 80 **Ma'naviyat asoslari:** Akad. litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik/S.H.Nosirxo'jayev, M.F. Lafasov, S.A. A'zamxo'jayeva; Mas'ul muharrir Q. Xonazarov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. — T.: «Turon-Iqbol», 2016. — 288 b.

I. Lafasov M.F. II. A'zamxojoyeva S.A.

UO'K: 94(4/9)
KBK 71.04 я 722